

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Toshkent Moliya instituti

**Q.USMONOV, M.SODIQOV, B.KARIMOV,
Z.BOZOROV, F.ADILOV, S.TO‘LAGANOVA,
S.BURXONOVA**

MADANIYATSHUNOSLIK

O‘quv qo‘llanma

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2008**

Usmonov Q., Sodiqov M., Karimov B., Bozorov Z., Adilov F., To‘laganova S., Burxonova S. Madaniyatshunoslik. O‘quv qo‘llanma.– T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. 170 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada Madaniyatshunoslik fani predmeti, metodologik asoslari va barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Unda qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha davrda jahon xalqlari madaniyati taraqqiyoti, mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy tiklanish jarayoni va madaniyat ravnaqi masalalari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2006-yil 15-iyul 7-son majlis bayoni).

**Mualliflar jamoasi rahbari
va mas’ul muharrir:**

t.f.d., prof . Q.Usmonov

Taqrizchilar:

f.f.d., prof. N.Mamatov
f.f.d. Z.Davronov

KIRISH

Madaniyatshunoslik fani O‘zbekistonning davlat mustaqilligi qo‘lga kiritilgandan keyin respublikamiz Oliy o‘quv yurtlarida alohida fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

Madaniyatshunoslik fanining predmeti va tadqiqot obyekti insoniyatning bir necha ming yillar davomidagi madaniy faoliyati, madaniyat taraqqiyoti tarixi va nazariyasini o‘rganishdan iborat. Qo‘lingizdagi o‘quv qo‘llanma “Madaniyatshunoslik” fanining predmeti, mazmun-mohiyati, metodologik asoslari, ijtimoiy vazifalari ochib berilgan. Uni o‘qish jarayonida moddiy madaniyat, ma’naviy madaniyat, sivilizatsiya, qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy-madaniy meros tushunchalarining ma’no-mazmunini bilib olasiz.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada Qadimgi Sharq madaniyati, antik davr va o‘rta asrlar Yevropa madaniyati, Sharq Uyg‘onish davri madaniyati, Yevropa Uyg‘onish davri madaniyati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni yoritilgan. Unda Bag‘dod Ma‘mun akademiyasi, Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Ulug‘bek akademiyasi, Yevropa mamlakatlarida tashkil topgan universitetlarning faoliyati, ularning ilm-fan, madaniyat, ma‘rifat taraqqiyotidagi o‘rni, jahonshumul ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, XIX asr oxirida sodir bo‘lgan sanoat to‘ntarilishi, XX asr ikkinchi yarmida yuz bergan ilmiy-texnika inqilobi, kibernetika, kosmonavtika, axborot texnologiyalari rivoji, ularning insoniyat hayotidagi o‘rni kabi masalalar yoritilgan.

Madaniyatshunoslik fani yangicha fikrlashni, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi fan sifatida O‘zbekistonning milliy tiklanishida, ta’lim-tarbiya tizimida muhim rol o‘ynaydi.

Biz o‘tmish ajdodlarimizdan qabul qilib olgan madaniy-ma’naviy merosni o‘z tajribalarimiz bilan to‘ldirib, rivojlantirib boramiz va kelajak avlodlarga meros qilib qoldiramiz. Bu uzluksiz umumbashariy ahamiyatga molik jarayon. Hozirgi murakkab dunyoda inson, uning hayoti, ezgulik, mehr va muruvvat, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, tinchlik, do‘stlik, baxt-saodat, vatanparvarlik kabi eng oliy umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz zarur. Shu o‘rinda Prezident Islom Karimovning: «Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma’naviyat qutqaradi» degan so‘zlarini doimo yodda tutishimiz lozim.

1-mavzu. Madaniyatshunoslik fani predmeti, metodologik asoslari va barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati

Reja

1. Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o'rganishning metodologik asoslari.
2. Madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va vazifalari.
3. Madaniyat va sivilizatsiya.

Tayanch so'z va iboralar

Madaniyatshunoslik predmeti. Mentalitet. Dialektik metod. Sistemali yondashuv metodi. Tarixiylik metodi. Madaniyat tushunchasi. Moddiy madaniyat. Ma'naviy madaniyat. Madaniyatning vazifalari. Sivilizatsiya.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. –T.: “O'zbekiston”, 1996, 76-85-betlar.

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7. –T.: “O'zbekiston”, 1999, 132-154-betlar.

Karimov I.A. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida so'zlangan nutq. T.7. – T.: “O'zbekiston”, 1999, 193-206-betlar.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.7. –T.: “O'zbekiston”, 1999, 370-375, 381-betlar.

Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. –T.: “O'zbekiston”, 2000, 489-508-betlar.

Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.: “O'zbekiston”, 2000, 341-343-betlar.

Ахмедова Э., Габидуллин Р. Культурология. –Т., 2001.

Есин А.Б. Введение в культурологию: Основные понятия культурологи в систематическом изложении. –М., 1999, стр. 5-61.

Usmonov Q. v.b. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: - “IQTISOD-MOLIYA”, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

Boboyev H. v. b. Madaniyatshunoslik. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001, 6-42, 109-116-betlar.

Гуревич П. Культурология. –М., 2000.

1.1. Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o'rganishning metodologik asoslari

Madaniyatshunoslik eng yosh fan hisoblanadi. U asosan XX asr ikkinchi yarmida ijtimoiy muammolarni yechishda madaniyatning ta'sirini ko'tarishga, ta'lim-tarbiya ishlarini insonparvarlashtirishga, ehtiyojning kuchayishi natijasida mustaqil fan sifatida shakllandi. G'arb mamlakatlari Oliy o'quv yurtlarida Madaniyatshunoslik fani o'qitila boshlandi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida madaniyatshunoslikka soxta fan deb qaraldi, unga yetarli e'tibor berilmadi, ta'lim muassasalarida o'qitilmadi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgandan keyin madaniyatshunoslik fani respublika Oliy o'quv yurtlarida alohida fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yildi.

Xo'sh, madaniyatshunoslik qanday fan?

Madaniyatshunoslik fanining **predmeti** inson faoliyati, insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlari sivilizatsiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi, madaniyatlararo muloqot kabi dolzarb masalasidir. Madaniyatshunoslik fani insoniyatga xos madaniy jarayonni, uning mazmunmohiyati va ahamiyatini tahlil qiladigan, madaniyat taraqqiyotining umumiy qonunlarini o'rganadigan gumanitar fandır.

Madaniyatshunoslik fani, **birinchidan**, insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy turmush tarzidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi madaniy jarayonni butunligicha, yaxlit idrok etishga, madaniyat taraqqiyoti haqida barcha fanlar tomonidan to'plangan bilim va tushunchalarni integratsiyalashga ko'maklashuvchi fandır.

Ikkinchidan, madaniyatshunoslik madaniyatni murakkab va dinamik hodisa, o'ziga xos fenomen, sistema sifatida o'rganuvchi fandır.

Uchinchidan, insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga xos madaniy jarayonni, insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy-madaniy yutuqlarni taqqoslash, solishtirish orqali eng umumiy madaniyatshunoslik qonunlarini aniqlovchi fandır.

To'rtinchidan, hozirgi zamonda jahonda kechayotgan globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqot, milliy madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar haqida talabalarda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishga yo'naltirilgan fandır. Madaniyatshunoslik fani boshqa gumanitar fanlar bilan bevosita bog'liq holda o'rganiladi.

Madaniyatshunoslik gumanitar fan sifatida falsafa fani bilan yaqin aloqadordir. Falsafa fanining asosiy masalasi ruh yoki materiya birlamchimi degan masala emas, balki insoniyat hayotining ma'no-mazmuni

masalasi. Aynan bu masala bilan madaniyatshunoslik fani ham shug'ullanadi. Falsafa fani olamda insonning o'rni, jamiyat taraqqiyoti haqida mulohaza yuritadi, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlarini tadqiq qiladi. Bu masalalarni tadqiq qilish u yoki bu darajada madaniyatshunoslikka ham xosdir. Falsafa fanining vujudga kelishi va rivojlanishining o'zi madaniyat taraqqiyotining mahsulidir.

Madaniyatshunoslik sotsiologiya fani bilan ham yaqin aloqadordir. Negaki, sotsiologiyaning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti, jamiyatda kishilarning mavqeyi haqida to'plagan ma'lumotlaridan madaniyatshunoslik fanida foydalaniladi. Umumnazariy xulosalar chiqarishda sotsiologik materiallar dalil sifatida xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik fani Politologiya (siyosatshunoslik) fanining davlat qurilishi va tuzilishi, siyosiy rejimning turlari va xususiyatlari, jamiyatni siyosiy boshqarish usullari haqidagi ma'lumotlariga asoslanadi, ularga tayanib davlat boshqaruvi, siyosiy madaniyat haqida umumiy nazariy xulosalar chiqaradi.

Madaniyatshunoslik fani insonning ichki dunyosi haqida fikr yuritishda psixologiya fani yutuqlaridan, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy madaniy mentalitetlarni tasvirlashda etnografiya fani ma'lumotlariga asoslanadi.

Madaniyatshunoslik fani tarix fani bilan bevosita bog'liqdir. Madaniyatshunos jahon xalqlari tarixini yaxshi bilmog'i zarur. Busiz insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan tarixiy madaniyat turklarini, ularning xususiyatlarini, u yoki bu davrga xos madaniy mentalitetni tasvirlay olmaydi. Insoniyatning shakllanishi va taraqqiyoti haqidagi tarixiy faktlar, voqea-hodisalarni bilish, madaniyatning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni to'g'risida nazariy xulosalar qilishga, madaniy taraqqiyotga xos qonunlar chiqarishga ko'maklashadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, madaniyat tarixi madaniyatshunoslik fanining tarkibiy qismidir. Shuningdek, madaniyatshunoslik fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan ham yaqindan aloqadadir.

Madaniyatshunoslik fani boshqa gumanitar fanlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Madaniyatshunoslik fanini tadqiqot obyekti turli xalqlarning ko'p asrlik madaniy hayoti, o'ziga xos jihatlari va umumiy ildizlarini, Sharq va G'arb madaniyatining taraqqiyot bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari va mushtarakligini, milliy va mintaqaviy madaniyatning jahon madaniyati ravnaqiga ta'sirini, madaniyatning tarkibiy tuzilishi, madaniyatlararo muloqot muammolari, ularning insoniyat hayotidagi rolini o'rganishdan iborat.

Madaniyatshunoslik fani turli darajalardagi milliy mintaqaviy va jahon madaniyatiga, uning alohida shaxslardan to butun insoniyatgacha bo'lgan turli xil obyektlariga tadbiqan qo'llash mumkin bo'lgan eng umumiy madaniyatshunoslik qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatshunoslik fanining predmeti, uning tadqiqot obyekti insoniyatning asrlar davomidagi madaniy faoliyati, jahon xalqlarining madaniy taraqqiyot yutuqlarini, ularning rang-barangligi va ma'no-mazmunini, madaniyatlararo muloqot masalalarini o'rganishdan iborat.

Madaniyatshunoslik fani tadqiqot olib borishda bir qator metodologik tamoyillarga tayanadi. Dialektik metod madaniyatshunoslikning muhim metodi bo'lib, insoniyatning madaniy hayotini, ming yillar davomida insonlar yaratgan moddiy va ma'naviy yutuqlarni yaxlit, umumiy va o'zaro bog'liq holda o'rganishga imkon beradi. Dialektik metod biron-bir mamlakat yoki mintaqada kechgan madaniy jarayonni, jumladan O'zbekiston xalqining asrlar davomida shakllangan madaniyatini jahon xalqlari madaniyati rivoji bilan uzviy bog'liq holda o'rganish, tadqiq qilishga ko'maklashadi va madaniy taraqqiyotga xos umumiy madaniyatshunoslik qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik fani obyektini o'rganishda ilmiy bilishning *tizimli (sistemali) yondashuv metodiga* tayanadi. Sistemali yondashuv bo'laklarni butun orqali, butunni uning bo'laklari orqali tahlil etish, o'rganishni taqozo etadi. Bu metod madaniyat tarkibiga kiruvchi til, din, huquq, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, adabiyot, san'at va hokazo bo'laklar orqali butun jamiyat taraqqiyoti to'g'risida umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga, jamiyat taraqqiyoti orqali esa madaniyat tarkibiga kiruvchi bo'laklarni tahlil qilishga imkon beradi.

Madaniyatshunoslik fani o'z tadqiqotlarida *tarixiylik metodiga* asoslanadi. Tarixiylik metodi madaniyatga davriy nuqtayi nazardan o'zgarib, yangilanib, rivojlanib, boyib boruvchi jarayon sifatida qaraydi. Tarixiylik metodi har bir xalq madaniyatini, har bir davr madaniyatini o'z davri nuqtayi nazardan baholashni, hozirgi madaniy hayotni va erishilgan yutuqlarni o'tgan zamon madaniyatiga taqqoslab tasavvur qilish, tasvirlashni talab qiladi.

Madaniyat barcha mamlakatlarda bir tekisda rivojlanuvchi jarayon emas. Turli xalqlarning turmush tarzi, mentaliteti¹, madaniy ongi, tili, tafakkuri bir-biridan farq qilishi tabiiy. Shu boisdan madaniyatshunos ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan tahlil qilishi, ma'no mazmunining

¹ Mentalitet (lotincha mentalis – aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyati. Millatning mentaliteti o'ziga xos tarixiy an'analar, urf-odatlar, diniy e'tiqodi, yashab turgan tarixiy makoni, shart-sharoitlari, ijtimoiy faolligi va boshqa omillar bilan bog'liq holda izohlanadi.

magʻziga tushunib yetishga intilmogʻi lozim. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar taʼsirida madaniyat taraqqiyotida inqirozli yoki sakrash holatlari ham yuz berib turadi. Bunday holatlarni tahlil qilishda iqtisodiy, sotsiologik, statistik va bilishning boshqa ilmiy metodlardan ham foydalaniladi.

Madaniyatshunoslik fani oʻz predmetini oʻrganishda tadqiqotchidan *oʻz idroki, ichki sezgilari bilan his qilish* orqali haqiqatni anglashni ham talab qiladi. Bu tamoyil turli xil madaniyat sohalariga chuqurroq kirishga, dalil-u ashyolar yordamida isbotlarsiz bevosita ichki sezgilar, mushohada orqali haqiqatni bilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, madaniyatshunoslikda madaniyatning moddiy va maʼnaviy unsurlarini talqin qilish, turli davrlarga xos yozuv matnlarini *sharhlash, izohlab berish, tushuntirish (Germenevtika)* usulidan ham foydalaniladi.

Xullas, madaniyatshunoslik boshqa fanlar singari ilmiylik, xolislik, haqqoniylik talablariga javob beruvchi bilishning aniq metodlariga tayangan holda tadqiqot yuritadi.

Madaniyatshunoslik fanini oʻrganishning zaruriyati shundaki, insoniyat jamiyat taraqqiyotiga faqat siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, huquqiy tadbirlar bilan erishib boʻlmaydi, shular bilan bir qatorda jamiyat maʼnaviy-madaniy hayotini ham yuksaltirishga erishmogʻi zarur boʻladi. «Maʼnaviyat yoʻq joyda, – degan edi Prezident Islom Karimov, – hech qachon baxt-saodat boʻlmaydi».

1.2. Madaniyat tushunchasi, tarkibiy qismlari va vazifalari

Madaniyatshunoslik fanini oʻrganishda madaniyat soʻzining maʼnomazmunini bilish, idrok qila olish muhim oʻringa ega. Madaniyat soʻzi arabcha madina (shahar) soʻzidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy (sahroyi) turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Madaniylik shaharda oʻtroq holda yashab, oʻziga xos turmush tarziga ega boʻlgan aholiga, masalan, Madina shahrida yashaganlarga nisbatan ishlatilgan. Madina – toʻliq arabcha nomi Madinat-Rasulilloh, yaʼni paygʻambar shahri hisoblanib, obodonchiligi, koʻrkamligi bilan Arabistondagi aholi yashaydigan boshqa manzilgohlardan ajralib turar edi. Shuningdek, Madina Makkadan keyin musulmonlar ibodat qiladigan eng yirik shahar edi. Shu tariqa madaniyat soʻzi bizning oʻlkamizga Madina shahri nomi bilan, islom dini bilan bogʻliq tarzda kirib kelgan.

Abu Nasr Forobiy taʼkidlashicha, «Madaniy jamiyat shunday boʻladiki, har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar, oʻzi istagan

va tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashamaydilar».

Fanda, odamlar o'rtasidagi muloqotda madaniyat so'zi bilan bir qatorda kultura so'zi ham ishlatiladi. Yevropada kultura deganda insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadli ta'siri, insonga ta'lim-tarbiya berish tushuniladi. Kultura so'zi lotincha «culture» so'zidan olingan bo'lib, «yerga ishlov berish», «ekib o'stirish» ma'nosini bildiradi. Rus faylasuflari N.Berdyayev va V.Rozinovlar «kultura» so'zining «kult» ya'ni diniy ibodat, sig'inish so'zidan kelib chiqqanligini qayd etganlar.

Hozirgi paytda insoniyat faoliyatining ko'pgina sohalarida madaniyat yoki kultura so'zi qo'llaniladi. Qadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganlik, ma'rifatlilik darajasi tushunilgan. Ellinlar varvarlardan o'zlarining farqlarini tarbiyalanganlikda deb bilganlar. Keyinroq madaniyat deganda shaxsning qadr-qimmatini, takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.Shiller kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, ma'naviylik darajasini madaniyat deb tushuntirgan. Amerikalik madaniyatshunos olim Eduard Teylor (1832-1917) madaniyat atamasini ilm-fanga kiritdi. Teylor o'zining «Первобытная культура» (1871) asarida: «madaniyat keng ma'noda kishining jamiyat a'zosi sifatida o'zlashtirgan bilimi, e'tiqodi, san'ati, axloq-odobi, qonun-qoidalari va boshqa bir qator qobiliyatlari va odatlari yig'indisidan tashkil topadi», deb ta'kidlaydi.

Faylasuf va madaniyatshunos V.M. Rozin iborasi bilan aytganda, «qancha yirik madaniyatshunos bo'lsa, shuncha nazariyalar, tushunchalar mavjud» (В.М. Розин. Культурология. Учебник. –М., 1998, 49-bet). Darhaqiqat, E.Teylor zamonida madaniyatning 7 ta ta'rifi bo'lgan bo'lsa, 1950-yillarda uning soni 150 taga, hozirgi kunda esa madaniyatga berilgan tushunchalar soni 400 taga yetadi. Bu ta'riflar umumlashtirilsa, madaniyat so'zining ma'no-mazmunini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, osori-atiqalar yig'indisi.

2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, san'at, axloq, din, huquq, siyosat, maishiy xizmat ko'rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.

3. Madaniyat – umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millatning o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi, ta'siri bo'lishi tabiiy hol. Madaniyat aholining biron tabaqasi yoki sinfiga emas,

barchaga barobar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik yodgorliklari, fan-texnika yutuqlari va boshqalar barchaga tegishlidir.

4. Madaniyat – insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmuyi.

5. Madaniyat – har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazilatlarini va ijodiy faoliyatining ifodasidir.

Madaniyatni qo'llanilishiga qarab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabaqaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyati, umuminsoniy madaniyat kabi qismlarga bo'lib o'rganish ham mumkin. Kundalik hayotda «muomala madaniyati», «mehnat madaniyati», «nutq madaniyati», «ishlab chiqarish madaniyati», «xizmat ko'rsatish madaniyati», «dam olish madaniyati», «huquqiy madaniyat» kabi tushunchalar ham qo'llaniladi.

Madaniyat inson hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

Madaniyat, avvalo, *ijtimoiy vazifalarni*, ya'ni shaxsni, odamni inson qilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat har bir shaxsning insoniyat yaratgan bilimlarni, ma'naviy qadriyatlarni, tartib-qoidalarni o'zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat hukmronligidan ajralib chiqishi madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ladi. Aynan madaniyat orqali har bir shaxs jamiyatda uzoq yillar davomida to'plangan tajribalarni, an'analar va urf-odatlarini, turmush tarzini o'zlashtiradi, imkon qadar boyitadi va nihoyat ular keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Madaniyat *axborotlarni o'zlashtirish*, bilish, tushunish vazifasini bajaradi. Madaniyat inson uchun dunyoni bilish, dunyo to'g'risida turli ma'lumotlar, axborotlar olish, ularni avloddan avlodga o'tib borishini ta'minlaydi.

Madaniyat *tartibga soluvchi vazifani* ham bajaradi, ya'ni kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilangan tartib-qoidalar, axloqiy-huquqiy normalar asosida tartibga solishga xizmat qiladi.

Madaniyat kishilar o'rtasida *o'zaro fikr almashuv* bilan bog'liq bo'lgan, *aloqa uchun* xizmat qiladigan vazifani bajaradi. Bu borada til asosiy vosita rolini o'ynaydi. Gap shundaki, madaniyatning bir qator sohalari – fan, san'at, texnika va boshqalarning o'ziga xos tili bo'lib, ularni bilmasdan turib madaniyatni to'laligicha bilib bo'lmaydi.

Madaniyat *aksiologik vazifani* ham bajaradi, ya'ni kishilar tomondan moddiy, ma'naviy, estetik, axloqiy qadriyatlarni egallashga, yomon-

dan yaxshini, be'mani, xunuk narsalardan go'zallikni ajrata bilishga ko'maklashadi.

Madaniyat *ijodkorlikni rivojlantirish vazifasini* ham bajaradi. Insonni mavjud madaniyatga tanqidiy-ijodiy qarash, isloh qilish, takomillashtirish, yangi bilimlar, qoidalar, qadriyatlar, tartib-qoidalar yaratishga undaydi.

Madaniyat kishilardagi jismoniy va ruhiy-ma'naviy toliqishni haydash, hordiq chiqarish, tiklanish, kayfiyatini ko'tarish yo'lidagi tadbirlar, o'yinlar tashkil etuvchi vazifalarni ham bajaradi.

Madaniyat doimo taraqqiy etuvchi ko'p qirrali jarayon, uning tarkibiga kiruvchi elementlari o'zgarib turadi. Shu jihatdan tadqiqotchilar madaniyatni o'ziga xos belgilari, sifatiga qarab bir necha turlarga bo'ladilar. Madaniyatga sivilizatsion nuqtayi nazardan yondashuvchi mutaxassislar insoniyat bir necha sivilizatsiyalarni bosib o'tganligini ta'kidlaydilar.

Madaniyatni tili, dini, an'analari, qadriyatlari, iqtisodiyoti yaqinligini inobatga olib milliy, mintaqaviy, davriy jihatdan bir necha turlarga bo'lish keng tarqalgan. *Milliy madaniyatda* til asosiy vosita sifatida olinsa, *mintaqaviy madaniyatda* diniy, axloqiy, badiiy, moddiy, geografik yaqinlik, umumiylik nazarda tutiladi. Madaniyatni irqiy omilni nazarda tutgan holda bo'lish holatlari ham uchraydi. Fransuz faylasufi J.Gobino jamiyat, madaniyat, din, til to'laligicha irqiy jihatlar bilan bog'liq, madaniyat mavjud tabiiy sharoit bilan bog'liq deb tushuntiradi va Yevropa madaniyatini negroid madaniyatdan eng yuqori, ustun darajada deb hisoblaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida ayrim mutaxassislar jamiyat va madaniyat sohasida yuz bergan o'zgarishlarni tushuntirish uchun kontrkultura, subkultura tushunchalarini qo'llay boshladilar. *Kontrkultura* deganda bir guruh yoshlarning g'arb mamlakatlardagi rasmiy qadriyatlarga qarshi g'oyaviy-siyosiy, badiiy qarashlari, ideallari tushuniladi. Yoshlarning bunday chiqishlari so'l radikalchilik, anarxistik, ekstrimistik ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. *Subkultura* deganda jamiyatdagi turli tabaqalar, guruhlariga xos madaniy jihatlar hisobga olinadi. Yoshlar orasida modaga berilgan xotin-qizlar, ayrim musiqaga («pop», «rok») berilgan yoki alohida jargon bilan gaplashishni xush ko'radigan subkulturalar haqida ham fikrlar mavjud. Shuningdek, qashshoqlar, kambag'allar, o'rta tabaqalar, yuqori tabaqalar, jamiyatdagi elita qatlamlari madaniyati degan tushunchalar ham ishlatiladi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar kambag'al tabaqalar madaniyati shaxsiy gigiyenadan tortib bilim darajasigacha bo'lgan sohalarda past saviyada namoyon bo'ladi, deb tushuntiradilar. Jamiyatni umumiy madaniyat asosida birlashtirishga intiluvchi *ommaviy madaniyat* mavjudligi haqida fikr bildiruvchilar ham bor.

Shahar madaniyati, qishloq madaniyati, kasb madaniyati, ular o'rtasidagi farqlar haqida ham gapiriladi. Bularning hammasi madaniyatning murakkab tarkibiy tizimdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Madaniyatshunoslik fanida *shaxs kamoloti* muhim masaladir. Shaxsning barkamol inson bo'lib yetishishida tarixiy, ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri katta. Inson ma'lum ijtimoiy-madaniy muhitda dunyoga keladi, go'daklik chog'idayoq shaxs ijtimoiy-madaniy muhitni tayyor holda topadi. Mavjud ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida shaxs ijtimoiy shaxsga aylanadi. *Shaxsning ijtimoiylashuvi* madaniy-ijtimoiy muhit yaratgan va rioya qilinadigan qadriyatlarni, urf-odatlarini, axloq-odobni, moddiy va ma'naviy boyliklarni, g'oyaviy andozalarni o'zlashtirish, qabul qilish orqali sodir bo'ladi, shaxs inson sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, shaxsda o'tkinchi ehtiyojlarni – yurist, iqtisodchi, injener, shifokor, pedagog, san'atkor bo'lish, boy bo'lish, amaldor bo'lish, shon-shuhrat qozonish, turli unvonlar olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish kabi istaklar ham paydo bo'ladi. Buning uchun ta'lim muassasalarida qunt bilan o'qib, dunyo va jamiyat, ularning taraqqiyot qonunlari to'g'risidagi umumiy bilimlarni egallash, maxsus kasbiy fanlarni o'rganish, izlanish, hayotiy tajriba orttirish, intellektual salohiyatga ega bo'lish zarur bo'ladi.

Madaniyat kishining nafaqat ijtimoiylashuvini, shuningdek, jamiyat bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Madaniyat insonga barkamollikka erishishga, ijodiy kuchlarini namoyon etishga ko'maklashadi. *Shaxsning madaniy darajasini baholashda* uning aqli, tafakkuri, ongi, axloqi, xulq-atvori ham muhim o'rin tutadi. Madaniyat insonning yashirin, betakror individual xususiyatlari, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'stirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Shaxsni barkamol qilib yetishtirishda jamiyat madaniyatining bir qator tizimlari alohida ahamiyatga ega. Masalan:

Siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar majmuyidir. Siyosiy madaniyat jamiyatning turli ijtimoiy tabaqalari manfaatlari bilan bog'liq holda vujudga keladi va siyosiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Har bir ijtimoiy tabaqa o'zining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib g'oyalar, dasturlar ishlab chiqadi, siyosiy tashkilotlar tuzadi va siyosiy hokimiyat uchun turli usullar, vositalar bilan amaliy harakat qiladi.

Siyosiy madaniyat **huquqiy madaniyat** bilan bog'liq. Huquqiy madaniyat qonunlarni bilish, ularga amal qilish, huquqiy ong, huquqiy saviya, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollik madaniyati demakdir.

Iqtisodiy madaniyat deganda iqtisodiy bilim, iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Shaxs iqtisodiy madaniyati jamiyat iqtisodiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shaxs iqtisodiy madaniyatining kamol topishi uchun iqtisodiy qadriyatlarni, iqtisodiy bilimlarni puxta egallashi lozim, shundagina u erkin iqtisodiy faoliyat yurita oladi.

Axloqiy madaniyat tarkibiga axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy faoliyat kiradi. Jamiyat axloqiy madaniyati axloqiy qadriyatlar tizimini ifodalasa, shaxs axloqiy madaniyatida axloqiy qadriyatlarning individuallikda qanday darajada aks etishi ifodalanadi.

Barkamol insonni tarbiyalashda ekologik madaniyat, estetik madaniyat, din, fan va boshqalar ham muhim ahamiyatga ega.

1.3. Madaniyat va sivilizatsiya

Ko'pgina hollarda madaniyat va sivilizatsiya so'zlari yonma-yon ishlatiladi. Masalan, «Qadimgi Misr sivilizatsiyasi», «Qadimgi Misr madaniyati». Bu atamalar go'yo bir xil ma'noni anglatganday ko'rinadi. Aslida esa sivilizatsiya va madaniyat bir-biridan farq qiluvchi tushunchalardir. Faylasuflardan O.Shpengler va A.A. Berdyayev asarlarida, sivilizatsiya – bu insoniyat borlig'ining moddiy-texnik tomoni, madaniyat esa uning ma'naviy-ruhiy tomonidir, deb tushuntiriladi.

Insoniyat hayotida sivilizatsiya va madaniyat o'zaro bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Gap shundaki, odam paydo bo'lgandan beri, ongli mavjudod sifatida yashash uchun kurashib kelmoqda. Odam dastlab o'zini o'rab turgan olam oldida, tabiatning dahshatli hodisalari, qahraton sovuq, jazirama issiq oldida ojiz, himoyasiz, yalong'och bir mavjudod edi. Biroq odam barcha tirik mavjudodlardan o'z ongliligi bilan ajralib turardi, hammasidan ustun edi. Inson ongliligi tufayli yashash uchun kurashdi, o'zini o'rab turgan tabiatga ishlov berib, asta-sekin o'zi uchun zarur qulayliklar yaratib bordi. Bu qulayliklar yaratilish usuli, mazmun-mohiyatiga ko'ra sivilizatsiya yoki madaniyat atamalari bilan tushuntiriladi.

Insoniyat tomonidan yaratilgan ov va mehnat qurollari, olovdan foydalanishni o'zlashtirish, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, kiyim-bosh, uy-joy, yirik suv inshootlari, binolar, mashinalar, texnika taraqqiyoti, transport, aloqa, maishiy xizmat vositalari kabilar sivilizatsiya tushunchasiga kiradi. Demak, sivilizatsiya deganda insonlar o'zlari uchun yaratgan jismoniy qulayliklar, moddiy ehtiyojlarini qondiruvchi moddiy-texnik vositalar tushuniladi.

Madaniyat esa yashash uchun kurashning ruhiy, ma'naviy usullaridir. Masalan, odam yirtqich hayvonlardan himoyalaniş usulini, ya'ni sivilizatsiya yo'lini topishi mumkin. Lekin inson o'limdan o'zini saqlay olmaydi, o'lim haq. Demak, odam o'zini o'zgartirishi, o'lim vasvasi bilan doimo dahshat ostida bo'lmasligi, unga ko'nikishi zarur bo'ladi. Bu sohada madaniyat harakatga keladi. Madaniyat insonlarga ruhiy, ma'naviy qulayliklar yaratadi, shaxsni, uning tabiat haqidagi tafakkurini o'zgartiradi, insonda ichki barqarorlikni shakllantiradi. Ma'naviyat orqali inson o'lim dahshatini yengadi, kezi kelganda Vatani, xalqi uchun o'limga ham tik boradi. Ibtidoiy jamiyatdagi sehrgarlik, jodugarlik, afsungarlik, hozirgi zamon dinlari, xalq qo'shiqlari, adabiyot, san'at, axloq-odob va boshqalar – bularning hammasi madaniyat sohasiga kiradi. Agar sivilizatsiya insonning moddiy ehtiyojlarini qondirsa, madaniyat uning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi.

Sivilizatsiya lotincha *civilis* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, fuqarolikka, davlatchilikka taalluqli ma'noni anglatadi. Sivilizatsiya so'zi ma'rifatparvarlarning XVI asrdan boshlab urushsiz hamda mutaassib ruhoniylar ta'siridan ozod, aql va adolatga asoslangan jamiyat uchun kurashishlari jarayonida fanga kirib keldi. Sivilizatsiya so'zi jamiyat taraqqiyotining darajasini belgilovchi tushunchadir. Sivilizatsiya insoniyat ijtimoiy taraqqiyotidagi uchta katta davrning (yovvoyilik, vaxshiylik va sivilizatsiya) oxirgisi bo'lib, u yozuvning, davlatning, huquqiy tartib-qoidalarning kelib chiqishidan, ya'ni bundan 6 ming yillar muqaddam (Misrda) boshlangan. Sivilizatsiyaning boshlanishi bilan turli xil dinlar, gumanistik va axloqiy qadriyatlar keng tarqala boshlaydi. Sivilizatsiya barcha mintaqalarda birdaniga boshlanmagan, turli mintaqalarda birin-ketin vujudga kelgan, albatta.

Sivilizatsiya madaniyat tushunchasi kabi insoniyat taraqqiyotining mahsuli. Sivilizatsiya so'zi madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tipi ma'nosida ham ishlatiladi. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi, Mesopotamiya sivilizatsiyasi, O'rta dengiz sivilizatsiyasi, Hind sivilizatsiyasi, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi. Sivilizatsiya dastlab ayrim hududlarda, bir-biri bilan u qadar bog'lanmagan holda shakllangan bo'lsa, XVI-XX asrlarda umumjahon sivilizatsiyasi shaklida uyg'unlashdi. Fransuz faylasuf-ma'rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyalashgan jamiyat deb ta'riflaganlar. Dunyoda ilg'or fan, texnika, texnologiya, axborot vositalari asosida ish yuritayotgan, ma'rifatparvar, demokratik jamiyat, huquqiy davlat qurgan mamlakatlar mavjud, ular haqiqiy sivilizatsiya yo'liga kirib bormoqdalar. Jumladan, mustaqil O'zbe-

kiston ham yuksak sivilizatsiyali demokratik jamiyat qurish yo‘lidan bormoqda.

Demak, madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasida mantiqiy birlik, umumiylik mavjud, negaki ularning har ikkalasi ham inson faoliyatining mahsulidir. Ham moddiy, ham ma’naviy taraqqiyotning boshida insonlarning ma’naviy tafakkuri, niyatlari, g‘oyalari, o‘ylari, loyihalari, mo‘ljallari turadi, so‘ngra ular moddiy shaklda namoyon bo‘ladi. Bunga nafaqat texnik inshootlarning, shuningdek, badiiy asarlarning yaratilishi ham misol bo‘la oladi. Masalan, Amir Temur haykalida, avvalo, yaratuvchi (haykaltarosh) ning ma’naviy tafakkuri, loyihasi, mo‘ljalini, so‘ngra ularning moddiy shaklga kirgan ajoyib monumentini ko‘ramiz.

Savol va topshiriqlar

1. Madaniyatshunoslik fanining predmeti, o‘rganish obyekti nimalardan iborat?
2. Madaniyatshunoslikning boshqa gumanitar fanlar bilan bog‘liq tomonlarini tushuntirib bering.
3. Madaniyatshunoslik fani qanday metodologik tamoyillarga tayanadi?
4. Madaniyat so‘zining kelib chiqishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Madaniyat so‘zi qanday ma’nolarni bildiradi?
6. Madaniyat insoniyat hayotida qanday vazifalarni bajaradi?
7. Shaxsning barkamol inson bo‘lib yetishishida madaniyatshunoslik fanining ahamiyati nimalardan iborat?
8. Siyosiy, huquqiy, iqtisodiy madaniyat deganda nimalarni tushunasiz?
9. Axloqiy, estetik va ekologik madaniyat so‘zlarining ma’nosi nima?
10. Sivilizatsiya deganda nimani tushunasiz?
11. Madaniyat va sivilizatsiya o‘rtasidagi umumiylik nimalarda namoyon bo‘ladi?

2-mavzu. Madaniyat taraqqiyotida vorisiylik, madaniy meros, qadriyatlar kategoriyalari

Reja

1. Vorisiylik, madaniy meros kategoriyalarining madaniyat taraqqiyotidagi oʻrni.
2. Madaniyatshunoslikda qadriyatlar kategoriyasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.
3. Oʻzbekistonning milliy tiklanish jarayonida madaniyatshunoslikning dolzarbligi.

Tayanch soʻz va iboralar

Vorisiylik. Maʼnaviy meros. Qadriyatlar. Milliy qadriyatlar. Umuminsoniy qadriyatlar. Milliy oʻziga xoslik. Milliy tiklanish. XXI asrda dunyoni madaniyat va maʼnaviyat qutqaradi.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. Buyuk maqsad yoʻlidan ogʻishmaylik. Asarlar T.1. – T.: “Oʻzbekiston”, 1996, 200-218-betlar.

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. T.7. –T.: “Oʻzbekiston”, 1999, 132-154-betlar.

Karimov I.A YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida soʻzlangan nutq. T.7. – T.: “Oʻzbekiston”, 1999, 193-206-betlar.

Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: “Oʻzbekiston”, 2005, 5-68-betlar.

Ахмедова Э., Габидуллин. Культурология. –Т., 2001.

Есин А.Б. Введение в культурологию: Основные понятия культурологии в систематическом изложении. –М., 1999, стр. 5-61.

Gulmetov E. v.b. Madaniyatshunoslik. Maʼruzalar matni. –T.: 2000.

Usmonov Q. v.b. Madaniyatshunoslik. Muammoli maʼruza matnlari toʻplami. –T.: TMI, 2004.

Usmonov Q. v.b. Madaniyatshunoslik. Oʻquv qoʻllanma. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

Qoʻshimcha adabiyotlar

Boboyev H. v. b. Madaniyatshunoslik. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001, 6-42, 109-116-betlar.

Гуревич П. Культурология. –М.: 2000.

2.1. Vorisiylik, madaniy meros kategoriyalarining madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni

Jamiyat va madaniyat taraqqiyotida vorisiylik alohida o‘rin tutadi. Vorisiy deganda oldingi avlod tomonidan yaratilgan turmush tarzi, rasm-rusum va an’analar, moddiy va ma’naviy madaniyat yutuqlarning keyingi avlodga o‘tishi va o‘zlashtirilishi tushuniladi.

Madaniyatshunoslik fanida vorisiylik muhim kategoriya hisoblanadi. Vorisiylik negizida hayotiylik yotadi. Kishilar o‘zidan oldingi avlodlar yaratgan madaniy boyliklarga tayanib yashaydilar, ularga tayanib yangiliklarni yaratadilar. Agar vorisiylik negizida hayotiylik bo‘lmaganida edi, «biz uchun o‘tmish sovuq, befoyda, o‘lik va qiziqarsiz bo‘lib qolaverardi», deb ta’kidlaydi J.Neru. Sharqshunos olim Maks Myuller Hind sivilizatsiyasi haqida fikr yuritarkan ekan «eng zamonaviy va eng qadimiy hind sivilizatsiyasi o‘rtasida uzluksiz vorisiylik mavjud», deb yozadi. Vorisiylik barcha xalqlar madaniyati taraqqiyotiga xos uzluksiz jarayondir.

Jamiyat, madaniyat rivojida ma’naviy-madaniy meros katta ahamiyatga ega.

Xo‘sh madaniy-ma’naviy meros nima?

Madaniy-ma’naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy-ma’naviy boyliklar – siyosiy, iqtisodiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari va boshqa milliy qadriyatlar majmuyidir. Bunday boyliklar, qadriyatlar bir yilda, bir asrda hosil qilinadigan hodisa emas, ular jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Ular jamiyat siyosiy tuzumi jihatidan o‘zgarishi bilan yo‘qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo‘lib qoladi. Madaniy-ma’naviy meros insonni yuksalishga da’vat etadigan, ichki olamini boyitadigan, irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan qudratli kuchdir.

Har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlardan ma’naviy-madaniy qadriyatlarni, moddiy va ma’naviy sohada erishilgan yutuqlarni meros qilib oladi va yanada rivojlantiradi. Insoniyat hayotini ramziy ma’noda uzoq yo‘l deb faraz qilsak, har bir avlod yo‘ldagi ko‘prik ustida turganga o‘xshaydi. Ko‘prikning bir tomonida oldingi zamonlarda yashab o‘tgan qancha-qancha avlod-ajdodlar hayoti, ular yaratgan moddiy va madaniy-ma’naviy yutuqlar, qadriyatlar yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Ko‘prik ustida turgan yangi avlod esa otabobolaridan qolgan moddiy va ma’naviy boyliklarni meros tariqasida qabul qilib oladi, o‘zlashtiradi, yangilaydi, bo-

ytadi. Ko'prikning ikkinchi tomoni esa hayotga kirib kelayotgan kelajak avlod o'rnidir. Vaqti kelib, ko'prik ustidagilar o'z o'rnini kelajak avlodga bo'shatadi, o'zi o'zlashtirgan, yangilagan, boyitgan moddiy va ma'naviy madaniyatni ularga meros qilib qoldiradi. Shu tariqa avlodlar almashinuvi barobarida jamiyat yangilanib, rivojlanib boradi, inson uchun zarur bo'lgan jismoniy va ma'naviy-madaniy qulayliklar yaxshilanib, takomillashib boradi. Bu jarayon jamiyat va madaniyat taraqqiyotiga xos betinim amal qiluvchi qonuniyatdir.

2.2. Madaniyatshunoslikda qadriyat kategoriyasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Qadriyat, hayotda qadriyatlarga moslashish, qadriyatlarni mo'ljallab ish tutish madaniyatshunoslik fanining muhim kategoriyasidir.

Kishilar ongida qadriyat kategoriyasi turli narsa va hodisalarni taqqoslash orqali shakllanadi. Inson dunyoni anglab olgandagina, dunyoda sodir bo'lgan va bo'layotgan hodisalar, voqealar, o'zgarishlarni tushunib yetgandagina, o'zining hayoti uchun nimalar muhim yoki muhim emasligini, nimalarsiz yashash mumkin yoki mumkin emasligini ajrata oladi. Tabiiyki, har bir inson o'z qadriyatlar dunyosini o'zicha aniqlaydi. Demak, qadriyatlar bu narsalar emas, balki narsalarga, hodisalar va boshqalarga munosabatdir. Shunday qadriyatlar borki, ularsiz ma'lum davr madaniyati kemtik, noqulay bo'lib qoladi. Shaxs madaniyati misolida bu holatni quyidagicha tasvirlash mumkin bo'ladi: qadriyat shunday narsaki, usiz biron shaxsning to'la yoki qisman mavjudligi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Masalan, oshiq bo'lib qolgan odam uchun o'z sevgilisi, ota-ona uchun o'z farzandi, olim uchun ilm-fan shunday qadriyatki, undan mahrum bo'lsa hayotning qizig'i qolmaydi. Har bir davr madaniyatining shunday qadriyatlar tizimi borki, ularsiz mazkur madaniyatning mavjudligi mazmunsiz bo'lib qoladi.

Qadriyat deganda nimani tushunmoq kerak?

Qadriyat – borliq va jamiyat, voqelikdagi muayyan narsalar, voqealar, hodisalarning, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Ko'pgina hollarda kishilar qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa qadriyat so'zining ma'nosi boshqacharoq. Masalan, ming yillar ilgari buyumning bugungi kun uchun moddiy jihatdan bahosi arziyasiz bo'lishi mumkin, negaki, uni hozir ishlatib, undan foydalanib bo'lmaydi. Ammo bobokalonlarimizdan bizgacha yetib kelgan

moddiy va madaniy meros sifatida u buyum nihoyatda qadrlil, ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Qisqa qilib aytganda, qadriyat deganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha moddiy va ma'naviy madaniyat unsurlari tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, ma'naviy-ma'rifiy an'analar, urf-odatlar, xatti-harakatlar majmuyidir. Qadriyat insoniyat yaratgan va yaratayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarning gultojidir. Qadriyatlarning ahamiyati shundaki, ular kishilarning xatti-harakatini, xulq-atvorini tartibga, tegishli me'yorga solishga va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi.

Qadriyatlarni madaniyat singari moddiy va ma'naviy qadriyatlarga ajratish mumkin. Moddiy qadriyatlarga insonlar uchun jismoniy qulayliklar yaratuvchi xo'jalik, texnik, sog'liq, jinsiy juftlik, moddiy boylik, qulay maishiy shart-sharoitlar, toza suv, sifatli oziq-ovqat va boshqalarni kiritish mumkin.

Ma'naviy qadriyatlarga insoniyat hayotiga ming yillar davomida shakllangan an'ana, urf-odat va marosimlar, ilmiy, ma'rifiy axloqiy, estetik, diniy, badiiy va boshqa ma'naviy boyliklar kiradi. Ayrim qadriyatlar tarixiy, davriy xususiyat kasb etib, davr o'zgarishi bilan o'zgarib borishi mumkin. Shu bilan birga, doimiy, universal ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar ham mavjud. Masalan, odamni qahramonlikka, Vatanga sodiqlikka undovchi qadriyatlar. Badiiy, axloqiy qadriyatlar ham universal qadriyatlar hisoblanadi. Eng yuksak qadriyatlar erkinlik, tinchlik, ezgulik, mehr va muruvvat, yaxshilik, go'zallik, muhabbat, adolat, haqiqat, baxt singari mezonlarda ifodalanadi. Bu ne'matlar shuning uchun qadriyatlar deyiladiki, ularni kishilar o'zlari uchun ahamiyatli bo'lganligi uchun qadrlaydilar.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning asrlar davomidagi amaliy faoliyatida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar orasida eng oliysi inson, uning hayotidir. Jamiyat taraqqiyotida, inson hayotida erkinlik, ozodlik, tenglik, barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlardir.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga ham bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning genofondi, tili, turmush tarzi, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an'analari, milliy ongi, moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jihatlarida namoyon bo'ladi. O'z milliy qadriyatiga ega bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlarning sohibi muayyan millatdir. Millatning tanazzuli ayni holda milliy qadriyatlarning tanazzuli hamdir.

Har bir millat o‘z qadriyatlarini yaratuvchisi, asrab-avaylovchisi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Millat siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo‘lib qolganda ham o‘z milliy qadriyatlarini saqlash tuyg‘usi yo‘qolib ketmaydi, milliy qadriyatlari ma’lum darajada saqlanib qoladi.

O‘zbek xalqining boy, o‘ziga xos betakror milliy qadriyatlari bor, ular bir necha ming yillar davomida shakllangan. Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, ya’ni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va hokazo hududlarda yashovchi aholiga xos urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va hokazo tarzda shakllanadi. So‘ngra ularning eng muhimlari asrlar davomida saralanib, umummilliy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. O‘zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e’tirof etilgan:

- tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- mehmondo‘stlik;
- bolajonlik;
- ma’naviyat-axloq-odob-ma’rifat;
- muomalada mulozamat, hayo, andishalik;
- og‘ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Mustamlakachilik davrida toptalgan milliy qadriyatlarimiz tiklandi, yangi ma’no-mazmun bilan boyib bormoqda.

Qadriyatlar haqida gap borganda, mintaqaviy qadriyatlar ham inobatga olinadi. Mintaqaviy qadriyatlar hududi, tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati, dini, tili, urf-odatlari va an’analari mushtarak bo‘lgan xalqlar manfaatiga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar – odamzod uchun, kishilik jamiyati uchun eng qadrlil bo‘lgan narsalar, hodisalar, faoliyat va boshqalarning umumijtimoiy qadrini, ahamiyatini ifodalash maqsadida qo‘llaniladigan tushunchadir. Umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasining mazmunini to‘liq anglab etish uchun, avvalo, umuminsoniylik tushunchasining ma’nosini bilmoq zarur. *Umuminsoniylik* deganda odamlar uchun umumiy bo‘lgan mezonlar, obyektiv va subyektiv holatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalar tushuniladi.

Umuminsoniy qadriyatlar deganda, umumjamiyat, butun insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, insoniyatning mavjudligi, o‘tmi-shi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo‘nalishlari, qonun-qoi-

dalari, talab va tartibotlarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va g'oyalarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlar nazarda tutiladi. Butun insoniyat uchun umumiy foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni tashkil etish, kosmonavtika, kibernetika, axborot texnologiyalari umuminsoniy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Umuminsoniy qadriyatlarga madaniyat, ma'naviyat, fan, din, san'at, huquq, siyosat, ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq yutuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ma'naviy kamolotning yo'nalishlari, vositalari kiradi. Inson, uning hayoti, yaxshilik, go'zallik, adolat, haqiqat, erkinlik, tenglik, do'stlik, muhabbat, baxt-saodat va hokazolar umuminsoniy qadriyatlarning eng oliysi, ideal qadriyatlardir.

2.3. O'zbekistonning milliy tiklanish jarayonida madaniyatshunoslikning dolzarbligi

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida madaniyatning milliy o'ziga xosligini saqlash dolzarb muammolar jumlasiga kiradi. Negaki, ko'p hollarda dunyoda sodir bo'layotgan globallasuv, iqtisodiy va siyosiy modernizatsiyalashuv jarayoni ta'siri ostida dunyo standartlashish va bixillashish tomon bormoqda, milliy o'ziga xoslik, milliy madaniyatga xos jihatlar yo'qolib ketadi, degan fikr-mulohazalar ustunlik qilishga harakat qilmoqda. Amaliy hayot esa bunday qarashlarning asossiz ekanligini ko'rsatmoqda, inkor etmoqda. Aksincha, hayotiy tajribalar ko'rsatmoqdaki, xususan, milliy belgilarning xilma-xilligi jahon madaniyatining barqarorligini va rivojlanishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1998-yil 6-noyabrda YUNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida shunday ta'kidlaydi: «Men umuminsoniy qadriyatlar rivojini har bir xalq madaniyati va o'ziga xosligining o'zaro uyg'unlashuvi deb bilaman. Madaniyatlarning shu tarzda uyg'unlashuvigina umuminsoniy madaniyat va butun sivilizatsiyaning go'zalligi va qadr-qimmatini yaratadi. Zero, umumiy sivilizatsiya turli xalqlarning madaniyatlaridan shakllanadi» (Asarlar, T.7, 194-bet).

Hozirgi taraqqiyotning tendensiyasi madaniy-ma'naviy merosning roli va ahamiyatini qayta anglashdan, milliy an'analarni hozirgi hayotga faol qo'llashdan iborat. Bu muammo ayniqsa O'zbekiston uchun nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Negaki, mustabid sovet hokimiyati davrida o'zbek xalqining milliy madaniyati, ma'naviy merosi poymol qilindi, ularni unutish, ona tilimiz – o'zbek tilini qadrsizlantirish yo'li tutilgan edi. Bu davrda madaniyat mafkuralashtirildi, kommunistik mafkuraga

mos kelmaydigan tomonlari yo‘q qilindi, turli fikr yuritishlar inkor etildi, ong ustidan hukmronlik qilindi, asrlar davomida shakllangan an‘anaviy axloqiy va estetik qadriyatlarga eskilik qoldiqlari sifatida qaraldi.

Shu boisdan O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab, jahon madaniyatining tarkibiy, ajralmas qismi hisoblangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan milliy madaniy-ma‘naviy merosimizni tiklash yo‘lidan bordi. Bu yo‘l O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda madaniy-ma‘naviy merosni tiklash va yanada rivojlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Bu milliy ongning o‘shida muhim ahamiyatga ega. Madaniy merosning tiklanishi quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo‘lmoqda:

- xalqimizning qadimiy madaniy-ma‘naviy merosiga, qadriyatlari va ideallariga qayta nazar solish, yangicha anglash, tiklashning zarurligi va muhimligi e‘tirof etildi;
- merosimizni tiklashga saralash nuqtayi nazardan yondashildi, milliy madaniyatning umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan, jamiyatimizni yangilash va insonparvarlashtirishga xizmat qiladigan eng muhim, ahamiyatli yutuqlari, jihatlari tiklanmoqda;
- keng xalqaro aloqalar rivojlanmoqda, umuminsoniy qadriyatlarga uyg‘unlashib borilmoqda;
- o‘z tafakkuri bilan mustaqillik ruhini belgilab beradigan ziyolilarning yangi avlodi shakllanmoqda;
- shaxs va ijtimoiy ongda yangicha dunyoqarash, gumanistik tafakkur shakllanib bormoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda umuminsoniy demokratik qadriyatlarga mos fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Ahmad al-Farg‘oniy, Amir Temur, Burxoniddin Marg‘inoniy, Moturudiy kabi ko‘plab, nafaqat bizning milliy madaniyatimiz, balki butun jahon sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning nomi, xayrli ishlari o‘z o‘rnini topdi, ularning unutilgan asarlari nashr etildi, etilmoqda. Xalq qahramonlari, buyuk shaxslar nomlari oqlandi, ular xotirasini namoyon etuvchi yodgorlik majmualari, haykallar bunyod etildi.

Milliy madaniyatimizning tiklanishida madaniyatshunoslik muhim o‘ringa ega. Aynan shu fan madaniy-ma‘naviy sohalaridagi unutilgan qarashlarni, zo‘ravonlarcha poymol etilgan qadriyatlarni aniqlash, qayta tiklash va yangi ma‘no-mazmun bilan boyitish kabi faoliyatga ko‘maklashadi.

Bugungi kunda gumanistik ideallarni, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni tiklash umumbashariy ahamiyatga ega. Shu ma'noda Prezident Islom Karimovning «Kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi» degan so'zlarini eslash o'rinlidir (Asarlar T.7, 194-bet).

Madaniyatning nazariy muammolari va tarixiga umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazardan, har bir davr va har bir xalq madaniyatiga hurmat nuqtayi nazardan yondashuvchi madaniyatshunoslik fani «madaniyatlararo mu-loqot»ni amalga oshirishga, gumanistik g'oyalarning uyg'onishiga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim-tarbiya sohasi muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashib borishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining muhim yutug'idir. Negaki, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning pirovard natijasi iqtisodiyotga, davlat boshqaruviga, jamoat tashkilotlari va boshqa sohalarga qanday mutaxasislarning kelishiga bog'liq, albatta. Shu boisdan bugungi kunda talabalarimizning madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasi o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, Oliy ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifa, bitiruvchilarni ijtimoiy hayotning mustaqil subyekti sifatida shakllantirishga erishishdir. Buning mazmuni shundan iboratki, har bir bitiruvchi siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, iqtisodiy, dunyoviy va boshqa sohalarda mustaqil, tushunib yetgan holda qarorlar qabul qilishga yetilgan bo'lishi zarur. Talabalarda bunday malakalarni shakllantirishda madaniyatshunoslik fani muhim o'ringa ega.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatshunoslik yangicha fikrlashni, insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi fan sifatida O'zbekistonning milliy tiklanishida, ta'lim-tarbiya tizimida muhim rol o'ynaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Madaniyat taraqqiyotida vorisiylikning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Vorisiylik negizida hayotiylik yotadi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Madaniy-ma'naviy meros nima?
4. Jamiyat, madaniyat taraqqiyotida madaniy-ma'naviy merosning ahamiyati haqida referat yozing.
5. Qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Milliy qadriyatlar nima?
7. Umuminsoniy qadriyatlar deganda nimalarni tushunasiz?
8. «XXI asrda dunyoni ma'naviyat va ma'rifat qutqaradi» degan mavzuda referat yozing.

9. O‘zbekistonning milliy tiklanishida madaniyatshunoslik fanining o‘rnini tushuntirib bering.

3-mavzu: Qadimgi Sharq madaniyati

Reja

1. Qadimgi Misr madaniyati.
2. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.
3. Qadimgi Hindiston madaniyati.
4. Qadimgi Xitoy madaniyati.
5. Qadimgi O‘rta Osiyo madaniyati.

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya etiladi

«Mahabharata» va «Ramayana» ning insonlarni komillikka chorlovchi g‘oyalari.

Tayanch so‘z va iboralar

Misr ehromlari. Qadimgi Old Osiyo sivilizatsiyasi. Xammurapi qonunlari. Qadimgi Bobilda ilm-fan. Ossuriyada me‘morchilik. Braxmanizm va Buddizm. Ajanta majmuasi. Konfutsiylik ta’limoti. Buyuk Xitoy devori. Zardushtiylik dini.

Asosiy adabiyotlar

I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari –T.: “O‘zbekiston”, 1997.

Н.М.Николовский. Культура Древней Вавилонии. –М., 1959.

Культура Древнего Египта. –М., 1976.

Д.А.Силичев. Культурология. Учебное пособие для ВУЗов.–М.: “Приор”, 1998.

Д. Касамби. Культура цивилизации древней Индии. –М., 1986.

Культурология. Курс лекций под редакцией А.А.Радугова. –М., 2000.

Гуревич П.С. Культурология. «Глардарики». –М., 2000.

Э.Ахмедова, Р.Габидулин. Культурология. Мировая культура. –Т., Академия художеств Узбекистана, 2001.

М.Махмудов, В.Каримов. Хоразм «Avesto»ning Vatani. –Т: ТМІ, 2001.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Древний Восток и мировая культура. –М., 1981.

В.Ерасов. Культура, религия и цивилизация на Востоке. –М., 1990.

Искусство стран Востока. –М., “Просвещение”. 1986.

Древние цивилизации. –М., 1987.

Insoniyat tarixida ilk sivilizatsiyalar paydo bo‘lganiga 6 ming yildan oshdi. Shunday sivilizatsiyalarning eng qadimgilari Misr va ikki daryo oralig‘i Mesopotamiyada vujudga kelgan. Avvalo, bular ibtidoiy jamoa tuzumida yaratilgan moddiy va madaniy madaniyat yutuqlarini o‘zida aks ettirgan tarzda taraqqiyotning davomi bo‘lgan. Ikkinchi tomondan, bu yerlarda iqlimi qulay, yeri unumdor bo‘lganligidan sug‘orma dehqonchilik tez rivojlanib borgan.

Qadimgi Misr madaniyati er.avv. IV mingyillikdan er.avv. 332-yilgacha davrni o‘z ichiga oladi. U o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni yozuvi, adabiyoti, san’ati, arxitektura qurilishi bilan ajralib turadi.

Tigr va Efrat daryolari oralig‘idagi yerlarning asosiy aholisi shumerlar, akkadlar, vavilonlar, xaldeylar, ossuriyaliklar, xurritlar va arameylardan iborat bo‘lgan. Bular orasida Shumer, Bobil, Ossuriya madaniyatlari ancha yuksalgan.

Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi ham antik dunyo tarixida o‘ziga xos jihatlari bilan ko‘zga tashlanib turadi.

3.1. Qadimgi Misr madaniyati

Qadimgi Misr ilk sivilizatsiya o‘choqlaridan biri sifatida o‘ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan. Nil –dunyodagi eng katta daryolaridan biri bo‘lib, u Markaziy Afrikadan boshlanib, Misrni kesib o‘tib, O‘rta yer dengiziga quyiladi. Misrda ilk dehqonchilikning paydo bo‘lishi ham, eng avvalo, shu daryo bilan bog‘liq bo‘lgan. Qadimdan Misrda tabiati issiq, hayvonot, o‘simlik dunyosi va yerosti boyliklari ko‘p bo‘lganligi bois, bu yerda moddiy va ma’naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo‘lishi mil. avv. IV mingyillikning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 40 dan ortiq shahar davlatlari – nomlar paydo bo‘lgan. Nomlarni nomarxlar boshqarib, ular dehqonchilik, chorvachilik, sug‘orish, harbiy va diniy ishlarni boshqarganlar. Bular ilk quldorlik davlatlari edilar. Bu davlatchalarning shimoliy va

janubiy birlashmalari vujudga keladi. Mil. avv. III minginchi yil boshlarida Janub podshosi Minaning Shimoliy uyushma ustidan g'alaba qilishi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo'lgan.

O'zining Vatani tarixini yozgan kohin Manefon Qadimgi Misr tarixini to'rtga bo'lib: Qadimgi (mil. avv. III minginchi yil), O'rta (mil. avv. III minginchi yil oxiri – II minginchi yil boshlari), Yangi (mil. avv. 1580-1070-yillar), So'nggi (mil. avv. I 1070-332-yillar) podsholik davrlariga bo'ladi. Bu davrlar jami 30 ta fir'avnlarni sulolalarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma'nodagi klassik namunasi bo'ldi. Shuning uchun ham, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni «Nilning in'omi» deb bejiz aytmagan. Bahor oylarida Nil toshqini natijasida daryo bo'ylaridagi yerlarda hosil bo'lgan qora mineralga boy qoldiqlar dehqonchilik uchun «tekin ozuqa» bo'lib xizmat qilgan. Daryo bo'ylarida turli xil granit, marmar kabi toshlarning bo'lishi esa qurilishga yaxshi material hisoblangan.

Misr tarixining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va otobobolar ruhiga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Shu bilan birga, Misrda yagona davlatning vujudga kelishi bilan fir'avn – podsholarga e'tiqod qilish va ularni ilohiylashtirish paydo bo'lgan. Birinchi o'rinda qarchig'ay boshli Quyosh xudosi – Ra yoki Amon-Ra bo'lib, u har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbga tushadi (misrliklar tasavvurida). Misrliklar Quyosh xudosi atab ibodatxonalar qurganlar.

Xudolar ichida Osiris alohida o'rin tutadi. U avval dehqonchilik homiysi bo'lib, eshak boshli, qizil ko'zli yovuz xudo Set tomonidan o'ldirilgan. Osiris narigi dunyodagi podshohlikda shoh va sudya bo'lib oladi. Xudolar misrliklar uchun birgina dunyoni yaratuvchi bo'libgina qolmay, hunarmandchilik, san'at, yozuv, hisob, sehrgarlik va ilm-fanning yaratuvchilari ham hisoblanganlar. Ular iyeroglif yozuvini «Xudoning so'zi» deb tushunar edilar. Bunda so'z va hisob hukmroni, yozuvni yaratuvchisi, adabiyot va yozuvchilarning, sehrgarlar va tabiblarning homiysi Totu hisoblangan.

Misrda xudolarga sig'inish bilan birga podshoh – fir'avnlarga sig'inish ham alohida o'rin tutgan. Misrliklar Fir'avnni yerdagi xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab Piramidalar qurishgan, ularning nomlarini abadiylashtirganlar.

Qadimgi podsholik davrida papirus qog'ozining tayyorlanishi yozma madaniyatni rivojlantirishga olib kelgan bo'lsa, Misrda mis davrida birinchi bo'lib asalarichilikning kashf qilinishi va yoyilishi ham dunyo-

viy ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga, shu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik, polizchilik va uzumchilik rivojlangan.

Qadimgi Misr podsholigi davrida yetakchi madaniyat yo'nalishi – bu arxitektura bo'lib, u boshqa madaniyat turlari bilan uyg'unlikda rivojlandi. Birinchi piramida arxitektor Imxoteb loyihasi asosida Fiza va Joserga atab Sakkarada (mil. avv. III mingyillikda) qurilgan bo'lib, u bo'yi 60 metr, pillapoya shaklida qurilgan. Imxoteb birinchi arxitektor bo'libgina qolmay, ayni chog'da olim, yozuvchi, tabib ham edi. Vafotidan keyin unga atab ibodatxona qurilgan.

Ikkinchisi Dashurda qurilgan Snofru piramidasi to'rt burchakli shaklda bo'lib, uning bo'yi 100 metr edi. Gizadagi fir'avn Xufu maqbarasi-piramidasi o'zining ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Mil. avv. XXVII asr boshlaridagi Misr fir'avni Xufu (yunoncha Xeops) maqbarasining bo'yi 150 metr (hozir 146 metr, asosi 233-233 m.) bo'lib, uning qurilishiga og'irligi 2-15 tonnalik 2 mln. 300 mingta tarashlangan tosh ishlatilgan. Piramida 30 yil ichida qurilgan. Xufu piramidasi olamning yetti mo'jizasining biri hisoblanadi. Gizaga yaqin tog' cho'qqisini o'yib tanasi sherini, kallasi odamnikiga o'xshash bo'lgan afsonaviy mahluq haykali, (balandligi 57 metr) yasalgan. U o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Hammasi bo'lib 80 ga yaqin piramidalar qurilgan. Piramidalar Qadimgi Misrning o'ziga xos ramziga aylangan.

Piramidalar qurilishi qadimgi Misr uchun juda qimmatga tushgan va Misr iqtisodini izdan chiqara boshlagan. Shu sababli fir'avnlarni mil. avv. XVII asrdan e'tiboran piramidalar qurishdan voz kechganlar.

Arxitektura bilan birgalikda haykaltaroshlik namunalari ham yaratilgan. Bular jumlasiga fir'avn Narmer (bo'yi – 64 sm), «Qishloq oqsoqoli», «Mirzo Kan», «Shahzoda Raxotep va uning rafiqasi Nofret» kabi toshdan yasalgan haykalchalarni nisbat berish mumkin.

O'rta podsholik, yoki boshqacha qilib aytganda, klassik davrda qurollar yasashda bronzadan keng foydalana boshlangan. Oyna ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Qadimgi, ayniqsa, o'rta podsholik davrida matematika sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Jumladan, sanoq tizimi kashf etilgan. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000, 100000, hatto millionni ham bildiruvchi alohida belgilar bo'lgan. Misr astronomlari yulduzlar, sayyoralar harakatini o'rganib, birinchi yulduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. Shunday xaritalar Senmut maqbarasi, Edfu va Dendir ibodatxonalarining shiplarida saqlanib qolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib alohida taqvim tuzganlar. Unga ko'ra, bir yil 365 kunni tashkil qilib, u 12

oyga bo‘linadi. Har oy 30 kundan iborat bo‘lgan. Qolgan 5 kuni esa bayram qilishgan. Qum va suv soatlari ham dastlab Misrda kashf etilgan.

Misrda tibbiyot ham erta rivojlangan. Mil.avv. 3600-yilda Memfisda afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilib, u yerda bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Geliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo‘lgan. Tibbiyotga bag‘ishlangan asarlar yaratilgan. Tabiblar mumiyolash jarayonida inson a‘zolarining ichki tuzilishini yaxshi bilganlar. Ular bemorlarni davolashda terapiya, jarrohlik, ruhiy ta‘sir etish usullarini qo‘llashgan. Misrda Georg, Zbers, Zdvina, Smit, Brugsha, Zrazistrat, Xerofil kabi mashhur hakimlar shuhrat topgan.

Qadimgi misrliklar geografiya fani sohasida ham dastlabki ma‘lumotlarga ega bo‘lganlar. Qadimgi Misr geograflari o‘z o‘lkalari va Arabiston yarimorolining xaritasini chizganlar. Ularning Arabiston cho‘llaridagi oltin konlari joylashgan rayonning xaritasi hozirgacha saqlanib qolgan.

O‘rta podsholik davrida adabiyot juda rivojlangan. Bu davrda juda ko‘p qo‘shiq, ertak va maqollar yaratilgan. O‘sha davrda «Ikki og‘a-ini haqida», «To‘g‘ri va egri haqida», «Izida va Osiris haqida» ertaklar, «Sor va Set janjali» nomli afsonalar juda mashhur bo‘lgan.

Dunyoda birinchi bo‘lib Misrda teatr kashf qilingan. Ibodatxonalarda diniy dramalar qo‘yilgan. Xususan, teatrlarda Osirisning o‘limi va qayta tirilishi ko‘rinishlari ijro etilgan.

Yangi podsholik davri Qadimgi Misr tarixida moddiy va ma‘naviy rivojlanishning eng cho‘qqisi hisoblanadi. Bu davrda misrliklar temirdan foydalanishga o‘tganlar, to‘qimachilik dastgohini kashf qilingan, yilqichilikni (otlar) o‘zlashtirganlar. Chig‘iriqni va sharufni kashf etilishi polizchilik va bog‘dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan. Xullas, bu davrda mamlakat iqtisodi tez o‘sadi. Bu esa jamiyatning boy tabaqasining yanada boyishiga va san‘atning rivojlanishiga olib keldi.

Yangi podsholik davrida Misrda fir‘avn Tutmos I davridan boshlab «Podsholar vodiysida» fir‘avnlarni o‘zlariga mahobatli va labirintli maqbaralarni, haykallarni qurdiradilar. Bularga Amenxotep III va Abusimbedagi Ramzes II g‘orli maqbaralari haykallari misol bo‘la oladi. Ayniqsa, Fivada qurilgan Karnak va Luksor maqbaralari arxitektori Ineni boshchiligida qurilgan bo‘lib, bu yirik arxitektura majmuyi qurilishida baland ustunlar ishlatilgan.

Bu davrda ko‘p janrli adabiyot ham rivojlanadi. Diniy «Marhumlar kitobi», realizm ruhidagi «Ikki og‘a-ini haqida ertak», sevgi haqida «Yurakni rohatlantiruvchi qo‘shiq» kabi asarlar yuzaga keldi.

Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda fir'avnlarning turmush tarzini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Haykaltarosh Tutmos tomonidan yaratilgan fir'avn Exnaton va uning rafiqasi Nefertiti asarlari o'zining betakrorligi, go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. 1922-yili topilgan Tutanaxamon maqbarasidagi (yagona to'la saqlanib qolgan) Misr madaniyatiga taalluqli ko'plab qimmatli yodgorliklar ichida fir'avnning mashhur oltindan qilingan niqobi ham bor.

So'nggi Misr podsholigi davrida Misr inqiroz jarayonini boshidan kechirdi. Yagona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda nomlarga (davlatchalarga) bo'linib ketadi. Misr avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib qoladi va nihoyat, mil.avv. 332-yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanadi. Shu bilan Misrning qadimgi davri tugaydi.

Qadimgi Misr madaniyatiga kelsak, u hozirga qadar ham yashab kelmoqda. Bu madaniyat jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Shuning uchun ham, Yunon faylasufi Aflotun Misr madaniyatini «Jami sivilizatsiyalarning onasi»¹ deb bejiz aytmagan.

3.2. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati

Shumerlar iqtisodining asosini dehqonchilik tashkil qilgan bo'lib, u sug'orma dehqonchilik tizimi bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, chorvachilik ham muhim ahamiyatga ega edi. Unda metallsozlik ham yuqori darajaga erishgan. Er.avv. III minginchi yil boshlariga kelib shumerliklar bronzadan mehnat qurollarini yasay boshlaydilar, er.avv. II minginchi yil oxirlariga kelib esa temir davri boshlanadi.

Mesopotamiyadagi katta yutuqlardan biri bu yozuvning ixtiro qilinishi edi. Ilk yozuv mil. avv. IV mingyillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf qilingan. Bu yerga ko'chib kelgan shumerlar ham ushbu yozuvni qabul qilganlar. U suratli yozuv bo'lib, so'z suratli rasm orqali ifoda etilgan. Bu fanda **iyeroglif** deb nomlangan. Masalan, qush so'zi qushning tasviri bilan, suv so'zi uch qator to'lqinsimon chiziq bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuv bilan hamma so'zlarni ham ifoda qilib bo'lmagan. Uning cheklanganligi sababli bu yozuv takomillashtirib borilib, **mixxat** yozuvi kashf qilingan. Harflar qotmagan loy lavhalar sathiga o'yib tushirilgan. Harflar 600 ga yaqin belgidan iborat bo'lgan. Bu yozuv keyinchalik butun Janubi-g'arbiy Osiyo xalqlari orasida tarqalgan.

Qadimdan Mesopotamiya mirzolari adabiy, tarixiy asarlarni sopol, teri, loy lavhalarga yozib, o'ziga xos kitoblar yaratganlar va kutubxona-

¹ Силичев Д.А. Культурология. Учебное пособие для ВУЗов. стр. 46.

larni tashkil qilganlar. Bunday kutubxonalar Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur kabi shaharlarda mavjud bo'lgan. Ularning ichida eng kattasi Ossuri podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi bo'lib, unda 30 mingdan ortiq xatli lavhalar saqlangan.

Diniy-mifologiya bo'yicha Shumer Misrdagidan farq qiluvchi tizimga ega edi. Garchi bu yerda ham shahar hukmdorini Xudoning yerdagi avlodi deb qaralsa-da, biroq narigi dunyo to'g'risidagi tasavvurlar Misrdagi singari katta ahamiyatga ega bo'lolmadi. Kohinlar ham muhim ijtimoiy qatlam sifatida shakllana olmadi.

Shumerlarda har bir shahar-davlat o'zining homiysi – Xudosiga ega edi. Shu bilan birga, butun Mesopotamiyada sig'inuvchi umumiy xudolar ham mavjud bo'lgan. Shulardan osmon xudosi – An, yer xudosi – Enlil, suv xudosi – Enki.

Moddiy madaniyat sohasida Shumerda arxitektura qurilishi sohasi muhim o'rin tutgan. Bu yerda xom g'isht kashf qilingan bo'lib, ulardan xramlar (ibodatxona) – olti, yetti qavatli zikkuratlar qurilgan. Ularning ichida taniqlisi Ur shahridagi «Xram-tog'i» (er. avv. XXII-XXI asrlar) edi. Zikkuratlar observatoriya vazifasini ham bajarganlar. Osmon jism-lari harakatini kuzatish bilan astronom kohinlar shug'ullangan. Qadimgi Mesopotamiya astronomlari Quyosh va Oy tutilishini oldindan bilganlar. Ular quyosh yili 365, oy yili 354 kunligini aniqlab, shu asosda astronomiya taqvimini tuzganlar.

Haykaltaroshlik sohasida kichik hajmdagi haykalchalarni ibodatxonalar uchun yasalgan. Misol uchun Lagashdagi ayol haykalchasida (bo'yi 26 sm.) etnik qiyofa belgilari ham namoyon qilingan. Bu davrga taalluqli misdan yasalgan Sargonning boshi tasvirlangan haykalchada podshoning botirligi, kuchli irodasi va qahrli xarakteri ifoda qilingan.

Shumerda badiiy adabiyot rivoji yuqori darajaga ko'tarilgan. Noyob asarlar jumlasiga «Dehqonchilik almanaxi», «Gilgamesh haqida doston» kirib, unda Gilgamesh va Enkidularning do'stligi, qahramonliklari va sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

Mil. avv. III minginchi yil oxiriga kelib Shumerning inqirozga uchrashi tufayli uni Bobil bosib oladi. Bobil tarixi ikki davrga bo'linib, Qadimgi davri mil. avv. II mingyillikning birinchi yarmini va yangi davri mil. avv. I mingyillikning o'rtalarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi davrning eng cho'qqiga chiqqan vaqti podsho Xammurapi (1750-1732) hukmronlik qilgan yillarga to'g'ri keladi. Xammurapi yirik davlat tuzib, bu davlatni o'zi tuzgan qonunlar asosida boshqargan. Xammurapi to'plami mixxat yozuvida bazalt tosh ustuni sathida bitilgan. Qo-

nunlar to‘plami 282 moddadan iborat bo‘lib, u kirish, qonunlar va xulosadan iborat. Kirish qismida qonunlarni chiqarishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o‘rnatishdan iborat, deb ko‘rsatilgan. Unda podsho ulug‘lanib, ko‘klarga ko‘tarilgan. Qonunlarda xususiy mulk himoya qilingan. Jumladan: agar kimki ibodatxonaning yoki podshoning mulkini o‘g‘irlasa, u o‘ldirilishi lozim; o‘g‘irlik molni olgan kishi ham o‘ldirilishi kerak... Xammurapi qonunlari o‘z davrining muhim tarixiy, yuridik hujjati hisoblanadi. Balandligi 2 m bazalt ustunida Xammurapining tik turgan holida kursida o‘tirgan quyosh va adolat xudosi Xamash qo‘lidan hokimiyat belgisi – tayoqni olayotgan holati tasvirlangan. Bu jihatdan u tasviriy monumental asar hamdir.

Yangi Bobilning gullab-yashnashi podshoh Navuxodonosor (605-562) davriga to‘g‘ri keladi. Uning davrida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri «Semi-ramidaning osma bog‘lari» qurilgan bo‘lib, uni sevgi ramzi deb ham atashadi.

Shu davrga mansub «Bobil minorasi» (balandligi 90 m) – zikkurati o‘z davrining eng ulkan arxitektura inshooti bo‘lgan. Bu minorani Gerodot ko‘rib hayron qolgan. Minora to‘g‘risida Bibliyada ham eslatib o‘tiladi¹.

Qadimgi Bobilda matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarga qiziqish erta boshlangan. Yerlarni o‘lchash, masofani aniqlash, hosilni hisoblash va savdo-sotiq ishlarini yuritish uchun matematika va geometriya kerak bo‘lgan. Bobilliklar son va sanashni bilganlar. 100 va 1000 liklar alohida belgi bilan ifoda etganlar, hatto doiraning 360⁰ ekanligini aniqlaganlar.

Mesopotamiyada qadimdan boshlab maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularda o‘ziga to‘q kishilarning farzandlari ta‘lim olgan. Maktablarning quyi sinflarida adabiyot, til, grammatika fanlari o‘qitilgan. Yuqori sinflarida esa astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyot va veterinariya hamda diniy darslar o‘tilgan. Maktablar davlatni boshqarish uchun xodimlar tayyorlagan.

Mesopotamiyadagi uchinchi kuchli davlat – Ossuriya edi. Ossuriya mil. avv. III mingyillikda tashkil topib, mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida gullab yashnadi. Ossuriya yaqin Sharqda savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashganligi sababli tez orada kuchli davlatga aylandi. Ossuriya madaniyatida yetakchi o‘rinni arxitektura egallardi. Arxitektura obidaları ichida eng kattalari Dur-Sharrukinda qurilgan podsho Sargon II ning saroy majmuyi va Nineviyadagi Ashshurbanipalning saroyidir. Mazkur saroy devorlarida haykallar tasviri (hayvonlar) aks ettirilgan. Ossuriyada saroy devorlarida podsho hayotidan lavhalar va ta-

¹ «Bobil minorasi»ni mil. avv. VI asrda Eron Bobilni istilo etgach, istilochilar tomonidan buzib tashlangan.

biat ko‘rinishlarini aks ettirish avj olgan. Masalan, podsho Ashshurba-nipalning Nineviyadagi saroyining devorlarida «Katta sherlar ovi» tasvirida yaralangan, o‘layotgan va o‘lgan sherlarning holatlari ustalik bilan aks ettirilgan.

Yuqorida qayd qilinganidek, Mesopotamiyada ko‘p xudolik mavjud bo‘lib, oy xudosini shumerliklar – Nishar, akkadliklar esa Sin deb ataganlar. Quyosh xudosini shumerliklar – Utu, akkadliklar esa Shamash deb nomlaganlar. Venera sayyorasi xudosini shumerlar – Ianni, akkadliklar o‘z ma’budasi Ishtar bilan taqqoslaganlar. Dastlab qurbonlikka odamlar so‘yilgan, keyinchalik qo‘y va qo‘zilar qurbon qilingan.

Xulosa qilib aytganda, bu o‘lkada tabiiy iqlimning qulayligi, yerosti boyliklarining mavjudligi, geostrategik joylashuvning mosligi – bular boshqa o‘lkalarga nisbatan ertaroq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning vujudga kelishiga hamda rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Moddiy madaniyatning rivojlanishi esa ma’naviy madaniyat rivojlanishiga olib keldi. Ilk davlatlarning vujudga kelishi bilan esa madaniy taraqqiyot darajasi yanada tezlashdi. Natijada Mesopotamiya ilk sivilizatsiya beshiklaridan biriga aylandi.

3.3. Qadimgi Hindiston madaniyati

Hindiston haqli ravishda qadimgi Sharqning yuksak madaniyatli mamlakatlaridan biridir. Hindiston yarim oroli qadimdan tabiiy rang-baranglik, boy o‘simlik, hayvonot va qimmatbaho yerosti boyliklariga ega bo‘lgan. Yarimorolda sersuv Hind va Gang kabi daryolar mavjud.

Mil. avv. V mingyillikning oxiri IV mingyillikdan boshlab Hind daryosi vodiysida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan. IV mingyillik o‘rtalariga kelib bu joyda o‘ziga xos eng qadimgi hind madaniyati vujudga kelgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qishloq va shaharlar paydo bo‘lgan. Nihoyat, Hind daryosi va uning Panjob viloyatida qadimgi davlatlar yuzaga keladi. Bu davlatlarning Mohinjo-Daro, Xarappa kabi katta shaharlari bo‘lgan. Mohinjo-Daro hozirda Pokiston hududida joylashgan bo‘lib, shaharning maydoni 270 gektardan iborat. Bu yerdan arxeologlar ko‘chalar, pishiq va xom g‘ishtdan qurilgan turarjoylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsho qarorgohining qoldiqlarini topishgan. Shaharda pishiq g‘ishtdan qurilgan suv tarmog‘i va kanalizatsiya ham bo‘lgan. Badavlat kishilarning uylari, shuningdek, ibodatxonalar 2-3 qavatli qilib pishiq g‘ishtdan 4,5 ming yil avval qurilgan.

Xarappa shahridan arxeologlar 500 ga yaqin yodgorliklar topishgan. Shahar qurilishi Mohinjo-Daro bilan deyarli bir xil. Shaharda me'morchilik, to'qimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, zargarlik, qurolsozlik ancha rivoj topgan. Xarappaliklar o'zlarining iyeroglif yozuvlariga ham ega bo'lgan¹. Ikkala shaharda ham yirik g'alla omborlari topilgan bo'lib, bu davlatni markazlashganlik darajasini ko'rsatadi. Hindlar dunyoda birinchi bo'lib paxtadan mato to'qib, kiyimlar tikkanlar, chunki shahardan kiyim tikish, qurolsozlik ustaxona qoldiqlarni topilgan. Xarappa suv yo'li va quruqlik orqali shumerlar bilan savdo aloqalari olib borgan ilk quldorlik davlati edi.

Mil. avv. II mingyillik o'rtalaridan boshlab Eron va Turon orqali Hindistonga ko'chmanchi, chorvador oriy qabilalari bostirib kiradi. Ular Gang va Panjob daryo vohalarining unumdor yerlariga kelib o'rinishganlar va keyinchalik mahalliy xalq bilan aralashib ketganlar. Oriylar bilan mahalliy xalq o'rtasidagi qonli janglar hindlarning xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bo'lgan «Mahabxarat» va «Ramayana» dostonlarida ham aks ettirilgan.

Hindlar o'zlarining qadimiy yozuvlariga ega bo'lganlar. Ularda astronomiya va matematika ham ancha rivoj topgan. Hindlar quyosh va suv soatlaridan foydalanganlar, o'zlarining taqvimlarini tuzganlar. Xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi – Vedalar, gimnlar, qo'shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat to'plam tuzilgan. Vedalarda hayot va o'lim masalalari bo'yicha fikr yuritiladi. Bu ta'limotga ko'ra jon doimo bo'ladi va u kishi vafotidan keyin boshqa tanaga o'tadi. Hindlarning Veda ta'limoti inson mutlaq jon bilan qo'shilishi, o'z jonini boshqara olmasligi, bu juda qiyin bo'lishiga qaramay uning mumkinligi to'g'risida fikr-mushohada yuritiladi. Ana shu ta'limot asosida yoga harakati kelib chiqqan.

Vedalarda qadimgi Hindiston aholisining Varnalarga (kastalarga) bo'linishi haqida ham ta'limot bor. Shu ta'limot asosida qadimgi diniy e'tiqod, Braxmanizm paydo bo'lgan. Braxmanizm qadimgi diniy e'tiqodlardan biri bo'lib, mil. avv. IX-VIII asrlarda vujudga kelgan. Bu e'tiqodga ko'ra, Xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb hisoblagan. Hind ruhoniylari braxmanlar deb atalganlar. Braxmanlarning ta'kidlashicha, xudo odamlarni o'z tanasining turli qismlaridan yaratgan. Xususan, xudo o'z og'zidan braxmanlarni; qo'llaridan kshatrilarni – jangchi, rojalarni; sonlaridan vayshoqlar – hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlarni; loyga belangan oyoqlardan esa shudralar, ya'ni xizmatkorlarni yaratgan deb ta'lim beriladi. Shulardan keyin esa eng past toifa – hazar qilinadiganlar yaralgan. Shunday qilib, braxmanlar ta'limotiga ko'ra, xudo odamlarni turli toifalarga – kastalarga bo'lib,

¹ Ахмедова Э. Культурология. Мировая культура.105-бет.

bola qaysi kastadan tug‘ilgan bo‘lsa, u umrbo‘yi o‘sha toifada qolishi kerak bo‘lgan. Toifalarni aralashib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Mil. avv. VI asrda Hindistonda buddizm dini paydo bo‘ladi. Bu ta’limotning asoschisi Gautama Shakyamuni. U shimoliy Hindistonda mil. avv. 566-476 yoki 563-473-yillari yashagan. Buddha so‘zi sanskritcha oliy bilimlarni egallagan, haqiqatga erishgan ma’nosini beradi. Buddizm braxmanizmdagi odamlarni kastalarga bo‘linishini qoralab, jamiyatdagi barcha kishilar teng bo‘lishini e’tirof etadi.

Buddizm ta’limoti to‘rt haqiqatda o‘z ifodasini topgan:

1. Turmush azob-uqubatlardan iborat;
2. Azob-uqubatlar sababi – kishilarning istaklari va nafslaridir;
3. Azob-uqubattan qutilish uchun kishilar o‘zlarining istak va nafslarini tiyishlari kerak;
4. Azob-uqubatlardan xalos bo‘lish uchun Buddha kashf etgan qoidalarga amal qilishi kerak.

Buddizm ta’limoti asosida boshqa odamlarga nisbatan yaxshi insoniy munosabatda bo‘lish, boshqa tirik mavjudodga nisbatan zo‘ravonlik ishlatmaslik, ayniqsa, o‘ldirishni man etish g‘oyasi yotadi. Demak, inson axloqida gumanizm asosiy o‘rin tutadi.

Mil. avv. III asrda podsho Ashoka tomonidan Buddizmni qabul qilinishi bilan u davlat diniga aylandi. Buddizm dinining nodir bir tomoni bu, boshqa dinlarga nisbatan murosasizlik qilishdir.

Eramizning I asrida Buddizm Markaziy Osiyo orqali Xitoyga, Xitoydan Koreya, Yaponiya, Mo‘g‘iliston va Tibetga tarqaladi.

Mil. avv. III-II mingyilliklardayoq Hindistonda hisobning o‘nli tizimi tarkib topgan edi. Shuningdek, nolni bildiradigan belgi birinchi Hindistonda ishlatilgan. Bu yangilikni dunyoga ommalashtirgan siymo bu buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiydir.

Tabobat olamida hind arboblari kasallikni aniqlash va uni davolashda katta yutuqlarga erishganlar. Davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar 1000 ga yaqin bo‘lib, silash, uqalash, vanna qilish, jarrohlik usullaridan keng foydalanganlar. Hind kimyogarlari bo‘yoq va turli kimyoviy moddalarni kashf etganlar. Hindiston shaxmat o‘yining vatani hisoblanadi.

Me’morchilikda ham katta yutuqlarga erishilgan. Hind ustalari g‘isht va boshqa buyumlardan ajoyib imoratlar, saroylar qurganlar. Mil. av. II – mil. VII asrlarda Bombay yaqinida tog‘ni o‘yib, 29 ta budda ibodatxona, ya’ni Ajanta majmuasi bunyod etilgan. Bu dunyo madaniyatida arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san’atning o‘ziga xos sintezi hisoblanadi. Chunki uning qurilishida yuqorida ko‘rsatilgan san’at turlarining hammasidan foy-

dalanilgan. Mil. avv. 950 va milodning 1050-yillari davomida Chandellas sulolasi davrida qurilgan Vxodjuraxo – ertaksifat sevgi bayrami ibodatxonasi o‘zining ajabtovur ko‘rinishi jihatidan qovunga o‘xshaydi. Hindlar o‘sha davridayoq haykaltaroshlik sohasida o‘zining nozik did, ulug‘vorlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi, kishini hayratga soluvchi asarlarni yaratganlar. Bularga xudo Vishna (Krishna) va Shiva timsolidagi haykallarni nisbat berish mumkin.

Hind madaniyati O‘rta Osiyo, Xitoy singari qo‘shni mamlakatlar xalqlari ma’naviy hayotiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Shunday qilib, qadimgi Hindiston madaniyati jahon sivilizatsiyasi-ning qadimgi beshiklaridan biri sifatida shuhrat topib, u jahon madaniyati rivojiga o‘z samarali ta’sirini ko‘rsata olgan.

3.4. Qadimgi Xitoy madaniyati

Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi davlat. Tabiati keskin o‘zgaruvchan va mo‘tadil. Markaziy Xitoy tog‘laridan boshlanib Tinch okeani havzalariga quyiladigan Xuanxe (Sariq daryo) va Yantszi daryolari Sharqiy Xitoy pasttekisligi orqali oqib o‘tadi. Yog‘ingarchilik vaqtlarida Xuanxe daryosi toshib, ko‘plab tashvishlar keltirganligi uchun unga xitoyliklar «Tentak daryo», «Xitoyning sho‘ri», «Ming xil kulfat keltiruvchi daryo» deb nom berishgan. Shu daryolarning bo‘ylaridagi yerlar unumdor bo‘lib, ilk dehqonchilik vujudga kelgan. Bu o‘lka qadimdan o‘simliklar va hayvonot olamiga boy, yerosti qazilma boyliklari ham mashhur bo‘lgan.

Xitoy sivilizatsiyasi mil.avv. 3-mingyillik oxirida shakllandi. Xitoy tarixini birinchi bo‘lib, tarixchi Sima Szyan 30 bobdan iborat «Tarixiy xotiralar» asarida yoritilgan sulolaviy davrlarga bo‘lgan. Qadimgi Xitoyda ko‘hna Mesopotamiya va Misr singari qadimiy o‘ziga xos madaniyat yaratilgan.

Xitoyliklar Shan sulolasi davrida (mil.avv. 2-minginchiligi yil o‘rtalarida) o‘z yozuvini yaratganlar. Bu yozuv bir necha o‘n ming belgi-iyerogliflardan iborat. Milodning I asrigacha bu iyerogliflar hozirgi yozuv ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Qadimgi Xitoy yozuvi asosida keyinchalik Koreya, Vyetnam va Yapon yozuvlari paydo bo‘ldi.

Chjou davrida Xitoyda metall tangalarni (dunyoda birinchi marta) muomalaga chiqarildi¹. Dengizlarda suzish uchun kompas ixtiro qilingan (uning strelkasi Shimolni emas, Janubni ko‘rsatgan). Dunyoda birinchi bo‘lib, Xitoyda porox ixtiro qilingan bo‘lib, undan bayramlardagi mushakbozlikda

¹ Milodning 700-yili Xitoyda birinchi marta qog‘oz pul muomalaga chiqarilgan.

foydalanilgan. Artilleriya, miltiq, arbalet-miltiqlar ham dastlab Xitoyda yaratilgan.

Mil. avv. I asr oxiri va yangi asr arafasida xitoyliklar latta, po'stloq va bambuk aralashmasidan qog'oz tayyorlaganlar. Qog'oz yog'och, bambuk va shoyiga qaraganda arzon bo'lib, u yozish va saqlash uchun qulay hisoblangan. Qog'ozning ixtiro qilinishi maorif, fan, madaniyatning rivojlanishi va davlat ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk Xitoy devori qurilishi mil. avv. IV asrda boshlanib, bir necha asrlar davomida shimoldagi Xunn qabilalarining hujumlaridan saqlanish va savdo-sotiq ishlarini ko'zlab qurilgan. Devor Leodun qo'ltig'i qirg'og'idagi Shayxayguan shahridan boshlanib, g'arbda Dunxuan qal'asigacha davom etgan. Devorning umumiy uzunligi 5.000-6.000 km, uning balandligi joyiga qarab 6-10 metr, qalinligi 5,5-7 metr bo'lib, soqchilar uchun har 100-200 metrda mustahkam baland burj va minoralar qurilgan.

Xitoy ajoyibotlaridan yana biri, bu ipakning kashf etilishi va Buyuk ipak yo'liga asos solinishidir. Imperator rafiqasi Si-Lingchi tomonidan mil. avv. 2600-yili ipakning kashf etilishi va mil. avv. 128-yili Xitoy sayyohi-diplomati Chjan-Szyan tomonidan Buyuk ipak yo'liga asos solinishi katta tarixiy o'zgarish bo'lgan.

Buyuk ipak yo'li birgina savdo-sotiq bilan cheklanibgina qolmay u ayni paytda diplomatiya, diniy va ma'naviy qadriyatlarni tarqalish yo'li ham edi. U Sharq va G'arb sivilizatsiyasini bog'lovchi yo'l bo'lib, unda Markaziy Osiyo xalqlari vositachilik rolini o'ynaganlar.

Shuningdek, badiiy madaniyat Bobil, Misr, Hindistonda dinga tobelik xususiyatiga ega bo'lgan bo'lsa, Xitoyda badiiy asarlar ko'proq dunyoviy yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra «Shi szin»ga («Qo'shiqlar kitobi»ga) madhiyalar, xulq va urf-odatlar masalalari kiritilgan. She'riyat lirikasida va tasviriy san'atda tabiat go'zalligi har bir kishiga tushunarli tarzda hayotiy, zavq beruvchi tarzda tasvirlangan. Haykaltaroshlar dimog'dor amaldor, laganbardor xizmatchi va holdan toygan qullarning og'ir mehnatini mahorat bilan aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy tabiblari kasallik va jarohatlarni davolashda uqalash, igna sanchib davolashdan, o'simlik va hayvonlardan hosil qilinadigan dori-lardan, xususan jenshen, kiyik shohidan olinadigan panti, choy va boshqa dori-darmonlardan keng foydalanganlar. O'sha davrdayoq Xitoy tibbiyotida mingdan ortiq dorilar bo'lgan. Qadimgi Xitoy tabiblari ichida Va Shu Xe, Ban Sio va Xua Tu lar mashhur bo'lgan. Van Shu tibbiyotga oid «Ney-Szin» («Odam tabiati va hayoti»), Ban Sio esa «Qiyinchilik haqida kitob» kabi asarlar yozganlar.

Mil. avv. XII-VI asrlarda Xitoyda dunyoni miqlar orqali tasavvur qilishdan falsafiy mushohada qilishga o'tiladi. Falsafa o'zining «oltin asr» deb nomlangan o'sha davrning cho'qqisiga chiqadi. Falsafiy qarashlar ichida ikitasi muhim ahamiyatga ega.

Bulardan bittasi Konfutsiylik bo'lib, uning asoschisi Kun Futszi yoki Kun-tszu edi. U mil. avv. 552-yilda zodagon oilada tug'ilgan bo'lib, 15 yoshidan o'zi mutolaa qilib, ma'lumot olgan. Uning ta'limotida qadimgi urfodatlar va ularga to'la rioya qilish muhim o'rin tutadi. Hammaning ularga amal qilishi jamiyatni halokatdan qutqarib, uni gullab-yashnashiga olib keladi deb uqtiriladi. Davlat to'g'risidagi ta'limotda «... agar podsho haqiqiy podsho o'rnida bo'lsa, fuqarolar – fuqaro o'rnida, ota – ota, ona – ona o'rnida, bola – bola o'rnida bo'lsagina davlat gullab-yashnaydi» deyiladi. Agar davlat o'z nomiga munosib bo'lsa, unda yetarlicha oziq-ovqat, yetarlicha qo'shinlar bo'lishi va unga ishonch bo'lishi zarurligi ko'rsatiladi.

Konfutsiylik ta'limoticha insonparvarlik, odob, yuksak fazilat tufayli jamiyat rivoj topadi, adolat tantana qiladi. Burchni ado etish tufayli inson kamolotga erishadi. Uning negizida quyidagi hayotiy tamoyillar yotadi:

1. «Sen o'zing nimaga erishishni istasang, unga boshqalarning ham erishishiga ko'maklash»;

2. «Sen nimani orzu qilmasang, uni boshqalarga ham ravo ko'rma».

Konfutsiy mil. avv. 479-yili 72 yoshida vafot etgan. Uning ta'limoti Xitoyda va uning tashqarisida hozirgacha ham mashhurdir. Xitoyning Syuyfu shahrida dunyoga mashhur «Konfutsiy yodgorlik majmuyi» bunyod etilgan (mil. av. 56 – yil – 1911-yillar).

Ikkinchisi, Daosizm ta'limoti, Dao – xitoycha aql bilan bilib bo'lmaydigan hayotiy butunlik, «Qonun», «Yo'l» ma'nosini bildiradi. Uning asoschisi – Lao-Szi (mil. av. VI-V asrlar) bo'lib, uning taxallusi «Dono qariya» bo'lgan. Daosizm ta'limotining markazida tabiat, koinot, inson turadi. Dao – ko'rinishlarga ega bo'lmagan tanasiz, absolut kuch. Dao hamma narsalarni, shu jumladan dunyoni yaratgan. Dao bo'yicha dunyo doim harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Daosizm «Dao»ga rioya qilish insonga «O'z tabiatini butunlikda saqlab qolishga» imkon beradi, deb da'vat etadi.

Qadimgi Xitoyda adabiyot ham ancha rivoj topgan. Avvalo, xalq og'zaki ijodi, keyinchalik yozuvning kelib chiqishi bilan yozma adabiyot ham rivojlangan. Jumladan, xalq qo'shiqlari asosida «Shi-tszin» to'plami, tarixiy, falsafiy «Chun-tsyu» (Bahor va kuz) kitoblari diqqatga sazovor.

Qadimgi Xitoy tarixchilari ichida mil. avv. 145-90-yillarda yashagan Si-ma Szyan mashhur bo'lib, yuqorida qayd qilingan «Tarixiy xotiralar» asa-

rini yozgan. Unda Xitoyning eng qadimgi davridan II asrgacha bo'lgan davri yoritilgan. Milodning 32-92-yillarida yashagan Ban Gu o'zining «Xan podsholigi tarixi» asarini yozgan.

Qadimgi Xitoyning kulolchilik mahsulotlari, ayniqsa, chinni buyumlar hozirgacha o'zining nafisligi, betakrorligi, pishiqligi bilan ajralib turadi. Ularda ishlatilgan rang, tanlangan manzaraning go'zalligi kishini lol qoldiradi.

III asrga kelib yagona Xan podsholigining Vey, Shu va U kabi mayda uchta davlatlarga bo'linib ketishi bilan Qadimgi Xitoy davri tugaydi va o'rta asrlar davri boshlanadi.

Shunday qilib, Qadimgi Xitoy o'ziga xos betakror madaniyat bilan jahon madaniyatini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ta'siri, ayniqsa, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida kuchliroq aks etdi.

3.5. Qadimgi O'rta Osiyo madaniyati

O'rta Osiyo ham ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, uning moddiy va ma'naviy madaniyatining boshlanishi va rivojlanishi paleolit, eneolit, bronza davrlarida sodir bo'lib borgan.

Qadimgi madaniyatning tasviriy san'at namunalarini O'zbekistonning janubida Zarautsoy yonidan topilgan toshga chizilgan rasmlar, chunonchi, o'sha davrdagi ov manzarasi misolida tasavvur etish mumkin.

Eneolit va bronza davrlarida (mil.avv. IV-II ming yillar) sopol buyumlar, bronzadan, suyakdan mayda murakkab qurollar yasaladi va bu jarayon asta-sekin moddiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Mil.avv. 2 minginchi yil oxiri 1 mingyilliklar boshlarida O'rta Osiyoda muhim tarixiy etnografik voqealar sodir bo'ladi: Baqtriya, Sug'd va Xorazm kabi tarixiy-madaniy hududlar, qadimgi baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'dlar, saklar singari etnik qavmlar shakllanadi. Shu etnoslar asosida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya, so'ngra Sug'd, Qang'a, Parkana davlatlari vujudga keldi. Shu davrda Midiya mixxat yozuvi asosida Xorazm, Baqtriya, Sug'd, O'rxun-Enasoy yozuvlari paydo bo'ldi va mintaqada xalq og'zaki ijodi bilan birgalikda yozuv madaniyati rivojlandi.

Biz uzoq ajdodlarimiz to'g'risida asosan «Avesto»da, ko'proq yunon tarixchilari Gerodot, Polien, Kvint Kursiy Ruf, Rim adibi Yustinning, Pompey Trog, Plutarx, Arrian, Diodot asarlarida ma'lumotlarni uchratamiz.

Mil.avv. 529-329-yillar O'rta Osiyo Eron Ahmoniyolari tobeligida bo'lishiga qaramay mintaqaning moddiy rivojlanishi o'ziga xos yo'ldan bordi. Shu bilan qadimgi davrdagi O'rta Osiyo madaniyatining shakllanishi va ri-

vojlantirishga Eron, Ellin, Hind madaniyatlarining ta'siri va ularni o'zaro bir-biri bilan boyib, rivojlanib borish jarayoni ham muhim o'rin tutdi. Buyuk ipak yo'lining kuchli ta'siri o'laroq mintaqaviy, qit'alararo madaniy aloqalar kuchayib bordi.

Shahar madaniyatining (arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san'at) gulab-yashnashida Ellinizm madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Masalan, to'g'ri chiziqli, to'rtburchakli uylar, Ark (ustunli), hammomlar qurilishi bizga Yunonistondan kirib kelgan. Numizmatika sohasida Yunon-Baqtriya davlatida chiqarilgan noyob metall tangalar bizgacha yetib kelgan.

Haykaltaroshlik va tasviriy san'atda O'rta Osiyo, Yunon va Hind uslublari qo'shib, buning samarasida Kushonlar va Eftaliylar davlatlarida noyob asarlar yaratilgan. Bularga «Musiqachi ayollar», Varaxsha, Xolchayontepa kabi joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari misol bo'la oladi. Ko'p xudolikdan yakka xudolikka o'tish davrining birinchi dunyoviy dini – Zoroastrizm (Otashparastlik) va uning ilohiy kitobi (21 kitobdan iborat) «Avesto» vatani Qadimiy Xorazm hisoblanadi. Kitobda tilga olingan hududlar orasida eng e'zozlangani – «Aryanam Vaeju» o'troq qabilalar, chorvadorlar yashagan keng sayhonlar, daryo va ko'llar, tog'lar yon bag'rida joylashgan Xorazm o'lkasidir. Xorazmliklarning «Lazgi», «Norim-norim», «Orazibon» kabi jozibali raqslari ham zardushtiylikning ming yillar davomida takrorlanib kelayotgan marosim (ritual) raqslarini eslatadi. Xorazm hofizlarining «Dugoh», «Segoh», «Chorgoh», «Panchgoh» kabi qo'shiqlari ham ma'lum ma'noda qadimgi ajdodlarimizning «Goh» va madhiyalariga o'xshab ketadi.

Zardushtiylik dinining payg'ambari Zardusht ibn Sofit Tumon¹ 628-yilda Midiyaning Ragi shahrida yashagan kohin Purushasp (Sofid ibn Tumon) va uning xotini Dugdovadan dunyoga kelgan. Onasi xorazmlik sarbon Faroximning qizi bo'lgan. Zehni o'tkir, ko'plab dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan Zardusht yangi dunyoviy ilmga asos soladi. Bu ta'limotning bosh xudosi – Axura-Mazdaga sig'inishni targ'ib qila boshlaydi. Axura-Mazda olamni yaratuvchi, yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik kabi yaxshi ezgu niyatlar xudosi. Uning aksi o'laroq, Axriman esa zulmat, urush, o'lim kabi qabihliklar xudosidir. Zardushtiylik dinida olov nihoyatda muqaddas sanalgan. Quyosh yorug'lik manbayi bo'lib, olov uning bir qismi hisoblangan. Quyosh nuri barcha birliklar manbayidir (haqiqatdan ham shunday).

Zardushtiylikda Ahuramazdadan tashqari Mitra, Farna, Nohid (Anaxita), Mirrix, Xutbi kabi xudolar ham tilga olingan. Mitra-Quyosh va yorug'lik xudosi. U jangovar yigit siymosida tasvirlanadi. Farna mahalliy aholi

¹ Zardusht nomini osetin olimi professor V.I. Abayev «keksa tuyalar egasi», ingliz olimi Richard Fray «Tuyakash», rus eronshunos olimi I.M. Dyakanov «Tillarang tuya sohibi» deb tarjima qilganlar.

tilida Xumo ba'zan Anqo nomi bilan yuritilgan. U baxt va tole ma'budasi. Nana yoki Nohid hosildorlik va farovonlik ma'budasi. U bir qo'lida anor yoki olma tutgan go'zal ayol qiyofasida tasvirlanadi. Mirrix – urush va g'alaba xudosi, harbiylar madadkori bo'lib, qurollangan jangchi qiyofasida aks etadi. Xutbi – suv xudosi, qayiqchilar va miroblar homiysi, zardast yigit siymosida gavdalangan.

Bu dinda, olov, tuproq, suv va havo kabi to'rt unurni iflos qilish yoki tahqirlash eng katta gunoh hisoblangan. «Avesto»da xalq tabobati, odobi, estetikasi, sog'lom turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Unda har bir inson ezgu fikr, odil so'z va halol mehnat bilan yashashi zarurligi ko'rsatilgan.

Zardushtiylik dinidagi quyidagi tamoyillar boshqa dunyoviy dinlarda ham o'z aksini topgan. Bular:

1. 5 vaqt xudoga sig'inish;
2. Narigi dunyo to'g'risida;
3. Odamlarning ruhlarini jannat va do'zaxga ajratuvchi qil ko'prik haqida;
4. Oxirat haqida;
5. Sog'lom turmush haqida;
6. Tabiatni e'zozlash va unga to'g'ri munosabatda bo'lish haqida...

Zardushtiylik dini o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hayot va adolatni himoya qiluvchi din sifatida shakllangan. Shu sababli u Turon, Eron va Xurosonda keng tarqalgan. Jumladan, Eron Kayoniylari sulolasi Gushtasp davrida zardushtiylik davlat dini sifatida tan olingan. Gushtasp mamlakatda ko'plab otashkadalar qurdirgan, Avestoni oltin taxtachalarga yozdirib, markaziy ibodatxonalarga qo'yishni buyurgan. Eronda sosoniylar sulolasi davrida «Avesto» 21 ta kitob shaklida to'la holda yozilgan va podshoning kutubxonasida saqlangan. Kitoblar sanskrit tilida, 48 harfdan iborat pehlaviy yozuvda bitilgan. Uning to'la qismi Aleksandr Makedonskiy bosqini davrida uning qo'lga tushgan va 3/5 qismi yo'q qilingan. Chunki bunday dini, manaviyati yuqori bo'lgan xalqlarni tobe qilish oson bo'lmasligini bu jahongir fotih tushunib yetgan edi.

«Avesto»ning bizgacha yetib kelgan «Yasna», «Vidavdat», «Visparat», «Yasht» duo-yu tadbirlar, qo'shiqlar, madhiyalardan iborat qismlari milodning III-VII asrlarida qayta yozilgan. Jumladan, «Yasht»ning quyosh xudosi «Mitruga madhiya»siga bag'ishlangan qismida shunday jumlar bor:

Kim menga qilar sajda,
Kimdir pisand qilmas,
Kimdan e'zoz topdim, kimdan aldovni,
Kingadur beraman baxt va tani sog'liq,

Kingadur mashhur ajdodlar etadurman hadya,
Kimdandur barchasin tortib olarman.

Kinga dard beraman va o'lim,
Kingadur bebaxt muhtojlik,
Kingadur mashhur narsalar,
Bir zumda barchasin bunyod etarman.

(Avesto. Избранные гимны, 80-81-betlar).

Qadimgi davrda O'rta Osiyoda ko'pdinlik mavjud bo'lgan. Chunonchi, bu hududda buddizm, moniylik, shomonlik, nasroniylik dinlari hukm surgan. Bu dinlarga sig'inuvchilar o'rtasida bir-birlarini hurmat qilish, diniy bag'rikenglik tenglik amalda bo'lgan. Bu esa kishilar ongida baynalmilallik hislarini shakllantirishda muhim omillar bo'lib xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan kengfe'llik azalda mavjud bo'lib kelgan. Bu sof insoniy tuyg'u, masalan, o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy kengfe'llik, toqatlilik ularning umumiy madaniyati va ruhiyatining ajralmas qis-miga aylandi.

Shunday qilib, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy kabi O'rta Osiyo ham jahon ilk sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda ham juda qadimdan boshlab jahon madaniyati va ma'naviyatining bebahodurdonalari yaratilib kelingan. Bu esa biz vorislarda, birinchidan, buyuk o'tmishdoshlarimizga nisbatan minnatdorchilik hislarini tug'dirsa, ikkinchidan, ular bilan faxrlanish tuyg'usini hosil qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi Misrning diniy va ma'naviyati tamoyillarida ilgari surilgan g'oyalarni gapirib bering.
2. Misr ehromlari dunyoning yetti mo'jizasidan biri sifatida tan olinganligining sabablari nimada?
3. Qadimgi Old Osiyo madaniyatining yuksalishini ta'minlagan omillarni asoslang.
4. Qadimgi Bobilda ilm-fanning qaysi sohalariga asos solingan?
5. Ossuriya madaniyati ravnaqida me'morchilik va tasviriy san'atning o'rni qanday bo'lgan?
6. Budda dini Braxmanizm dinidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
7. Ajanta majmuasida san'atning qaysi turlari sintezini ko'rsa bo'ladi?
8. Konfutsiylikda qanday g'oyalar ilgari surilgan?
9. Buyuk Xitoy devori haqida fikr-mulohazalaringiz.

10. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlari hayotida muhim o‘rin tutgan tarixiy-etnik jarayonlar haqida tushuncha bering.

11. Zardushtiyluk dini tamoyillarini izohlab bering.

12. Qadimgi Sharq davri madaniyatiga doir chizmalar chizing.

13. «Semiramidaning osma bog‘lari» va «Misr ehromlari»ni aks ettiruvchi albom tayyorlang.

14. Qadimgi Sharq davri madaniyatiga oid ma‘lumotlar majmuyini to‘plang.

15. Internet tarmog‘idan olingan ma‘lumotlar asosida Qadimgi Sharq davri, ilm-fani haqida slayd va tezislar tuzing.

4-mavzu. Antik va o‘rta asrlar Yevropa madaniyati

Reja:

1. Qadimgi Yunon madaniyati. Ellinizm.

2. Qadimgi Rim madaniyati.

3. O‘rta asrlardagi dunyo qiyofasi. Yevropa O‘rta asrlar madaniyati. Xristianlik dini

4. O‘rta asrlarda ta‘lim tizimi, me‘morchilik va san‘at

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya etiladi: Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi.

Tayanch so‘z va iboralar

O‘rta asrlar. Ikonografiya. Skriptoriylar. Roman uslubi. Gotika uslubi. Vizantiya uslubi. Jangovor she‘riyat. Buyuk Karl. Bartold Regenburskiy. Foma Akvinskiy. Iogann Guttenberg. Tomizm. Neotomizm. Kutubxonalar. Ta‘lim tizimi. Yepiskoplik maktabi. O‘rta asr Yevropa oliy ta‘lim muassasalari: Sarbonna, Oksford, Kembrij, Parij universitetlari. Ilmiy darajalar. Kitob chop etish. Ilm-fan. Haykaltaroshlik. Tasviriy san‘at. Hokimiyat organlari.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Asarlar, 7-tom. – T.:“O‘zbekiston”, 1999. 132-155 betlar.

АхмедоваЭ., Габидулин Р. Культурология. Мировая культура. – Т.: Академия художеств Узбекистана, 2001.

Гуревич А. Проблемы средневековой народной культуры. –М.: “Искусство”, 1990.

Ле Гофф Дж. Цивилизация средневекового Запада. –М., 1992.

Любимов М. Искусство Западной Европы. Средние века и Возрождение в Италии. –М., 1982.

Gulmetov E. va boshqalar. Madaniyatshunoslik. Ma’ruzalar matni. –Т., 2000.

Силичев Д. А. Культурология. –М.: “Приор”, 1998.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Монтгомери У. Влияние Ислама на средневековую Европу. –М.: “Наука”, 1972.

Петрухинцев Н. Н. XX лекций по истории культуры. –М.: “Вла-рис”, 2001.

Рияжлов В. Н. Искусство средних веков. –М., 1988.

4.1. Qadimgi Yunon madaniyati. Ellinizm

Antik davr madaniyati – jahon sivilizatsiyasining beshigi bo‘lib, u davrda filosiya, madaniyat fan sifatida shakllandi. O‘sha davr yunonlarining turmush tarzi, fikrlashi, ma’naviyati hozirgacha ham insonlarni hayajonga solib kelmoqda.

Antik Yevropa madaniyatining shakllanishiga Mesopotamiya va Misr madaniyatining, ayniqsa, arifmetika, astronomiya, mifologiya va teologiya sohalarida erishilgan dastlabki muhim yutuqlarining ahamiyati katta bo‘ldi.

Qadimgi Yunon madaniyati er.avv. XXVIII asrdan er.avv. II asrgacha davom etdi. Yunonlar o‘zlarining vatanini Ellada deb ataganlar. Qadimgi Yunon madaniyatining eng yuqori darajaga ko‘tarilgan davri er.avv. V-IV asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Yunon madaniyati jahon madaniyati tarixida favqulodda hodisa sifatida o‘zini namoyon etdi.

Ellada hozirgi zamon davlatlarining boshqaruv shakli – respublika va demokratiyaning vataniga aylandi. Uning namunaviy shakli Perikl davri (443-429) hisoblanadi. Yunonistonda jismoniy va aqliy mehnat ik-kiga ajraladi. Jismoniy mehnat bu qullarga, aqliy mehnat qilish esa ozod kishilarga taalluqli edi. Yunonlar davlat va shaxsiy mulk, jamoa va shaxsiy manfaatlarni o‘zaro juda mohirona bog‘lay olganlar. Aristokratiya odobi – musobaqa tamoyillari asosida birinchilardan bo‘lishga intilish qadriyati keng quloch yoydi. Bunday o‘yinlar sahnasi: Olimpiya o‘yinlari¹, munozara, jang maydoni, teatr sahnalari edi.

¹ Olimpiya o‘yinlari Piloponesning g‘arbidagi Qadimgi Olimpiya shahrida er.avv. 776-yildan boshlanib, har 4 yilda bir marta o‘tkazilgan bo‘lib, unda: chopish, sakrash, kurash tushish, disk otish, nayza otish, mushtlashish va to‘rt ot qo‘shilgan ikki gildirakli aravalar musobaqasi o‘tkazilgan.

Yunonlar uchun erkinlik eng yuqori qadriyat hisoblanib, uning uchun hatto o'limga ham tik borganlar. Leonid jasorati yoki Prometey haqida afsona bunga misoldir.

Yunonlarning turmush tarzi haqiqat, go'zallik, mehribonlik, me'yor kabi kategoriyalar uyg'unligi bilan belgilangan. Ular uchun tabiat go'zalligi va uning inson go'zalligi bilan uyg'unligi haqidagi tushuncha muhim ahamiyatga ega edi. Qadimgi yunonlar uchun me'yor tushunchasi muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Yunoniston tabiatining o'zini go'zalligi, me'yoriyligi (bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'igacha km), Olimpiya tog'ining unga baland emasligi, iqlimning mo'tadilligi qadimgi yunonlar dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun yunonlarda xususiy mulk erkin kishi uchun ajralmas atribut bo'lsa, ikkinchi tomondan ochko'zlik, molparastlikni qoralaganlar.

Qadimgi Yunon madaniyati beshta davrga bo'linadi:

Egey madaniyati (er.avv. 2800-1100-yillar).

Gomer davri (er.avv. XI-IX asrlar);

Arxaik madaniyat davri (er.avv. VIII-VI asrlar);

Klassik (yuqori darajadagi) davri (er.avv. V-IV asrlar);

Ellinizm davri (er.avv. 323-146-yillar).

Egey madaniyatini ko'pincha Krit-Miken madaniyati deb ham atashadi. Buning sababi Krit oroli va Miken Yunon madaniyatining asosiy markazlari sanalgan. Shuningdek bu davrni afsonaviy podsho Minosning nomi bilan Minoy madaniyati deb ham atashadi.

Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarning oxiri, ikki minginchi yillarning boshlarida Krit orolida Knoss, Festa, Mali va Kato-Zakro shahar davlatlari vujudga keldi. Shaharlarning tutgan o'rmini hisobga olinib, ba'zida ularni «Saroy madaniyati» deb ham atashadi. Bu davrda asosiy mashg'ulot qishloq xo'jaligi bo'lib, bunda don, uzum, zaytun yetishtirilgan. Xo'jalikda chorvachilik, hunarmandchilik va savdo ham muhim o'rin tutgan.

Krit madaniyatiga taalluqli Knoss saroyi «Labirint» nomi bilan tarixga kirgan bo'lib, uning birinchi qavatigina saqlanib qolgan. U ko'p qavatli inshoot bo'lib, 300 xonadan iborat, bir gektardan ko'proq yerni egallagan. Saroyda suv o'tkazuvchi moslama (vodoprovod), kanalizatsiya va vannalar, hunarmandchilik ustaxonalari bo'lgan. Saroyning mahfiy xonasidan ayol xudoning qo'lida ilonni ushlab turgan haykalchasi topilgan. Saroyning devorlarida hozirgacha «Gullar teruvchi», «Qushni tutishga shaylanayotgan mushuk», «Ho'kiz bilan o'yin» kabi rasm manzaralari saqlanib qolgan.

Krit o'zining chiziqli harflaridan iborat o'z yozuviga ega bo'lgan. Lekin bu yozuvni hanuzgacha hech bir olim o'qib chiqishga ega bo'lmagan.

Miloddan avvalgi 1450-yilda Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasi kuchli zilzila va suv toshqini tufayli falokatga uchragan.

XI-IX asrlarning Gomer asri deb atalishi sababi shuki, bu davrni yoritib beruvchi asosiy manba Gomerining «Odisseya», «Iliada» dostonlari bo'lgan. Bu davrda davlatchilik, shahar – saroy turmush madaniyati va yozuv yo'q bo'lib boradi, mehnat qurollarini temirdan yasashga o'tilishi natijasida mehnat unumdorligi ancha o'sadi, dehqonchilik va chorvachilik rivoj topadi. Savdo-sotiqda esa ayirboshlash vositasi qoramollar hisoblangan.

Arxaik davrga xos xususiyati shundaki, Yunonistonda uch asr davomida qishloqdan shaharga, urug'-qabilachilik, patriarxat munosabatlari-dan klassik qulchilik bosqichiga o'tish uchun zamin etiladi.

Shahar – davlat ijtimoiy hayotining asosiy shakli bo'lib qoladi. Davlat tuzumining shakllari – monarxiya, oligarxiya, aristokratik va demokratik respublika bo'lgan. Yunonlar finikiyaliklarning yozuvi asosida 24 harfdan iborat ham unli, ham undosh tovushlarni ifodalovchi o'z alifbolarini yaratganlar.

Insonni tarbiyalash uchun ikki yo'nalish bo'yicha ta'lim tizimi vujudga keltirilgan: a) «gimnastika»; va b) aqliy yo'nalishdagi barcha madaniyat turlari, chunonchi, tabiiy fanlar, falsafa, notiqlikni o'rganish. Ozod yunonlarning bolalari 7 yoshdan boshlab boshlang'ich maktabga borganlar. Badavlat kishilarning bolalari esa 18 yoshgacha gimnaziyalarda o'qishni davom ettirganlar. Bolalar maktablarda chiroyli yozishga, aniq va ravon so'zlashga o'rgatilgan. Ular Gomer, Gesiod va boshqa shoir-larning she'rlarini va dostonlarini yod olganlar. Yunonlar ashula aytish, raqs-ga tushish, lira sozini chalishni bilmaydiganlarni o'qimishli deb hisoblama-ganlar. Bolalar ulg'aya borgan sari yugurish, kurashga tushish, sakrash, disk, nayza otish va qilich chopish bilan shug'ullanganlar. Shu tariqa, ularni vatan himoyachilari sifatida tayyorlangan. Yunonistonda ta'lim tizimining yutug'i tufayli polisning erkin kishilari orasida savodsizlik yo'q edi. Jamiyat qadriyatleri va axloqiy normalar shakllana boradi. Bunda vatanparvarlik va fuqarolik burchlari muhim o'rin tutgan.

«Gretsiya mo'jizasi» nomi bilan tarixga kirgan klassik davrda (er.avv. V-IV asrlar) qadimgi yunon sivilizatsiyasi va madaniyati yashnab eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu davrda yunonlar eronliklar ustidan g'alabaga erish-gach, iqtisodiyot, savdo keng rivojlanadi. Afina O'rta Yer dengizida eng katta savdo markaziga aylanadi. Afina, Misr, Karfagen, Krit, Suriya, Fini-kiya bilan savdo aloqalarini olib boradi.

Qadimgi Yunoniston falsafa fanining dastlabki vatani bo‘lib, ko‘plab buyuk faylasuflar yetishib chiqqan. Shulardan birinchi yunon faylasufi Fales (625-547) bo‘lib, u Misrda va Bobilda yuzaga kelgan matematika va astronomiya sohalaridagi bilimlarini egallagan. Fales Metafizik materializm, Milet maktabining asoschisi hisoblanadi. U birinchilardan bo‘lib tabiat haqida fikr yuritgan. Quyosh tutilishini oldindan aytib bergan. Fales narsalarning xilma-xilligidan yagona bosh asosni izlagan va uni jismoniy, hissiy muayyan modda deb qaragan. Uning ta’limotiga ko‘ra, butun mavjudotning bosh asosi suvdir. U asli miletlik, ya’ni Kichik Osiyodan bo‘lib, Sitseronning so‘ziga ko‘ra: “Falsafa Falesdan boshlanadi.”

Falesning shogirdi Anaksimandr (610-510) koinotning geotsentrik modelini, ilk geografik xaritasini tuzgan. Tarixda birinchi bo‘lib, inson, boshqa tirik mavjudotlar singari, baliqdan bunyodga kelgan, degan evolyutsion g‘oyani bayon etgan.

Metafizik dialektikaning yana bir vakili Anaksimandrning shogirdi Anaksiman bo‘lib (588-510) uning ta’limotiga ko‘ra, butun mavjudot bosh moddiyatdan – havodan vujudga keladi va yana unga qaytadi. Havo benihoya, abadiy, harakatdadir. U quyushlab avval bulutlarni, so‘ngra suvni va nihoyat tuproq va toshlarni tashkil etadi, siyraklashib olovga aylanadi. Bu yerda miqdorni sifatga o‘tishi g‘oyasi mavjud. Uning ta’limoticha yulduzlar olovdan iborat, lekin ularning issig‘ini sezmaysez, chunki ular bizdan juda yiroqda joylashgan.

Pifagor (mil.avv VI asr) – qadimgi yunon matematigi, faylasufi mil.avv 530 yilda Janubiy Italiyadagi Kroton shahrida falsafiy maktab – Pifagorchilar ittifoqini tuzgan. Pifagor, son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik tizimidir, degan g‘oyani ilgari surgan.

Geraklit (VI-V asrlar) Gippokratning otasi bo‘lib, Kichik Osiyodagi Efes shahrida tug‘ilgan. U o‘zining “Tabiat haqida” gi asarida teran fikrlari bilan o‘z ta’limotini yaratgan. Uning fikricha, tabiatning bosh, eng o‘zgaruvchan va serharakat moddasi olovdir. Olamning o‘zi, ayrim narsalar, jonlar olovdan kelib chiqqan. Chunonchi, butun mavjudot uchun ayni bir bo‘lgan bu koinotni hech qanday iloh va hech qanday inson yaratmagan, u me‘yori bilan yonib, me‘yori bilan o‘chib turadigan abadiy jonli olov tarzida hamisha bo‘lgan, bor va hamisha bo‘ladi.

Geraklit dunyoni bilish mumkinligiga qattiq ishongan va inson aqli uchun chegara yo‘q deb hisoblagan. O‘zgarishlar qarama-qarshi kuchlarning ta’siri natijasidir, hamma narsa kurash orqali sodir bo‘ladi va yangilanish zaruriyat tufayli ro‘y beradi degan g‘oyani ilgari surgan. U hayot

abadiy qarama-qarshiliklar kurashidir, hamma narsaning otasi – ziddiyatlardir. U “kosmos” (tartib) soʻzini birinchi boʻlib qoʻllagan. Bu soʻz dastlab davlat tizimi va hatto ayollarni “tartibga keltiruvchi” pardozi-andozi anjomlariga ham qoʻllanilgan, “kosmetika” soʻzi shundan kelib chiqqan.

Qadimgi yunon faylasuflaridan biri Epikur (341-270) boʻlib, u Xudoning dunyo ishlariga aralashuvini inkor qilar edi va ichki harakat manbayiga ega boʻlgan moddiyatning abadiyligini eʼtirof etgan. Sezgilarning paydo boʻlishini u shunday izohlagan: jismlar sirtidan eng mayda zarralar “idollar” ning uzluksiz oqimi chiqib, ular sezgi organlariga kiradi va narsalarning obrazlarini vujudga keltiradi.

Uning fikricha, hayotning maqsadi, rohat-farogʻat, xursandchilikdan iborat boʻlmogʻi kerak. Ular inson baxtining boshlanishi va oxiridir... Hamma yaxshilikning boshi insonning aqlli boʻlishida, baxtli boʻlish esa bilim va ilmdandir degan.

Yunon falsafasi yuqori darajaga koʻtariladi. Shu davrda antik davr daholari Suqrot, Platon, Aristotel kabi buyuk faylasuflar yashab ijod qilganlar. Suqrot birinchi boʻlib inson hayoti, yaxshilik, yomonlik, adolat kabi muammolarni mushohada qilishga asosiy oʻrin berdi. Suqrotning shogirdi Platon (er.avv. 429-347) Afina aristokratiyasining vakili edi. U er.avv. 385-yili Akademiya nomi bilan faylasuflar maktabini tashkil qilgan. Platon oʻzining ideal davlat toʻgʻrisidagi gʻoyalarini munozara shaklida yozgan. Uningcha, ideal shahar davlatni oilasi, xususiy mulki boʻlmagan faylasuflar boshqarishi zarur edi. Ideal shaharning aholisi jangchilar va oddiy xalq (hunarmandlar va dehqonlar)ga boʻlinar edi. Kelib chiqishi chet ellik boʻlgan qullar ham bor edi. Platon tizimini Aristotel (er.avv. 384-322) tanqid ostiga olgan edi. Uning «Siyosat» nomli mashhur asarida oʻsha davrda maʼlum boʻlgan bilimlarni alohida sohalarga – botanika, fizika, siyosat, tarix kabi nomlarga birinchi bor boʻlingan edi. U «Metafizika» asarida falsafa fanining metafizik yoʻnalishiga asos solgan. U Makedoniya podshosi Aleksandrning ustoz ham boʻlib, “Birinchi muallim” deb nom olgan.

Xuddi shu davrlarda «Tarix fanining otasi» Gerodot (er.avv. 490-430), atom nazariyasining asoschisi Demokrit (er.avv. 460-370), mashhur tabib, 75 ga yaqin asar muallifi Gippokrat (er.avv. 460-375) kabi mashhur olimlar yashab ijod qilganlar. Demokrit falsafa, mantiq, fizika, matematika, texnika, axloq, musiqa kabi sohalarda asarlar yaratgan. Bizgacha bularning baʼzi qismlari yetib kelgan. Demokrit taʼlimotiga koʻra, tabiat obyektiv ravishda mavjud. Tabiatdagi barcha narsa va hodisalar boʻlinmas zarralar-atomlardan tashkil topgan. Atomlar eng mayda, boʻlinmas va oʻzgarmas,

boqiy moddiy zarralar bo‘lib, fazoda doimo har tomonga harakat qiladi. Zarralarning har xil qo‘shiluvidan turli narsalar vujudga kelgan. Atomlar doimo harakatda bo‘lib, ular harakatining vaqt nazaridan boshi yo‘q, u abadiy. Demokrit olam cheksiz va abadiy, dunyolar vujudga kelib yo‘q bo‘lib turadi, jon ham moddiy va tana bilan birga o‘ladi degan fikrni ilgari surdi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta’kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko‘rsatdi. Demokrit hodisa va mohiyatni tushuna boshlagan, hissiy bilim bilan abstrakt tafakkurni farq qila olgan.

Gippokrat – Suqrot, Abuqrot, yunon shifokori (460-377), ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. U, o‘zining “Majmuayi Buqrotiya” (Buqrotiya to‘plami) bilan mashhur bo‘lgan. Shifokor hulq-atvorining qisqacha ta’rifi bo‘lgan qasamyod (“Gippokrat qasamyodi”) ham shu allomaniki.

Arxitektura va shahar qurilishi bo‘yicha Miletlik Gippodam tomonidan shaharlarning rejalashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra shahar jamoa markazi, yashash uchun uy-joy hamda ishlab chiqarish va port zonalaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Monumental qurilishning asosiy turi ibodatxonalar bo‘lgan.

Arxitektorlar – Gektin va Kalikratlar tomonidan qurilgan Afina Akropoli jahon arxitekturasining noyob namunalaridan biri hisoblanib, unda 46 ta ustun va haykallar mavjud bo‘lgan.

Taniqli arxitektura inshootlari ichida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri Efesdagi Artemida ibodatxonasi bo‘lib, unga yovuzlik timsoli bo‘lmish Gerostrat tomonidan o‘t qo‘yilgan edi. Qayta tiklangan ibodatxona qurilishida haykaltaroshlar Praksitel va Skopaslar tomonidan ishlangan 127 ta ustun ajoyib haykallar va rasmlar aks ettirilgan. Qadimgi yunonlar tomonidan avval yog‘ochdan keyinchalik esa toshdan foydalanib, yasalgan monumental haykaltaroshlikka asos solingan. Arxitektura sohasida saroylar, kutubxonalar, gimnaziyalar, uy-joylar qurildi. Jumladan, Aleksandriyada 799 ming o‘ramli kitoblar turadigan kutubxona qurilgan. Arxitektor Sostratning loyihasi asosida 285-280-yillar dunyoning yetti mo‘jizasidan biri uch qavatli 120 metr balandlikdagi Aleksandriya mayog‘ini barpo etganlar.

Klassik davrda yunon haykaltaroshlik san’atida «Ellada» yetakchi o‘rin egallagan edi. Haykaltaroshlar ichida eng taniqlisi Fidiy bo‘lib, uning Olimpiyada yaratgan Zevs haykali ham (bo‘yi 14 metr) olamning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi.

Uning Afina haykali (bo‘yi 12 metr) Afina Akropolining markaziga qo‘yilgan. Promaxos (Afina jangchisi) haykali (bo‘yi 9 metr) jangchi ki-

yimini kiygan, nayza ushlab turgan ayol xudo qiyofasida tasvirlangan bo‘lib, u Afinaning harbiy qudratini ifodalagan. Fidiy Afina Akropoli qurilishida ham ishtirok etgan.

Regiylik Pifagor «Oyog‘idan tikonni chiqarayotgan bola», Miron «Diskabol» va «Afina va Marsiy», Poliklet «Dorifora» va «Yaralangan Amazonka» kabi haykallarni yaratganlar. Poliklet inson tanasining mutanosibliği haqida «Kanon» asarini yozgan.

Praksitel, Skopas, Lissip quyi klassika davr namoyandalaridir. Praksitel yunon haykaltaroshligida birinchi bo‘lib yalang‘och ayol obrazi – «Afrodita Knidskaya» haykalini yaratgan. Praksitel ijodi uchun did, nozik go‘zallik xos bo‘lib, ular «Musallas quyayotgan satir», «Erot» haykallarida ayniqsa yorqin namoyon bo‘lgan.

Skopas Praksitel bilan birgalikda Efesdagi ibodatxona va Galikarnasdagi Artemida maqbarasini bunyod etishda ishtirok etganlar. Saroy rassomi Lissip Aleksandr Makedonskiyning haykalini yaratgan. U insonning ichki dunyosi, kechinmalarini o‘z asarlari orqali namoyon qilgan. Bunga bron-zadan ishlangan «Dam olayotgan Germes», «Shippagini bog‘layotgan Germes», «Erot» asarlari misol bo‘la oladi.

Haykaltaroshlik sohasida ellinizm davrida ba‘zida yirik shakllardagi haykallar ham yaratilgan. Xususan, Xeros tomonidan yaratilgan quyosh xudosi Gelios haykali, yoxud dunyoning yetti mo‘jzasidan biri 36 metr balandlikda bo‘lgan Rodos orolidagi Koloss Rodoskiy haykali bunga misoldir (mazkur haykal yer silkinishlari natijasida qulab tushgan). O‘sha davrda yaratilgan Afrodita (Venera), Miloskaya va Samossalik Nika haykallari hozirgacha dunyo madaniyatining noyob durdonalari hisoblanadi.

Qadimgi Yunon madaniyatidagi teatr¹ sohasida tragediya, komediya janrlarining paydo bo‘lishi va ravnaqi muhim voqea hisoblanadi. Yunon teatri qishloq xo‘jaligi homiysi bo‘lgan Dionis sharafiga o‘tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari asosida vujudga kelgan. Dionis bayramlari toklar, daraxtlar barg chiqargan bahorda va kuzda o‘tkazilgan². «Tragediyalar otasi» Esxil (525- 458) 90 dan ortiq tragediya³ yozgan. Esxil o‘z tragediyalarida afsonaviy voqealardan foydalangan bo‘lsada, ularda o‘z davrining muhim masalalari keng o‘rin tutgan. Masalan, halok bo‘lib borayotgan matriarxat bilan patriarxat o‘rtasidagi ziddiyatlar masalasiga bag‘ishlangan «Oresteya» trilogiyasi: «Agamemnon», «Xoeforlar» va «Avmenida» asarlaridan iborat. Uning eng mashhur tragedi-

¹ Teatr – yunoncha so‘z bo‘lib, tomoshalar joyi degan ma‘noni bildiradi.

² Kuzgi Dionis bayrami bizning Mehrjon bayramimizga to‘g‘ri keladi.

³ Tragediya- yunoncha «echkilar qo‘shig‘i» ma‘nosini anglatadi.

yalari esa «Zanjirband Prometey» va «Forslar»dir. «Zanjirband Prometey» asari insonning kuch-qudrati, irodasi buyukligi timsolidir.

Jumladan, Zevs tomonidan yuborilgan Germesga Prometey qanday azob-uqubatlar bilan jazo berilishini eshitgach, shunday deydi:

Va na qatl, va na makr qilmas aslo kor,
Aytmasman Zevsqa hech qanday sir-asror,
Chaqmoq chaqib, mayli o'tda kuydirsin.
Osmon-u falakni oppoq quyundek,
Hammasini batamom-butkul quritsin:
Ammo irodanni bukolmas aslo,
Jahannam o'tini qilsa ham paydo.
Kim uning hokimligini etishin bekor,
Xomtama bo'lmasin, aytmasman zinhor.

Esxilning «Forslar» tragediyasida Yunoniston – Eron urushlarida¹ yunonlarning qahramonona kurashi va g'alabasi aks etgan.

Yana bir buyuk tragediya janri namoyandalaridan biri Sofokl (496-406) bo'lib, u 120 dan ortiq tragediyalar yozgan. Ulardan bizgacha yettitasi yetib kelgan, xolos. Afina teatrida dastlab qo'yilgan «Antigona», «Shoh Edip» asarlari unga shon-shuhrat keltirgan.

Tragediya janri bilan birgalikda komediya² janri ham vujudga kelib, rivojlanadi. Komediya janrining otasi Aristofan (450-388-y.y.) bo'lib, uning asarlari sodda, tushunarli, xalq tilida yozilgan va hayotning muhim masalalari, jumladan, tinchlik muammosi aks ettirilgan. Jumladan, uning «Tinchlik», «Ayollar xalq yig'inida», «Suvoriylar» asarlari o'z davrida mashhur bo'lgan.

Poeziya sohasida Gomerning «Illiada» va «Odissey» dostonlari yaratiladi. Keyinroq shoir Gesiod tomonidan «Teogoniya» va «Ayollar katalogi» poemalarida antik mifologiya o'zining klassik darajasiga ko'tariladi. Antik shoirlar orasida Arxilox (lirik poeziya asoschisi), hamda shoira S.O. Lesbos ijodlari alohida o'rin tutadi. Go'zallik, sevgi, huzur-halovatni kuylagan Anakreonta ijodi A.S. Pushkin ijodiga ham katta ta'sir qilgan.

Poeziya sohasida Afina demokratiyasini qabul qila olmay, aristokratiya tabaqasini o'z asarlarida ulug'lab kuylagan shoir Pindar Olimpiya o'yinlari g'oliblariga atab qasidalar, qo'shiqlar yozgan.

Qadimgi Yunon madaniyatining so'nggi davri – bu Ellinizm (323-146) dir. Bu davrda madaniyatning ba'zi sohalarida, jumladan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlar darajasidan pasayish holatlari ham yuz be-

¹ Muallifning o'zi bu urushlarda ishtirok etgan.

² Komediya yunoncha «xushchaqchaq dehqonlar qo'shig'i» degan ma'noni anglatadi.

radi hamda davrda yunon madaniyatining boshqa mamlakatlarga, jumladan, O'rta Osiyoga ta'siri kuchayadi, hatto bu jarayon Yunonistonning Rimga qaram bo'lganidan keyin ham davom etadi. Rim Yunonistonni siyosiy jihatdan tobe etsa-da, yunonlar madaniyati Rimni tobe etdi.

Fan sohasida bu davrda yetakchi o'rinni matematika egallaydi. Uning asoschilari Yevklid va Arximed kabi olimlarning ijodi tufayli matematikadan mexanika, optika, qurilish sohalarida foydalaniladigan bo'lindi. Astronomiya, tibbiyot va geografiya sohalarida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ma'naviy sohada dastlab yunonlarda ibtidoiy din shakllari – totemizm, animizm va fetishizm kuchli bo'lgan. Ibtidoiy jamoadan sinfiy jamiyatga o'tish bilan yunonlarning diniy tasavvurlari ham o'zgarib borgan. Ularda har bir yirik hodisa, kasbi-korning o'z xudolari-homiylari bo'lgan.

Zevs – yunonlarning eng muqaddas bosh xudosi hisoblanib, u osmon, momaqaldiroq, chaqmoq va yomg'ir xudosi bo'lgan. Uni odamlar jingalak sochli, baquvvat, sersoqol, qudratli, qo'lida chaqmoq ushlagan, basavlat kishi sifatida tasavvur qilganlar. Zevsning ukasi Poseydonni “yerni tebratuvchi” dahshatli dengiz xudosi deb qaraganlar. Gelios quyosh xudosi bo'lib, u oppoq otlar qo'shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanda kunduz boshlanadi, deb fikr yuritganlar.

Apollon esa yorug'lik va san'at xudosi bo'lgan. O'simliklarning o'sib chiqishi, o'sishi, sarg'ayishi xudo Demetriyga bog'liq bo'lgan, deb hisoblaganlar. Yerosti hukmdori – homiysi Aid bo'lgan. Dionis vinochilik, Afrodit avval hosildorlik, keyinchalik sevgi va go'zallik hamda dengiz sayyohlari homiysi bo'lgan. Afina Zevsning qizi bo'lib, yunon afsonalariga ko'ra u urush, g'alaba, san'at, bilim va donolik ma'budasi bo'lgan. U Afina shahri-ning homiysi bo'lib, haykaltarosh Fidiy tomonidan shahardagi Parfenon ibodatxonasi oldiga uning ajoyib haykali ishlangan. Yunon xudolaridan biri Zevs va Geraning o'g'li Gefest temirchilik homiysi hisoblangan. Vulqon lavaların otilishi ham uning yer ostidagi temirchilik ustaxonasining mahsuli sanalgan. Germes savdo-sotiq xudosi sifatida e'tirof etilgan.

Antik yunonlarning qahramoni: dengizlar xudosi Poseydon va yer ma'budasi Geyaning o'g'li; Liviyada yashagan; pahlavon Antey yerda turib kurashganda onasidan quvvat olib turgani uchun uni hech kim yenga olmagan, buni bilib turgan Gerakl Anteyni yerdan uzib olib havoda bo'g'ib o'ldirgan.

Appolon – qadimgi yunonlarda eng ko'p sig'inadigan xudo; quyosh tangrisi, san'at homiysi; Zevs va Latonaning o'g'li Artemidaning egizak akasi deb hisoblashgan.

Artemida – Zevs va Geraning Appolon bilan birga egizak bo'lib tug'ilgan qizi: oy ma'budasi, hayvonlar va qushlar homiysi, oy ilohasi, keyinroq

ayollar iffatining homiysi.

Gerakl – yunonlarda nikoh ma’budasi va homiysi; Zevsning rafiqasiga o‘g‘il; juda katta jismoniy kuchga ega bo‘lgan misli yo‘q pahlavon; 12 marta jasorat ko‘rsatgan. Shular kabi har bir muhim voqeaning xudolari bo‘lgan.

Yunonlarning fikricha, Zevs boshliq xudolari baland Olimp tog‘larida yashaganlar va badavlat kishilarday hayot kechirganlar. Ular ham odamlar kabi shuxratparast, hokimiyatparast, shafqatsiz va qasoskor bo‘lganlar. Yunon xudolarining odamlardan farqlari shundaki: birinchidan, ular umrboqiy, ikkinchidan, ular Gefestdan tashqari¹ go‘zal va qaddi-qomatlari kelishgan bo‘lishgan. Yunon xudolari ham sevishgan, xursand yoki g‘amgin, g‘azabli holatlarda namoyon bo‘lganlar. Yerdagi ayollar bilan xudolar qovushuvidan qahramonlar dunyoga kelganlar.

Yunonlar o‘z xudolariga ishonishgan, sig‘inishgan, ularga atab ibodatxonalar qurishgan va qurbonliklar qilishgan. Lekin yunonlarda xudolarga ko‘r-ko‘rona sajda qilish, mutaassiblik darajasida bo‘lmagan. Masalan, Prometey xudolar irodasiga qarshi odamlarga osmondan olovni o‘g‘irlab olib tushib bergan (Prometey afsonasidan).

Yunonlar mifologiyasida birgina xudolarni emas, yerdagi insonlarni ham ulug‘langan. Bunga Sofoklning “Dunyoda buyuklar ko‘p, lekin insondan boshqa tabiatda kuchlisi yo‘q”, yoki Arximedning “Menga tayanch nuqtasini topib beringlar, men dunyoni ostin-ustun qilib tashlayman” degan iboralari-ni misol tariqasida keltirish mumkin.

Yunonlar, odatda, xiton (yengsiz ko‘ylak), tunika (kalta yengli ko‘ylak), gimatiy (yopinchiq) kiyishgan. Bu kiyimlar inson qiyofasiga ulug‘vorlik, soddalik baxsh etgan, inson tanasining egiluvchanligini ko‘rsatgan. Kiyimlar asosan oq jun va kanop matolardan tayyorlangan, to‘g‘nog‘ich belbog‘lardan foydalanilgan. Oyoq kiyim vazifasini boldirni o‘rab turadigan tasmali shippaklar bajargan. Qadimgi yunonlarning kiyimlari ham me‘yor, tabiiy go‘zallikni namoyon qilishga xizmat qilgan.

Qadimgi Yunoniston madaniyati jahon madaniyatiga katta ta’sirini o‘tkazdi va hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

Yunon madaniyatisiz hozirgi Yevropa madaniyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuningdek, Sharq dunyosi ham ellinizm madaniyatisiz boshqacharoq ko‘rinishga ega bo‘lgan bo‘lard.

¹ Gefest – cho‘loq holatida bo‘lgan.

4.2. Qadimgi Rim madaniyati

Antik Rim madaniyati er.avv. VIII asrdan eramizning 476-yiligacha davom etgan. Qadimgi Rim madaniyatining o‘rni va roli to‘g‘risida madaniyatshunos olimlar ichida ikki qarash mavjud:

1. Taniqli madaniyatshunoslar O.Shpengler va A.Toynbilarning fikricha, qadimgi Rimliklar mustaqil madaniyat va sivilizatsiyani yarata olmaganlar, ular davlat, huquq va texnika sohalarida yutuqlarni qo‘lga kiritganlar, xolos. Boshqa sohalarda rimliklar ellinizm darajasiga yeta olmaganlar.

2. Boshqa olimlar, jumladan D.A. Silichev bunga qarama-qarshi o‘laroq boshqacha fikrni ilgari surib, Rim madaniyati va sivilizatsiyasi ham o‘ziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turishini va jahon madaniyatida o‘z o‘rni bor ekanligini qayd qiladi.

Rimliklar ko‘p sohalarida ellinlarga o‘xshar edi. Bu shubhasiz, biroq, shu bilan birga, ular o‘zlarining qadriyatlari va ideal tizimini yaratganlar. Bular sirasiga, ayniqsa, vatanparvarlik, fuqarolik burchiga sodiqlik, xudolarga e‘tiqod Rimda oliy qadriyat sifatiga ko‘tarilgan edi. Rimliklar qonunni alohida qadrlar, unga bo‘ysunishni sharaf deb bilar edilar. Ular uchun ijtimoiy manfaat shaxsiy manfaatdan ustun turardi. Kishining quyidagi muruvvatlilik sifatleri ulug‘langan:

1. Sodiqlik – er.avv. V asrda ibodatxona qurilgan bo‘lib, unda fuqarolar o‘rtasidagi munosabat, askarlarning o‘z boshliqlariga sodiqligi yorqin aks ettirilgandi;

2. Jasorat – o‘z ishini bajarishda botirlik, har xil aldov va va‘dalarga berilmaslik, sotilmaslik;

3. Shon-shavkat – jasorat uchun taqdirlanish va ulug‘lanish;

4. Erkinlik – 238-yili unga atab ibodatxona qurilgan.

Bularga misollar:

1. Yuniy Brut haydab yuborilgan podsho Tarkviniya tomonidan uyushtirilgan suiqasdda qatnashgani uchun o‘z o‘g‘illarini o‘limga hukm qilib o‘ldirtirgan.

2. Mutsiy Stsevola – Etrussk podshosi Parsenaning harbiy lageriga josuslik maqsadida borganida qo‘lga tushib, o‘z irodasining qat‘iyligini ko‘rsatish uchun o‘z qo‘lini olovda kuydirgan edi.

Rimliklar erkin fuqaro bilan qul o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdilar. Erkin kishi uchun siyosat, urush, huquq qonunlarini ishlab chiqish, tarixshunoslik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish faxrli hisoblangan. Hunarmandchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, aktorlik va dramaturglik faxrli kasb sanalangan. Barcha qo‘l mehnati qullarga tegishli bo‘lgan. Jumladan, yolg‘on-

chilik, laganbardorlik kabi illatlar ham qullarga taalluqli hisoblangan. Rim klassik qulchilik tuzumining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi.

Qadimgi Rimda birinchi bo‘lib Nibur tomonidan qayd qilingan urug‘-doshlik asosidagi aholining tarkibiy tuzilishi muhim rol o‘ynagan. Rimning aholisi 300 ta urug‘dan iborat bo‘lib, ularning har o‘ntasi kuriyaga birlashar, 10 ta kuriya – tribuni tashkil qilardi. 3 ta tribu – bu 3 ta qabila lotin, sabin, etrusklardan iborat edilar. Shu tribularning a‘zolari teng huquqli fuqarolar – patriitsiyalar edi. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko‘chib kelgan odamlar va ularning ajdodlarini plebeylar deb atashgan. Plebeylar orasida ham boy-badavlat kishilar bo‘lgan, lekin ularning orasida kambag‘allar ko‘pchilikni tashkil qilgan. Rim aholisi ichida qullar huquqsiz «gapiruvchi hayvon» edilar.

Rimliklar nisbatan jangovar bo‘lganlar va harbiy jasorat ular uchun oliy qadriyat hisoblangan. Rim jangchilarning bosqinchilik yurishlari tufayli Rim imperiyaning poytaxtiga aylandi. Rim huquqi, ajoyib yo‘llar, turarjoylar, jamoat uylari Rimning ulkan yutuqlari hisoblangan. Davlat qurilishi sohasida respublika va imperiya boshqaruvi shakllarini yaratib o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Ma‘naviy madaniyat sohasida rimliklar yunon madaniyatining vorislari hisoblanadilar. Ko‘plab yunon xudolari nomlari o‘zgartirilgan. Chunonchi, Zevs – Yupiterga, Kronos – Saturnga, Poseydon – Neptunga, Afrodita – Veneraga, Artemida – Dianaga, Afina – Minervaga aylangan. Rimliklarda oila homiysi xudo Vestaga alohida e‘tibor berganlar. Vesta ibodatxonasi uchun zodagon oilalardan vestalkalarni – yosh qizlardan tanlaganlar, ular 30 yil mobaynida ibodatxonada xizmat qilishlari kerak bo‘lgan. Vestalkalarni juda hurmat qilishgan. Agar vestalkaga jinoyatchi to‘g‘ri kelib qolsa, jinoyatchining aybi kechirilgan. Vestalka o‘zaro urishayotganlar oldiga kelsa, janjalni darhol to‘xtatishgan. Ular o‘choq-olovni saqlovchi homiylar hisoblangan. Vestalkalar xizmat davrida bokiraligini saqlay bilishmasa, unda ularni tiriklayin yerga ko‘mishgan.

Qadimgi Rimdagi kiyimlar ham yunonlarniki kabi burmali bo‘lgan. Erkaklarning asosiy ustki kiyimlari toga (yarim aylana yoki oval shaklidagi mato) bo‘lgan. Erkak va ayollarning ichki kiyimlari vazifasini tunika bajargan ayollar uning ustidan stola (xiton ko‘rinishidagi keng uzun kiyimlar) va parka (gimmatiyga o‘xshash) kiyishgan.

Rimliklarning dam olishi ham asosan bir xil bo‘lgan:

hammolarga borish va u yerdagi mashq maydonchalarida bo‘lish, falsafiy sohada suhbatlar o‘tkazish, kutubxonalarda shug‘ullanish yoki basseynlarda hordiq chiqarish ular uchun odatiy hol bo‘lgan.

Milodning I asrida gladiatorlik janglari uchun qurilgan Kolizey amfiteatri o'zining ulkanligi bilan ajralib turgan. Amfiteatrga bir vaqtning o'zida 50 ming tomoshabin joylasha olgan. Kolizey aylanasi uzunligi 520 metr, balandligi 48,5 metr, 4 ta yarusdan iborat bo'lib, uning qurilishida beton¹, pishirilgan g'isht va marmardan foydalanilgan. Amfiteatr arenalariga 11 ming yirtqich chiqarilgan, 10 ming gladiator bir-biri bilan jang qilgan va yirtqich hayvonlar bilan olishgan. Omma yaralangan gladiatorning tirik qolishi yoki o'ldirilishi masalasini hal qilib, yaratilgan manzarani tomosha qilgan.

Rimliklar orasida sirk o'yinlari, ayniqsa 4 ta yoki 6 ta ot qo'shilgan ikki g'ildirakli aravalar poygasi mashhur bo'lgan.

Rimliklarda quyidagi ommaviy yirik bayramlar bo'lgan:

Saturnaliya – har yili dekabr oyida Saturn xudosi atalib o'tkaziladigan bayram bo'lib, u karnaval bilan boshlangan, bayram vaqtida tabaqaviy farqlarga rioya qilingan. Kambag'allarga sadaqalar berilgan, bir-birlariga o'zaro tuhfa ulashganlar.

Luperkaliya – xudo Favkaga atalib (chorva homiysi), qadimgi hosildorlik sehrgarligi bilan bog'liq bayram bo'lgan.

Bu bayram har yili fevral oyida o'tkazilgan. Shu kuni hammani qamchi bilan nomiga sekin urib chiqqanlar (qamchi febritsa deyilgan, shundan fevral oyining nomi kelib chiqqan).

Mifologiya sohasida Rim bilan bog'liq miflar, chunonchi, «Rim dunyo markazi», «Rim – abadiy shahar» singari dunyo ustidan Rimning hukmronlik qilishi g'oyasi alohida o'rin tutgan.

Filosofiya va boshqa fan sohalarida ham rimliklar yunonlar izidan borganlar.

Rim tasviriy san'at namoyandalari deyarli yunonlarning asarlari nusxalarini va ichki dunyosini tasvirlaganlar. Rim yozuvchilari romanchilik janriga asos solganlar.

Afsonaga ko'ra Rimga er.avv. 753-yili egizaklar – Romul va Rem asos solgan. Shu vaqtdan Rimning monarxiya boshqaruvi tarixi boshlanadi. U davrda jamiyatning muhim masalalarini xalq majlisi hal qilgan. Patritsiylarning (tub aholi) nufuzli oqsoqollaridan «Keksalar kengashi» tuzilib, uni lotinchada Senat deb atashgan. Dastlab Senat va podsho xalq majlisiga tayanib davlatni idora qilishgan.

Er.avv. 510-yili Senat bilan podshoning qarama-qarshiligi natijasida podsho Takviniy ag'darilib, Rimda aristokratik Respublika boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Puni urushlaridan keyin (264-146) Karfagen mag'lubiyatga uchragach, Rim imperiyasining hududi ancha kengayadi va Rimning

¹ Betonni qadimgi Rimda kashf qilishgan.

obro‘si kuchayadi. Ba‘zi olimlar Rimga ko‘chib kelib ijod qiladilar. Masalan, tarixchi Polibiy ko‘p tomlik Rim tarixiga doir o‘zining «Tarix» asarini Rimda yozadi.

Avgust (er.avv. 30-14) davri tarixchisi Tit Liviy 142 jilddan iborat «Rimning ta‘sis qilinganidan keyingi tarixi»ni yozgan. Er.avv. I asrda yashagan Galikarnass Dionisiy «Qadimgi Rim yodgorliklari» degan kitob yozgan. U madaniyatshunoslik tarixi uchun muhim manba hisoblanadi. Korneliy Tatsitning «Tarix» kitobida 68-69-yillardagi fuqarolar urushi va Flaviy davri tarixi bayon qilingan. Uning «Yilnomalar» nomli asarida Avgust o‘limi bilan Neron o‘limi orasidagi voqealar yozilgan.

Yuliy Sezar ham «Gall urushlari haqida yozmalar» va «Fuqarolar urushi haqidagi yozmalar» nomli kitoblarini yozdirib qoldirgan. Bu asarlar Rim tarixini, jumladan, uning madaniyatini o‘rganishda muhim manbalardir.

Yunon adabiyoti ta‘sirida bir qator shoirlar va dramaturglar paydo bo‘ladi. Ular ichida Plavt va Terensiylarning komediyalari hozirga qadar yetib kelgan. Plavt Tit Makutsiy (mil.avv. 111-184-yillar o‘rtalari) Umbriyada tug‘ilgan. U 21 ta komediya yozgan: «Xazina», «Kurkulon», «Maqtanchoq jangchi» va boshqalar. Plavt komediyalaridagi obrazlar – greklar, lekin uning asarlarining mazmunida rimliklar hayoti aks ettiriladi. Jumladan, Rim suvdi, o‘z-o‘zini boshqarish, rim madaniyati, turmush tarzi namoyon bo‘ladi. Liviy Andronik Gomerning «Odisseya»sini lotin tiliga tarjima qilgan. Bu davr shoirlaridan Lutsiliy turmush mavzulari bo‘yicha she‘rlar yozib, boylik orqasidan quvuvchi o‘ta xasislar ustidan kulgan.

Publiy Terensiy (mil.avv. 195-159). Kelib chiqishi bo‘yicha karfagenlik qul bo‘lgan. Quldor uni avval o‘qishga berib savodli qilgach, so‘ngra ozodlikka chiqaradi. Publiy 6 ta komediya yozadi: «Andriyanka», «Qaynota», «Aka-ukalar», «Evnux» va boshqalar. Muallif o‘z asarlarida oila, tarbiya masalalarini yoritishga qaratadi va gumanizm, ayollarga hurmat ruhini targ‘ib qiladi.

Er.avv. 27-yili Rim respublika nomi bilan atalsa-da, amalda avtoritar boshqaruvidagi imperiyaga aylanadi. Birinchi imperator, prinsipiat (shu sababli imperiyani prinsipiat deb atalgan) bo‘lgan Oktavianga Senat Avgust unvonini – «Muqaddas kishi» degan faxriy nom bergan. Oktavian davridan boshlab butun Apenin yarim oroli Italiya deb atala boshlangan. Besh asr davom etgan Rim imperiyasida Avgust davri (er.avv. 20-14-) Rim madaniyatining oltin davri hisoblanadi.

Bu davrda Rim falsafasida Epikurizm, Stoitsizm va Neoplotonizm oqimlari keng yoyiladi.

Epikurizmning koʻzga koʻringan vakillari Lukretsiy va Sitseronlar edilar. Lukretsiy Kar (mil.avv. I asr) «Tutam narsalar haqida» poemasi- da yunon faylasuflari izidan borib, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz nar- salarning atom zarrachalaridan tashkil topganligini taʼkidlagan. Epiku- rizm yerdagi hayotdan xursand boʻlish, huzur-halovatda yashashga un- dagan, kishining vafotidan keyin hech qanday hayot yoʻqligini taʼkidla- gan. U kishilikning eng qadimgi davri haqida shunday yozadi:

«Odamlar oʻt bilan muomalani bilmasdi hali,
Vahshiy hayvonlarni quvishardi oʻrmonga,
Va ogʻir toʻqmoq bilan urib ularni
Toshboʻron qilishardi bermasdi omon.»

Lukretsiy diniy eʼtiqodlarni inson tafakkurini jilovlovchi yuganga oʻxshatadi. U tabiat, jamiyat va kishilar hayotida sodir boʻladigan vo- qealarning sabablarini ilmiy asosda tushuntirib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, jon oʻladi, chunki u maxsus zarralarning vaqtincha qoʻ- shilishidagina iborat boʻlib, jism halok boʻlgandan keyin ayrim atom- larga parchalanib ketadi. Jon butun tanaga yoyilgan boʻlsa, ruh koʻkrak- ning oʻrtasida joylashgan, deydi u. U jonning oʻlishini tan olishi bilan faqat oxirat, narigi dunyoga ishonishni emas, balki bu bilan u ruhni oxi- ratda jazolanishga ishonishni ham yoʻqqa chiqaradi, insonni doʻzaxdan qoʻrqishdan xalos qiladi. Shu bilan birga, oʻlimdan qoʻrqish ham yoʻq boʻladi, yaʼni: “Biz yashab turgan ekanmiz – oʻlim yoʻq: oʻlim kelgach – biz yoʻq”. U birinchi boʻlib, falsafa faniga materiya atamasini kiritgan. Bu atama lotincha “mater – ona” soʻzidan olingan.

Sitseron Mark Tulliy (106-43) qadimgi Rim madaniyatining rivojla- nishiga katta hissa qoʻshgan. U buyuk faylasuf, notiqlik nazariyotchisi va siyosatchi edi. U oʻz asarlarida yunon falsafa maktablarining barcha oqim- larini ommalashtirishga qaratdi. Etika muammolari Sitseronning “Yaxshilik va yomonlikning chegaralari toʻgʻrisida”, “Burchlar haqida” asarlarida yori- tilgan. U baxtning birdan-bir manbayi sifatida oliy ezgulik, oliy fazilat xusu- sidagi, axloqiy burch va shaxsiy foyda ziddiyati haqidagi masalalarga eʼtibor berib, amaliy tavsiyalar bergan. Kamolotga erishish uchun toʻrt fazilat – donishmandlik, adolat, mardlik, moʻtadillik zarur, deb uqtirgan. Rim stoi- tsizmining vakillari Seneka, Epiktet va imperator Mark Avreliylar boʻlib, ularning uchalasi ham falsafani insonning dunyoviy lazzatlardan voz ke- chib, axloqiy yetuklikka yetishishi toʻgʻrisidagi taʼlimot deb tushunar edilar. Stoitsizm xristianlik taʼlimotining shakllanishiga kuchli taʼsir koʻrsatgan.

Imperiya davrida fanlar rivojlanishi kuzatiladi. Katta Pliniy, Ptolomey va Galen taniqli olimlar edilar. Katta Pliniy tomonidan 37 tomlik «Tabiiy fanlar

tarixi» asari yaratildi. Bu asar o‘sha davrda tabiiy fanlar ensiklopediyasi rolini o‘ynagan.

Ptolomey dunyoning geotsentrik tuzilishi to‘g‘risidagi ta‘limotga asos soldi. Uning «Almagest» asari astronomik bilimlar bo‘yicha qomus edi. U optika, matematika va geografiya sohalariga doir asarlar ham yozgan.

Qadimgi dunyoning mashhur tabiblaridan Asklepiad, Korneliy Sels, Klavdiy Galen bo‘lib, ularning ichida Klavdiy Galen (129-201) mashhur edi. Dastlab u gladiatorlik maktabida ishlab, so‘ng Rim imperatori saroyida tabiblik qilgan. Klavdiy Galen 400 dan ortiq asarlar yozgan. Uning «Tabiblik san‘ati», «Davo usullari», «Dorilarning tartibi haqida» asarlari alohida ahamiyatga ega.

U «Inson tanasining qismlari haqida»gi mumtoz asarida birinchi marta bir butun organizmni anatomik-fiziologik jihatdan tasvirlab bergan. Galen shifobaxsh dorilarni hayvon va o‘simliklardan tayyorlagan. Tabobat tarixida qon aylanishi to‘g‘risidagi dastlabki g‘oyalarni ilgari surgan. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi ilmiy diagnostika, davolash va profilaktikaning asosi ekanligini ko‘rsatib bergan. Galen antik tibbiyotni yagona ta‘limot tarzida umumlashtirib, XV-XVI asrlarga qadar tabobat ilmining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning asarlaridan bobokalonimiz Ibn Sino ham foydalangan.

Imperiya davrida Publiy, Vergiliy Cho‘ponlar ashulalarining to‘plami «Bukolikalar» asarini va «Georgiki» nomli poemasini yozib, unda dehqonlarga maslahatlar beradi va tabiat go‘zalligini kuylaydi. Uning tugallanmagan taniqli poemasi «Eneyda» bo‘lib, unda Rimning afsonaviy bosh fuqarosi Eneyaning sarguzashtlari kuylanadi.

Ovidiy o‘zining «Ishq san‘ati», «Dard-alamlar» va «Pontdan maktublar» nomli asarlarida Avgust davridagi aslzodalar turmushini tanqid ostiga olib, Avgust g‘azabiga uchragan. Boshqa asarlarida esa o‘z qayg‘u-alamini va mehnatkashlarning og‘ir turmushini aks ettirgan. Shu bois, Qora dengiz bo‘yidagi Toma shahriga surgun qilingan.

Eramizning I asridan boshlab Rimliklar, ayniqsa, ularning yuqori tabaqalari, zodagonlari hayotida ma‘naviy qashshoqlik jarayoni kuchayib bordi. Rim imperatorlari Kaligula va Neron qahri qattiqlik va ma‘naviy buzuqlik ramzlariga aylanadilar. Ma‘naviy bo‘shlik va inqiroz Rim jamiyati halokatining bosh sabablaridan biriga aylandi.

Italiyadagi qashshoq va mazlumlar yaxshi yashash va ozodlikka erishish uchun o‘z xudolariga iltijo qilib kelganlar. Lekin bu iltijolar ularning ahvolini yaxshilamagan. Bora-bora mazlumlar orasida eski ma‘bud va ma‘budalar hamda xudolarga ishonchsizlik vujudga kelgan. Mazlum-

lar orasida o'zlariga ozodlik keltiradigan, zolimlarni esa jazolaydigan qudratli xudoga ishonish tuyg'usi vujudga kela boshlagan. Bu xudo va uning dastlabki payg'ambari Iso Masih edi. Iso payg'ambar nomi musulmonlarning ilohiy kitobi «Qur'on»da ham uchraydi.

Sharq yilnomalariga ko'ra Iso payg'ambar milodning 25-dekabrida Bibi Maryamdan tug'ilgan bo'lib, ulg'aygach mo'jizalar ko'rsatish qobiliyatiga ega ekanligini «Yevangeliye» («Xushxabar»)da yozilgan.

Nasroniylik (xristianlik) dinining asosida yakka xudo Iisus Xristosga ishonch, sevish yotadi. Xristian dinida hamma odamlar xudo oldida teng deb e'lon qilinadi. Ular xudo dunyoni 6 kunda yaratgan degan rivoyatni qabul qilganlar. Xristian dini dastlab, mazlumlarning himoyachisi, aslzodalar va boylarni insof va adolatga chaqiruvchi, kelajakda mazlumlarni qullik va qashshoqlikdan ozod qilishga va'da beruvchi din sifatida e'tirof topgan.


Dastlabki xristian jamoalari tarkibiy tuzilishi jihatidan eng demokratik tarzda bo'lgan. Unga mayda hunarmandlar, qullar va barcha mazlumlarning kirar edi. Ular bir-birlarini o'zaro aka-singil deb atashar edilar.

Platon g'oyalari Xristianlik diniga asos qilib olingan edi. Ikki asr mobaynida xristian dini mazlumlardan dinidan asta-sekin hukmron sinflar mafkurasi aylanadi va unga yangi talqinlar kiritiladi. Masalan:

- boylar ham mehribonlik qilishsa, jannatga tushishlari mumkin;
- o'zlarining xo'jayinlariga itoatda bo'lish va sabr qilish va hokazo;

313-yili imperator Konstantin xristianlarni erkin yig'ilishlariga ruxsat beradi va cherkovlar qurilishiga mablag'lar ajratadi. Xristianlik davlat diniga aylana boradi va Qadimgi Rim madaniyatida katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, Xristianlikning davlat diniga aylanishi tufayli cherkov fan bilan ayniqsa diniy aqidalarga to'g'ri kelmagan tomonlariga qarshi kurash boshladi. Ko'plab ilmiy asarlarni, jumladan, Aleksandriya kutubxonasidan ko'plab qo'lyozmalar, kitoblarni yondirib yuborildi. Xristianlar, ayniqsa, qadimgi xudolarning, imperatorlarning, qahramonlarning haykallarini buzganlar, ibodatxonalarni cherkovlarga aylantirganlar. Olimpiya o'yinlarini man qilganlar.

Xristian jamoalarining tarkibiy tuzilishi



395-yili Rim imperiyasi ikki qismga, Sharqiy va Gʻarbiy qismga ajralib ketadi. 476 yili esa rimliklarning german qabilalarining qoʻshinidan navbatdagi magʻlubiyati natijasida oxirgi imperator Romul Avgustin taxtdan tushiriladi. Natijada Gʻarbiy Rim imperiyasi barham topadi. Rim madaniyati tugashi bilan Antik davr madaniyati ham tugadi. Lekin Yunon va Rim madaniyati oʻrnida Yevropa oʻrta asrlar madaniyati, ayniqsa, Yevropa uygʻonish davri madaniyati shakllandi, Vizantiya madaniyatining rivojlanishi uchun taʼsir qildi. Hozir ham minerallar, oʻsimliklar, dorilar va koʻpchilik kasalliklarning nomlarini lotin tilida ataladi. Rimda muomalaga kiritilgan kalendarni biroz oʻzgartirilgan holda ishlatilmoqda. Lotin tilidagi oylar hozirgacha saqlanib qolmoqda. Misol: Sentabr – “yettinchi”, dekabr – “oʻninchi” degani boʻlib (Rimda yangi yil mart oyidan boshlangan) avgust – Avgust nomi bilan ataladi. Rim madaniyati oʻzining Rim huquqi, arxitektura, adabiyot fanlari boʻyicha erishgan yutuqlari jahon madaniyatida oʻz oʻrnini egalladi va hozirgacha yashab kelmoqda, insonlarni hayratga solmoqda.

4.3. Oʻrta asrlardagi dunyo qiyofasi. Yevropa Oʻrta asrlar madaniyati. Xristianlik dini

Oʻrta asrlar tushunchasi Yevropada V asrdan boshlab to XVII asrning birinchi yarmiga qadar boʻlgan davrni qamrab oladi. Bu davr antik madaniyatning inqirozini belgilab bergan Rim davlatining qulashi bilan boshlandi va Yevropa Uygʻonish (Renessans) davriga kelib yakunlandi.

Ana shu antik va Uygʻonish davrlari oʻrtasi zulmat davri (ikki yuksalish davri oraligʻi) deb nom olgan. U fanda oʻrta asrlar davri deb atala boshladi.

Yevropada oʻrta asrlarni quyidagi davrlarga boʻlish mumkin:

1. Ilk oʻrta asr – V-XI asrlar.

Bu davr feodal munosabatlarga oʻtish, feodallar tabaqasining shakllanishi, katolik cherkov taʼsirining kuchayishi, oliy taʼlim muassasalari – universitetlarning paydo boʻlish davridir.

2. Mumtoz (klassik) oʻrta asr – XI asrdan-XV asr oʻrtalarigacha boʻlgan davr.

Ushbu davrga xos xususiyatlar shundaki, qishloqdagi ishlab chiqarish rivojlanibgina qolmasdan, shaharlarda ham hunarmandchilik sexlari paydo boʻldi, shahar infratuzilmasi yaratildi, markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdi. Qirol hokimiyati kuchayib, uning jamiyat ravnaqiga taʼsiri ortib bordi. Kitob nashr etish yoʻlga qoʻyildi, fanning qator tarmoqlariga asos solindi.

3. Soʻnggi oʻrta asr – XVI asr-XVII asrning birinchi yarmi.

Bu davrda ilm-fan va texnika rivojlandi. Inson turmush tarzida buyuk oʻzgarishlar yuz berdi, yangi qitʼalar kashf etildi. Kapitalistik munosabatlarga asos solindi. Demokratik tamoyillar shakllandi.

V-VI asrlarda Rim imperiyasi yerlarida asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullanuvchi germanlarning dastlabki davlatlari tashkil topdi. Madaniyat ravnaqi boʻyicha oʻzidan yuqori boʻlgan xalqlar ustidan hukmronlik qilish (hunlar hujumlari natijasida 476-yilda Rim imperiyasi qulagan edi.) germanlarni boshqaruv tizimini yangi tartibga moslashtirishga majbur etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jihatidan bu davr feodalizm bosqichiga toʻgʻri keladi. Ammo oʻrta asrlar tushunchasining asosiy mazmuni muayyan davrning vaqt chegaralarini aniqlashtirish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki bu davrni madaniyat inqirozi pallasida qabul qilishidadir. Shu maʼnoda oʻrta asrlar antik davrga nisbatan soʻzsiz yoʻqotishlar davri deb qaralar edi. Oʻrta asrlar madaniyatiga past nazar bilan qarash koʻpincha antik davr madaniyatiga hayrixohlik bilan qarovchi tadqiqotchilar orasida tarqalgan edi. Albatta, bu – subyektiv va bir yoqlama yondashuvdan boshqa narsa emas.

Oʻrta asrlarning “zulmat dunyosi” timsoliga aylanishida ushbu davr namoyandalari boʻlgan yozuvchilar, shoirlar, tarixchilar, diniy ulamolar va davlat arboblarning ham “hissasi” bor, albatta. Chunki ular oʻz ijodida asosan zamonaviy hayotning murakkab jihatlarini aks ettirganlar.

Bunday asarlarda kelajakka ishonchsizlik, hayotdan norozilik tuygʻusi sezilib turadi. Shu boisdan ham, bu muammolardan xalos boʻlish imkoni sifatida ajal, oʻlim mavzusi markaziy oʻrin tutgan. Ular nazarida oʻrta asrlar bekorga sarflangan davr, behuda ketgan yuzlab yillar sifatida gavdalangan. Oʻrta asrlarni faqat buzgʻunchilikdan iborat, antik davr madaniyati yutuqlarini chippakka chiqargan davr, deguvchilar ham koʻplab topilar edi.

Gʻarbiy, “xristianlar dunyosi” “Rim dunyosi”ning tanazzuli oqibatida emas, balki Rim va varvarlar dunyolarining oʻzaro muvofiqlashuvi, birikishi natijasida yuzaga keldi. Ammo u haqiqatan ham yemirilish, zoʻravonlik va shafqatsizlik, antik dunyo madaniyati va sivilizatsiyasining koʻplab yutuqlaridan bebahra qolish kabi jiddiy toʻsiqlarni boshdan kechirdi. Koʻplab antik davr shaharlari katta talafot koʻrdi: ayrimlari buzib tashlandi, boshqalari (savdo yoʻllari oʻz yoʻnalishini oʻzgartirishi munosabati bilan) tanazzulga yuz tutdi. Shunga qaramasdan, ilk oʻrta asrlardayoq ayrim sohalarda ijobiy oʻzgarishlar yuz bera boshladi. Qullikning bekor qilinishi ijtimoiy taraqqiyotda tub oʻzgarishlar yasadi.

Antik davrda asosiy energiya manbayi, bu qullarning jismoniy kuchi boʻlib, ushbu manba yoʻqolgach, boshqa imkoniyatlar qidirila boshlandi. Agar antik davrda nazariy bilimlar muvaffaqiyatli rivojlangan boʻlsa, oʻrta asrlar davri mashina va texnika vositalaridan keng foydalanish uchun keng, ravon yoʻllar ochdi. Bu qullikning bekor qilinishining bevosita natijasidir. Antik davr ruhan va jismonan oʻzaro muvozanatda boʻlgan inson timsolni koʻrsatishga intildi. Ammo ayniqsa Rim madaniyatida bu gʻoyani amalga oshirishda koʻproq jismoniy kamolotni taʼminlash borasida muvaffaqiyat qozonildi. Shuningdek, Demokrit, Platon, Aristotel kabi antik davr mutafakkirlarini ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-falsafiy qarashlarining Jordano Bruno, Galileo Galiley, Tomas Mor, Tommazo Kamparella kabi oʻrta asr nazariyotchi-olimlari tomonidan ilgʻor taʼlimotlar yaratilishiga koʻrsatgan bevosita taʼsirini rad etib boʻlmaydi. Masalan, Platon, Aristotellar tomonidan ilgari surilgan ideal davlat toʻgʻrisidagi gʻoyalar Tomas Mor, Tommazo Kampanellalarining utopik qarashlarida yaqqol namoyon boʻladi. Aynan shu qarashlar asosida keyinchalik gumanizm, demokratiya toʻgʻrisidagi yangidan-yangi taʼlimotlar rivojlanib, bugungi kunda ham adolatli, farovon jamiyat qurishda jahon xalqlariga dasturlamal boʻlib xizmat qilmoqda.

Birgina shu misoldan koʻrinib turibdiki, xalqlar, avlodlar va davrlar oʻrtasidagi vorisiylik nafaqat ayrim hududlar, balki jahon sivilizatsiyasi yuksalishida asosiy omil boʻlib xizmat qilgan. Demak, oʻrta asrlar mada-

niyati bevosita antik davr madaniyati, ilm-fan va san'ati ta'sirida yuksalgan hamda o'sha davrda namoyon bo'la boshlangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisalarni yanada boyitgan, keyingi Uyg'onish davri uchun mustahkam zamin hozirlagan.

O'rta asr Yevropa madaniyati cherkov-diniy g'oya bilan yaqindan bog'langan edi. Cherkov ta'siri o'rta asr madaniyatining turli sohalarida, chunonchi, fanda, maktabda, adabiyotda, san'atda aks etdi. Ilm-fan u qadar rivojlanmagan ilk o'rta asrlar davrida, taxminan XI asrning ikkinchi yarmigacha o'rta asr jamiyatiga g'oyaviy rahbarlik asosan cherkov ta'sarrufida bo'ldi: Kishilarning olam to'g'risidagi bilimlari mahalliy cherkov ta'limoti doirasi bilan cheklanardi. Boshqa mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar juda oz bo'lganligidan, yevropaliklar ancha vaqtlargacha olis yurtlar haqida har qanday uydirmalarni to'qishardi. Fan va texnika taraqqiyoti darajasi juda past bo'lganligidan, odamlar qurg'oqchilik, toshqin va kasalliklar oldida ojiz edilar.

Jismoniy ehtiyojlar va lazzatlar mutlaqlashtirilgan Rim jamiyatining achchiq saboqlariga tayanib, xristianlik insondagi ruhiyatga, uning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratdi. U insonni hamma narsadan o'zini tiyishga, ko'ngilli ravishdagi javonmardlikka, hissiy, jismoniy tuyg'ularni so'ndirishga chaqiradi. Ruhiyatning jismoniy kamolotdan ustunligini e'lon qilib, xristianlik kishining chuqur ma'naviyatini shakllantirishga, uni axloqan yuksaltirishga katta hissa qo'shdi.

Bu davrda oliy diniy hokimiyatni oliy siyosiy hokimiyat bilan yagona qo'lda birlashtirishga urinish g'oyasi kuzatiladi. Bunga Rim papalarining (Sharqda – Arab xalifaligi) Yevropada hokimiyat jilovlarini o'z qo'llariga olishga intilishlari misol bo'la oladi. Cherkovning qudratli ta'siri o'laroq, Rim papalari xudoning yerdagi noiblari hisoblangan. XII asrga kelib esa, milliy, siyosiy va davlat manfaatlarni himoya qilish diniy faoliyat bilan sig'isha olmaydigan o'ziga xos soha ekanligi ayon bo'la bordi.

Ma'lumki, tabiat unsurlari, atrof-muhitdagi jismlar o'rta asrlarda tirik mavjudotlar sifatida idrok etilgan. Shu bois, turli yovuz kuchlar qurshovida bo'lgan inson ularga qarshi kurashish, o'zini himoya qilish vositalariga ega bo'lmog'i lozim edi. Natijada turli-tuman tumorlar, diniy marosimlarning xilma-xil shakllari rivojlanib boradi. Masalan, Muqaddas suvni iste'mol qilish kishining gunohlarini yuvib, sog'ligini yaxshilabgina qolmasdan, uni yovuz kuchlar va jodulardan ham himoya qiladi, deb hisoblaganlar.

Dinning jamiyat hayotining barcha jabhalariga bo'lgan ta'siri butun o'rta asrlar davomida salmoqli o'rin tutdi. Bu ta'sir ayniqsa badiiy ma-

daniyat va fan sohasida juda kuchli namoyon bo'ldi. Shu bois, fanning voqelikka doimo shubha bilan qarashi, mohiyatan dalillar qidirishdan iborat bo'lganligi, hech narsani haqiqat sifatida qabul qila olmasligi uni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Fan sohasidagi turg'unlik o'rta asrlardagi ruhiy asosning tabiiy, moddiy asosdan ustunligining o'rnatilishi hisobidan qoplandi. Aynan shu davrda ijtimoiy mavqeyi va millatidan qat'iy nazar, har bir inson hayoti qadr-qimmatga ega, degan aqida tarqaldi. Gladiatorlar janglari va odamlarni qurbonlik qilishning taqiqlanishini ham turli dirlarda insonparvarlik g'oyalarning ustuvorlikka erisha boshlaganiga misol bo'la oladi.

O'rta asr Yevropasi – bu sivilizatsiya gullab-yashnagan, natural xo'jalik hukmronlik qilgan tarixiy davr edi. Bunday turmush tarzi inson tafakkurining tor manfaatlar doirasida qolib ketishiga ham olib keldi. Keyinroq xristian cherkovi jamiyatning barcha tomonlarini siyosiy tashkilot shakliga keltirishning namunaviy asosini yaratdi. Tobelik munosabatlariga asoslangan xristian feodal tabaqachiligi negizida cherkov iyerarxiyasi yotadi (ruhoniylar-yepiskoplar-kardinallar-Rim papasi). Qirol – xudoning vassali, saroy ayonlari – qirolning vassali, dehqon – saroy ayonining, ayol – erkakning, uy hayvoni – ayolning, tosh va o'simliklar – uy hayvonining vassali va b. Toshdan xudogacha keng tarqalgan umumiy vassallik haqidagi ushbu g'oya ham cherkov manfaatiga to'g'ri kelar edi.

Xristian cherkovi feodal jamiyat talabiga javob beradigan kuchli tashkilot sifatida shakllandi. Uning eng quyi pog'onasida qishloq cherkovi ruhoniysi turardi. Tuman va viloyatlarda yepiskop va kardinallar cherkovni boshqarar edilar. Eng yuqori pog'onada katolik cherkovi rahnomasi – Rim papasi turardi.

Din hayotni muqaddas shaklda tasvirlovchi g'oyalarni yaratdi: falsafateologiya, adabiyotda ilohiy, didaktik shakllar, musiqada cherkov gimnlari – liturgiya va messa, tasviriy san'atda xristianlik sujetlari asosiy o'rin tutadi. Asosiy fanlar ilohiyot va sxolastika (bu atama fikr so'qish, dogmatizm, mazmunsiz, yuzaki bilimni anglatgan) edi. Ilohiyot olam va inson haqidagi o'z "ilmiy" manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Yer – Olamning, Iyerussalim – dunyoning markazi, degan qarash hukmronlik qildi. Inson majoziy tarzda mikrokosmos, tana – yer, qon – suv, nafas – havo, ha-rorat – olov, ya'ni u boshlang'ich ibtidodan iborat, deb qaraldi.

Xristian cherkovi o'z maqsadi va mazmuni bilan hukmron tabaqa manfaatiga xizmat qilsada, uning maorif, madaniyat va, ma'lum darajada, fanni rivojlanishiga qo'shgan hissasini alohida qayd etish lozim. Dastlabki kutubxonalar monastirlarda bo'lgan. Monax-attotlar, ko'pincha diniy mavzu-

da bo'lsa-da, kitoblarning yangi nusxalarini yaratganlar. Yevropada XI asrga qadar maktablar ham cherkovlar qoshida tashkil etilgan bo'lib, ularda o'rta asrlarning barcha buyuk allomalari ta'lim olganlar. Xristian dinining xaloskorlik kuchiga ishongan xalq ko'pincha o'z xohishi bilan, ba'zida majburan hosilining katta qismini cherkov va monastirlar hisobiga hadya qilar edi. Bu borada cherkovning naqadar katta imkoniyatlarga ega bo'lganligini Parij yaqinidagi Sen-Jermen monastiriga tegishli dehqonlar soni 80 mingdan ortiq bo'lganligidan ham bilsa bo'ladi.

O'rta asr Yevropasida boy-badavlat, savodli-savodsiz, umuman, jamiyatning barcha qatlamlari ishtirok etadigan ommaviy tadbirlardan biri diniy mavzudagi ma'ruzalar edi. Voizlar insonning hayotida, uning turmush tarzida, kasbiy faoliyatida amal qilinishi lozim bo'lgan tadbirlar to'g'risida nutq so'zlab, ularni ezgulikka, o'zaro hurmatga chaqirganlar. Masalan, XIII asrda Germaniyada mashhur voiz Bertold Regensburgskiy (1210-1272) shunday atoqli arboblardan edi. Ma'lumotlarga ko'ra, uning nasihatlarini tinglash uchun 50 minglab xalq yig'ilgan. 1250-1272-yillar mobaynida ushbu voiz tomonidan tayyorlangan 60 taga qadar nutq ma'lumdur. B.Regensburgskiy inson xudo oldida quyidagilar uchun javob berishini uqtiradi:

- o'zimiz (shaxslarimiz) uchun (barchamiz ezgulikka intilib yashashimiz lozim);
- iste'dodimiz (lavozim, xizmat turi) uchun (qanday bo'lishidan qat'iy nazar, lavozimidan hech kim nolimasligi kerak);

Agar hamma ritsar, amaldor bo'lsa, kim oziq-ovqat, kiyim-kechak tayyorlaydi, binolar barpo etadi? O'g'rilik, qalloblik, sudxo'rlik xudo tomonidan yaratilgan kasblar emas. Demak, ular bilan shug'ullanish – yaratganga shak keltirishdir.

O'rta asrlar davri diniy ta'limotlar taraqqiyotida alohida o'rin tutgan siymo mashhur ilohiyotchi, faylasuf olim, muloyimligi tufayli "Farishta doktor" laqabini olgan, vafotidan so'ng (1321-yil), avliyo deb e'lon qilingan Foma Akvinskiy (1225-1274-yillar) edi. U xudo borligini tasdiqlab, quyidagi beshta isbotni keltiradi:

- birinchisi – tabiatda harakat mavjudligi. Birinchi harakatga soluvchi kuch – xudodir.
- ikkinchisi – o'zaro ta'sir qiluvchi sabablar mavjudligi, ya'ni biron narsa ta'sir qiluvchi sababsiz yuz bermaydi. Bu sabab – xudodir.
- uchinchisi – tasodif va zaruriyatning o'zaro munosabati. Tasodifiy narsa zaruriy narsaga bog'liq. Bu zaruriyat – xudodir.

- to‘rtinchisi – kamolot darajalarining mavjudligi. Eng oliy kamolot darajasi – xudodir.

- beshinchisi – hamma narsalarning maqsadga muvofiq yaratilganligidir. Shunday bir ongli mohiyat borki, tabiiy narsalarni maqsadga yo‘naltiradi. Bu – xudodir.¹

Foma Akvinskiy ta‘limoti – tomizm asta-sekin cherkovning rasmiy doktrinasiga aylandi («Thomas»–lot. Foma). Feodalizmning inqirozi bilan zaiflashib qolgan tomizm XIX asrda neotomizm shaklida namoyon bo‘la boshladi va hukmron sinf vakillari tomonidan tobora kuchayib borayotgan ishchilar harakatini susaytirish vositasi sifatida foydalanildi.

4.4. O‘rta asrlarda ta‘lim tizimi, me‘morchilik va san‘at

O‘rta asrlar Yevropa madaniyatining eng yirik yutug‘i o‘rta va oliy ta‘lim tizimining yaratilishi hamda universitetlarning paydo bo‘lishidir. Bu davrda feodal jamiyatning dehqonchilik mehnatidan ozod bo‘lgan qismi boshqa faoliyat turlari – san‘at, adabiyot, harbiy xizmat, ta‘lim bilan shug‘ullana boshladi. Ta‘limning u yoki bu turi qadimgi sivilizatsiyada ham mavjud bo‘lgan. Bu tizim ayrim hududlarda hatto bugungi oliy ta‘lim muassasalarining ilk ko‘rinishlari holida bo‘lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda Pifagor, Aristotel maktablari uzoq vaqt, Platon akademiyasi esa ulardan ham ko‘proq faoliyat ko‘rsatgan. Ammo o‘rta asr Yevropasida aholining mutlaq ko‘pchiligi savodsiz edi. Savodli kishilar na faqat dehqonlar, balki feodallar orasida ham oz sonli edi. Ritsarlarning ko‘pchiligi imzo chekish o‘rniga belgi qo‘yganlar. G‘arbiy Yevropada uzoq vaqtlargacha ruhoniylargina savodxon bo‘lib keldi: ular diniy kitoblarni o‘qishlari, ibodat duolarini bilishlari, xudoning qudratini dindorlarga chiroyli qilib tasvirlab, kishilarni ishontirishlari lozim edi.

Cherkov va monastirlar huzurida tashkil etilgan quyi maktablar o‘z oldiga savodxon dindorlarni tayyorlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu maktablarda asosan lotin tilini, ibodat va duolar o‘qish tartiblarini o‘rgatishga e‘tibor berilar edi. IX asrda cherkov – yepiskoplik maktablari rivojlanib, keyinchalik ular zaminida o‘rta asr universitetlari vujudga keladi.

Diniy maktablarda sakkiz yoshli bolalar ham, o‘smir yigitlar ham yoshiga qarab, sinflarga bo‘linmasdan, barobar o‘qitilgan.

Cherkov qoshida ichki va tashqi maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Ichki maktablarda tug‘ilganidanoq monaxlikka mahkum qilingan bolalar yashab, ta‘lim olganlar. Shuningdek, bu davrdagi maktablarda ilohiyot bi-

¹ Yo‘ldoshev S. va b. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. –T.: “Sharq”, 2003. 159-bet.

lan shug‘ullanadigan yoki oddiy hayotga qaytadigan badavlat kishilarning farzandlari ham o‘qiganlar. Ikkala maktab ham deyarli bitta maqsadga – lotin tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan edi. Shunga qaramasdan, VIII-IX asrlardagi savodxonlik holati to‘g‘risida Buyuk Karl qalamiga mansub bo‘lgan quyidagi misralar asosida xulosa qilish mumkin: “Imperator (Genrix IV) shu darajada o‘qimishli ediki, o‘ziga yuborilgan barcha xatlarni bemalol o‘qish va tushunish imkoniyatiga ega edi¹”.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining hammasidagi ta‘lim muassasalarida o‘sha vaqtda biron xalq gapirmaydigan lotin tilida o‘qitilgan. Ko‘pincha butun boshli maktabda bir dona kitob bo‘lib, muallim uni navbat bilan bolalarga berib, ularning savodini chiqargan. Bolalarda o‘qishga havas tug‘dirishga harakat qilinmas, ammo itoatsiz talabalar qattiq kaltaklanar edi.

Bugungi oliy ta‘lim tizimining tarixiy ildizlari o‘rta asrlar madaniyatida buyuk burilish yasagan muhim hodisa – universitetlar tashkil etilishiga borib taqaladi. Dastlab “universitet” so‘zi aynan ta‘lim muassasi bilan bog‘liq emas edi. Universitet deb ma‘lum kasb egalari bo‘lgan kishilar birikmasiga, ya‘ni hamkasblar, masalan, hunarmandlar uyushmalari, ittifoqlariga ta‘lim beruvchi o‘qituvchi va talabalarni birlashtirgan birlashmalarga aytilgan.

G‘arbiy Yevropadagi dastlabki universitetlar XI asrda paydo bo‘lgan. Universitet – lotincha “majmua” ma‘nosini ham anglatadi. Atama umumiylik ma‘nosini berib, unda turli sohalar birlashtirilganligi aks etadi. Bu vaqtga kelib bilimlar hajmi shu darajada ediki, endi ularni o‘zlashtirish, ko‘paytirish va saqlash uchun bu bilimlar majmuasining ayrim qismlarini yillar davomida o‘rganish zarur edi. Jamiyatda ma‘lum sohalar uchun mutaxassislar, masalan, huquqshunoslar, shifokorlar, o‘qituvchilar tayyorlash uchun maxsus ta‘lim tizimi tashkil qilish zaruriyati tug‘ildi. Ilmiy darajalar (bakalavr, magistr, doktor) tizimi, umumiy va maxsus fanlarni uzviylikda o‘qitish tartiblari ham o‘sha davrlarda yaratilib, to bugungi kungacha takomillashib borgan. Darajalarning taqsimlanishi, o‘z navbatida, universitet bosqichlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ko‘pchilik universitetlarda ilohiyot, huquqshunoslik va tibbiyot fakultetlari ochilib, ularda ta‘lim 10 yil va undan ham ko‘proq davom etardi. Shuningdek, G‘arbiy Yevropa universitetlari o‘ziga xos madaniyat makoni bo‘lib ham xizmat qildi. Bunda barcha universitetlarda ta‘lim umumiy (G‘arbiy Yevropa uchun) – lotin tilida olib borilishi yetakchi omil bo‘ldi. Universitet diplomlarini xalqaro miqyosda tan olish an‘anasi ham o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan. Bakalavr, magistr, doktor kabi darajalar tabaqalanishi universitet ta‘limining ko‘p bosqichliligiga mos kelar

¹ Хрестоматия по истории педагогики, - М.: Учпедгиз, 1938. стр. 66-67.

edi. Ta'limning birinchi bosqichi 7 ta fanni o'z ichiga olgan ikki davrdan iborat edi:

I davr – trivium (grammatika, notiqlik, mantiq);

II davr – kvadrium (arifmetika, astronomiya, musiqa, geometriya).

Oliy maktablar XIII asrda Boloniya, Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XV asrga qadar Yevropa davlatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan.

Universitetlar erkin boshqaruv va moliyaviy mustaqillik huquqlariga ega bo'lib, bu haqdagi yorliq qirol yoki Rim Papasidan olinardi. Universitetlar mustaqilligi uning ichki tartib-qoidalariga, intizomga qattiq rioya qilish bilan mujassamlashtirilgan. O'rta asrlardagi eng yirik universitet Parijda bo'lgan. Unga 1257-yili fransuz qiroli xonadoni ruhoniysi Rober de Sarbon asos solgan. Hozirgi kunda dunyoga mashhur Sarbonna universiteti shu tariqa tashkil topgan.

Universitetlar paydo bo'lishida talabalarning bilim va adolat izlab, ko'chib yurishlari ham katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, XII asr o'rtalarida Angliya va Fransiya o'rtasidagi siyosiy munosabatlarda ayrim ziddiyatlar yuzaga kelganda, angliyalik talabalar Parij universitetida o'z huquqlari poymol qilinayotganligini ro'kach qilib, 1168-yilda Angliyaning Oksford shahriga ko'chib ketganlar. Shu tariqa Oksford Universiteti vujudga kelgan. 1209 yilda ushbu universitet talabalarining g'alayonlari esa ularning ko'p qismining Kembrij shahriga ketishlariga va Kembrij Universitetiga asos solinishiga sabab bo'lgan.

Universitetda alohida fan o'qituvchilari yig'ilib, o'z birlashmalari fakultetlarini tuzib, unga dekan saylaganlar. Universitet rahbari-rektor o'qituvchi va talabalarning umumiy yig'ilishida saylangan.

Germaniyada ham universitetlarning o'ziga xos tizimi shakllandi. Bu universitetlar, birinchidan: ta'lim berish, izlanishlar olib borish va bakalavr, magistr, doktor darajalarini berish huquqiga edilar. Bu huquq asosan diniy hokimiyat tomonidan berilgan. Ikkinchidan, ular mustaqillikka ega bo'lib, o'z Nizomi va ichki tartib-qoidalari asosida faoliyat yuritganlar. Uchinchidan, ular o'z a'zolarini o'zlari sud qilganlar, ya'ni hududiy va shahar hokimiyati tomonidan berilgan imtiyozlarga muvofiq ularni turli soliq va to'lovlardan ozod qilish huquqiga ham ega edilar.

O'quv ishlarini tartibga solish, ma'ruza va imtihonlarni talab darajasida tashkil etish maqsadida universitetlarda diniy, yuridik, tibbiy va umumta'lim fakultetlari tashkil qilingan. Har bir fakultetga saylov asosida tayinlangan dekan rahbarlik qilgan. Fakultetning asosiy maqsadi ma'ruza-

larni tashkil qilish va taqsimlash, bahs-munozaralar, tajribalar o'tkazish hamda ilmiy darajalar berishdan iborat bo'lgan.

Universitetlar o'z xodimlarining haq-huquqlarini himoya qilishda ham katta imtiyozlarga ega bo'lganlar. Masalan, 1231-yilda Papa Grigoriy IX tomonidan imzolangan «Parij universitetining ish tashlash huquqi to'g'risida»gi Farmonida shunday deyilgan: «Agar sizlar qandaydir huquqdan, masalan, yashash joyingizdan foydalanish huquqidan, mahrum qilinsangiz, kimdir o'lim yoki jahoratlanish ko'rinishida haqorat qilinsa, talab qilingan murojaatingizga 15 kun ichida javob olmasangiz, shunga erishguningizcha ma'ruzalar o'qishni to'xtatishingiz mumkin. Agar sizlardan kimdir noqonuniy ravishda qamoqqa olinsangiz va bu nohaqlikka sizning murojaatingizdan keyin ham barham berilmasa, lozim topsangiz, ma'ruzalar o'qishni to'xtatishingiz mumkin»¹.

XII asrda Yevropa universitetlaridagi ta'lim-tarbiya dastlab diniy yo'nalishda, cherkov rahbarligida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik, kam bo'lsa ham, tabiiyot, matematika ham o'rganila boshlandi.

Shunday qilib, o'rta asrlarda universitetlar tizimining tashkil topishi va ularning faoliyati keyingi davrlardagi ilmiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun katta ahamiyat kasb etdi.

Maktab va universitetlarning ko'payib borishi kitobga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Ilk o'rta asrlarda kitob qimmatbaho buyum bo'lib, u pergamentga – buzoq terisidan tayyorlangan maxsus varaqlarga xattotlar tomonidan yozilgan. XII asrdan boshlab alohida kitob chop etish ustaxonalarining ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan qog'ozning keng qo'llanishi esa, uni yanada ko'proq chiqarish imkoniyatini tug'dirdi. Qog'oz Xitoydan Sharq davlatlari, jumladan, Samarqand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki qog'oz ustaxonalari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan esa bu soha Italiyada ham rivojlana bordi. Yevropadagi dastlabki ustaxonalarda qog'oz eski lattalardan tayyorlangan.

Germaniyada 1445-yil Iogann Guttenbergning kitob bosish dastgohini kashf etishi natijasida kitobning ommaviy tarqalishi Yevropa madaniy hayotining yanada yuksalishiga olib keldi.

O'rta asr san'ati evolutsiyasi ham chuqur o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ilk o'rta asrlarda (V–IX asrlarda) franklar san'ati yetakchi o'ringa egallagan. Chunki bu davrda franklar davlati deyarli butun Yevropa hududini egallagan. Hokimiyat merovinglar sulolasi qo'lida bo'lgani bois, V-VIII asrlar san'ati ko'p hollarda merovinglar san'ati deb ham ataladi.

¹ Хрестоматия по истории педагогики, - М., Учпедгиз, 1938. стр.86.

Mohiyat – mazmuniga ko‘ra bu san‘at xristianlikkacha bo‘lgan davrga xos edi. Bu davrda kiyim-kechak, qurol-yaroq, naqshlar bilan bezalgan ot-ulov anjomlarini tayyorlash bilan bog‘liq holda hunarmandchilik yuksaldi.

Miniatura – kitoblarni rasmlar bilan bezash keng tarqaldi. Monastirlarda diniy kitoblarni yozish va bezashga moslashtirilgan maxsus ustaxonalar-«skriptoriylar» faoliyat ko‘rsatgan. Biroq dunyoviy kitoblar hali juda kam bo‘lgan.

Bu davrga oid frank me‘morchiligi namunalari juda kam saqlanib qolgan bo‘lib, ular hozirgi Fransiya hududidagi bir nechta kichkina cherkovlardangina iborat xolos. Varvarlar me‘morchiligi (xristianlikkacha bo‘lgan davr) namunasiga Ravenndagi ostgot qiroli Teodarix (520-530-yillar) qasri misol bo‘la oladi.

Merovinglar sulolasi merosxo‘rlari Karolinglar davrida, (VIII-IX asrlar) ayniqsa «Roland haqida qo‘shiq» poemasining afsonaviy qahramoni Buyuk Karl hukmronligi vaqtida O‘rta asrlar san‘ati yuksak taraqqiyotga erishdi. Buyuk Karl – franklar qirolligini boshqargan (768-814-yillar davomida) yirik hukmdorlardan biri edi. «Buyuk» laqabi Karlga 53 ta yirik harbiy yurishlarga boshchilik qilganligi, qonunchilik sohasida amalga oshirgan salmoqli ishlari, ilm-ma‘rifat sohasidagi xizmatlari uchun berilgan baho edi.

Bu davrda san‘at, asta-sekin varvarlik ta‘siridan xalos bo‘lib, antik davr merosiga faol murojaat qila boshlaydi. Shuning uchun bu davrni ma‘lum ma‘noda «Karolinglar Uyg‘onishi» deb ham aytishadi. Bunda, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Buyuk Karl hissasi alohidadir. U o‘z saroyining qoshida madaniy-ma‘rifiy markaz tashkil qilib, uni Akademiya deb ataydi. Karl Buyuk akademiyada buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va rassomlar ijodi uchun qulay sharoit yaratishga katta homiylik ko‘rsatdi. Natijada bu davrda fanlar va san‘at sirlarini chuqur o‘rganish, tadqiq qilish, ularni yanada rivojlantirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Ayniqsa, antik davr madaniyati bilan mustahkam aloqa o‘rnatilishi uchun ko‘p sa‘y-harakatlar amalga oshiriladi.

Karolinglar davriga oid bir qancha me‘moriy yodgorliklar saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan biri – sakkiz qirrali gumbaz bilan qoplangan, sakkiz burchakli inshootdan iborat Aaxendagi (800-yil) Buyuk Karlning ajoyib cherkovidir.

Bu davrda ham miniatura san‘ati rivojlanishda davom etadi. Mazmuni asosan diniy mavzularda bo‘lishiga qaramasdan, ilk o‘rta asr oxiriga kelib, ularda ov, yer haydash kabi inson faoliyatiga doir boshqa mavzular paydo bo‘la boshlaydi.

Karolinglar imperiyasi qulab, mustaqil Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari paydo bo'lgach, o'rta asr san'ati yangi bosqichga qadam qo'yadi.

Ilk o'rta asrlarda xristian Yevropasida haykaltaroshlik va tasviriy san'at taqiqlanmagan bo'lishiga qaramasdan, ularda ham ancha vaqt davomida asosan diniy mavzular ustunlik qilgan. Asosan bu Iso payg'ambar, Momo Xudo, apostollar (payg'ambarlar) timsollari edi. Dastlab Iso tasvirlari yunon va rim afsonalari timsollarini eslatgan. Xristianlarning ayrim tamoyillariga qarama-qarshi bo'lishiga qaramasdan, antik dunyoning madaniy-tarixiy an'analari xristian dini tomonidan butunlay uloqtirib tashlanishi mumkin emas edi. Xristian dinini qabul qilgan ko'plab odamlarda hali eski madaniyat an'analari bilan bog'liq bo'lgan turli estetik ehtiyojlar saqlanib qoladi.

Eng dastlabki xristianlarda Xudo tasvirini yaratish muammosi bo'lmagan, chunki dastlabki xristianlar yahudiylar bo'lib, ularning dinida tasviriy san'at umuman taqiqlangan edi. Xristian dinining g'arbga tarqalib borishi bilan yangi xristianlar Xudo timsolini ko'rishni xohlaydilar. Diniy markaz bo'lmaganligi bois bunday muammolarni hal qilish imkoni yo'q edi. Isoni Orfey ko'rinishida, chiroyli yoki xunuk qilib tasvirlashga urinishlar bo'ldi. Ikonalarni yaratishning yo'lga qo'yilishi ma'lum ma'noda mazkur muammolarning yechimini topish imkonini berdi. Ikonografiya – bu Iso payg'ambar timsolini yaratishda rassom asoslanishi, qat'iy amal qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar majmuasidir. Ikona savodsiz omma uchun xudo bilan ruhiy-hissiy bog'lanish, aloqa shakli sanalgan. Tasvirda xudoni bandalarning gunoh kechmishlarini mag'firat etishga qaratilgan motamsaro ko'rinishi ifodalangan. Ikonalar yaratishning turli milliy, hududiy maktablari paydo bo'la boshladi (masalan, Vizantiya, rus maktablari). Ikona chizishda rassomlar yirik tasvirlarga turli qismlar, kiyim va umumiy rangning haqiqatga yaqin bo'lishiga intilmaganlar. Tasvir keng qamrovli bo'lib, real hayotiylikdan chetlash orqali tomoshabin e'tiborini to'la badiiy asarning ruhiy mazmuniga qaratish imkonini bergan.

Rivojlangan o'rta asr boshlari – X asr vengerlar, saratsin (musulmon)lar, ayniqsa normannlar yurishlari natijasida eng murakkab, og'ir davr bo'ldi. Yangi tiklanayotgan davlatlar chuqur inqiroz va tanazzulni boshdan kechirar, san'at ham shunday holatda edi. Ammo X asr oxiriga kelib ahvol ancha yaxshilanadi: feodal munosabatlar o'rnatilib, hayotning barcha jabhalaridagi kabi, san'atda ham jonlanish va yuksalish kuzatiladi.

O'rta asrlardagi tasviriy san'at asarlarida insonlarning bo'shliq mavjudligini ongli ravishda tan olmaslikka intilishi aks etib turadi. Shu bois-

dan bu davrda yaratilgan ko'pchilik tasviriy san'at asarlarida osmon tasvirlanmagan. Osmon ramzi bo'lgan havo rang ayni chog'da inson erki, ozodligi ramzi bo'lgan. Shuning uchun rassomlar o'z asarlarini turli tasvirlar, masalan, serbarg o'simliklar, murakkab geometrik shakllar, to'g'ri va kesishgan chiziqlar, tilla rang muhit bilan bezatganlar. Rasmlardagi odamlar guruhi yaxlit bitta tanadan ko'p boshli, ko'p qo'l-oyoqlidek gavgavdalanadi. Chunki gavgavdalar orasida bo'sh joy bo'lmasdan, ular bir-biriga jipslashib turgandek idrok etiladi. O'rta asr rasmlarida mazmunan va geografik jihatdan, vaqt nuqtayi nazaridan o'zaro bog'liq bo'lmagan voqea-hodisalarni ham birlashtirishga intilishni his etamiz. Masalan, XV asrda yaratilgan va hozirgi kunda Florensiya muzeyida saqlanayotgan naqshinkor idishdagi «Paris ustidan sud» asarida mashhur afsonaning biridaniga bir nechta ko'rinishlari tasvirlangan: Parisning cho'ponlik davri, Momo – Xudolar yig'ini, oltin olmaning taqdim etilishi va hokazo. O'rta asr rasmlaridagi umumiy vaqt tasodif emas, balki qonuniyatdir.

O'rta asrlar musiqasida ham asosiy mavzu xudoni kuylash, injil aso-tirlarilari, avliyolar hayoti, ruhiy-axloqiy poklanish, gunohdan mag'firat bo'lish aqidalari edi.

Musiqaviy madaniyat negizini cherkov qo'shiq-kuyi (liturgiya), she'riyat va dramaturgiyani o'zida uyg'unlashtirgan cherkov tantanalari tashkil etdi.

Me'morchilik ham ilohiyotning unsiz targ'iboti tarzida namoyon bo'ldi.

Me'morlar V-VI asrdayoq shaharlarni rejalashtirishning yangi uslublarini yaratishdi. Yangi ko'rinishdagi shahar markazida bosh maydon va ibodatxona joylashib, undan shaharning turli tomonlariga ko'chalar tarqalgan. Xuddi shu paytdan ko'p qavatli, peshtoqli uylar, boylarning mustahkam koshonalari, saroylari paydo bo'ldi. Vizantiyada cherkov va ibodatxonalar qurilishi ham yuksak san'at darajasiga ko'tarildi. 532-537-yillarda imperator Yustinianning buyrug'i bilan bunyod etilgan Muqaddas Sofiya ibodatxonasi bunga misol bo'la oladi. Bino gumbazi diametrining o'zi 30 metrdan ortiq bo'lib, ibodatxona ichidagi ustunlar, uning devorlari turli rangdagi marmarlar va mozaikalar bilan qoplangan.

Yevropada qurilish-me'morchilik sohasi, ayniqsa, XI asrdan boshlab tez rivojlandi. Dastlabki paytda binolar va, hatto, feodal zadogonlari qal'alari ham yog'ochdan qurilgan. O'rta yer dengizi havzasidagi shaharlar qurilishida toshni ashyo sifatida ishlatish uchun bir necha asr kerak bo'ldi.

Toshning yumshoq turlari bo'lmagan mamlakatlarda, jumladan, Angliya va Polshada binolar pishiq g'ishtdan qurilgan. Ibodatxonalar va monastirlar toshdan qurilgan.

O'rta asrda badiiy uslub hodisasi paydo bo'ladi. O'rta asr G'arbiy Yevropa me'morchiligida X – XIII asrlarda roman uslubi keng tarqaladi. Roman tushunchasi Rim, ya'ni Qadimgi Rim madaniyatiga bog'liq degan ma'noni anglatadi. Bu san'at asarlarida qadimgi Rim san'atining so'nggi davriga xos uslublarga murojaat qilinganiga muhim ishora edi. Ushbu uslubning me'morchilikdagi o'ziga xos jihati, bu yirik binolarning qat'iy geometrik shakli, tuzilishining oddiyligidir. Roman me'morchilik binosi ko'rinishi sokinlik va mag'rurlik hissini uyg'otar edi. Faqat monastirlar, ibodatxonalariga emas, hukmdorlarning qasrlari ham roman uslubida qurilgan. Umuman, san'atning yangi yuksalish davri shartli ravishda roman davri nomini olgan. Bu ko'proq XI-XII asrlarga to'g'ri keladi.

Roman uslubi mohiyati – katta tekisliklar mavjud bo'lgan holda, vertikal va gorizontol to'g'ri chiziqlar, eng oddiy geometrik shakllar ustunligidir. Qurilishda ark, ravoqlardan keng foydalanilgan holda, eshik va derazalar tor qilinadi. Binoning tashqi ko'rinishi aniqlik va oddiylilik, sovuqlik, ayrim hollarda qorong'ulik bilan yo'g'rilgan, buyuklik va vazminlik bilan ajralib turadi.

Roman uslubi Fransiyada ayniqsa keng tarqaldi. Bunga Klyunidagi (XI asr) cherkov, Klermon-Ferandagi Notr Dam dyu Por cherkovi (XII asr) misol bo'la oladi.

Bu uslubdagi dunyoviy binolar shakli oddiy bo'lib, ularda naqshinkor bezaklar deyarli yo'q. Binoning asosiy turi feodal-ritsar uchun bir vaqtning o'zida ham uy, ham mudofaa inshooti bo'lib xizmat qiladigan qal'a-qasrdir. Ko'p hollarda bu – markazida minora mavjud bo'lgan hovlidir. Bunga bizning davrimizgacha yetib kelgan Senadagi Shato Chayar qasri xarobalari misol bo'la oladi.

Germaniyadagi roman me'morchilik uslubida qurilgan inshootlarga O'rta Reyndagi Voris, Maynts va Shpeyere shaharlarida joylashgan cherkovlar (XIII asr) misol bo'ladi.

O'rta asrlar san'ati va me'morchiligidagi keyingi davr – gotika uslubini yaratilishi bilan mashhurdir. Shaharlarda XII asr oxiridan e'tiboran savdo rastalari ratushalar, shifoxonalar va mehmonxonalar qurilishi keng avj oldi. O'rta asr shahri markazidagi eng chiroyli va hashamatli bino, bu ibodatxona edi. Uyg'onish davrida paydo bo'lgan "gotika" atamasi shartli bo'lib, u german qabilalaridan hisoblangan gotlar nomidan olingan (Gotlarning asl vatani Skandinaviya bo'lib, keyinchalik Boltiqbo'yida, Qora dengizi qirg'oqlarida istiqomat qilganlar. Ularning hozirgi Moldova va Ruminiyaning sharqiy hududlarida yashaydigan qismlari vestgotlar, Shimoliy Qora dengiz bo'yi, Dnestrning sharqiy tomonlarida

yashovchi – ostgotlarga bo‘lingan. IV asrning 70-yillarida xunlar gotlarning yerlariga hujum qilib, 375-yilda vestgot, ostgot hamda ularga qarashli dasht qabilalari ittifoqini tor-mor etishadi).

Yuksaklikka intilgan gotik tasvirlar, xristianlik diniy inshootlarining baland gumbazlari yuksaklikka, ma’naviyatga intilishi ramzi edi.

Mazkur uslubdagi binolarning mumkin qadar balandroq qilib qurishga intilishning yana bir sababi bor. Gap shundaki, aholi soni oshib borgan, baland va mustahkam qal’a devorlari bilan o‘ralgan shahar maydonini kengaytirish oson bo‘lmagan. Bu esa, eniga o‘shiga imkon topa olmagan binolarning bo‘yiga o‘shiga olib keldi. Yarim doirali qubbali peshtoq o‘rniga endilikda uchi nayzasimon peshtoq qilinadigan bo‘ldi. Bu uchli peshtoq va gumbazlarni Yevropaga dastlab musulmon ustalari olib kirdilar. Gumbazlar sinch ustiga o‘rnatilib, ibodatxonaning baland va ko‘rkam ishlangan ustunlariga tayanib turardi. Shu tariqa, hozirgi zamon qurilishida ishlatiladigan temir-beton va po‘lat karkaslar (sinchli) kabi qurilmalar paydo bo‘ldi.

Ibodatxonalar shahar kengashi buyurtmasi bilan qurilgan. Ular faqat cherkovning qudratini namoyish qilibgina qolmasdan, shu bilan birga, shaharlar erkinligi timsolini ham o‘zida mujassamlashtirgan edi. Tik qoya tomlar, eng tepasiga ingichka nayza o‘rnatilgan baland minoralar – bularning barchasi binoni tobora yuqoriga ko‘tarilayotganday ko‘rsatardi. Gotika uslubida qurilgan eng yirik ibodatxonalar minorasining uchi 150 metrga yetadi. Fransiyadagi Shartr shahridagi butxonaning balandligi – 115 metr, Strasburgdagisi – 142 metr, ya’ni 48 qavatli binoning bo‘yiga tengdir. Ushbu yirik inshootlar ba’zan yuzlab yillar davomida qurilgan.

XIII asrda Italiya va Germaniyada, XII asrda Fransiyada gotika uslubi to‘la hukmronlik qildi. Bu davrda me’morchilik san’atning butunlay yetakchi turiga aylanib, bunda diniy inshootlar – cherkov va ibodatxonalar qurilishi ustuvor yo‘nalishni tashkil qiladi. Gotik me’morchilik ikki qism – tuzilish (konstruksiya) va dekor (bezaklar)ning organik birligidir.

Gotik tuzilishning mohiyati bino mustahkamligi va chidamligini ta’minlovchi o‘ziga xos asos-muskul yaratishdandir. Agar roman me’morchiligida inshoot mustahkamligiga devorlar kattaligi bilan erishilsa, gotik uslubda esa u og‘irlik kuchini teng taqsimlash bilan ta’minlangan. Gotik tuzilish uch asosiy qismdan tarkib topadi:

- 1) arkdagi uchli qubba;
- 2) arkbutan (yarim arka) tizimi;
- 3) qudratli kontrforslar (eshik tirgovuchlar).

Demak, gotik inshootlarning tashqi ko‘rinishidagi o‘ziga xoslik bu o‘tkir uchli minoralardan keng foydalanishdir. Gotikada devorlar asosiy rolni o‘ynamaganligi uchun bino ichiga yorug‘likning erkin kirishini ta‘minlovchi keng eshik va derazalardan foydalanilgan. Bu xristianlik uchun katta ahamiyat kasb etgan. Negaki, u yorug‘likka ilohiy, sirli hodisa sifatida yondoshadi.

Gotika beshigi Fransiya edi. Parij Momo - Xudo cherkovi (XII - XIII asrlar) ilk gotikaning haqiqiy mo‘jizasidir. Uning uzunligi 130 m., kengligi 50 m., balandligi 35 m. Bino bir vaqtning o‘zida 9000 kishini sig‘dira oladi. XIII-XVI asrlar davomida qurilgan Kelndagi (Germaniya) balandligi 757 metrlik cherkov ham gotik uslubga misol bo‘la oladi. Qadimgi Rusdagi katta gumbazli ibodatxonalardan eng mashhurlari Kiyevdagi Sofiya (XI asr), Vladimirdagi Uspenskiy (XII asr), Nerldagi Pokrov (XII asr) cherkovlaridir. Uning yutuqlari Amen va Reyms sobori (XIII asr), shuningdek fransuz qirollari uchun cherkov rolini o‘tagan ajoyib San Shapel Yuqori Cherkovi (XIII asr) tomonidan yanada rivojlantirildi. Germaniyaga gotika Fransiya ta‘sirida tarqaldi. Bu yerdagi mashhur inshootlardan biri Kyolndagi cherkovdir (XIII-XV, XIX asrlar). Angliya gotikasi ham ko‘p jihatdan fransuz modelini davom ettiradi. Angliya qirollari va buyuk insonlar maqbarasi bo‘lgan Vestminster abbatligi (XIII - XVI asrlar) ham ushbu uslubga misoldir.

Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, o‘rta asrlarda qurilish-me‘morchilik sohasida ham katta burilish yuz berdi. Binolar yanada go‘zallashib, kishilar uchun qulayliklar ortib bordi. Bu davrdagi Yevropa me‘morchiligida roman va gotika uslublaridan tashqari Italiyadagi Vizantiya uslubidan (Vinetsiyadagi Avliyo Mark cherkovi, qisman Dojlar saroyi va boshqalar) hamda Ispaniyadagi arab uslubidan (eng mashhur yodgorliklar: arablarning Granadagi Al-Xamro nomli sobiq saroy-masjidi, hozirgi Seviliya sobori va Seviliyadagi Al-Qasar - qasri) ham foydalanilgan.

O‘rta asrlarda haykaltaroshlik san‘ati me‘morchilik bilan uzviy bog‘liq ravishda rivojlandi. Ibodatxona va cherkovlar xudo, payg‘ambar, avliyolar, yepiskop va qirollarning yuzlab haykallari bilan bezatilgan. Haykallarga asosiy buyurtmachi cherkov bo‘lganligi bois, ular diniy mavzuda yaratilgan. Haykaltaroshlarni ayniqsa onaning farzandga bo‘lgan mehr-muhabbatini ulug‘lash qiziqtirgan. Bu hol Bibi Mariyamning ko‘plab haykallarida o‘z aksini topgan (Yevropada uni “xonim”, “bekam”, deb ulug‘lagan yohud “madonna” deb atash rasm bo‘lgan).

Inson tanasining go‘zalligini ulug‘lagan antik davr san‘atkorlaridan farqli o‘laroq, o‘rta asr ustalari odamlarning fikri, his-tuyg‘usi va kayfi-

yatlarini, ya'ni ko'proq ichki dunyosini ifodalashga harakat qilishgan. Roman uslubidagi haykallarda odamlar aydarlik darajada jozibali tasvirlanmagan. Ustalar odamlarning qayg'u-alamlarini yoki xursandchiliklarini, ichki his-tuyg'u va kechinmalarini bo'rttirib aks ettirish niyatida haykallarning holati harakatlarini ko'p hollarda g'ayritabiiy ko'rinishda (nimjon, ozg'in, xunuk) aks ettirganlar.

Gotika uslubidagi haykallarda odamlar qiyofasi birmuncha to'g'ri tasvirlangan. Ularning qaddi-qomatlari, kiyimlari burmalaridan ham bilinib turadi. Haykallarda ko'proq harakat holati ifodalangan.

Iste'dodli ustalar hayotda ko'rgan narsalarini ko'p hollarda ishonarli qilib tasvirlashga intilganlar. Haykaltaroshlarda asta-sekin inson tashqi qiyofasining go'zalligini tasvirlashga qiziqish orta borgan.

Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarining ichki devorlariga, shiftiga ko'p surat solinardi. Bu suratlarda aziz avliyolar, xudo siymolari tasvirlanardi. So'nggi davrlarda qurila boshlangan gotika uslubidagi ibodatxonalar devorlarida suratlar nisbatan kam bo'lgan. Ularning o'rniga katta derazalar, qo'rg'oshin gardish bilan bir-biriga ulangan, rangli oyna parchalaridan ishlangan vitrajlar, surat va manzaralar ibodatxona ichidagi ustunlarda, gumbaz va polda jilvalanib, unga benihoya chiroyli hamda tantanali tus bergan.

VIII-IX asrlar Yevropa adabiyotida jangovar sheriyat shakllandi. Jangovar dostonlar asosan ikki yo'nalishda, ya'ni tarixiy voqealarga va xayoliy tasavvurlarga, xalq ertaklari va afsonalariga mos ravishda yaratilgan.

Tarixiy jangnomalarga fransuz xalq og'zaki ijodining «Roland haqida qo'shiq» yoki ispan adabiyotiga oid «Sid haqida qo'shiq» asarlarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Germaniyada yaratilgan «Nebelunglar haqida qo'shiq» dostoni esa tarixiy haqiqat va afsonalarni o'zida mujassamlashtirgan asardir.

O'rta asrlar madaniyatining eng yorqin sahifalari keyinchalik romantik tus olgan ritsarlar adabiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Udumlarga binoan ritsar ko'plab fazilatlarga ega bo'lishi kerak edi. Dastlab ritsarlar jasurlik, saxiylik va olijanoblik kabi xususiyatlar haqida unchalik ko'p o'ylashmagan. Ularning hayotidagi ko'p an'analari yuzaki bo'lib, bular ko'z-ko'z qilish maqsadida bajarilgan. Ritsarlar g'olib bo'lish va shon-shuhratga erishish yo'lida hech narsadan qaytmaganlar. Ularning qahramonliklari va ishqiy sarguzashtlari ham go'yoki odatiy hollardek tasvirlangan. Ritsarlar hayoti aks ettirilgan muhabbat fojiasi «Tristan va Izolda» qissasida o'z ifodasini topgandir.

XI-XII asrlarda asosiy madaniyat markazlariga aylangan monastirlar ahamiyati yanada oshadi. Aynan monastirlar qoshida maktablar, kutubxona va kitob ustaxonalari ochiladi. Monastirlar san'at asarlarning asosiy buyurtmachilariga aylanadi. Shu boisdan ham bu asrlar madaniyati va san'atini monastir davri nomi bilan ham atashadi.

O'rta asrlardagi Vizantiya Yevropada eng ilg'or o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan davlat edi. Qit'ani german qabilalari bosib olgan bir paytda, yunon-rim madaniyati davomchisi bo'lgan Vizantiyada maorif, ilm-fan va san'at yuksak darajada rivojlandi. Vizantiyaliklar ta'limning har qanday turiga, ilm-fanga katta e'tibor bilan qaraganlar. Mamlakatda davlat tili yunon tili bo'lib, Qadimgi Rim maorifi tartibi to'la saqlab qolingani. Bolalar 6-7 yoshdan maktabga berilib, ularga 2-3 yil davomida o'qish, yozish va hisob o'rgatilardi. Diniy maktablar bilan birga davlat maktablari va xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatgan. Umuman, aholining barcha toifalari uchun boshlang'ich ta'lim olish imkoniyati mavjud edi.

Konstantinopolda IX asrda Magnavr oliy maktabi ochildi. Poytaxtda 1045-yil tashkil qilingan universitetda huquqshunoslik va falsafa fakultetlari, oliy tibbiyot maktabi mavjud edi.

Vizantiyada matematika, ayniqsa, algebra muvaffaqiyatli rivojlandi. Matematika va astronomiyaning taraqqiyoti kundalik amaliy hayotga hunarmandchilik, dengizchilik, savdo, harbiy ish, qishloq xo'jaligi rivojlanishiga bo'ysundirilgan edi. Muvaffaqiyat qozongan muhim sohalar-dan yana biri tibbiyot bo'lgan. Tibbiyot va hunarmandchilik ehtiyojlari kimyoning rivojlanishini rag'batlantirdi. Vizantiyaliklar shisha, emal bo'yoq tayyorlashning antik davrdan saqlanib qolgan sirlaridan xabardor bo'lishgan. Imperiyada VII asrda kashf qilingan "yunon olovi" (neft va smola qorishmasidan tayyorlangan yonuvchi modda) dengiz floti va quruqlikdagi janglarda vizantiyaliklarga ko'plab g'alabalar keltirgan.

Vizantiyada tarix va geografiya fanlari ham taraqqiy qilgan. Geograflar yaratgan xaritalar, shaharlar loyihasi chizmalari o'z davrida ushbu sohaning yuksak muvaffaqiyati belgisi edi. Tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar ham o'zining haqqoniyligi, aniqligi va xolisligi bilan ajralib turardi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'rta asr Yevropa madaniyati mazmun jihatidan xilma-xilligiga qaramasdan, jahon madaniyati tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Yuqorida ta'kidlangandek, Uyg'onish davri O'rta asrlarga o'ta tanqidiy va qat'iy baho bergan. Ammo so'nggi davrlar bunga zarur tuzatishlar kiritib, taraqqiyotning bu bosqichiga munosib

baho berdi. XVIII - XIX asrlardagi romantizm oʻrta asr rit-sarligida haqiqiy insoniy timsollar va qadriyatlarini his qilib, undan ilhom olgan edi. Keyingi davrlar ayollari boʻlsa, haqiqiy erkaklar - rit-sarlarni hayotda koʻrishga intiq boʻladilar.

Oʻrta asrlar xilma-xil, hatto qarama-qarshi gʻoya va aqidalarning ajoyib uzviyligi davri ediki, aynan shu uzviylik zamonaviy sivilizatsiya paydo boʻlishiga zamin hozirladi.

Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, oʻrta asrlar davri madaniyatining antik davr madaniyatining mantiqiy davomi ekanligi nimalarda namoyon boʻladi?

2. Oʻrta asrlarda ilm-fan va maʼrifatdan din hamda cherkovning ustunligi sabablarini Siz qanday izohlab bera olasiz?

3. Oʻrta asrlardagi sanʼat taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon boʻlgan edi?

4. Universitetlar paydo boʻlishining asosiy omillarini tavsiflab bering.

5. Texnika sohasidagi taraqqiyot va yangiliklar inson turmush tarzida qanday aks etdi?

6. Oʻrta asrlar Yevropa madaniyati taraqqiyotiga doir chizmalar tayyorlang.

7. Oʻrta asrlar Yevropa sanʼati yutuqlarini aks ettiruvchi albom tuzing.

8. Internet tarmogʻidan foydalanib, Yevropa universitetlariga doir maʼlumotlar majmuyini tayyorlang.

9. Internet tarmogʻidan olingan maʼlumotlar asosida Oʻrta asr ilm-fani, texnika taraqqiyotining atoqli namoyandalari hayoti va ijodini yorituvchi slayd va tezislar tuzing.

5-mavzu. Sharq Uygʻonish davri madaniyati

Reja

1. IX-XII asrlardagi Sharq Uygʻonish davri va uning asosiy omillari.
2. Islom dinining sharq madaniyatini rivojlanishidagi oʻrni.
3. Sharq Uygʻonish davri allomalari ijodining jahon fani ravnaqidagi oʻrni.

4. Meʼmorchilik va tasviriy sanʼat yuksalishi.

5. Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan oʻrni.

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya etiladi:

Sharq akademiyalari (Bog‘dod Ma‘mun akademiyasi. Xorazm Ma‘mun akademiyasi. Ulug‘bek akademiyasi).

Tayanch so‘z va iboralar

Uyg‘onish. Qomusiylik. Me‘morchilik. Tasviriy san‘at. Islom madaniyati. Hadisshunoslik. Temuriylar sulolasi. Madaniyat ravnaqi. Bag‘dod, Xorazm Ma‘mun akademiyalari. Ulug‘bek akademiyasi. Alisher Navoiy. Ilmiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy meros.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. Asarlar, 5 jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1997.

Абдунабиев А. Вклад в мировую цивилизацию – Т.: “O‘zbekiston”, 1998.

Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar, I-jild, T.: 1968.

Ахмедова Э, Габидуллин Р. Культурология. –Т., 2001.

Силичев Д. Культурология. Учебное пособие для ВУЗов, - М., 1998.

Xayrullayev M. O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati. – T.: “Fan”, 1995.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Abdurahmonov A. Ulug‘bek akademiyasi – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993.

Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. – T.: “Movarounnahr”, 2002.

Jumaniyozov M. Ma‘mun akademiyasi. Urganch: “Xorazm”, 1994.

Пугаченкова Г.А., Пемпель П. Очерки искусства Средней Азии. –М., 1982.

Sulaymonova F. Sharq va G‘arb – T.: “O‘zbekiston”, 1997.

Hamidov H. Qirq besh alloma hikoyati – T.: “Fan”, 1995.

Ma‘naviyat yulduzlari. –T.: “Meros”, 2001.

5.1. IX-XII asrlardagi Sharq Uygʻonish davri va uning asosiy omillari

Uygʻonish davri madaniyatining buyuk namoyandalari oʻz ijodiy izlanishlarida bevosita qadimgi madaniyat merosiga tayandilar. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yunonlar, rimliklar, mesopotamiyaliklar, hindistonliklar va xitoyliklarning madaniyati bilan yaqindan tanish boʻlganligi, ularning tillarini yaxshi bilganligini qayd etish mumkin. Yurtni xarobaga aylantirgan, madaniy yodgorliklarni xonavayron qilgan, ilm ahillarini quvgʻin etgan, arab bosqiniga qaramay, qadimgi boy madaniyat izsiz yoʻqolmadi. Islom butun madaniyatga, tilga, udum-anʼanalarga maʼlum darajada oʻz taʼsirini oʻtkazgan boʻlsada, uning mohiyati oʻzgarmadi.

Bu xalqimizga xos ezgulik, mehr-shafqat, insonparvarlik, hayr-muruvvat, oqkoʻngillik, bagʻri kenglik, ilmga tashnalik, oʻzga xalqlarga ishonch ehtirom fazilatlaridir. Yunon, Hind, Xitoy madaniyatini juda yaxshi bilgan Markaziy Osiyoning ilm ahligina oʻzga xalqlarni boshqalar madaniyati bilan tanishtirishi mumkin edi. Shuning uchun ham, mashhur matematik al-Xorazmiy hindlarning hisob tizimini, Forobiy yunonistonlik Arastuning falsafiy taʼlimotini, Ibn Sino Gippokrat tibbiyotini yangi davrda yangi bosqichga koʻtardi, Imom al-Buxoriy islomiy taʼlimotni asoslab, hadislar ilmida Muhammad Paygʻambardan keyingi ikkinchi shaxsga aylandi.

Uygʻonish davri (Renessans) – Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (IX-XII va XV asrlar), Gʻarbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-maʼnaviy yuksalish (XIV-XVI asrlar) ga nisbatan qoʻllanilgan, uni oʻrta asrchilik turgʻunligidan yangi davrga oʻtish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlar; tafakkurda va ilm-u ijodda dogmatizm jaholat va mutaassiblikni yorib oʻtib, insonni ulugʻlash, uning isteʼdodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, antik davr (yunon-rim) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish, cherkov sxolastikasidan qutilib adabiyot va sanʼatda dunyoviy goʻzallik, hayot taronalarini qizgʻin kuylash, inson erki, hurfikrlik uchun kurashish. Buning natijasida ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulugʻvor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Arnosto, Tasso, Byome Renessans gʻoyalarining jarchilari boʻlib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Mikelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarida buni davom ettirdilar.

Ammo Renessans, ya'ni Uyg'onish faqat Yevropa hodisasi emas, dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eron-da Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX-XII asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

Bu davr dunyo ilmida "Musulmon Renessansi" yoki "Sharq uyg'onishi" (N.I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq uyg'onish davrida Yevropa uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq uyg'onish davri ham ulug'allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliylarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi.

She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar. Ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan «Ming bir kecha», «Kalila va Dimna», «Qirq vazir», «To'tinoma», «Sinbodnoma» kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavq-u zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan «Xamsa»larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir.

Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha mingyillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, qadimiyati, qadim davlatchiligi bo'lmagan xalqda uyg'onish davri ham bo'lmaydi.

Sharq uyg'onish davri keng ko'lamlil: ta'lim va tahlil, madrasa – maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, «xazinat ul-hikma», «dor ul-ulum»larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bar-davom edi, olimlarning obro'-e'tibori yuksak qadrlandi.

Sharq uygʻonish davri yutuqlari Gʻarbiy Yevropadagi uygʻonish davriga bevosita taʼsir etgan. Chunki XII-XIV asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida oʻqib oʻrganganlar. Ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Ash-Shifo», Forobiyning «Ilmlar tasnifi», Ahmad Fargʻoniyning «Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi», Muhammad Muso Xorazmiyning «Aljabr val muqobala» asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan.

Musiqada ham uygʻonish davri jarayoniga xos yuksalish dastlab Sharqda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi anʼanalari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholgʻulari bilan oʻzaro taʼsir jarayonlari natijasida qaytadan jonlandi. Zero, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqani nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umumsharqiy taʼlimotni yaratishgan. Xususan, Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari musiqaga amaliyotiga tayangan holda, kuy va usullar, qoʻllaniladigan soʻzlar, muayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Forobiyning «Kitob ul-musiqah al-kabir» (musiqaga doir katta kitob) va Ibn Sinoning «Javomeʼ ilm ul-musiqah» (musiqaga oid ilmlar toʻplami) kabi asarlarida yunon olimlarining qarashlarini boyitib, tovushlar balandpastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan.

XII-XIII asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan oʻn ikki maqom tizimi yuzaga keldi. Amir Temur va temuriylar musiqaning barcha jabhalarida yangi uygʻonish davri yuzaga kelishini taʼminlab berishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga keltirilgan sanʼatkorlar – bastakorlik, musiqaga ijrochilik va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qoʻshishgan. Mazkur sohalarda nainki muayyan kasb egalari, balki oʻzga badiiy ijod sohiblari, xususan, Mirzo Ulugʻbek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham nom chiqarishgan.

Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, ogʻzaki anʼanadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholgʻu, kuy va boshqa) keng oʻrin egallab, oʻzlarining yuqori pallalariga koʻtarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Fargʻona-Toshkent maqom yoʻllari, katta ashulalar shakllanishiga olib keldi.

Sharq Uygʻonish davri oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra quyidagi muhim omillar va xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi:

1) madaniyatda dunyoviy bilimlar, islom ahkomlari, aqidalarning rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuqtayi nazaridan talqin etilishi;

2) turli davlatlar, xalqlarning (arab, eron, yunon, hind, turkiy va b.) madaniy meroslari, qadriyatlarini, yutuqlari, ma'naviy boyliklaridan foydalanish zarurligi;

3) astronomiya, matematika, minerologiya, jug'rofiya, kimyo va boshqa tabiiy fanlar rivoji;

4) uslub (metodologiya) da ratsionalizm (oqilonalik), mantiqning ustuvorligi;

5) insoniy do'stlik, yuksak axloqiylik g'oyalarining targ'ib etilishi, komil inson shaxsini shakllantirib voyaga yetkazish;

6) falsafa va tarix fanlarining o'sishi;

7) adabiyot, musiqa, badiiy madaniyat, notiqlikning keng rivoj topishi;

8) bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e'tirof topishi va h.k.

Uyg'onish davrining bu asosiy omillari va xususiyatlari dunyoviy ilm-fanning rivojlanishi – bular, shubhasiz, bashariyat ma'naviyati yuksalishining muhim o'lchov mezonlari bo'lib xizmat qildi.

Sharq madaniy Uyg'onishining o'ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaqtning o'zida ham xalifalik markazida hamda uning Mag'rib-u Mashriq tomonlarida birdek namoyon bo'ldi. Masalan: IX asr boshlarida xalifalik poytaxti Bog'dod bir vaqtning o'zida ham islomiy madaniyat va dunyoviy madaniyat, ilm-u urfonning yirik markazlaridan biriga aylangandi. Xalifa Xorun ar-Rashid (766-809) davrida Bog'dodda tashkil etilgan «Bayt ul-Hikmat» («Donishmandlar uyi») – olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa xalifa Ma'mun (819-833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko'p sonli qomusiy bilim sohiblari ilmu fanning turli-tuman sohalari bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borganlar. Bu allomalarning talay qismi O'rta Osiyo namoyandalari bo'lganliklari esa biz uchun alohida g'urur va e'tiborga arziirlidir.

Bu davr dunyoviy ilm-fanining yana bir muhim yutug'i shundaki, arab va ajam olimlarining katta sa'y-harakatlari, izlanishlari tufayli yunon, lotin, misr, hind tillarida bitilgan son-sanoqsiz noyob ilmiy asarlar, qo'lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima etildi va hayotga ijodiy tatbiq etila bordi.

5.2. Islom dinining sharq madaniyatini rivojlanishidagi o‘rni

Arab xalifaligi VII-VIII asrlar davomida Mag‘ribu Mashriqning keng hududlarini, shu jumladan Markaziy Osiyo yerlarini ham o‘z tasarrufiga kiritgan edi. Xalifalikka kirgan hududlarga asta-sekin arab madaniyati, uning ko‘plab unsurlari kirib kela boshladi. Eng asosiysi, islomning muqaddas kitobi «Qur‘oni Karim» g‘oyalari turli xalqlar orasida keng yoyila boshladi. Buning uchun bu yerlarda arab tili, arab yozuvi joriy etildi. Musulmon madaniyatining ko‘rki hisoblangan naqshinkor bezaklar bilan ziynatlangan salobatli masjid-u madrasalar, xonaqoyu maqbaralar, diniy va ilmiy kitoblar, qo‘lyozmalarga boy kutubxonalar va boshqa inshootlar qad rostlay boshladi. Ular shu xalqlarning avvalgi moddiy madaniyati xarobalari o‘rnida barpo etildi.

«Qur‘oni Karim» («qiroat» so‘zidan olingan) g‘oyalari, qadriyatlari (odamlarni to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, poklik, halollik, ezgulik, yaxshilik, sa-hovat, do‘stlik, birodarlik, o‘zaro totuvlik, hamjihatlik, tinchligu oso-yishtalikka undash va h.k.), islomiy ahkomlar, jamiyat-u odamlar hayoti-ga singdirib borilib, shu asosda ular avvalgi ko‘pxudolik, g‘ayridiniy sar-qitlardan, xurofot tushunchalaridan xalos bo‘lib bordilar. Xalifa Usmon payg‘ambarimiz o‘limidan keyin og‘izma-og‘iz ko‘chib yurgan “Qur‘oni Karim” matnlarini bir joyga to‘plab, yagona mukammal matnni yaratib, is-lom madaniyati tarixida nom qoldirgan. U kotib Muhammad Zayd ibn Sobit ko‘magida va payg‘ambarimizning tirik sahobalari guvohligida «Qur‘oni Ka-rim»ning yagona nusxasini tuzib chiqadi. Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri xalifa Usmon Qur‘onidir. Hajmi 68x53x22 sm. So‘ng yagona nusxadan besh nusxa ko‘chirib Makka, Madina, Damashq, Kufa va Basra shahar-la-rida saqlashga buyuradi.

Xalifa Usmon Qur‘onini Amir Temur Shom (Suriya) yurishidan o‘lja sifatida o‘z poytaxtiga olib kelgan. Hozirda O‘zbekiston musulmonlar ido-rasi kutubhonasida saqlanmoqda. «Qur‘oni Karim» dastlabki tayyorlangan islomiy manbadir. Ayni chog‘da islom madaniyatining gultojisi hisoblan-gan hadisshunoslik ilmi rivoj topib bordiki, bunda ham peshqadamlikni O‘rta Osiyolik buyuk muhaddis olimlar egalladilar. Islom olamida Qur‘oni Karim-dan keyin mo‘tabar manba, bu hadisi sharifdir. Sharif degan so‘z arabcha bo‘lib, sharafli, aziz, qadrlil degan ma‘nolarni anglatadi. Shom (Suriya), Bog‘dod, Quddus, Mozori Sharif va Buxoro Sharif unvoniga sazovor bo‘l-gan shaharlardir. Muhammad sallollohu alayhi va sallamning aytgan gap-

lari, qilgan ishlari, shularning hammasi sunnat hisoblanadi. Bular haqidagi dalolat esa hadisdir.

Butun musulmon dunyosida birdan-bir to'g'ri, ishonchli deb tan olingan **6 nafar hadischilar**: Imom Buxoriy, Imom Muslim al Hajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sijistoniy, Imom An-Nasafiy, Imom Abdulla ibn Yazib ibn Mojjalar hammasi aslan Markaziy Osiyolik bo'lib, ularning «Qutubi sitta» («Olti kitob») asari butun dunyoga mashhurdir. Ular orasida Imom Buxoriy (810-870) va ul zotga mansub «Al jome' as-sahih» («Ishonarli to'plam») asari yagonadir. Bu asarni islomshunoslar «Qur'oni Karim»dan keyingi o'ringa qo'yadilar. 4 jilddan iborat bu mu-borak kitobga 7275 ta eng sahih (ishonarli) hadislar kiritilgan bo'lib, ular nihoyatda qimmatli tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Allomaning «Al adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari ham mashhurdir. Bular mustaqillik yillarida o'zbek tilida birinchi bor chop etildi. Uning bular-dan tashqari yana 20 dan ziyod asarlari mavjud. Alloma tavalludining 1225 yilligi o'lkamizda 1998 yilning oktabrida keng nishonlandi hamda uning hokipoyi dafn etilgan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida esa yodgorlik majmuyi barpo etildi.

Imom Buxoriyning shogirdi va izdoshi Imom at-Termiziy (824-892) ham buyuk hadisshunos allomalardan biridir. Uning mashhur asari «Al-jome'» deb ataladi. «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg'ambarning alo-hida fazilatlari»), 408 ta hadisi sharifni o'z ichiga olgan mazkur asar 1991-yilda o'zbek tilida birinchi bor chop etilgan), «Kitob az-zuhd» («Taqvo ha-qida») va boshqa kitoblar ham bu zoti sharif qalamiga mansubdir. Islom ta'limotida shariat va uning ruknlari ham muhim o'rin tutadi. Shariat (arabchada to'g'ri yo'l, qonunchilik ma'nosida) - islom diniy huquqi, ya'ni barcha musulmonlar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qonunlar, huquqiy-xalqiy ko'rsatmalar majmuidir.

Islomiy ilm taraqqiyotida alloma Burhoniddin Marg'inoniy (1123-1197) ning xizmati ham buyukdir. U 1178-yili «Hidoya» («To'g'ri yo'l») noyob asarini yaratadi. Bu kitobda o'sha zamonlarda, jumlayi musulmonlar duch keladigan dolzarb masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoiy jazo va insonning burch va mas'uliyatla-riga taalluqli juda ko'p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtayi nazaridan hal etib beradi. Mazkur kitob nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom Sharqida ham islom huquqshunosligi bo'yicha nufuzli hu-quqiy manba – asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Alloma «Bido-yat al-mubtadiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»), «Kifoyat al-muntaxiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»), «Nashr ul-mazhab»

(«Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Kitob al-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Manosik ul-xaj» («Haj marosimlari»), Kitob ul-mashoyih («Shayxlar haqida kitob») va boshqa ko‘plab asarlar muallifidir. Bu asarlarda adolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olay-tirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ezgu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Allomaning ilmiy merosi jahonning ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi yo‘nalishida o‘rganiladi.

Yaqin Sharq, Markaziy Osiyolik olim-u fuzalolar Islom ilmi rivojiga buyuk hissalarini qo‘shar ekanlar, Allohning yakka-yu yagonaligi, Allohning bir ekanligi to‘g‘risidagi tavhid bilan ham mashhur bo‘ldilar. Fanning bu jabhasida, sirlar sirida ish ko‘rgan zamon ulamolari va fuzalolari orasida buyuk qobiliyat egasi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al Moturudiy (870-944) nomi alohida ajralib turadi. Uning mashhur asarlari jumlasiga «Tavhid» (yakkaxudolik) asarini nisbat berish mumkin. Ushbu asar o‘sha zamon va davr ehtiyoji sifatida dunyoga kelgan. Sababi, Moturidiy yashagan davr islom olamining «Oltin davri» hisoblangan. Ana shu davrda islom ilm markazi Bog‘doddan o‘rta Osiyoga ko‘chgan, Samarqand «Oltin davr» markaziga aylangan.

Moturudiy islom ilmidagi yuksak ilmiy muvaffaqiyatlari evaziga Kalom ilmi haqida 7 asar, huquq haqida 2 ta asar muallifi¹. «Abu Mansur», ya’ni «G‘olib ota» martabasiga musharraf bo‘ldi.

Islom shariati besh diniy-huquqiy mazhabdan iborat. Sunniylikda: hanafiya, molikiya, shofi’iya, hanbaliya mazhablari, Shialikda esa ja’fariya mazhabi bor. Yer yuzida jami 1,3 mlrd. musulmonlarning 47 foizi hanafiy, 27 foizi shofi’iy, 17 foizi molikiy, 7,5 foizi ja’fariy (shialar), 1,5 foizi hanbaliy mazhabidirlar. Umumiy qilib olganda, sunniylar 92,5 foizni, shialar esa 7,5 foizni tashkil etadi.

Tasavvuf – bu odamlarni halollik, poklik, tenglik, inson qadr-qimmatini ulug‘lash, o‘z mehnati bilan kun ko‘rish, boshqalar kuchidan foydalanmaslik va ijtimoiy adolat qoidalariga da’vat etuvchi ezgu ta’limotdir.

Xuroson va Movarounnahr aholisi o‘rtasida tasavvuf-falsafiy ilmi taraqqiyotida Yusuf Hamadoniy katta obro‘-e’tibor va hurmat qozongan. U asosan Buxoro shahrida yashab yoshlarga tasavvufdan saboqlar bergan hamda juda ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan. Yusuf Hamadoniyni pir tutgan muridlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo‘lib yetishganlar. Xoja Hasan

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. Imom Moturudiy tavalludining 1130 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutq. –T.: 2006.

Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abduholiq G'ijduvoniylar uning to'rt zabardast xalifasi hisoblanadi.

Yurtimizda ildiz otgan Yassaviya (Ahmad Yassaviy), Kubroviya (Najmiddin Kubro), Naqshbandiya (Xoja Bahovuddin Naqshband) ta'limotlari mohiyatan shunday olijanob g'oyalar ruhi bilan sug'orilgan. Jumladan, «Yassaviya» tariqatining bir qator asosiy qoidalari (odoblari)ga nazar tashlar ekanmiz, bunda insonlarning Alloh visoliga yetishish yo'lida tinimsiz izlanishlari hayotning turli-tuman sinov-sinoatlariga dosh berishlari, o'z e'tiqodlarida sobit, ezgulik, haq yo'lida hamisha sa'y-harakatlarda bo'lishlari kerakligiga alohida urg'u berilganligi ayon bo'ladi. Shu bois Yassaviy «Hikmat»larida poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Xuddi shunday yuksak g'oyalar Kubroviya, Naqshbandiya singari tariqatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mammuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmiddin Kubro qalamiga mansub «Favo'ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol», «Al-Usul al-ashora», «Risolutut-turk» kabi 30 ga yaqin noyob asarlar mavjud. Uning tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog'lanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning halollik, odatiylik, mol-u dunyoga hirs qo'ymaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba qilishdek axloqiy-g'oyaviy, tarbiyaviy talab-qoidalar bizning kunlarimizda ham g'oyatda muhim ahamiyatga molikdir.

O'z davrining komil insoni Bahovuddin Naqshband haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo u asos solgan Naqshbandiylikning asosiy mohiyati "Qo'l ishda, Alloh dilda", "Kam yegil, kam uxla va kam gapir!" degan ulug' nasihatlarini o'ta hayotiydir. Naqshbandiya ta'limoti halol mehnat qilishga, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-ma'rifat, xattotlik, badiiy adabiyot, musiqa bilan shug'ullanish kabi foydali kasb-hunarli va xayrli ishlar sari da'vat etadi.

Zotan, mustaqillik sharofati bilan yurtimiz tarixida, uning ma'naviy sarchashmalarida sezilarli iz qoldirgan, ularni o'z pok ruhoniylar ta'limotlari ila boyitgan ulug' salafimiz – Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoniylar, Kaffol Shoshiy, Xoja Ahror Valiy singari bobokalonlarimiz aziz nomlari tiklanib, asarlari chop etilib, bebaho meroslaridan bahra olayapmizki, bu biz uchun katta baxtdir.

5.3. Sharq Uygʻonish davri allomalari ijodining jahon fani ravnaqidagi oʻrni

Maʼlumki, Sharqda, aynan Oʻrta Osiyo zaminida yuz bergan Uygʻonish jarayoni xususan dunyoviy fanlar rivojida alohida yuksalish bosqichi boʻldi. Bu borada ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida turli tarixiy davrlarda faoliyat koʻrsatgan «Ilm uylari» - Bogʻdoddagi (819-833) «Bayt ul-hikmat» (Bogʻdod akademiyasi), Xorazm poytaxti Gurganchdagi «Maʼmun akademiyasi», shuningdek, «Ulugʻbek akademiyasi» va boshqa koʻplab yuksak ilm dargohlarining oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Uygʻonish davri oʻz yuksak aql-zakovati, salohiyati, izlanishlari bilan fanning koʻplab sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan qanchalab buyuk daholarni yetishtirib berdi. Ular jahon fanining tibbiyot, falakiyot, matematika, jugʻrofiya, tarix, geologiya, geodeziya, minerologiya, farmakologiya va boshqa yoʻnalishlarining tamal toshini yaratdilar. Bu muqaddas zamindan yetishib chiqqan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Abu Abdullo Xorazmiy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin Margʻinoniy, Nizomulmulk, Kaffol ash-Shoshiy, Mirzo Ulugʻbek, Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi va boshqa buyuk siymolar nomini haqli ravishda ehtirom bilan tilga olamiz. Milliy mustaqilligimiz sharofati tufayli ularning boy ilmiy merosi sarchashmalaridan yana moʻl-koʻl bahramand boʻla boshladik. «Istiqlol sharofati bilan,—degan edi Islom Karimov,— maʼnaviyat buloqlarining koʻzi ochildi, biz bu buloqning zilol suvlaridan bahramand boʻla boshladik. Shoʻro davrida unutilgan qadriyatlarimiz, nomi qoralangan bobokalonlarimizning durdona soʻzlarini biz obi kavsardek koʻzimizga surtmoqdamiz. Oʻylaymanki, biz nimaga erishgan boʻlsak, ana shu savobli ishlarimiz uchun Allohning bizga inʼom etgan marhamatidandir»¹.

Allomalarimizning qomusiy bilimdonliklari shundaki, ularning har biri bir emas, balki koʻplab ilm-fan yoʻnalishlarida ulkan kashfiyotlar qildilar. Bu jihatdan Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Fargʻoniy (797-865), Abu Nasr Forobiy (873-950) larning fandagi jasratlari ibratlidir. Agar al-Xorazmiy matematikaga oid «Hisob aljabr va al-Muqobala», «Hind hisobi haqida kitob», «Astronomik jadvallar», «Quyosh soatlari haqida risola» asarlari bilan matematika (algoritm) va astronomiya fanlarining tamal toshini qoʻygan boʻlsa, uning «Kitob surat al-arz» asari arab geografiyasi fanining tom maʼnoda yaratilishiga negiz

¹ Karimov. I. A. Asarlar, 5-jild.- T. "Oʻzbekiston", 1997, 147-bet.

bo‘lib xizmat qildi. Olimning «Kitob at-tarix»i esa Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlari tarixining VIII-IX asrlari davrini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

Ma’lumki arablar Iroq, Misr va Suriyani istilo qilgunga qadar yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VII asrdan boshlab esa arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo‘llanilgan edi. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf qilingan o‘n raqamidan iborat sanoq tizimini o‘rgandi, soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi. Al-Xorazmiy «Arifmetika» si bilan birga hind raqamlari ham arab dunyosiga kirib keladi. XII asrda Yevropaning boshqa mamlakatlariga tarqaladi. Arab raqami hanuz jahonda shunday deb yuritiladi. Uni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy ekani Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida ham aytib o‘tilgan.

Astronomiya, geografiya va boshqa fan sohalarida muhim kashfiyotlar qilgan Ahmad al-Farg‘oniy nomi ham mangulikka daxldordir. Chunonchi, olimning «Astronomiya asoslari haqida kitob», «Al-Farg‘oniy jadvallari», «Yetti iqlimni hisoblash haqida» singari asarlari allomaga astronomiya ilmida jahoniy shuhrat keltirdi. U Yer shari-ning ilk bor xaritasini tuzgan birinchi buyuk geograf olim hamdir. U nafaqat Sharq dunyosida shuhrat qozonib qolmay, balki G‘arb olimlari e’tirofiga ham sazovor bo‘lgan. Shu bois u Yevropada «Alfraganus» nomi bilan mashhurdir. Bejiz yurtboshimiz Al-Farg‘oniyni «...kishilik tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va yorqin namoyandalaridan biri, o‘z zamonasi fundamental fan asoschilaridan edi. Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho‘qqilariga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi, butun ma’rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qildi»¹ deb ta’rif etgan edi.

Tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga birdek katta hissa qo‘shgan, geologiya, minerologiya, geodeziya, geografiya, farmakologiya fanlarining tamal toshini qo‘yishga muvaffaq bo‘lgan Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham ilm-urfon osmonining porloq yulduzlari sirasiga kiradi. Uning qalamiga mansub «Ma’sud qonuni», «Saydona», «Minerologiya», «Astronomiya kaliti», «Quyosh kitobi» singari asarlari necha asrlar davomida turli yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi dunyo olimlari uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina rolini o‘tab keladi. Olimning chuqur ilmiy yirik fundamental asari – «Hindiston» to‘g‘risida so‘z yuritgan akad. V.R. Rozen «Sharq va G‘arbning qadimgi va O‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q»,² deb baho beradi.

¹ . Karimov. I. A. Asarlar, 7-jild.- T. «O‘zbekiston», 1999, 189-bet.

² Ma’naviyat yulduzlari.-T. «Meros», 2001, 105-bet.

Beruniy zamondoshi, koʻxna Buxoro zaminidan yetishib chiqqan Abu Ali ibn Sino (980-1037) nomi tibbiyot ilmi bilan hamohang, tibbiyotni haqiqiy fan sifatida shakllanib oʻz maqomiga ega boʻlishiga asos solgan buyuk olimdir. Zotan, uning 5 jildli «Kitob al-qonun fit-tib» («Tib qonunlari») asari aynan tibbiyotga oid benazir dasturulamal kashfiyotdir. Bu asarlar majmuyini koʻzdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi yuksak mahoratiga tan beramiz. Jumladan, «Al-qonun»ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dori-darmonlarning xususiyatlari, ularni tayyorlash va isteʼmol qilish usullari buning isboti boʻla oladi. Olimning falsafa va tabiiy fanlarga doir 4 qismdan «Kitob ash-shifo», «Donishnoma» asarlari ham mavjud. Ibn Sinoning tibbiyotdan tashqari koʻplab tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan faol shugʻullanganligi, muhim yutuqlarga erishganligi ham ibrat boʻlarlidir.

Oʻrta Osiyo zamini juda qadim zamonlardan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivoj topgan makon hisoblanadi. Ayniqsa, tarix, falsafa, mantiq, fiqh (huquqshunoslik) fanlari bunda muhim oʻrin tutadi. Bu xususda gap borganda falsafa fanida nom qozongan, Sharqda «Muallimi Soniy» («Ikkinchi muallim», Arastudan keyin) nomi bilan mashhur boʻlgan Abu Nasr Forobiy (873-950), fiqh-huquqshunoslik sohasida benazir allomalar: Nizomulmulk (1017-1092), Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144), tarixnavis Muhammad Narshaxiy (899-959) xizmatlarini taʼkidlamoq lozim boʻladi. Bunda Forobiyning falsafada oʻz ilmiy maktabini yaratib, yunon falsafasi mohiyatini ochib, tushuntirib, shu bilan birga oʻzining sharqona falsafiy taʼlimotini koʻplab asarlarida, aytaylik, «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Fozil odamlar shahri» va boshqalarda asoslab bergan boʻlsa, Nizomulmulk «Siyosatnoma»sida hukmdorlarning davlatni boshqarish, uni idora qilishga oid koʻplab qimmatbaho yoʻl-yoʻriqlar, dasturulamal koʻrsatmalar katta mahorat bilan qayd etilgan. Hatto, Amir Temurdek buyuk davlat arbobi ham bu kitobga necha bor murojaat etganligi maʼlumdir.

Umuman IX-XII asrlarda yuz bergan Uygʻonish davrida Sharqda, xususan, Oʻrta Osiyodan oʻz yurtlari shon-u sharafini yuksaklarga koʻtarib, betakror ilmiy kashfiyotlar, chinakam moʻjizalar yaratgan mashhur isteʼdod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qoʻshdilar hamda keyingi avlodlarga bitmas-tuganmas noyob boy meros qoldirdilar.

5.4. Me'morchilik va tasviriy san'at yuksalishi

Biz ko'zdan kechirayotgan asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyatning yuksak darajada ravnaq topganligi ayni chog'da boshqa sohalar-da, xususan, me'morchilik hamda tasviriy san'atda ham o'z ifodasini topdi. Bunda ko'p jihatdan bu davrda o'lka hududlarida hukm surgan tinchlik, osoyishtalikning sharofati ham katta bo'ldi. Shu davrda mahalliy hukmdorlarning sa'y-harakatlari tufayli shaharlarda noyob tarixiy obidalar, hashamatli binolar, ilmiy-madaniy maskanlar, kutubxonalar, masjid-u madrasalar qad ko'tardi.

Ayniqsa, xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar tomonidan yurt dovrug'ini olamga tanitgan, ajoyib me'morchilik obidalari, tasviriy san'at namunalari yaratildi. Bu davr shaharsozligida xom g'ishtlar va paxsalardan keng foydalanilgan. Ularni shinamligi va ko'rinishini yanada ko'rkamlashtirishda ohakli qorishmalar ishlatilib, gajakdor qilib ishlov berilgan. Qurilgan ayrim masjidlarning mehroblari esa silliqlangan g'ishtlar, o'yma ganjlar va hatto tilla suvlari bilan ham bezatilgan. Har bir shahar markazlarida kitob do'konlari, madaniy mollar bo'lishiga alohida e'tibor berilgan.

O'rta Osiyo Uyg'onish davrining yirik me'moriy obidalari sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi (X asr), Samarqand yaqinidagi Tim qishlog'idagi Arab ota maqbarasi (977-978), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xo'ja Naxshron maqbarasi (IX-X asr), Namozgoh, Marvdagi Sulton Sanjar (XI asr), O'zgandagi qoraxoniylar maqbarasi, G'azna yaqinidagi marmar qotishmalardan tiklangan g'aznaviylar yozgi saroyi, Buxorodagi Minorayi Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarqo'rg'on minoralari va boshqa ko'rkam me'morchilik inshootlarini nisbat berish mumkin. Bu davrda me'moriy binolardan tashqari yo'nilgan g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli-xil o'lchamli, g'oyat puxta ishlangan inshootlar, suv omborlari – bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar qurilgan.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchli imoratlar qurilishi keng tarqalgan. Yakkasinch va qo'shsinchli binolar asosan yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilib, somon loylar yoki qumli loylar bilan suvalgan. Bunday qurilma imoratlar XII asrda ham shahar me'morchiligida asosiy o'rinni egallagan hamda zilzila silkinishlariga o'ta chidamli bo'lgan. Ajdodlarimizning Uyg'onish davri me'morchiligi sohasidagi bunyodkorliklari bugunga qadar ham saqlanib qolingan. Ushbu tarixiy ma'lumotlarni olimlarimiz Afrosi-

yob, Varaxsha, Buxoro, Poykand va boshqa shaharlar xarobalari misolida ham tadqiq etadilar.

Sharqiy o'lkalarda IX-XII asrlarda me'morchilik bilan birga tasviriy san'at, naqqoshlik, sopol ishlash va ganch san'ati ham ancha rivoj topib borgan. Imoratlarni o'ymakor ustun va to'sinlar bilan, devorlarni esa bo'yoqli yoki ganchkorlik naqshlari bilan bezash keng tarqalgan. Bunga misol qilib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Oburdum degan manzilda X asrda barpo etilgan naqshinkor bino namunasini ko'rsatish mumkin. Inshootda o'ziga xos yangilik, go'zallik, ya'ni mahalliy an'ana, badiiy shakl ko'zga yaqqol tashlanadi.

Shuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarqand bilan Buxoro oralig'ida bunyod etilgan Roboti Malik karvonsaroyi peshtoqiga ishlangan ganch o'ymakorligi ham tahsinga loyiqdir. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning rivojlanishiga ham turtki bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar ushbu sohalarda rivoj topgan markazga aylandi. Bu davrda ishlangan sopol buyumlar nihoyatda chidamli bo'lib, shahar va qishloq aholisining kundalik hayotiga kirib borgan, shuningdek, bu mahsulotlar chet mamlakatlarga ham chiqarilgan. Kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayoni esa butun boshli ishlab chiqarish jarayonlarini o'ziga qamrab olgan.

Shu bilan birga, bu davrda kumush, mis, bronzadan naqshinkor badiiy san'at buyumlari, chiroyli va bejirim idish-tovoqlar, qadahlar yasash ham rasm bo'lgan va ularning ko'rinishlari san'atkorona tarzda ustamonlik bilan bezatilgan. Bu sohada Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Naxshob, Kesh shaharlarining o'ziga xos maxsus maktablari faoliyat ko'rsatgan. Bunday jarayonlarning rivojlanishi xattotlik san'atining ham keng yoyilishiga bois bo'ldi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalar hattotlar tomonidan qo'lda ko'chirilishi sabab xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Usta xattotlar va husnixat egalari o'z san'atlarini kitoblar bezash, masjid, madrasa, xonaqolarning peshtoqlari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga har xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, sultonlar va hokimlar sha'niga madhiyalar bitish kabi ishlarda namoyon etganlar, ularning mehnatlari esa juda qadrlangan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Uyg'onish davriga xos me'morchilik va unda ishlangan me'moriy naqsh uslublari o'z navbatida ajdodlarimizning hayotda ijodkor va bunyodkor bo'lganligini to'la tasdiq etadi. Ularning yaratgan noyob ishlari san'at asarining durdonalari si-

fatida hozirga qadar ham ajdod-u avlodlar e'zozu hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda. Biz avlodlar o'tmishda Vatanimiz hududida shunday qo'li gul, yuksak yaratuvchilik salohiyatiga ega bo'lgan, xalqimiz va madaniyatimizni dunyoga tanitgan bunday ulug' ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

5.5. Amir Temur va temuriylar madaniyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni

Ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davri (XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr) Movarounnahr va Xuroson o'lkalarida madaniy rivojlanishning yuksak darajaga erishuvi, ma'naviy hayotning takomillashuvi bilan izohlanadi. Sohibqiron o'z davlatini adolat va qonun tamoyillariga asoslanib boshqarish bilan birga uni har tomonlama obod qilish, ilm-fan va madaniyat ravnaqi yo'lida doimiy sa'y-harakatda bo'ldi. Amir Temur ilm-fan, madaniyat va san'at ahliga har taraflama rag'bat ko'rsatib qulay shart-sharoitlar yaratib, ularning ijodkorlik ishlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashdi.

Amir Temur o'zining ko'p yillik faoliyati davomida jamiyatning iste'dod sohiblarini qadrlab, ularni keng ko'lamli bunyodkorlik ishlariga faol jalb etib borgan. U o'zining xorijiy yurishlari vaqtida bunga izchil amal qilgan. Jumladan, Amir Temurning amr-farmoni bilan Damashqning eng mohir to'quvchilari, Xalabning mashhur paxta yigiruvchi, Anqaraning movut to'quvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlari Samarqandga olib kelindi. Shu bilan birga, amir huzurida to'plangan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Baxruddin Ahmad, Mavlono Nizmoniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar singari ko'plab allomalar ilm-fanni ravnaq toptirish bilan birgalikda madaniy va ma'naviy masalalarni hal etishda Sohibqironga yaqindan ko'mak berganlar.

Darhaqiqat, Amir Temur o'z saltanatini boshqarish, yurt tinchligi, farovonligi va ravnaqini ta'minlashda ilm-fan, ma'rifat ahliga suyan-gan, ularning dono maslahatlari, yo'l-yo'riqlariga quloq solgan va kerak bo'lganda ularni amaliyotda qo'llagan ham. Jumladan, Sh.Yazdiy "Zafarnoma"sida aytilishicha, u 806 yilda (milodiy 1404-yil) olim-fuzalolar anjumanini chaqirib, unda shunday degan ekan: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar... Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash,

yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishda sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste‘mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo‘yilishi kabi hollar hammadan ko‘ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma‘lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytasangizlar yaxshi bo‘lardi... Mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir. Bu olijanob ishda menga yordam berishingizni iltimos qilaman”¹.

Amir Temur va uning vorislari, xususan, Shohruh Mirzo, Ulug‘bek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar tabiatan ilmparvar, ma‘rifatparvar hukmdorlar bo‘lganligidan, ularning davrida ilm-u urfon va ma‘rifatning juda ko‘plab sohalarida dovrug‘i olamga mashhur alloma olimlar, mutafakkirlar, shoir-u adiblar yetishib chiqib, yurtimiz shuhratini yuksakka ko‘tardilar. Ular o‘z davrining hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, juda ko‘plab masala va muammolarni hal etish bilangina cheklanib qolmasdan, balki umuminsoniy manfaatlar, qiziqishlarga ham xizmat qiladigan ilmiy muammolarni yechish, moddiy va ma‘naviy madaniyat durdonalarini ijod qilish bilan shug‘ullandilar.

Shu boisdan ham, insoniyat aql-zakovatining yuksak namunalari sifatida o‘sha davrda ijod qilingan ko‘plab noyob osori-atiqalar, me‘moriy obidalarning mana yetti asrdiki, o‘z oxorini yo‘qotmay bugungi minnatdor avlod kishilarini hamon hayratlantirib kelishi bejiz bo‘lmasa kerak. O‘z zamonasida tengi yo‘q inshootlar hisoblangan Samarqanddagi mashhur Bibixonim masjidi va maqbarasi, Go‘ri Amir, Ko‘ksaroy, Bo‘stonsaroy majmualari, Shahrisabzdagi Oqsaroy koshonasi, Buxoro, G‘ijduvon, Turkiston va boshqa shaharlardagi madrasalar hamda shu kabi mahobatli inshootlar temuriylar sulolasi kuch-qudrati va salobatini o‘zida gavdalantirib turganligi shak-shubhasizdir.

Yurtboshimiz haqli ravishda ta‘kidlaganidek «Bugun biz Amir Temur bobomiz buyuk bunyodkorlik rejalarini noyob obidalarda beka-m-u ko‘st mujassam etib, Samarqandni yer yuzining mo‘jizasiga aylantirgan Badriddin ibn Shamsiddin, usta Ali Nasafiy, Olim Nasafiy, Mavlono Ubaydulloh, Pirmuhammad Bog‘ishamoliy, Mavlono Junays singari yuzlab-minglab me‘mor-u muhandis ajdodlarimizni, hunarmand ustalari-

¹ Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. - T. "Fan", 1993, 22-23-betlar.

mizni ham eslab, ularning san'atiga tasannolar aytamiz»¹. Temuriylar davri ilm-fani va madaniyatining o'ziga xos muhim jihati shundaki, bu davrga kelib O'rta Osiyo zaminida yuzaga chiqib, izchil rivojlanish tomon yuz tutgan, madaniy-ma'naviy Uyg'onish o'zining yuksak bosqichiga ko'tarildi va uning samaralari yanada salmoqli bo'lib bordi.

Ilm-u fanning turli-tuman sohalarida faoliyat yuritgan, o'z zamonasining buyuk allomalari hisoblangan Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Aloviddin Muhammad Ali Qushchi, Muhammad Havofiy, tarix ilmining nuqtadonlari Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir singari allo-mayi qiromalar va ularning sermahsul ijodi buning yaqqol isbotidir.

Amir Temur vorisi sifatida Movarounnahrni qariyb 40 yil boshqargan hamda bu davlat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Mirzo Ulug'bek ayni chog'da ilm-fan rivojiga, madaniyat yuksalishiga ham bebaho hissa qo'shgan buyuk siyomodir. U tashkil etgan boy kutubxonada turli fan sohalariga oid 160 mingdan ziyod kitoblar mavjud bo'lgan. Uning rahbarligida 1424-1428-yillar davomida Samarqandning Cho'ponota tepaligidagi Obirahmat anhuri bo'yida qurilgan rasadxona o'sha davr ilmiy-texnika rivojining so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan edi. Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan muhtasham madrasalaridan birining peshtoqida «Ilm olmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz, ham qarzdir» degan yozuvni o'qiymizki, bu ham olim va hukmdorning ma'rifatga nechog'li e'tibor berganligiga misol bo'la oladi. Uning rahnamoligida shakllanib, yuksak dovruq qozongan ilmiy maktab o'z mazmuni, ko'lami bilan o'sha davrning tom ma'nodagi ilmiy Akademiyasi maqomida bo'lgan.

Ulug'bek qalamiga mansub «Ziji Ko'ragoniy» asari mashhurdir. Unda 1018 ta sobita (qo'zg'almas) yulduzlarning o'rni va holatini aniqlab berilgan. O'rta Osiyo Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab joylashgan 683 geogafik punktlarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatalari belgilab chiqilgan. Ulug'bek rasadxonasi tadqiqotlari natijalari asosida yaratilgan matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar hozirgi davrda ham olimlar e'tiborini qozonib kelmoqda. 1994-yil oktabrida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi yurtimizda va uning tashqarisida keng nishonlanganligi ham ulug' alloma ta'limoti boqiyiligiga yaqqol ishoradir.

Ulug'bek davri fan peshvolari Qozizoda Rumiy «Hisobga doir risola», «Astronomiya asoslariga sharh», G'iyosiddin Koshiy «Aylana haqida riso-

¹ Karimov. I. A. Asarlar, 5-jild. - T "O'zbekiston", 1997, 172-bet.

la», «Hisob kaliti» (alloma birinchilardan boʻlib oʻnli kasrlar arifmetikasini yaratgan), Ali Qushchi «Arifmetika ilmi haqida risola», «Ali Muhammadiy risolasi», «Ulugʻbekning yangi astronomik jadvallariga sharhlar», «Geometrik masalalarni yechish risolasi» kabi noyob asarlari bilan ilm-fan va madaniyat rivojiga samarali hissa qoʻshdilar. Shu davrning ijtimoiy fanlari ravnaqiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan Amir Temur «Tuzuklar»i, Ulugʻbekning «Toʻrt ulus tarixi», Boburning «Boburnoma», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning «Poklik bogʻi», Xondamirning «Yaxshi fazilatlar» va boshqa asarlarni alohida taʼkidlab oʻtish oʻrinlidir.

Temuriylar davrida badiiy adabiyot, xattotlik, tasviriy sanʼat, musiqa, miniatura madaniyati ham rivoj topdi. Mavlono Lutfiy (1366-1465), Haydar Xorazmiy (XIV asr oxiri XV asr boshlari), Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiylar mumtoz adabiyotimiz ravnaqiga jiddiy hissa qoʻshdilar.

Oʻzbek adabiyotining yanada yuksak darajaga koʻtarilishi koʻp jihatdan sheʼriyatimiz sultoni Alisher Navoiy (1441-1501) ijodi bilan bogʻliq. Alloma ijodida yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik, erk-sevarlik gʻoyalari mujassam aks etdi. U butun umrini ilm-fan, mamlakat obodonchiligi va madaniyati rivojiga bagʻishladi. Uning mashhur «Xamsa» siga kirgan «Hayratul-abror», «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Sabbai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari buning isbotidir. Uning monumental sheʼriy asari «Hazoyin ul maoniy» (Manolar xazinasi) shoir ijodining haqiqiy choʻqqisidir.

U badiiy janrning hamma sohalarida barakali ijod qildi. Navoiy siymosida komil inson timsoli haqqoniy maʼnoda aks etib turadi.

Shoirning: Odami ersang demagin odami,

Oningkim yoʻq xalq gʻamidan gʻami

shoh baytlarida bunga toʻliq ishonch hosil qilish mumkin. Uning ilm-u maʼrifat ravnaqiga, isteʼdodli yoshlar tarbiyasi va kamolotiga koʻrsatgan rahnamoligi ham har qancha maqtovga loyiqdir. Alloma koʻmagida mashhur tarixchi Xondamir, musavvir Kamoliddin Behzod, mashhur xattot Sultonali Mashhadiy va boshqa oʻnlab isteʼdodlar tarbiya topib voyaga yetganlar. Ayni zamonda bu davr fors-tojik adabiyoti ravnaqida ham muhim bosqich boʻldi. Hofiz Sheroziy, Kamol Xoʻjandiy, Kamoliddin Binoiy, Zayniddin Vosifiy singari adiblar ijodi bunga yorqin misol boʻla oladi. Sheʼriyat sultoni, bobomiz Alisher Navoiy tavallu-

dining 560 yilligi yurtimizda 2001-yili izzat-ikrom bilan nishonlanib, bu an'ana har yili yuksak darajada davom ettirilmoqda.

XV asr madaniyatining tarkibiy qismlari bo'lgan xattotlik, tasviriy san'at, naqqoshlik, miniatura san'ati, musiqa madaniyati boblarida ham ajoyib ijodiy yutuqlarga erishildi. Xususan, Boysunqur Mirzoning Nigoristoni – Badiiy akademiyasi o'sha davr san'ati va adabiyotining yuksalganligini o'zida ifoda etadi. Bunga Sharqning benazir mo'yqalam sohibi Kamoliddin Behzodning rassomchilik va miniatura maktabini misol qilish mumkin. U musavvirlikda «Hirot maktabi» uslubining asoschisi bo'lib, ustoz san'atkor sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan.

Shu bilan birga, bu davr ilm-fani, madaniyati sohiblari o'zlarining ilmiy, badiiy ijodi, ko'plab asarlari bilan yurt dovruq'i, shuhratini yuksakka ko'tardilar.

Shunday qilib, IX-XII asrlar Sharq olamida, shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ijtimoiy-madaniy hayotning turli jabhalarida tub ijodiy o'zgarishlarni amalga oshirib, tom ma'nodagi Uyg'onish jarayonini yuzaga chiqargan bo'lsa, XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrlar davomida esa ilm-fan va madaniyat ravnaqi yanada yuksak bosqichga ko'tarildi. Bu davrlarda yashagan ko'plab qomusiy bilim sohiblarining ilm-u urfonning turli yo'nalishlaridagi buyuk kashfiyotlari, noyob yutuqlari, adabiyot va san'at daholarining yuksak ijodiy merosi jahon fani va sivilizatsiyasi xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shildi.

O'z zamonasida jahonni hayratga solgan bu noyob madaniyat va uning betakror namunalari umuminsoniy va umumbashariy mazmun, mohiyat kasb etganligidan, ular bugun ham minnatdor avlodlar tomonidan e'tirof topib, taraqqiyparvar insoniyat manfaatlari va hayotiy ehtiyojlariga hamon xizmat qilib qolmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Sharq Uyg'onishi jarayoni qanday omillar ta'sirida yuz berdi?
2. Sharq Uyg'onishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. «Qur'oni Karim» kitobining qimmatini va benazirligi nimada?
4. Hadisshunoslik deganda nimani tushunasiz?
5. Imom Buxoriy shaxsi haqida nimalarni bilasiz?
6. Tasavvuf va tariqat ilmlari to'g'risida tushuncha bering.
7. Muhammad Muso al-Xorazmiy fanda qanday kashfiyotlar qilgan?
8. Ahmad al-Farg'oniy qalamiga mansub asarlarni sanab bering.
9. Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning qaysi yo'nalishida mashhur bo'ldi?

10. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqini ta'minlagan asosiy omillarni so'zlab bering.

11. Ulug'bek ilmiy akademiyasi erishgan yutuqlarning jahonshumul yutuqlari nimada?

12. Boysunqur Mirzo badiiy akademiyasi haqida nimalar deya olasiz?

13. XV asr o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan kimlarning ijodini alohida ko'rsatib bera olasiz?

14. Alisher Navoiy ijodi qaysi ma'noda o'zbek mumtoz adabiyoti rivojining yuksak cho'qqisi hisoblanadi?

6-mavzu. Yevropa Uyg'onish davri madaniyati

Reja

1. Yevropada Uyg'onish davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari.

2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning oqibatlarini.

3. Yevropa Uyg'onish davrining daholari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar.

4. Tabiiy bilimlar va texnik taraqqiyot. N.Kopernik, D.Bruno, G.-Galiley.

Mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladi

Yevropada Universitet ta'limining vujudga kelishi va rivojlanishi.

Tayanch so'z va iboralar

Uyg'onish davri, protestantizm, gumanistlar, reformatorlar, buyuk geografik kashfiyotlar, Petrarka, Bokachcho, Rable, T.Mor, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, N.Kopernik, J.Bruno, Galiley.

Asosiy adabiyotlar

Ахмедова Э., Габидуллин Р. Культурология. –Т.: Академия художеств Узбекистана, 2001.

Жуковский М. Леонардо да Винчи. Творческая биография.–М.-Л., 1967.

Искусство стран народов мира. Энциклопедия. –М., 1956-1978.

Культура эпохи Возрождения. –М., 1986.

Рафаэль и его время. Отв. ред. Л.С. Чикочини –М.: 1986.

Силичев Д. Культурология. Учебное пособие для ВУЗов.–М.: "Приор", 1998.

Рашкова Р.Т. Ватикан и современная культура. –М.: “Политиздат”., 1998.

Sulaymanova F. Sharq va G‘arb. –Т.: “O‘zbekiston”, 1997.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Восток и Запад. Исследования. Переводы. Публикации.–М.: “Наука”,1982.

Книга и социальный прогресс. –М.: 1986.

Очерки истории искусства. –М.: 1987.

6.1. Yevropada Uyg‘onish davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari

«**Renessans**» so‘zining ma‘nosi O‘rta asr madaniyatidan voz kechish, antik (yunon-rim) madaniyat va san‘at an‘analariga qaytish, uning Uyg‘onishi davridir. Shu bilan birga, Renessans badiiy uslub hamdir. Ikki yarim asr davomida Italiyada va so‘ngra boshqa Yevropa mamlakatlari-da sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda inson tafakkuri o‘zgardi: odamlar koinotga, yerga, tabiatga o‘ziga boshqacha nuqtayi nazar bilan qaray boshladi. Oldingi maqsadlardan farqli o‘laroq boshqacha maqsadlar paydo bo‘lib, ular san‘atda ham o‘ziga xos ohangda tasvirlana boshladi. Chunki bu davrga kelib dunyoqarashi ancha o‘zgargan edi. Ammo buni tushunish oson kechmadi. Bunda, ayniqsa, O‘rta asr tafakkuri kishanlaridan xalos bo‘lish lozim edi. Shu bois ham, inson endilikda antik madaniyatning boy merosiga murojaat eta boshladi. «**Uyg‘onish**» atamasi XIX asrda ishlatila boshlangan bo‘lsa ham, bu jarayonlar ancha ilgari yuz berdi. Uni quyidagi kichik davrlarga bo‘lish mumkin:

1. Ilk Uyg‘onish: XV asr.

2. Yuqori Uyg‘onish: XV asr oxiri – XVI asrning birinchi choragi.

3. Quyi Uyg‘onish: XVI asrning so‘nggi davri.

Uyg‘onish Italiyada asosan XIV-XVI, boshqa Yevropa mamlakatlari-da XV-XVI asrlarni qamrab oladi.

Uyg‘onish madaniyatining shakllanishi, birinchi navbatda, o‘rta asr madaniyatining chuqur inqiroziga javoban yuz berdi. Shu bois, Uyg‘onishning asosiy xususiyati bu antifeodal yo‘nalish kasb etganlik hamda dunyoviylik va ratsionalizmning diniylikdan ustuvorligidir. Dinning inqirozi ayni chog‘da O‘rta asr madaniyatining g‘oyaviy-siyosiy asosining ham inqirozini belgilab berdi.

Shimoliy va O‘rta Italiyaning tog‘li hududlarida katta yer egaligi paydo bo‘lishiga sharoit bo‘lmagani bois, X-XI asrlardayoq bu yerlarda sha-

harlar paydo bo‘lib, rivojlana boshladi. Bu esa jamiyatda savdogarlar, hunarmandlar qatlamlari, ya’ni burjuaziya vakillari mavqeyining oshishiga olib keldi. Ular XIII asrdayoq feodallarga qarshi kurashda Florensiya, Bolonya, Siena hududlarida siyosiy hokimiyatni qo‘lga olishga ulgurgan edilar. Bu esa, o‘z navbatida, **kapitalizmning dastlabki belgilari** paydo bo‘lishiga olib keldi. **Burjua ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi** – bu Uyg‘onish davri iqtisodiy hayotiga xos xususiyatdir.

Shuningdek, aynan Italiyada **antik Rim madaniyati an‘analari**, ayniqsa, lotin tili, antik davr shaharlari, pullari va h.k. eng ko‘p saqlanib qolgan edi. O‘tmish ulug‘vorligini tasdiqlovchi **tarixiy xotiraning ham saqlanib qolganligi** yangi madaniyatning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Jamiyat hayotida shaharlar rolining kuchayishi, ya’ni shaharning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatining oshib borishi, savdo aloqalarining avj olishi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi bilan hisobchi, huquqshunos, muhandislar, texniklar, o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa o‘qimishli odamlarga nisbatan talab kuchaya bordi. Shunday qilib, shaharlarda aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi kishilarning alohida toifasi – intelligensiya paydo bo‘ladi.

6.2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning oqibatlari

Katolitsizm inqirozi shu darajada jiddiy ediki, xristian dinida paydo bo‘lgan yangi oqim – protestantizm qudratli **Reformatsiya** harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Ammo Uyg‘onish madaniyatining asosiy va muhim xususiyati **gumanizm** edi. Bu davr madaniyatida **gumanistik** (insonparvar), insonni diqqat markaziga qo‘yuvchi g‘oyalar birinchi o‘ringa chiqadi. Hayotda faqat insonning ijodiy qobiliyatlarini, aqlni tan olish yerdagi baxtga intilish bilan almashinadi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish o‘tmish madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirishni taqozo etadi.

Gumanistik g‘oyalar o‘rta asrning so‘nggi, yangi davrning birinchi shoiri, buyuk siymo Dante Aligeri (1265-1321) ning «Komediya», «Ziyofat», «Monarxiya» asarlarida bayon etilgan Dante xristian aqidalarini o‘z-garmas haqiqat sifatida tan olgan holda, ilohiy va insoniy munosabatlarni yangicha talqin qiladi, ularni bir-biriga zid qo‘ymasdan, har ikkalasining o‘zaro birlikda deb biladi. U bu dunyoda insonni rohat farog‘atga quyidagi ikkita yo‘l olib boradi, deb hisoblaydi: falsafiy ta‘lim, ya’ni inson tafakkuri,

uning qobiliyatlari hamda muqaddas ruhdan kelib chiquvchi «ma'naviy ta'lim». Shoir gumanizmi tarkidunyochilik (asketizm) ga qarshi qaratilgan va inson kuchiga to'liq ishonch ruhi bilan sug'orilgan. Dante fikricha, inson o'z farovonligi uchun o'zi kurashishi lozim. Boylik yoki merosga asoslangan nufuz va obro' kishi taqdirida hal qiluvchi omil bo'lmaydi, aksincha inson o'zining shaxsiy fazilat va sifatlariga tayanib baxt saodatga erishmog'i lozim.

«Monarxiya» asarida shoir o'zining cherkovga nisbatan siyosiy nuqtayi nazarini bayon qilgan. Uning fikricha, cherkov odamlar turmushiga aralashmasdan, faqat «narigi dunyo» masalalari bilan shug'ullanishi darkor. Siyosat esa, inson tafakkuriga, uning manfaatlariga bo'ysunishi kerak.

Atoqli filolog olim N.Komilov Dantening «Ilohiy komediya» asarida **Ibn Sino va Ibn Rushdlarning** nomlari tilga olinishini quyidagicha ta'riflaydi: «Shoir ulug' hakimlar Ibn Sino va Ibn Rushdni o'zining birinchi darajadagi ustozlari qatoriga qo'yib, ulardan ta'lim olgan, buyuk aql egalari ishtirokidagi tafakkur bazmi to'ridan ular uchun joy ajratgan».¹ Shuningdek, «Monarxiya» («Saltanat») asarida Ibn Rushd izidan borib ruhoniylar hukmronligini inkor etadi, adolatli hukmdor boshchiligidagi yagona davlat g'oyasini ilgari suradi. Mutafakkirning ilg'or dunyoqarashi cherkovni g'azablantiradi. Papa tarafdorlari Danteni «Gunohga botgan, dahriy Ibn Rushd» g'oyalarni targ'ib etishda ayblaydilar. Dante qachonlardir butun insoniyat boshini qovushtiradigan adolatli davlat qaror topishiga ishonadi. Bu ezgu orzusida shoir Ibn Rushdning quyidagi fikrlariga asoslanadi: Inson o'z imkoniy aqli orqali atrof-muhitni bo'lib oladi. Biroq bir odam har qancha donishmand bo'lmasin, mutlaq bilimlar jamuljamini egallashga qodir emas, balki aqliy borliqning muayyan bir qisminigina egallashi mumkin. Binobarin, odamlar soni ko'paygan sari bilish doiralari ham kengayadi, ammo bir davr odamlari, ular nechog'li ulkan guruhni tashkil etmasinlar, haqiqatni to'la anglab yetmaydilar. Butun insoniyat bilimi esa mutlaq haqiqat tomon uzluksiz tutashib boradi. Bu – kishilik nasli kabi, o'lmas va tuganmas imkondir.

Demakki, birlashgan saltanatga insoniyatning aql-zakovati ham jamlanib, tajassum topadi; hikmat-haqiqat dunyoni idora etadi. Qirg'inbarot urushlar barham topadi, kishilik hadik-qo'rquv, muhtojlik changalidan chiqib, baxtiyor yashaydi, deydi Dante.²

Gumanizm va umuman, Renessans madaniyati asoschisi italiyalik shoir **Franchesko Petrarka** (1304-1374) edi. U birinchi bo'lib antik davr mada-

¹ N.Komilov. Tafakkur karvonlari. –T., 1996, 73-bet.

² N. Komilov. Tafakkur karvonlari. –T., 1996, 74-75-bet.

niyatiga, Gomer va Vergiliylar ijodiga qaytish to'g'risida gapiradi. Petrarka xristianlikni rad etmaydi, ammo uning ta'limotida din o'zgacha, insonparvar yo'nalish kasb etgan. Shoir sxolastikaga, uning inson muammosiga nisbatan befarqligiga qarshi chiqadi. Petrarka **she'riyat, ritorika, adabiyot, etika, estetikaning** inson axloqiy va ruhiy kamolotida tutgan o'rni, ahamiyatini ta'kidlab, ushbu sohalar **rivoji madaniyat yuksalishini ta'minlaydi, deb hisoblaydi**. Shoir antik davr madaniyati va ma'rifati o'tib ketgan oltin asr, yo'qotilgan jamiyat deb hisoblab, ushbu merosni zamondoshlariga aniq va tushunarli holda yetkazishga harakat qiladi. U avvalo, insonning ichki, axloqiy muammolariga e'tiborini qaratadi. Bu narsa uyg'onish davri individualizmining muhim belgisi edi. «Mening sirim» nomli asarida Petrarka insonning eng chuqur ichki ziddiyatlari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

Fransuz Uyg'onishning yorqin namoyandasi gumanist-yozuvchi, monax, botanik va shifokor **Fransua Rable** (1494-1553) edi. Uning asosiy merosi «Gorgantuya va Pantragryuel» nomli satirik sarguzasht, fantastik romandir. Ma'lum darajada utopik g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan bu roman tarbiya, urush va monastir hayoti mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda Rablening jamiyat, uni rivojlantirish, inson huquqlari, jamiyatdagi ayollarning o'rni, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir qarashlari aks ettirilgan.

Gumanizmning yana bir yorqin namoyandasi fransuz faylasufi **Mishel Monten** (1533-1592) edi. U o'zining «Tajribalar» asarida sxolastikani tanqid qilib, insonni eng buyuk qadriyat deb e'lon qiladi. Monten inson shaxsining mustaqilligi va erkinligi g'oyasini ilgari suradi. Uning ta'limoti individualizm, riyokorlik ruhida qarashlarga qarshi yo'naltirilgan. U insonning mustaqil, erkin tafakkurini bo'g'uvchi loqaydlik, riyokorlik, taqlid qilishni qoralaydi. Xudoga nisbatan u skeptik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun uning inson faoliyatiga hech qanday aloqasi yo'q xudo qandaydir shaxssiz mohiyatdir. Montenning din erkinligi haqidagi fikri taraqqiyparvar ahamiyatga ega. Uningcha, birona din boshqa dinlar ustidan ustunlikka ega emas.

Montenning gumanizmi ham naturalistik ruhda: inson tabiatning bir qismi, shuning uchun o'z hayotida ona-tabiat nimani o'rgatsa, shunga amal qilish kerak bo'ladi. Falsafa murabbiylik vazifasini bajaradi. U odamlarni to'g'ri, tabiiy va olijanob hayotga yo'naltirishi kerak.

Montenning g'oyalari falsafaning Yevropadagi kelgusi rivojiga, xususan, Bekon, Dekart, Gassendi ta'limotiga, fransuz ma'rifatparvarlaridan Volter, Lanetrilar ta'limotining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi¹.

Ingliz yozuvchisi va siyosatchisi Tomas Mor (1519-1577), italiyalik faylasuf va shoir Tomazo Kamponellalarning «Utopiya», «Quyosh shahri» asarlarida ham gumanistik utopik sotsializm konsepsiyalari aks ettirilgan.

Gumanizmdan farqli ravishda (inson ikkinchi Xudo) **reformatsiya**, insonning azaliy gunohkorligi haqidagi g'oyani saqlab qoladi. Italiyada reformatorlik harakati yetakchisi **Djon Sovnarola** (1452-1498) edi. U cherkov tomonidan ta'qib qilinib, gulxanda yoqib o'ldirildi.

Reformatorlikning asosiy namoyandalari nemis ruhoniysi **Martin Lyuter** (1483-1546), fransuz ruhoniysi **Djon Kalvin** (1509-1564) va **Tomas Myunser** (1490-1525) edi.

Tomas Myunser reformatsiyaning xalqchil qanotiga boshchilik qilib, uning xatti-harakatlari dehqon urushiga aylandi.

Reformatsiyaning aniq boshlangan sanasi Lyuter tomonidan Vittenburgdagi cherkov eshigiga indulgensiyalarni sotishga qarshi qaratilgan 95 ta tezisni ilib qo'ygan kun – **1517-yil 31-oktabr** hisoblanadi. Martin Lyuter hukmdorlarga murojaat qilib, ulardan zambaraklar tayyorlash, yo'llar qurish, ko'priklar bunyod etish va boshqa ishlarga sarflanayotgan xarajatlarning ma'lum qismini yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ham sarflashga chaqirdi.

Uyg'onish davridagi madaniyat, ilm-fan, savdo-sotiq yanada yuksalishini ta'minlagan omillardan biri bu davrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar bo'ldi. Savdo-sotiq, ishlab chiqarish rivojlanib borayotgan Yevropa shaharlari bozorlariga Sharq mollari betinim yetkazilib turilgan va bu munosabatlar savdo ahliga katta daromadlar keltirgan. Ammo turklar Vizantiyani zabt etgach, Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari qiyinlashdi, narx-navo ko'tarildi. Natijada Hindiston, arab mamlakatlari, Xitoy kabi mamlakatlarga olib boradigan dengiz yo'llarini qidirish avj oldi.

Olimlarning Yer shar shaklida bo'lishi haqidagi taxminlari XV asrda sayyohlarning qiziqishini yanada oshirdi. Italiyalik olim, astronom **Polo Toskanelli** bu g'oyadan kelib chiqib dunyo xaritasini tuzdi. Kartada Osiyo qit'asi Atlantika okeanining g'arbiy qirg'oqlarida tasvirlangan bo'lib, olimning fikricha, Yevropa qirg'oqlaridan doimo g'arbiga suzib, Hindistonga borish mumkin bo'lardi. Olim Yer ekvatori uzunligini xato

¹ Qadimgi va o'rta asrlar G'arbiy Yevropa falsafasi. 185-bet.

tasavvur qilib, 12 ming kilometr ga yanglishgan. Keyinchalik bu xato buyuk kashfiyotlarga olib keldi.

XV asr oxirida Ispaniya ham yangi savdo yo‘llarini axtara boshladi. Ispaniya qiroli Ferdinand Hindistonga G‘arbiy dengiz yo‘lini ochishni **Xristofor Kolumb**ga (1451-1506 yillarda yashagan) topshirgan. Palos portidan 1492-yili yozda Kolumb o‘zining 90 kishilik komandasi bilan uchta kemada dengizga chiqdi. Kolumb g‘arbga yana 3 marta sayohat qildi va Kuba, Gaitidan tashqari Karib dengizidagi ko‘plab orollarni kashf etdi. Lekin omad unga kulib boqmasi, u o‘zi izlagan Hindistonning oltin-boyliklarini topa olmadi.

Yangi qit‘a kashf qilinganini Kolumb umrining oxiriga qadar bilmasi. O‘zi kashf qilgan joylarni Hindiston, u yerlarni aholisini «hindular» deb atadi. Shu sababdan ko‘plab tillarda, Amerikaning turli nomdagi xalqlari va qabilalarini adabiyotlarda «indeytslar» deb atash rasm bo‘lib ketdi. Kolumbdan keyin 1498-yili g‘arbda sayohatda bo‘lgan Amerigo Vespucci Kolumb kashf qilgan yerlarni «yangi qit‘a» ekanligi haqida fikrlarni o‘z do‘sti nemis kosmografi Voldzmyullerga yozib yuborgan. Xuddi shu nemis olimining taklifi bilan yangi qit‘a Amerika deb atala boshlandi. Xristofor Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, Amerika Qo‘shma Shtatlari okruglaridan biriga, ko‘plab shaharlarga, universitetga, tog‘, daryo va hatto fazoni tadqiq etish loyihalaridan biriga qo‘yilgan.

Ispaniyaliklar tomonidan Amerikaning kashf qilinishi va uni g‘arbiy Hindiston deb atalishi ovoza bo‘lib, portugaliyaliklarni ham harakatga solib qo‘ydi. Portugaliya qiroli Hindistonga boriladigan dengiz yo‘lini topish uchun **Vasko da Gama** boshchiligidagi (1497-1499-yillar) ekspeditsiya jo‘natdi. Ekspeditsiyaga juda puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Vasko de Gama eng yaxshi kemalar, asboblari va xaritalari bilan ta‘minlandi, ekspeditsiya tarkibidagi dengizchilar ham tajribali bo‘lgan.

Safar boshlangandan to‘rt yarim oy o‘tgach, sayohatchilar “Yaxshi Umid” burnini aylanib o‘tib, Afrikaning sharqiy sohiliga chiqdilar. Shundan keyin Hind okeani bo‘ylab shimolga suzgan ekspeditsiya Mozambikning Molinda portiga keldi. Arab lotsmani Ahmad ibn Majid yordamida portugaliyaliklar 1498-yilning may oyida 10 oylik sayohatdan so‘ng Kalkutta shahriga yetib keldilar. Vasko da Gamani hind rojasi qabul qildi. Portugallar kemalarga ziravorlarni yuklab orqaga qaytdilar. Ikki yilga cho‘zilgan safar paytida dengizchilarning 2/3 qismi halok bo‘ldi. Keltirilgan ziravorlardan ekspeditsiyani uyushtirishga sarflangan mablag‘dan 60 marta ortiq foyda olindi.

Amerigo Vespuçhining Kolumb kashf qilgan yerlarini yangi qit'a ekanligi haqidagi farazi **Ferdinand Magellanning** 1519-1522-yillardagi dunyo bo'ylab birinchi sayohatida to'la tasdiqlandi. Yangi ochilgan yerlardan mo'ljallangan boyliklarga erisha olmagan ispan hukmdorlari Ferdinand Magellanning Hindistonga G'arbiy dengiz yo'lini ochish loyihasini qo'llab-quvvatladilar.

Sayohatning boshidayoq juda og'ir sinovlarni yengib, 60 kunlik tinimsiz yomg'irlardan so'ng kemalar 1519-yil 13-dekabrda Rio de Jeneyro ko'rfaziga kirdi. Yana bir oylik sayohatdan keyin hozirgi Urugvayning poytaxti Montevideo joylashgan yerda to'xtashdi. Bu joyning ikki okeanni bog'lovchi qo'ltiq ekanligi haqidagi faraz tasdiqlanmadi.

Ko'rfazdan bir oyga yaqin suzgan kemalarning chap tomonidan doim hindular gulxanlarning tutuni ko'rinib turgan. Natijada dengizchilar bu yerlarni «Olovli yer» deb ataganlar. Okeanga chiqqan kemalar shimolga qarab suzishdi. To'rt oy davomida hech qanday dovullarsiz olg'a yurildi. Okeanning ularga qilgan muruvvati evaziga sayohatchilar uni «Tinch okean» deb atadilar. Nihoyat, 1521-yilning 6-martida ekspeditsiya a'zolari Marian arxipelagi orollaridan biriga tushdilar. O'n kundan so'ng kemalar yaqinlashgan arxipelag Ispaniya shahzodasi, bo'lajak qirol Filipp sharafiga Filippin deb ataldi. Xuddi shu orollarda ro'y bergan bir voqea sayyohlarning qilgan ishlari qanchalik buyuk ekanligini ko'rsatdi. Magellanning qachonlardir Malay orollaridan olib chiqib ketilgan xizmatkori Enrike mahalliy aholi bilan gaplashib, bir-birini tushunganlar. Demak, Enrike o'z uyidan sharq tomonga chiqib, unga g'arbdan qaytib keldi. 1521-yil 27-aprelda Magellan halok bo'ldi.

Magellan ekspeditsiyasidan San-luxorga qaytib kelgan «Viktoriya» kemasida 18 kishi qolgan edi. Dunyo bo'ylab birinchi sayohat **Yer shar shaklida ekanini uzul-kesil isbot qilib berdi**. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yerli aholi haqida ma'lumotlar ko'paya bordi, ular jahon savdo yo'llarini butunlay o'zgartirib yubordi. Yer yuzi xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatishga imkoniyat yaratdi.

Yangi qit'alarning kashf etilishi, dengiz yo'llarining ochilishining ikkinchi tomoni ham borki, ushbu haqiqatdan ham ko'z yumib bo'lmaydi: kashf etilgan qit'alardagi mahsulotlarni arzon narxlarda xarid qilish bilan cheklanmagan yevropaliklar asta-sekin ularni tortib olishga, so'ngra mahalliy xalqlar huquqlarini cheklashga, hatto (ma'lum vaqt o'tgach) ulardan qul sifatida borib yetdilar. Jahonda irqiy kamsitish, millatchilik muammolari yangidan paydo bo'ldi.

Bugungi kunda ham dunyodagi demokratiya, tenglik, tinchlik va hamkorlik tarafdori bo'lgan kuchlar birlashishga hamda yuqorida qayd etilgan muammolarga qarshi hamjihatlikda kurashishga bel bog'laganlar.

6.3. Yevropa Uyg'onish davrining daholari: Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar

Reformatsiya xristian dinidagi yangi oqim – **protestantizmning** paydo bo'lishiga olib keldi. Protestantizmning eng asosiy tamoyillaridan biri xristian dinining dastlabki davrlaridagi sofligiga erishish edi. O'rta asrlardan amal qilina boshlangan qator an'analar, urf-odatlar protestantlar tomonidan ortiqcha va noto'g'ri deb topildi. Ular xristian dinidan chetlanishga olib keladi, degan g'oya ilgari surildi. Jumladan, reformatsiya davrida aynan diniy mavzulardagi qator pyesalar taqiqlandi. Protestantizm ikonalariga sig'inishni ham qoraladi. Ikonalariga sig'inish deyarli butlarga sig'inish bilan tenglashtirildi. Ammo protestantlar tasviriy san'atni unchalik qoramadilar. Haykaltaroshlik, tasviriy san'at dunyoviy xarakterga ega bo'la bordi. Ularda diniy mavzular yakkahokimligiga chek qo'yila boshlandi. Shu boisdan aynan Uyg'onish davrida san'at sohasida buyuk daholar yetishib chiqa boshladi.

Leonardo da Vinchi. Florensiyalik Leonardo da Vinchi (1452-1519-yillar) Italiyadagi uyg'onish davri madaniyatining eng buyuk arbobi edi. U yoshligidan yaxshi bilim oldi. U buyuk olim, iste'dodli haykaltarosh me'mor, muhandis, shoir va rassom bo'lib yetishdi.

1482-1490-yillari, eng unumli davrini u Milanda o'tkazdi. Uning loyihasi bilan Milan shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan katta kanal qurildi.

Leonardo da Vinchi 1499-yilda Milandan Venetsiyaga va 1503-yilda Florensiyaga qaytdi. Bu yerda u kanallar, uchar apparatlar loyihalarini chizdi. Olim, shuningdek, anotomiya, geologiya, gidravlika va mexanika sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. «**Monna Liza**» («Djokonda») surati Leonardo da Vinchini butun dunyoga tanitdi. «Monna Liza» – yosh ayol portreti, hozirgi kunga qadar san'atning shu sohasidagi eng mashhur asaridir. Rassom bu suratda yosh ayolning tashqi qiyofasinigina emas, balki uning ichki dunyosini, kechinmalarini va kayfiyatini ajoyib, sirli tarzda aks ettirib bergan.

Asarda ma'naviy va jismoniy go'zallik, xususiylik va umuminsoniylik vobastaligi, o'zaro muvofiqlashuv mahorat bilan tasvirlangan. Uning 500 yil muqaddam yaratilganiga qaramasdan, tasvirdagi timsol

yuzasidan bahslar davom etmoqda. Ayrim mutaxassislar rassom asarida o‘zini tasvirlaganini qayd etadilar. Tasviriy san’atda ma’lum soniyadagi, aniq bir holat tasvirlanadi. Ammo Leonardo da Vinchi asarining o‘ziga xosligi, hayratlanarli jihati shundaki, tomoshabinda ayolning yuzidagi tabassum, uning nigohi har daqiqada o‘zgarib turibdi, degan fikr paydo bo‘ladi.

Leonardo da Vinchi ijodi shunisi bilan qimmatliki, u ijodda o‘zini sinovchi, tajribachi sifatida namoyon qiladi. Ijod san’atkor uchun cheksiz izlanishlar yangidan yangi muammolar yechimini qidirishidan iborat edi. Tasvirdagi soyalar, ranglar hamohangligi, hatto bo‘yoqlar tarkibi betinim kuzatishlar, tajribalar, sinovlar natijasida yuzaga kelardi. Odamlar holatlarining, yuz ko‘rinishlarining turli shakldagi chizmalari fikrimiz tasdig‘idir. Har bir asarida musavvir qandaydir muammoning yechimini qidirar edi. Bu yechimning topilishi asar ustidagi faoliyati davom ettirishga bo‘lgan qiziqishni susaytirardi. Aynan shu xususiyat Leonardo da Vinchining olim va mutafakkirligiga isbot bo‘la oladi. Alloma o‘ziga xos tafakkur tizimini ishlab chiqdiki, natijada uning qator ilg‘or g‘oyalari (samolyot, vertolyot loyihalari) keyingi, yangi davrlarda XIX-XX asrlarda ro‘yobga chiqdi.

Leonardo da Vinchi 1519-yil 2-mayda vafot etdi. Aytishlaricha, u o‘limi arafasida yonida bo‘lgan Fransiya qiroli Fransisk I ga odamlar uchun juda kam xizmat qilganligini aytib, uzr so‘ragan.

Uyg‘onish davrining buyuk arboblardan biri haykaltarosh, rassom, me’mor, harbiy muhandis va shoir **Mikelanjelo Buanarotti** (1475-1564-yillar) edi.

Mashhur rassomning Vatikandagi Sekstin kapellasidagi suratlari soni 700 ga yaqin bo‘lib, u uzunligi 40, eni 13 va balandligi 20 metrli xonada chizilgan.

Mikelanjelo 4 yil davomida mashaqqatli mehnat qilib, 1512-yil kapella freskalarini tantanali ochishga tayyorlaydi. Uning haykaltarosh sifatida yaratgan eng buyuk ishlaridan biri g‘oyat katta marmar toshga **Dovud haykali** edi. Marmartoshdan qilingan haykalning balandligi 5,5 metr bo‘lib, zamondoshlari uni «gigant» deb atashadi. Mikelanjelo bu haykalda dahshatli bir mahluqni yakkama-yakka jangga tosh bilan urib o‘ldirgan afsonaviy cho‘pon (bolani) yigitni tasvirlagan. Florensiyaning markaziy maydoniga o‘rnatilgan David haykali o‘sha vaqtdan buyon shaharning homiysi hisoblanib kelinadi.

Umrining oxirida Mikelanjelo me’morchilik bilan shug‘ullanadi. Rimda Pyotr soborining juda katta gumbazi loyihasini tuzgan, u avliyo Pyotr Sobor-

ri qurilishini nihoyasiga yetkazadi. Sobor uygʻonish davrining eng katta namunasidir. Gumbazning balandligi 132 metr, uni ustunlar koʻtarib turgan.

Italiyaning buyuk rassomlaridan biri **Rafael Santi** (1483-1520-yillar) edi. U oʻzining qisqa, lekin mazmunli umrida insonni, uning goʻzal qalbini, aql-zakovatini, olijanobligini tasvirlashga intildi.

Rafael Santi kichkina Urbino gersogligida saroy rassomi oilasida tugʻildi. U 1504-yili Florensiyaga keladi. Shu yerda u oʻzining qator mashhur suratlarini-«Madonna»larini chizdi. Oradan 4 yil oʻtib Rafael Santi Rimga boradi.

Rassom Rim papasi Yuliy II ning buyurtmasiga binoan uning saroyidagi dam oladigan xonalarni bezashga tushdi. Vatikanda ishlash bilan birga u qator tasviriy asarlar, portretlar chizdi. «**Madonna Alba**», «**Kursidagi Madonna**», «**Madonna difol**», vanihoyat 1513-1514-yillari «**Sikst madonnasi**»ini yaratdi. Rafael chizgan rasmlarning eng mashhuri «Sikst madonnasi» Italiyaning kichikroq shaharlaridan biridagi Avliyo Sikstin monastiri uchun chizilgandi. Bu buyuk asar insonga gʻoyat kuchli muhabbat ruhi bilan sugʻorilgan. Rassom unda odamlarning baxt saodati uchun oʻzining eng aziz va sevimli farzandini bagʻriga bosib, ulugʻlik va oddiylik bilan odamlar oldiga yurib kelayotgan onani tasvirlaydi. «Injil»dan olingan bu sahna tasviri hozirgi kunda Germaniyaning Drezden shahri rasmlar galereyasida saqlanmoqda.

Rimdagi avliyo Pyotr soborini loyihalashtirish va uning qurilishida ishtirok etishi, Santa Mariya Papasi cherkovini bezashda faollik koʻrsatganiga qaramasdan, Rafael tasviriy sanʼatda shuhrat qozondi.

Leonardodan farqli ravishda, Rafael oʻz davri ijodkori edi. Uning asarlarida jumboqli, gʻayritabiiy xususiyatlar yoʻq. Hamma narsa aniq, yorqin, goʻzal va barkamol. U goʻzal qahramonning ajoyib timsolini yaratadi. Rassomchilikda hayotiylik, hayotni toʻgʻri, haqqoniy tasvirlash tamoyili kuchli. Shu boisdan ham, uning «Madonna Konestibile» asarida ilohiy-lashtirilmagan, oddiy ayol, goʻdak tomonidan varaqlanayotgan kitobga nigoh tashlagan holda tasvirlangan.

6.4. Tabiiy bilimlar va texnik taraqqiyot. N.Kopernik, D.Bruno, G.Galiley

XVI-XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining keskin yuksalishi boshlandi. Ishlab chiqarish, jumladan, texnikaning oʻsishi ilmiy taraqqiyotga keng yoʻl ochdi. Tabiatdagi voqea-hodisalarning amaliy tomonlarini tadqiq qilish yoʻlga qoʻyildi.

Fizika fanining mexanika sohasi tez sur'atlarda rivojlandi. Bunga sabab, san'atning ba'zi sohalarida oddiy mexanizmlardan foydalanila boshlaganligi, qurilish texnikasining takomillashuvi, chuqur shaxtalarning paydo bo'lishi, artelleriyaning yildan yilga kengroq qo'llanilishidir. XVI-XVII asrlarda hunarmandchilik texnikasining rivojlanishi natijasida ko'plab asbob-uskunalar ixtiro qilindi. Jumladan, mikroskop va teleskop, termometr, simobli barometr, gidrometrlar kashf qilindi.

Fandagi burilish, eng avvalo, astronomiya sohasida ro'y berdi. XVI asrga qadar G'arbiy Yevropada, shuningdek, Sharq mamlakatlarida ham antik davrda yaratilgan **geotsentrik g'oya** hukmron edi (Beruniy kabi allomalar qarashlari bundan mustasno). Unga ko'ra koinot markazida doira shaklida harakatsiz Yer turadi. Yerning atrofida ma'lum masofada Oy, Quyosh va boshqa sayyoralar, yulduzli osmon aylanib turadi. Bu g'oyaning asosi Aristotel, Gipparx va Ptolemey davrida ishlab chiqilgan edi.

Allomalar orasida koinot tuzilishi haqidagi yangi **geliotsentrik ta'limotni yaratgan ulug' polyak olimi Nikolay Kopernik** faxrli, muhim o'rin tutadi. Kopernik eng oddiy asboblardan yordamida osmon jismlarini 30 yildan ko'proq kuzatdi. Murakkab hisoblar yordamida olim Yerning Quyosh atrofida hamda o'z o'qi atrofida aylanib turishini aniqladi. Yangi ta'limot tufayli cherkov tomonidan ta'qib qilinishini oldindan sezgan Kopernik o'z kashfiyotini uzoq vaqt sir tutdi. Shu sababli olimning «**Kul ustida ziyofat**», «**Koinot va dunyoning cheksizligi haqida**», «**Pegas siri**», «**Osmon jismlarining aylanishi haqida**» va boshqa asarlar uning o'limidan sal avvalroq nashr qilindi.

Kopernik kashfiyoti fanda katta o'zgarish yasadi. Bu kashfiyot xristian cherkovining obro' va ta'siriga katta putur yetkazdi.

Kopernik g'oyasining davomchilari katolik cherkovi tomonidan quvg'un qilina boshlandi. Xristian cherkovi tazyiqining birinchi qurboni **Jordano Bruno** bo'ldi (1548-1600). U Kopernik ta'limotini rivojlantirib: «Koinotning chegarasi yo'q. Olam beqiyos katta va cheksizdir», degan edi. Uning fikricha, Yer ham, quyosh ham koinotning markazi emas. «Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat bo'lib, ularning har biri bizdan uzoqda turgan quyoshdir. Mana shu quyoshning har qaysi atrofida o'zining aylanib turgan yo'ldoshlari bor». Jordano Brunoning fikrlari hozirgi kunda fanda to'liq tasdiqlandi.

Cherkovning doimiy tazyiqi olimning 16 yil davomida Fransiya, Germaniya, Chexiyada safarda yurishga majbur qildi, o'z vatanini sog'inib, Italiyaga qaytgan olimni cherkov namoyandalari ushlab, o'z g'oyalaridan

qaytishga undadi. Sakkiz yil qamoqdan so'ng Jordano Bruno gulxanda yondirildi. 1600-yil 17-fevralda Rimda uning haykali o'rnatilgan. Haykalga "U hamma xalqlar uchun fikr erkinligini talab qiladi va shu talabi uchun qatl etildi", deb yozib qo'yilgan.

Katolik cherkovi mashhur astronom va fizik **Galileyni** (1564-1642) ham butun hayoti davomida ta'qib qildi. Olim o'zi kashf qilgan oddiy, 30 marta kattalashtirib ko'rsatadigan birinchi truba teleskop yordamida ko'plab yulduzlarni, oy ustidagi toqqa o'xshash jismlarni, Yupiterning 4 ta yo'ldoshini, Veneraning fazalarini, Quyosh dog'larini kashf qildi.

Galiley o'z asarlarida N.Kopernik va J.Bruno kashfiyotlarini to'liq tasdiqladi. Rim papasi 70 yoshli olimni inkvizitsiya sudiga berdi. Sud Galileyni o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur qildi. U umrining oxiriga qadar cherkov nazoratida ishladi.

Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan 1979-1980-yillari Galileyni sud qilgan inkvizitsiya sudi hujjatlari qayta ko'rib chiqildi va olim gunohsiz deb topildi. Katolik cherkovi o'zining ko'p sonli «xatolari»dan birini tan olishi uchun uch asrdan ko'proq vaqt kerak bo'ldi.

Shunday qilib, XVI-XVII asrlarda ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoni yuksalishiga imkon berdi.

Yupiter planetasi atrofida yo'ldoshlar va hatto Quyoshdagi dog'lar borligini kashf etdi.

Papa Galileyni Rimga cherkov sudiga chaqirdi. 70 yashar Galiley inkvizitsiya oldida hozir bo'ldi. 5 oy so'roq qilindi, uni o'z qarashlaridan voz kechishga, tavba qilishga majbur etdi (Yerning aylanishiga ishonmayman, lekin har holda aylanadi). U inkvizitsiya qo'lida asir bo'lib qoldi.

Demak, diniy jaholatga qarshi bosh ko'tardi, uning changalidan qutildi. Dunyoni o'rganish va tushuntirib berish uchun fan oldida keng imkoniyatlar tug'ildi.

Savol va topshiriqlar

1. Yevropa Uyg'onish davrini yuzaga keltirgan omillarni sanab bering.
2. Uyg'onish davri madaniyati xususiyatlari.
3. Gumanist yozuvchilarning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
4. XIV-XV asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlarning jahon madaniy hamkorligini ta'minlashdagi ahamiyati nimada?
5. Uyg'onish davrining buyuk daholaridan kimning hayoti va ijodi haqida gapirib bera olasiz?
6. Astronomiya fani taraqqiyotida Sharq va G'arb vorisiyligi to'g'risidagi fikrlaringizni bayon qiling.

7-mavzu. XVIII-XIX asrlarda jahon madaniyati

Reja

1. XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik, demokratik jamiyat qurish g'oyalari.
2. Ilmiy-texnika yutuqlari va sanoat to'ntarilishi.
3. Me'morchilik va san'at: klassitsizm, barokko va sentimentalizm uslublari.
4. Adabiyot va tasviriy san'atda romantizm, realizm, impressionizm va postimpressionizm.
5. Ommaviy madaniyat.

Mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladi

Yevropada gumanistik, reformatorlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari-ning yoyilishi.

Tayanch so'z va iboralar

Ma'rifatparvarlik g'oyalari, demokratiya, sanoat to'ntarilishi, transport sohasidagi yutuqlar, realizm, romantizm, barokko, klassitsizm, sentimentalizm, impressionizm, postimpressionizm, ommaviy madaniyat.

Asosiy adabiyotlar

- Ахмедова Э., Габидуллин Р. Культурология. – Т.: 2001.
Искусство стран народов мира. Энциклопедия. – М.: 1956-1978.
Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Gulmetov va boshqalar – Т.: DITAF, 2000.
Madaniyatshunoslik. Ma'ruzalar matni. Q. Usmonov va boshqalar –Т.: "IQTISOD –MOLIYA", 2005.

Qo'shimcha adabiyotlar

- Античное наследие в культуре. Возрождения. – М.: 1994.
Абдунабиев А. Вклад в мировую цивилизацию. –Т.: Узбекистан, 1998.
Abduholiqov S. Madaniyat tarixi va uning asosiy masalasi. –Т.: Fan, 1992. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. – Т.: Fan, 1991.

7.1. XVIII asrdagi ma'rifatparvarlik, demokratik jamiyat qurish g'oyalari

Uyg'onish davri madaniyati yaratgan asosiy qadriyatlar keyingi asrlar Yevropa madaniyati asosini belgiladi. XVIII asrdagi "ma'rifatparvarlik" g'oyalarining tarqalishi va sanoat inqilobining boshlanishi pirovardida madaniyatning yuksak texnikaviy yutuqlariga olib keldi.

Xo'sh «ma'rifat» o'zi nima?

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bu – bilish, tanish, ya'ni bilim demakdir. Bu so'zning ko'plik ma'nosi maorifdir. Atama sifatida u tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuini bildiradi. Ma'rifat bilim va madaniyatning uyg'unlashgan mazmunidir.

Shu o'rinda «ma'rifatparvarlik» jumlasiga ham ta'rif berib o'tsak. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchisiga o'tishi, avvalo, ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaviy yetuk, ong-li, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli, fidoyi siymolar tabiatan ma'rifatparvar bo'ladilar. Jamiyatning buguni, kelajagi uchun muhim g'oyalarni ko'tarib chiqadilar va amalga oshirish uchun izchil kurash olib boradilar.

XVIII asrda katolik cherkovi absolutizmni va barcha feodal tartiblarni himoya qilar, xalq orasida bu tartiblar xudo tomonidan o'rnatilgan, degan ko'r-ko'rona ishonchni mustahkamlashga intilar edi. Biroq ilg'or yozuvchilar, olimlar ilm-fan va maorifni dinga qarama-qarshi qo'yar, o'sib kelayotgan burjuaziya bilan xalq manfaatlarini himoya qilardilar. Ijtimoiy fikrning bu yo'nalishi "Ma'rifat" deb ataldi, uning vakillari esa tarixga XVIII asr ma'rifatparvarlari nomi bilan kirdilar. Barcha baxtsizlik va nohaqlikdan insoniyatning aziyat chekishi bilimsizlikdan ekanligiga, faqat ma'rifatgina xalq va uning ideali "Ozodlik, Tenglik, Qardoshlik"ni o'rnatishga qodir ekanligiga ma'rifatparvarlar chuqur ishonganlar. XVIII asr ma'rifatparvarlari ilg'or g'oyalarni ilgari surib, umrini yashab bo'lgan tartiblarni bekor qilish va yangi zamonaviy tartiblarni joriy qilish sari kurashga otlanganlar. Bu borada XVIII asr ma'rifatparvarlaridan Volter, Russo, Mele, Didrolar faoliyatlari ahamiyatlidir.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida faoliyat yuritgan Simon Poyutskiy, Fedor Rtikev, Silvestr Medvedev, Saltikov kabi bir qator ma'rifatparvarlar, o'z qarashlarida dehqonlar, hunarmandlar manfaatlarini va kayfiyatlarini aks ettirdilar.

Xususan, ularning g'oyalari XVIII asr ma'rifatparvarlarining jamiyat hayotiga oid demokratik tamoyillarni ishlab chiqishlarida muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.

XVIII asr ma'rifatparvarlari xalq ommasining yalpi saylov huquqi, parlament boshqaruvi va respublika tuzumi uchun, demokratik huquqlar va erkinliklar uchun faol harakatda bo'ldilar:

- absolut monarxiyaning bedodligini cheklash;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning rivojlanishiga to'siq bo'lib kelayotgan feodal tartiblarni bekor qilish;
- insonlarning barcha tabaqalarining teng huquqli bo'lishini (ya'ni saylash, saylanish va shu kabilarda);
- demokratik tamoyillarga ko'ra xalqning mamlakatini idora etishda ishtirok etishini ta'minlash.

1751-yildan boshlab fransuz yozuvchisi va faylasufi Deni Didro (1713-1784) tashabbusi bilan ko'plab ma'rifatparvarlar ko'p tomli "ensiklopediya" yoki "Fan, san'at va kasblarning izohli lug'ati"ni tayyorlash va nashr etish bilan shug'ullana boshladi. Ensiklopediya mualliflari orasida Volter (fransiyalik), Jan Jak Russo (shvetsariyalik) singari taniqli siymolar bor edi. Ular o'z zamonining ilmiy bilimlari va ilg'or g'oyalarni bayon etish va ularga ta'rif berish borasida tinimsiz izlanishlarda bo'ldilar. Olimlarning sa'y-harakatlari bilan 35 tomlik izohli lug'at-ensiklopediya nashr etildi.

Ensiklopediyadan matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geografiya va turli ishlab chiqarish sohalari va texnologiyalariga oid qiziqarli maqolalar o'rin olgan edi. Unda sanoat buyumlarini yasash, qishloq xo'jaligini yuritishning ilg'or usullari batafsil tasvirlangan edi. Bu esa mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish tomon keng imkoniyatlar ochib berdi.

Ensiklopediya mualliflari quyidagi g'oyalarni olg'a surdilar:

Birinchidan – butun insoniyat faoliyatiga aql-idrok, ma'rifat va ilm-fan asos bo'lishi kerakligini chuqur asoslab berdilar.

Ikkinchidan – xususiy mulkchilik, sohibkorlikni himoya qildilar, qishloq xo'jaligi, sanoat va savdo-sotiq yo'liga zid hamma to'siqlarning olib tashlanishini talab qildilar.

Uchinchidan – millat, ya'ni butun jamiyat tabaqalarga bo'lingan "fuqarolar"dan emas, balki qonun oldida teng huquqlar va teng majburiyatlarga ega fuqarolardan iborat bo'lishi kerak, deb ta'kidladilar.

Xullas, mazkur ensiklopediya fransuz ma'rifatparvarlarining ilg'or ilmiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkurining eng yorqin yodgorligi bo'lib qoldi.

7.2. Ilmiy-texnika yutuqlari va sanoat to'ntarilishi

XVIII-XIX asrlar sanoat, fan-texnika sohasida muhim yangiliklar davri bo'ldi. Jumladan, bu davrda ilmiy bilimlar jamiyat tafakkurining butunlay yangi sifat darajasiga ko'tarildi.

Yevropa va Shimoliy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asr o'rtalarida industrilashtirish yoki sanoat to'ntarilishi nihoyasiga yetdi. Manfaatdorlikning madaniyatdagi belgilovchi o'rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Bug' va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, kimyo sohalarida ajoyib kashfiyotlarga boy davr bo'ldi. Xususan, bu asrdagi 250 mingdan ziyod kashfiyot makon, zamon va materiya ustidan texnika hukmronligining cheksiz o'sganligidan dalolatdir.

Tabiat, inson, madaniyat kabi tushunchalar talqini sezilarli o'zgardi. Tabiat material va energiyaning bitmas-tuganmas manbai, universal omborxonasiga aylanib qoldi. XIX asr insonga koinot sardori, barcha narsalarning tojdori yorlig'ini berdi.

XVIII asrning oxirlariga kelib Angliyada ip-yigiruv mashinalari, mexanik to'quv dastgohlaridan keng foydalanila boshlandi. Shuningdek, bug' mashinalari o'rnatilgan fabrikalar qurila boshlandi. Bu jarayon fan-texnika inqilobining yuz bera boshlanganligiga muhim ishora edi.

To'quv dastgohining takomillashuvi sanoat to'ntarilishiga asos bo'lgan muhim ixtirolardan biri bo'ldi. 1733-yilda Jon Keynning uchar moki ixtiro qilganligi, mehnat unumdorligini ikki barobar oshirdi, 1765-yillarda Jeyms Xargrivsning "Jenni" deb atalgan charxni kashf qilishi yigiruv mehnati unumdorligining 18-20 barobar oshishiga sabab bo'ldi. 1784-yilda Ednunt Kartrayt tomonidan mexanik to'quv dastgohining ixtiro qilinishi mehnat unumdorligini 40 barobarga oshirish imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati yaxshilandi va tannarxi arzonlashdi.

Ish mexanizmi, ya'ni mashinaning inson qo'l mehnatiga o'rin qoldirmay xomashyoni bevosita o'zi ishlashga o'tishi sanoat to'ntarishining boshlanishi bo'ldi.

Ip-gazlama ishlab chiqarishning tez kengayishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XVIII asrning oxirlarida paxta tozalash mashinasi ixtiro qilindi.

XIX asrning boshlarida fransuz injeneri Jakkard yaratgan to'quv dastgohida rangli iplarni turlicha joylashtirish yo'li bilan turli guldor gazlamalar tayyorlash mumkin bo'lib qoldi. So'ngra chitga gul bosish jarayoni mexanizatsiyalashtirildi. Bunda chitni silindrik vallar orasidan o'tkazish yo'li

bilan bo'yash usuli topildi va bunday dastgohlar o'rnatilgan fabrikalar ko'plab paydo bo'ldi. Natijada manufakturadan fabrika ishlab chiqarishiga o'tilganligi sanoat to'ntarishining asosiy mazmuni bo'ldi.

Metall va unga ishlov berish takomillashib bordi. XVIII asrda Angliyada toshko'mir yordamida cho'yan, keyinroq temirni ko'plab ishlab chiqarish muammosi hal etildi. 1795-yilda Kort cho'yan tarkibidagi uglerodni kuydirish uchun, erib turgan cho'yanga koks aralashtirish yo'li bilan sof temir ishlab chiqarish usulini joriy qildi.

XIX asrning 60-yillarida fransuz injeneri Martin cho'yanni temir aralashmasida yoki po'lat parchalari va shlak aralashmasida qayta quyish yo'li bilan po'lat olinadigan pech qurdi. Undan sal oldinroq, ya'ni XIX asrning 50-yillarida Bessener cho'yanni po'latga yoki temirga aylantirish uchun ichida olovbardosh g'isht terilgan juda katta aylanma konveyr tuzilmasini yaratdi. Tokarlik, frezer stanoklari mashinasozlikka negiz yaratdi. Bir xil standart detallar, vintlar, rezbali gaykalar va boshqa ashyolar tayyorlandi. Parmalash, vint kesuvchi stanoklar yaratildi.

Jeyms Uatt bug' mashinasini yaratdi. Bug' mashinasining ixtiro qilinishi fabrika va zavodlargagina emas, balki transport uchun ham yangi dvigatel yaratilishiga olib keldi. Bug' mashinasi asosiy dvigatel bo'lib qoldi. XIX asr tarixga temir va bug' asri bo'lib kirdi. O'sha vaqtlarda bug' mashinasidan qatnov uchun foydalanish to'g'risida fikrlar paydo bo'ldi. Natijada XIX asrda parovozlar amaliy ravishda qo'llanila boshlandi. Endi ular temir izlardan yura boshladi. 1814-yilda ingliz konstruktori va ixtirochisi Jorj Stefanson soatiga 10 km tezlikda 8 ta vagonni tortib yuradigan birinchi parovozni yaratdi. XIX asrning 20-yillaridan e'tiboran temir yo'llar qurila boshlandi. 1830-yilda jahonda 332 km temir yo'l bo'lib, ularning katta qismi Angliyaga to'g'ri kelar edi. 1870-yilga kelib 200 ming km temir yo'l qurilgan edi.

Bug' mashinasini kemaga o'rnatib va eshkakli charxlar bilan ta'minlab, undan suvda qatnash uchun foydalanish mumkin edi. 1807-yilda amerikalik mexanik Robert Fulton Amerikada eshkakli charxlari bo'lgan birinchi paroxodni qurib, sinab ko'rdi. XIX asrning 20-yillariga kelib bug' mashinalari bilan harakatga keltiradigan g'ildirakli daryo paroxodlaridan keng foydalanila boshlandi. XIX asrning 30-yillari oxirlaridan g'ildirakli paroxodlar okean orqali Hindiston va Amerikaga qatnay boshlagan. Keyinchalik g'ildiraklar o'rnini eshkak vintlar egalladi. XIX asrning 50-60-yillarida G'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rnini paroxodlarga bo'shatib berdi. Parovozlar va paroxodlarning paydo bo'lishi, shubhasiz, savdo-sotiqning taraqqiy etishiga sabab bo'ldi.

XIX asrning 80-yillaridayoq fransuz uchuvchilari aka-uka Mongolfelar issiq havo bilan to'ldirilgan havo sharida parvoz qildilar. Keyinchalik Parijda vodorod bilan to'ldirilgan aerostatlar sinovdan o'tkazildi. Shu bilan birga, aerostatdan sakrash uchun parashut ham ixtiro qilindi. Bu havo sharlari va aerostatlar hozirgi kundagi zamonaviy samolyotlarning dastlabki avlodi edi. Dunyoda birinchi bo'lib rus olimi Aleksandr Fedorovich Mo-taysk samolyot qurishga muvaffaq bo'ldi.

Aloqa vositalari ham takomillashib bordi. Qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan mash'al signallari o'rniga endilikda elektr simli telegraf tarqaldi.

Morze alifbosi ixtiro qilindi va xarf bosuvchi qurilma yaratildi. XIX asrning o'rtalariga kelib quruqlikdagi telegraf liniyalaridan tashqari suv osti kabellari ham o'tkazila boshlandi. Angliyadan Amerikaga Atlantika okeani tubi orqali dastlabki telegraf kabeli XIX asrning 60-yillari oxirida o'tkazilgan edi.

Yangi texnikalarning kashf etilishi yoqilg'iga bo'lgan talabning oshib borishiga sabab bo'ldi. Natijada XIX asrning o'rtalarida kerosin ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. XIX asrning 60-yillar oxirlarida dastlabki ichki yonuv dvigatellari ixtiro qilindi, ammo ulardan amalda foydalanish XIX asrning 70-yillariga to'g'ri keldi.

Manufakturalar va fabrikalarning rivojlanishi bilan mehnat qurollarini doimo takomillashtirish ehtiyoji ortib bordi. Tez harakatlanadigan mashinalarning ixtiro qilinishi, ko'priklar, temir yo'llarning barpo etilishi, murakkab va aniq hisob-kitoblarni talab qilardi. Buni esa yangi matematik tenglamalarni hal etmasdan amalga oshirib bo'lmasdi. Turli materiallarning puxtaligi va boshqa xossalarni o'rganish, vaqtni, predmetlarning hajmini, masofani aniqroq o'lchash talab etilardi.

XIX asr 60-yillarida ingliz olimi Jeyms Maksvel elektr magnit to'liqlari borligini nazariy jihatdan aytdi. Nemis fizigi Genrix Gerts tajriba orqali elektr magnit to'liqlari borligini aniqladi. Rus fizigi P.N. Lebedev amalda elektr magnit to'liqlarining jismlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati borligini aniqladi.

1895-yilda nemis olimi Vilgelm Rentgen tajribalar orqali oddiy yorug'likda ko'rinmaydigan jismlar orasidan ham o'ta oladigan ko'rinmas nurlarni aniqladi. Bu Rentgen nurlari deb ataldi. Bu ham elektr magnit to'liqlaridir.

Rus olimi D.I. Mendeleev atom bir qancha harakatchan zarrachalardan tarkib topganligini aniqladi. Ximiyaviy elementlarning xossalari o'rtacha bog'lanishini kashf etdi. Hozirda ham Mendeleev davriy sistemasi butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Fransuz fizigi Antuan Bekkerl ra-

dioaktivlik hodisasini kashf etdi, uran atomlari o'z-o'zidan nur tarqatishini va nurlar g'oyatda o'tuvchi ekanligini aniqladi.

Tomas Edison 1877-yilda ovoz yozib oluvchi qurilmani yaratdi. Uning yana bir katta yangiliklaridan biri dunyoda birinchi elektr stansiyani ishga tushirdi.

Rus injenerlari P.N. Yablochkov va A.N. Lodigin elektr lampochkasini ixtiro qildi, dunyoda elektr nuri "rus nuri" deb ataldi.

Mashhur ingliz olimi I.Nyuton va nemis olimi G.Leybnits XVII-XVIII asrlarda hozirgi zamon oliy matematikasiga asos soldilar. Nyuton kashf qilgan va ta'riflab bergan mexanika va optika qonunlari fan va texnikaning ko'pgina vazifalarini hal etish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Nyutonning eng asosiy xizmatlaridan biri, bu butun dunyo tortilish qonunini kashf qilganligidir. Quyosh sistemasidagi planetalar harakati ilmiy jihatdan asoslashga asos bo'ldi.

XIX asrda matematikaning ko'pgina amaliy va nazariy masalalari yangidan hal etilib, ishlab chiqildi. Atoqli rus olimi N.I. Lobachevskiy geometriyaning «noyevklid» sistemasini tuzish imkoni borligini isbotladi va birinchi bor uning puxta variantlaridan birini yaratdi.

XVIII asrda rus olimi M.V. Lomonosov tajribalar yo'li bilan yonish va boshqa kimyoviy hodisalar paytida moddaning umumiy vazni o'zgarishligi, yo'q narsadan modda vujudga kelmasligini va izsiz yo'q bo'lib ketmasligini isbotladi. U o'z amaliy tajribalari asosida materiyaning saqlanish qonunini kashf etdi.

Nemis olimi R.Mayer issiqlik energiyasining yo'q bo'lib ketmasligini, ya'ni mexanik energiyaga aylanishini isbotladi. Ingliz olimi A.Levengun mayda zarrachalarni 300 martagacha kattalashtirib ko'rsatadigan mikroskopni yaratdi. Ingliz olimi Ch.Darvin tamonidan 1859-yilda nashr etilgan «Turlarning tabiiy tanlash yo'li bilan kelib chiqishi to'g'risida» nomli kitobida hayvonlar, o'simliklarning mavjud turlari hozir qanday bo'lsa, avval shunday bo'lmagan, balki rivojlanish jarayonida turlarga o'zgarishligini asoslab berdi.

XIX asrning 50-60-yillarida mashinalarning o'zini mashina yordamida ishlab chiqarishning rivojlanishi, fabrikalarning ishlab chiqarishi uchun mustahkam texnik baza yaratdi. Ushbu yangiliklar sanoat to'ntarishining tugallanishi bo'ldi. Umuman texnika muvaffaqiyatlari XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asrda mehnat unumdorligini g'oyatda oshirish imkonini berdi.

7.3. Me'morchilik va san'at: klassitsizm, barokko, sentimentalizm uslublari

Ma'lumki, me'morchilik jamiyat hayotida, ayniqsa, davlat miqyosiga molik hashamatli binolar qurilishida katta ahamiyatga ega. Sanoat to'ntarishi san'atning barcha turlariga, shu jumladan, me'morchilikka ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab fabrika ishlab chiqarish va katta shaharlarning rivojlanishi bilan bog'liq holda ularning qurilishi yangi materiallarda, ayniqsa, temir va po'latdan foydalanila boshlandi. Yangi tipdagi inshootlar – vokzallar, temir ko'priklar, birja va banklar, yirik magazinlar, ko'rgazma binolari, uy-joy binolari, yangi teatrlar, muzeylar, kutubxonalar paydo bo'ldi. Shuningdek, fan va texnikada qo'lga kiritgan yutuqlar katta binolarni, bahaybat ko'priklarni va boshqa inshootlarni tezroq qurish imkonini berdi. Me'morchilikda, ayniqsa, klassitsizm, barokko, sentimentalizm uslublari keng qo'llanildi.

XVII—XVIII asrning birinchi yarmi me'morchiligida dvoryanlarning klassitsizm va barokko uslubi hukmronlik qilgan edi.

Klassitsizm – Qadimgi Yunoniston va Rimda shakllangan san'at merosiga taqlid qilish natijasida yuzaga kelgan adabiyot va san'atdagi uslub. XVII-XIX asrlarda Fransiya va Yevropadagi boshqa mamlakatlarda uyg'onish davri an'analarini davom ettirgan holda estetik talablariga javob tariqasida vujudga kelgan me'morchilik, san'at uslubi. Klassitsizm erkinlik, ixchamlik, aqllilikni talab etgan. XVII asrda klassitsizm o'zida absolutizm g'oyalari ifodalagan bo'lsa, XVIII asrga kelib klassitsizm yangi dunyoviy ideallar, ma'rifatparvarlik g'oyalari va oddiy xalq, orzu-istaklari va intilishlariga asoslangan g'oyalarga tayangan holda rivojlandi. Klassitsizm XVIII asrga kelib umumyevropa uslubiga aylandi. Bu uslubda simmetriya, chiziqlar barobarligi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, Parij janubi-g'arbida, undan 23 km uzoqlikda joylashgan Versal qasri va uning saroylarini Hindistonning Tojmahaliga qiyosan solishtirish mumkin. Garchand har ikkala hashamatli binolar Sharq va G'arbning o'ziga xos sivilizatsiyasiga mansub bo'lsada, ular boburiylar va burbonlar sulolalari davrining noyob san'at va me'morchilik asarlaridir. Versal saroylarining mutanosib ustunlari, peshayvonlari o'z to'g'ri chiziqlari bilan Qadimgi Rim klassik uslubidagi binolarni eslatadi. Bu binolar me'morchilikda dvoryanlar klassitsizmiga misol bo'la oladi. Bu uslub Fransiyada ancha vaqtgacha saqlanib qoldi. Undan Angliyada ham keng foydalanildi (masalan, Londondagi avliyo Pavel sobori). Bunga yana misol qilib Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi haddan ziyod go'zal me'morchilik obidalari va maydonlarini

olish mumkin. Shahardagi yo‘llar va suv magistrallari shahar me‘morchiligini tartibga solishda asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi. Shahardagi binolar qurilish rejasi qat‘iy geometrik to‘g‘ri burchak shakliga ega bo‘lgan. Klassitsizm uslubining eng birinchi namunasi Sankt-Peterburgdagi hozirgi vaqtda mavjud bo‘lmagan Oranienbaum hududidagi «Hordiq chiqarish uyi» loyihasi bo‘lsa, undan so‘ng Petropavlovsk qal‘asidagi «Botniy dom» me‘moriy obidasi hisoblangan.

Bu davrda Rossiyada o‘z davrining mashhur rus me‘morlaridan Yu.M.-Felten, K.M.Blank, italyan A.Rinald, fransuz T.Ballen-Delamont kabi shaxslar ishlaganlar. Antonio Rinaldi tomonidan yaratilgan «Xitoy saroyi» (1762-1768) ansambli me‘mor san‘atining qanchalik yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Saroy chizilmasi uni o‘rab turgan bog‘, sun‘iy suv havzasi va juda nozik did bilan yaratilgan o‘simlik dunyosi bilan birlashib, mujasmlashib ketgan.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Yevropaning bir qator mamlakatlarida, ayniqsa, Gollandiya, Germaniya va Polshada boshqacha uslub tarkib topdi. U yerlarda juda ko‘p gumbazlari va karnizlari, ortiqcha hashamlari, tokcha va buyumlari, haykal bezaklari bilan ajralib turuvchi dabdabali me‘morchilik namunalari-saroylar va cherkovlar qurildi. Bu arxitektura uslubi barokko nomi bilan mashhurdir.

Barokko uslubi XVI asrning oxirida Italiyada vujudga keldi. U «g‘alati, g‘aroyib, ajoyib» ma‘nosini anglatadi. Bu uslub zamirida sabrlilik, dinamizm, yuqori emotsionallik va ulug‘vorlik ko‘rinishlari aks etadi. Me‘morlar o‘zlari yaratgan har qanday san‘at asarida barcha narsalarni bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qilgan. Ular sokin to‘g‘ri chiziqlarni rad etadilar va turli xil ko‘pirtirishlar, qiyin shakllar va egri-bugrilardan foydalanishni lozim topadilar. Masalan, italiyalik me‘mor va haykaltarosh L.Bernini binolardagi ustunlarga o‘rama shakllar beradi. Yana ushbu me‘mor Rimda yaratgan «To‘rt daryo favvorasi» ansablida haykaltaroshlik kompozitsiyalari, qoyalar siniqlari va suvlarning zinapoyalarga o‘xshab tushishini bir butunlikda keltirgan. Barokko san‘atida reallik hayolparastlik bilan chatishib ketgan, bir me‘mor xayolparastlikda ikkinchisidan o‘zib ketishga harakat qilganga o‘xshaydi.

Nemis knyazlarining ko‘pgina saroylari va qasrlari, soborlar va monastirlar barokko uslubida qurilgan. Polsha, Ukraina va Rossiyada ham barokko me‘morchiligi o‘ziga xos belgilari bilan alohida nafosat va go‘zallik kashf etadi. Masalan, Venadagi katta darvoza, Shenburun saroyi va boshqalar shular jumlasidandir.

Barokko uslubi bir vaqtning o'zida Yevropa san'ati va madaniyatiga xos quyidagi umumiy xususiyatlarga ega bo'ldi:

- dindorlikning rivojlanishiga olib kelgan cherkov aqidaparastligiga;
- davlat, aristokratiya rolining oshishi;
- sun'iylik, g'ayritabiiylik, barcha narsalarning bo'rttirilishi;
- ziynatlilik, salobatlilik, xushmanzaralilik;
- elementlarining haddan ziyod ortiqligi va boshqalar.

XIX asr o'rtalarida Fransiyada ikkinchi imperiya uslubi, Angliyada Viktoriya uslubi nomini olgan me'morchilik vujudga keldi. Bu uslub klassitsizmdan chekinish va undan ilgari davrlarning turli uslublarining qo'shib ketishi natijasi edi. Unda ganchkorlik, xashamdorlik keng o'rin egalagan hamda haykallar tasvirida egri-bugri tarxlar paydo bo'lgan. Angliya va boshqa mamlakatlarda o'rta asrlar gotikasi uslubiga taqlid qilish kuchayib ketdi. Bu uslub asosida Parijdagi Grant opera teatri va Londonning me'moriy qiyofasini belgilab turuvchi Parlament yangi binosi qurilgan.

XVIII asrning boshlarida o'z uslubiy shakliga ega bo'lmagan yangi sentimentalizm vujudga keldi. Sentimentalizm oqimi insonning ichki his-tuyg'ulari dunyosiga qaratilgan edi. Bu uslub XVIII asrning 50-60-yillarida Angliyada shakllandi. Sentimentalizm hissiyot yaxshilik va yomonlikni belgilovchi, insonning qadr-qimmatini aniqlovchi asosiy me'yor sifatida talqin qilinadi. Ushbu iborani birinchi bo'lib Stern o'z asarida dastlab qo'lgan bo'lib «hissiyotga sajda qilish» ma'nosini anglatadi. Bu uslubda asosan adabiyotshunos olimlar ijod qilgan. Sentimentalizmning vakillari J.Tomson («Yil fasllari», 1730-yil), E.Yung («Tungi yo'llar», 1742-1745-yillar) she'riyatida ko'zga tashlanadi. Ushbu yo'nalishdagi asarlarda his-tuyg'ularning tabiiyligi ulug'lanadi.

XIX asr birinchi yarmida haykaltaroshlikda klassitsizm uslubi rivojlandi. Bu davrning mashhur haykaltaroshlaridan italiyalik Antonio Kanovanning (1757-1822) «Papa Kliment XIII ning qabr toshi», «Amur va Psi-xeya» va daniyalik Bertel Torvaldsenning (1770-1844) «Yason» va shu kabi asarlari mazkur uslubning go'zal namunalari bo'la oladi. Bu haykallarda antik davr unsurlaridan ijodiy foydalanilgan holda inson tasvirini ideallashtirishga harakat qilinganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

7.4. Adabiyot va tasviriy san'atda romantizm, realizm, impressionizm va postimpressionizm

Ma'lumki, badiiy adabiyot odamlarning qarashlariga va yurish-turishlariga, binobarin jamiyatning butun hayotiga ham juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda yaratilgan badiiy obrazlar, hatto fantastik, xayoliy obrazlarda

ham voqelikning biror xususiyatini bevosita va bilvosita aks etishi tabiiy hol edi.

Bu davrning ilg'or yozuvchilari asarlarida quyidagi maqsadlarni o'z oldilariga qo'ydilar:

absolut monarxiya zo'ravonligini dadillik bilan fosh qildilar, jamiyatni krepostnoylik va rasmiy din zanjiridan qutqardi;

ular burjua ma'rifatparvarlari izidan borib xalqni xususiy mulkka va odamlar haq-huquqlari tengligiga, savdo va sanoat erkinligiga asoslanuvchi jamiyatni yaratishga da'vat etdilar.

Ulardan biri, XVII asrning oxiri va XVIII asr birinchi yarmida yashagan mashhur ingliz yozuvchisi Daniel Defo bo'lib, u ilg'or kishilarning ta'qib qilinishini qoralar, ingliz aristokratlarining takaburligi ustidan kular edi. Shu bois u ma'murlar ta'qibiga uchradi. Ular Defoni uch marta sharmandalarcha ustunga bog'lab qo'yishdi. Lekin bundan uning shuhrati ortdi, xolos.

Defoni butun dunyoga tanitgan asarlardan biri bu «Robinzon Kruzo» romanidir. Asarning asosiy mazmuni quyidagicha: romanda bir matros kema halokatidan keyin Janubiy Amerika sohilidagi odam oyog'i yetmagan orolda bir necha yil yashaydi. Romanning eng muhim jihati shundaki, unda yangi yerlarni qidirish va kashf etish, inson mehnati, tabiatni o'zlashtirishdagi uning jasorati va qat'iyati, xavf-xatarlarga qarshi dovyuraklik bilan kurashishi g'oyalari sharaflanadi. Robinzon sarguzashtlari tajriba va bilimning, tadbirkorlikning ahamiyatini to'la kuch bilan namoyon etadi.

O'sha davr muammolari bilan hamnafas bo'lib yashagan va o'zining bebaho asarlari orqali jahon adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan, XVIII asrning birinchi yarmida yashagan yana bir buyuk ingliz adibi Jonatan Sviftdir. Yozuvchining 1726-yilda yozilgan "Gulliverning sayohatlari" romani unga katta shuhrat keltirdi. Bu asarda u o'z qahramonining liliputlar huzuriga, devsiyatlar davlatiga, uchar orolga va g'aroyib hayvonlar mamlakatiga afsonaviy sayohatlarini tasvirlash yo'li bilan o'z zamonidagi jamiyat illatlarini fosh qiladi. Jamiyatda hukm surgan kibru zo'ravonlik, ochko'zlik va shubhalanish, adolatsizlik va mojarolar tasviri orqali ingliz podshohligi saroyining jirkanch xususiyatlari aks ettiriladi. Romanda sulolaviy urushlar kulgi ostiga olinadi. Laputa uchuvchi orolidagi fanlar akademiyasi haqidagi hikoyada hayotdan ajralib qolgan fanlar ustidan kulinadi. Romanning oxirgi qismidagi ochko'z va jirkanch, ammo odamlarga o'xshaydigan afsonaviy mahluqlar hayotda uchraydigan odamlarning aynan nusxalarini eslatadi.

Svift romanda yolg'ochilik, ikkiyuzlamachilik, zulm va politsiya ta'qiblarining murosasiz dushmani sifatida maydonga chiqadi. Biroq u o'z davrining tor, biqiq, chegaralaridan to'la chiqa olmay, asarlarida jamiyatni rivojlantirishning ijobiy dasturini to'la ko'rsatib bera olmadi. Umuman, Svift asarlari chuqur mazmuni va jiddiy muammolari bilan ajralib turadi.

XIX asr boshlarida Yevropada romantizm nomini olgan badiiy yo'nalish paydo bo'ldi. Bu davrda jamiyatning turli tabaqalari orasida ishonchsizlik va qoniqmaslik hissi sezila boshlandi. Va'da qilingan "aql hukumronligi", tenglik va adolat o'rniga, qalloblik, yuqori tabaqa tomonidan ishchilarni ayovsiz ekspluatatsiya qilish, qashshoqlik kuchayib bormoqda edi. Bunday sharoitda romantika o'z san'atining asosiy mazmuni qilib insonning ma'naviy qiyofasini tanladi. Shu bois bu davr ijodkorlari shaxs erkinligi yo'lidagi kurashni madh etishdi. Ular e'tiborini insonlarning kuchli, bo'ysunmaslik xarakteri o'ziga ko'proq jalb etgan edi.

Romantiklarning tipik qahramonlari – bu jamiyat turmush tarziga qarshi borayotgan va kuchli irodali bo'ysunmas insonlardir. Jorj Bayron asaridagi Kain va Chayld Garold, Adam Mitsikevich asaridagi Konrad Vallenord shunday qahramonlar sarasiga kiradi. Bu davrning yana bir xarakterli jihati shundaki, yozuvchi va rassomlar ko'proq tarixga (avvalo o'rta asrlarga), ertaklar, afsonalarga murojaat qildilar. Shuningdek, romantizm vakillari tarixiy drama va tarixiy romanlarni yaratdilar (Viktor Gyugo, Valter Skott, Aleksandr Dyuma va b.).

1766-1822-yillarda yashagan Ernest Teodor Amadey Gofman yozuvchi-romantiklar orasida asosiy o'rin tutadi. Gofman o'zi yashayotgan zamonasining ichki tuzilmasi barqaror emasligini his qildi, shu bois faqatgina fantastika haqiqiy hayotni ochib berishi mumkin deb hisoblaydi. Gofman ertaklarining badiiy olami farishtalar, sehrgarlar, ajdarholar bilan boyitilgan. Ular mavjud odamlar-amaldorlar, savdogarlar, bozor ayollari, talabalar bilan birgalikda aks ettirilgan. Gofman asarlaridagi voqealar birdaniga bir necha yo'nalishda hayotiy, haqiqiy va uydirma, fantastik tarzda ro'y berishi mumkin. Asarda fantastikaning qo'llanishi haqiqiy hayotning zerikarli va tubanligidan chekinish emas, balki uning ichki qirralarini aks ettirishdir.

Jamiyat hayotini chuqur o'rganish, undagi illatlarni fosh etish, hayotni haqqoniy tarzda tasvirlashga intilish G'arbda XIX asrning 30-yillariga kelib adabiyot va san'at sohalarida "Tanqidiy realizm" oqimini yuzaga keltirdi.

XIX asr birinchi yarmida Fransiyadagi tanqidiy realizmning yirik vakili Onore de Balzak (1799-1850) bo'ldi. Balzak minglab obrazlar yaratdi. Uning behisob roman, povestlari umumiy "Inson komediyasi" nomi bilan mashhurdir.

Balzak burjuaziyaning ochkoʻzligiga nafrat bilan qarab, aristokratiya vakillarining pastkashligi, xudbinligi, takabburligini ayovsiz fosh etdi. U boylik ketidan quvish insonning barcha tuygʻularini poymol qilishini yaqqol koʻrsata bildi (Gorio ota romani va h.k). Balzak kapitalizm sharoitida pulning inson ustidan hokim ekanligini ham gʻoyatda ustamonlik bilan tasvirlab berdi.

Fransiyada XVII asrning ikkinchi yarmida buyuk fransuz dramaturgi, ajoyib komediya teatrining asoschisi Jan Batist Moler pyesalari adabiyotda ilgʻor burjuaziya gʻoyalari xalqchilligining yorqin ifodasi boʻldi. Xalqqa yaqinlik Molerga quvnoq xalq komediyasi anʼanalarini singdirib, uni rivojlantirish imkonini berdi. Uning pyesalarida muallifga zamon-dosh va oddiy tilda gaplashuvchi turli guruhlariga mansub kishilar tim-soli ifodalanadi. U dvoryanlarning bemaʼni hayotini zoʻr mahorat bilan fosh qildi. «Dvoryanlikdagi meshchan» pyesasida uchinchi tabaqadan chiqib, har qanday yoʻl bilan boʻlsada, dvoryanga oʻxshashga intiluvchi kishi ustidan kuladi.

U «Don Juan» komediyasida biror narsani muqaddas deb bilmaydi-gan ashaddiy xudbin va buzuqi obrazini sahnada koʻrsatadi. Bu pyesa huzur-halovat orqasidan quvib, hech kimning taqdirini oʻylamaydigan bekorchi dvoryanlar haqida yozilgan oʻtkir satira boʻldi.

Yevropaning shoir va yozuvchilari singari Rossiyaning barcha muam-molari A.S. Pushkin M.Yu. Lermontov lirikasi va nasriy asarlarida, Nekra-sovning sheʼr va poemalarida, N.V. Gogolning sahna uchun moʻljallan-gan hajviy asarlarida, I.Krilovning masallarida, I.S. Turgenevning ix-cham prozasi, F.M. Dostoyevskiy va L.Tolstoyning chuqur falsafiy, fo-jiali povest va romanlarida oʻz aksini topdi.

Osiyo, Afrika mamlakatlarining adabiyoti yangi tarixning birinchi davrida oʻrta asr istibdodiga asoslangan jamiyatning kamchiliklarini aks ettirdi. XIX asr boshlarida Xitoyda Li Fush Jen yozgan «Koʻzgudagi gullar» romanida feodal jamiyatdagi xitoy ayollarining ahvoli tasvirlangan. Taypin gʻalayoni davrida koʻplab gʻalayon ishtirokchilarining sheʼrlari nashr qilin-di. Hindistonda Mittro yozgan «Indigo koʻzgusi» asarida ingliz mustam-lakachilarining zulmlari, hind dehqonlarining ogʻir kulfatlari ochib tash-langan.

Umuman olganda, XVIII—XIX asrda ijod qilgan yozuvchilar oʻz asarlari bi-lan jahon adabiyoti xazinasini yanada boyitdilar.

XVII—XVIII asrlardagi jamiyat taraqqiyoti tasviriy sanʼatda ham oʻz aksini topdi. Shubhasiz, bu davrda Yevropa tasviriy sanʼatida quyidagi ma-salalar yetakchi oʻrin egalladi:

- burjuaziyaning dvoryanlarga qarshi jiddiy siyosiy kurashi;
- Qadimgi Rim tarixi va mifologiyasidan olingan mavzular, qirollar va sarkardalarning portretlari, jang manzaralari;
- diniy yoʻnalishlarga kam oʻrin berilib, dabdabali, rasmiy va jozibali saroy sanʼati;
- Qadimgi Gretsiya va Rim davrining respublika uchun olib borgan kurash qahramonliklari;
- maʼrifatparvarlik davri, buyuk fransuz inqilobi voqealari, maʼrifatparvarlar portretlari, tarixiy voqealar;
- dvoryanlar, xristian dini peshvolari bilan bir qatorda xalq ichidan chiqqan oʻrta tabaqaga mansub kishilarning hayoti, faoliyati va obrazlari;
- oʻsib rivojlanib kelayotgan oʻrta tabaqa vakillari qarashlariga mos keladigan sujetlar asosida chizilib, bu ilgʻor tabaqaning eskilik va absolutizmga qarshi kurashini aniq boʻyoqlar asosida tasvirlagan edi.

Rassomlar uchinchi toifadagi real odamlarning obrazlari aks ettirilgan rasmlarni ham yarata boshladilar. Tasviriy sanʼatda bu yoʻnalishning atoqli vakili Jak Lui David boʻldi. U «Goratsiyalar qasami» rasmini yaratdi. Rasmda oʻz farzandlariga respublika dushmanlariga qarshi jangga borish oldidan oq fotiha berayotgan ota qiyofasini aks ettiradi. Shu jumladan, uning «Maratning oʻlimi» asari ham mashhurdir. «Koʻkat sotuvchi» rasmda xalq orasidan chiqqan ayol tasvirlanadi. Bu rasmlar sanʼatda realizm sari tashlangan muhim qadam boʻldi.

Realizm tomon burilish, milliy ozodlik kurashi qahramonligini tasvirlash, cherkov xurofotini fosh qilish, XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmida yashagan buyuk ispan rassomi Fransisko Goyya ijodi uchun xarakterlidir. Goyyaning ijodiy uslubi nihoyatda oʻziga xos edi. Masalan, u qirol buyurtmasiga binoan uning oilasining guruhiy portretini chizadi. Ularning kiyimlari, bezaklari saroy sanʼatiga xos tarzda tasvirlangan boʻlsa-da, Goyya qirol qiyofasini undagi xunuk belgilari bilan, qirolchaning yoqimsiz, takabbur va johil basharisini dadil va realistik tarzda aks ettirdi.

Ayni vaqtda Goyya Ispaniyaning oddiy kishilariga bagʻishlangan oʻz rasmlarida xalqning jismoniy va maʼnaviy goʻzalligini zoʻr muhabbat bilan chizgan. U ispan ayollarini xuddi shu tarzda magʻrur, xushchaqchaq, nazokatli qilib yaratdi. «Qoʻzgʻolonchilarni otish», «Zoʻr jasorat!» va boshqa rasmlar xalqparvarlik, vatanparvarlik gʻoyalari ruhi bilan sugʻorilgan.

Rakono uslubi oʻzining yengilligi, notekisligi, toʻgʻri chiziqlarning simmetriyasi yoʻqligi bilan xarakterlanadi.

Bu usul rassomga bezash masalalarini hal qilishda qo‘l kelgan. Arxitekturada interyerni rejalashtirishda va bezashda, tasviriy san’atda ham rakono uslubi muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

Tasvirda rakonoga yaqin uslubda fransuz rassomlari Vatto va Shardenlar ijod qilishgan. Impressionizm – san’atda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi yo‘nalish. Impressionizm vakillari mavjud borliqni harakatda, o‘zgarishda tabiiyroq tasvirlashga intilib, tasvirning jonli, haqqoniyligiga erishgan. Voqelikning tabiiyligi, inson va muhit birligida uning doimiy o‘zgaruvchanligi ifoda etiladi. Bu yo‘nalish ko‘pgina rassomlarning ijodiga sezilarli ta’sir etgan. Adabiyotda, haykaltaroshlikda, musiqada ham impressionizm o‘z ifodasini topgan.

XX asr o‘rtalarida impressionizm uslub sifatida o‘z umrini tugatgan.

Impressionizm rassomchilikning ming yillik an‘analariga nuqta qo‘ydi. Ular birinchilardan bo‘lib abstraksionizmga qadam qo‘ydi. Rassomlar real shakl va ranglardan voz kechib, o‘z taassurotlarini chizish bilan cheklاندilar. Impressionistlar ko‘proq o‘z diqqatini tasvirlash imkoniyatlariga qaratdilar. Bu ular yo‘nalishining dasturiy talabi emas, balki, faqatgina ularning shaxsiy tushunchalari ham edi. Ular odamni yoki tabiat ko‘rinishini tasvirlashda rasmni asl nusxaga aniq o‘xshashi emas, balki uning shakli va rangini saqlagan holda ko‘proq chiziqlarini tasvirlashga harakat qilganlar.

Yangi yo‘nalishning ilk vakili fransuz rassomi Eduard Mane (1832-1883) («O‘tloq ustidagi nonushta», «Olimpiya»), lekin impressionizm o‘zining yuksak yutuqlari uchun Mane bilan bir vaqtda ijod qilgan Mone, Renuar, Dega, va Pissarro kabi o‘z kasbining ustalaridan minnatdor bo‘lishi kerak. Birinchi impressionistik rasmning birinchi namunasi Klod Mone (1840-1926) ning 1874-yilda yaratgan «Taassurot», «Quyosh chiqishi» poltnosi hisoblanadi. Mone chizgan rasmda sof optik obraz nozik nur sochib suvdan ko‘kga ko‘tarilayotgan quyosh tasvirlangan. Shubhasiz, Mone ko‘rish bobida ixtirochi, geniy bo‘lgan. U nur va rang nisbatini, boshqalar un-gacha ilg‘amagan uyg‘unligini ko‘ra olgan. Impressionistlar tabiatning tez o‘zgarayotgan holatini tasvirley olishgan. Monening «Parijdagi Kaputsinalar bulvari» va Pissarroning «Monmartr bulvari» polotnolari o‘tgan asrdagi eng yaxshi shahar manzaralari hisoblanadi. Ogyust Renuar tasvirlagan go‘zal va maftunkor ayollar modellari, kam uchraydigan ranglar sofligi bilan odamlar ko‘zini quvontiradi.

XIX asr 80-yillarga kelib impressionalizm yo‘nalish sifatida o‘zining barcha tasvirlash imkoniyatlarini namoyon qilib bo‘ldi va endilikda uning o‘rniga impressionistlarning tasodifiy va lahzalik tasvirlariga javoban ekspressionalizm paydo bo‘ldi. Postimpressionistlar rassom taassurotlari va

kechinmalariga qarshi o'laroq tasvir jarayoniga falsafiy yondashdilar. Vinsent Van Gog (1852-1890) va Pol Gogen (1848-1903) kabi yorqin rassomlar paydo bo'ldi. V. Van Gogning «Dehqon qiz», «Edoki kartofelya» rasmlarida oddiy odamlar hissiyotlari chuqur aks ettirilgan.

O'z zamonasining burjua qatlamlariga bo'lgan nafrati natijasida Gogen Okeaniya orollarida yashab, o'sha joydagi sivilizatsiyadan yiroq, an'anaviy hayot tarzini original tasvirlovchi rasmlar yaratgan. Bular jumlasiga «Meva ushlagan ayol», «Qirol rafiqasi» kabi mashhur asarlarni nisbat berish mumkin.

7.5. Ommaviy madaniyat

XIX asr o'rtalarida fan va texnika taraqqiyoti natijasida ommaviy madaniyatning ahamiyati oshib bordi. Zamonaviy madaniyatning xolisona tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy madaniyat ko'proq ommaviylik mazmunini kasb etib boradi. Ommaviy madaniyatning manzarasi quyidagicha:

➤ u millati, yoshi, yashash joyi, ijtimoiy xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan ommaviy iste'molchilarga ega bo'ladi;

➤ bu madaniyat namunalarini yaratish jarayonining o'zi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus ko'rinishini o'zida namoyon qiladi.

Bunda yuz minglab kishilar band bo'lib ularning "matbuot qiroli", "Buyuk shou tomoshachilari", kino, TV, estrada yulduzlari bo'ladi. Ommaviy madaniyat umumiy iste'molchilik ehtiyoji bilan bog'liq. Ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi – matbuot, radio, kino, kitob chop etish va nusxa ko'chirish – bularning barchasi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish ommaviy ma'daniyatning tezlik bilan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ommaviy madaniyat shou, triller kabi o'ziga xos janrlar yaratdi. Ularning umumiy mohiyati individualizm, zo'ravonlik, ayrim hollarda g'oyaviy yo'nalishlarda o'zini ko'rsatishdan iborat. Ommaviy madaniyatning chegarasi «yulduz» larni kashf etish bilan tugaydi. Bunda sun'iy ravishda yozuvchilar, rassomlar, musiqachilar, aktorlar bir-birlari bilan o'zaro bog'lanadi.

XVIII-XIX asrlar davomida ommaviy madaniyat turlari ancha rivojlandi. Teatrlar, gazeta va kitob nashrlari, musiqa, tasviriy san'at, kino san'atlari yangi davrga qadam qo'ydi.

Teatrlarda o'sha davr muammo va yutuqlari, sarguzasht va ishqiy muhabbat asarlari namoyish etilib, xalq qalbiga yanada yaqinroq bo'lib bordi.

XVIII-XIX asrlarda teatr ommaning eng sevimli ko'ngilochar va ma'naviy hordiq oladigan maskanlaridan biriga aylandi. Teatr bilan bir

qatorida XIX asrning ikkinchi yarmida ovozsiz kinofilmlar paydo bo'ldi. Hozirda ham mashhur bo'lgan Charli Chaplin kabi buyuk kino aktorlar kashf etildi va tomoshabinlar qalbidan o'rin oldi.

Shu o'rinda musiqa haqida ham to'xtalib o'tish joiz bo'ladi. Qadim zamonlardan beri musiqa jamiyat hayotida muhim o'rin egallab keladi. U mehnat maromida, xalq qo'shiqlari va raqslari davomida vujudga kelgan. Musiqa insonning his-tuyg'ulari va kayfiyatini - quvonchi va ijodiy zavqini, xursandchilik va g'amginligini ifodalay oladi.

Qadim zamonlarda musiqa avloddan avlodga xotira orqali o'tardi. O'rta asrlarda esa nota xati vujudga kelib, ko'pgina musiqa asarlari yozib olindi. Musiqa sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan buyuk san'atkorlar sirasiga Avstriya bastakori, Vena klassik maktabi asoschisi Volfgang Motsart (1756-1791), ulug' nemis bastakori Lyudvig Betxoven (1770-1827), mashhur italiyan bastakorlari Joakkino Rossini (1792-1868), Juzepi Verdi (1813-1901), buyuk rus bastakorlari: Mixail Ivanovich Glinka (1804-1857), Aleksandr Borodin (1833-1887), Modest Pyotr Musogorskiy (1839-1881), Pyotr Chaykovskiy (1840-1893) va boshqa shu singari buyuklar nomlarini tilga olib o'tish joizdir.

Betxoven ijodiga mansub 3 (qahramonlik), 5 va 9 simfoniyalar, «Egmont», «Leonora» uvertyuralari, 10 ta sonatalari, 119 chi kontatasi, Motsartning «Don Juan», «Figaro to'yi», «Sehri Fleyt», Rossining «Sevilya sartaroshi», «Vilgelm Tell», «Italiyalik ayol Jazoirda», «Otello», «Semi-ramida» operalari, asarlari – bular Yevropa musiqa san'atining go'zal shoh asarlari sirasiga kiradi. Ularda yuksak insoniylik, sevgi-muhabbat va boshqa olijanob tuyg'ular, ma'rifatparvarlik g'oyalari kuylanadi.

Shu o'rinda mashhur venger bastakori, pianisti, dirijori Ferens List (1811-1886) pianinochilikda yangi yo'nalishga asos soldi, fortapyanoga orkestr ohangdorligini baxsh etdi. Budapeshtdagi musiqa akademiyasining dastlabki asoschilaridan (1875) va birinchi prezidenti bo'ldi. U 13 ta bir qismli simfonik poemalar muallifi, fortapiano va orkestr uchun 2 ta konsert sohibi, «Sayohatchi albomi», «Jahongashtalik yillari» sikllari va 19 ta venger rapsodiyalari ijodkoridir.

Yana bir iste'dodli italiyan skripkachisi (g'ijjakchi) va bastakori Nikolo Pagonini (1782-1840) ijodi ham olamshumul ahamiyatga molikdir. U haqli ravishda musiqali romantizm asoschilaridan biridir. U g'ijjakchilardan biri bo'lib, yakka ovoz va soz uchun yozilgan 24 ta sahna asarini yoddan sahnada ijod etgan, 32 ta skripka va orkestr uchun konsert yaratgan daho san'atkordir.

Nemis bastakori, organisti Iogan Bax (1685-1750) ham musiqa madaniyatining turli janrlarida yetuk asarlar yaratgan. Romantizmga qadar boʻlgan soʻnggi davrlarning deyarli barchasi asosiy oqimlari musiqa uslublari yutuqlarni umumlashtirgan. Uning «Matfeyaga ehtiroslar» oratoriyasi va fortapyano uchun yozilgan «Klavirdagi temp (tez surʼati)» nomli gʻamgin ruhdagi shoh musiqa asarlari bor.

Buyuk rus bastakorlaridan Mixail Glinka rus klassik musiqasi asoschisi hisoblanadi. «Ivan Susanin» (1831), «Ruslan va Lyudmila» (1842) operalari, «Kamarinskaya», «Ispan uvertyuralari» va koʻplab simfonik asarlar muallifi hamdir. U rus romansining birinchi klassigi hisoblanadi.

Shuningdek bastakor va ayni chogʻda taniqli kimyogar olim A.Borodinning «Knyaz Igor» operasi ham mashhur sanʼat asarlaridan hisoblanadi. P.Chaykovskiy – bastakor, simfonist, dramaturg sifatida jahonshumul shuhrat qozongan. Uning «Yevgeniy Onegin» (1878), «Mazape» (1883) operalari, «Uyqudagi goʻzal», «Oq qush koʻli» balet-dramatik asarlari mavjud. Dunyoga mashhur oltita simfoniyasi, «Manfred» simfoniyasi, «Romeo va Juletta» asarlari bastakor nomini abadiylikka muhrlagan.

Savol va topshiriqlar

1. Maʼrifatparvarlik gʻoyalarining maydonga kelishining asosiy omillari nimada?
2. Fransuz maʼrifatparvarlari ilgari surgan ulugʻvor gʻoyalar qanday maqsadlarga yoʻnalgan edi?
3. Yevropada sanoat toʻntarishi qanday yuz berdi?
4. Texnika sohasida muhim ixtiro, kashfiyotlar qilgan ulugʻ kashfiyotchilar nomini sanab oʻting.
5. XVIII-XIX asrlarda ilm-fan sohasida shuhrat qozongan buyuk olimlar sirasiga kimlarni nisbat berish mumkin?
6. Yevropa meʼmorchiligi uslublari haqida tushuncha bering.
7. XVIII asr ingliz adabiyotining mashhur namoyandalari sirasiga kimlar nomini kiritsa boʻladi?
8. XVIII-XIX asr fransuz adibi Onore Balzak ijodi xususida nimalar deya olasiz?
9. XVIII-XIX asrlar Yevropa tasviriy sanʼatidagi impressionizm va postimpressionizm oqimlari ijodini siz qanday baholaysiz?
10. Ommaviy madaniyat tushunchasini taʼriflab bering.
11. XVIII-XIX asrlarda yashab oʻtgan Yevropaning buyuk bastakorlari haqida fikrlaringiz.

8-mavzu. XIX-XX asr jahon madaniyati

Reja

1. XX asr fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar, fan-texnika inqilobi.
2. XX asr madaniyati: adabiyot, teatr, kino, tasviriy san'at, me'morchilik va boshqa sohalar rivoji. Kubizm, syurrealizm uslublaridagi ijod.
3. Sovet davrida, O'zbekistonda madaniy hayot.

Mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladi

Alfred Nobel, xalqaro Nobel mukofoti.

Tayanch so'z va iboralar

Fan-texnika kashfiyotlari. Fan-texnika inqilobi. Adabiyot. San'at. Teatr. Kino. Rassomchilik. Sirk. Me'morchilik. Haykaltaroshlik.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: “O'zbekiston”, 1994, 71-73, 95-104-betlar.

Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqloq, siyosat, mafkura. T.1. –T.: “O'zbekiston”, 1996, 76-85-betlar.

Ахмедова Э., Габидуллин Р. Культурология. –Т.: Академия Художеств Узбекистана. Т., 2001, стр. 246-254.

Boboyev X., Hamrayev T. v. b. Madaniyatshunoslik. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.

Gulmetov E. v. b. Madaniyatshunoslik. –T.: “Ditaf”, 2000, 99-106-betlar.

Силичев Д. Н. Культурология. Учебное пособие. М., 1998, стр. 234-337.

Madaniyatshunoslik fanidan muammoli ma'ruza matnlari to'plami. T.,2004, 118-138-betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. –T.: “Akademiya”, 2000, 29-44, 147-270-betlar.

Ma'naviyat yulduzlari. –T.: “Meros”, 2001, 396-405-betlar.

Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. Darslik. –T.: “Sharq”, 2003, 105-121, 151-164-betlar.

8.1. XX asrda fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar, fan-texnika inqilobi

XX asrda madaniyat, ilm-fan va texnika taraqqiyotida yuz bergan keng ko‘lamli o‘zgarishlar zahirida turli mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar ijodkorligi, ularning yaratuvchanlik salohiyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi, mantiqan bog‘lanib, bir-birlarini boyitib, to‘ldirib borishi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sivilizatsion jarayonlarning bu tarzda yaqinlashuvi, globallasuvi hamda jadallasuvi, tabiiyki, kishilik ma‘naviyatining barcha, xususan, ilm-urfon, fan-texnika, texnologiyalar, kommunikatsiyalar tizimi sohalarining tezkor rivojlanishida ayniqsa sezilarli bo‘ldi. XX asr ilmiy-texnika taraqqiyotida juda ko‘plab obyektiv omillar alohida o‘rin tutadi.

Birinchidan, bu sohaning muammolari turli mamlakatlarda faoliyat yuritgan, ilmiy maktablar yaratgan, muhim ilmiy kashfiyotlar qilgan daholomalar, fan fidoyilarining ijodiy hamkorligi, sa‘y-harakatlari tufayli o‘z yechimini topib bordi.

Ikkinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning avval erishgan darajasi, chunonchi, XIX asr davomida yuz bergan sanoat to‘ntarilishi, ilm-fan sohasidagi jiddiy kashfiyotlar, ularning samaralari bunda alohida o‘rin tutdi. Chunonchi, bug‘ va yonilg‘i bilan harakatlanadigan mashinalar, elektr nurlari, radio va radio aloqalarining ixtiro qilinishi – bular XX asr ilmiy fan, texnika va texnologiyasi oldiga yangi ufqlar ochib berdi. XX asr ilmiy-fan va texnika fikri, uning salohiyatli fidoiylari avvalgi asrlarning mana shu boy tajribasiga tayanib, yangi asrning yuksak hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, bu borada mislsiz yangiliklarni yaratib bordilar. Ayniqsa fizika, matematika, kimyo, biologiya, tibbiyot, geologiya, genetika, kibernetika, texnika, elektronika, informatika, mikrobiologiya va boshqa sohalarda yaratilgan kashfiyotlar – bular inson aql-zakovati, bilimi, iqtidori va qobiliyatining teranligi, chegara bilmasligidan dalolat beradi.

XX asr ilmiy-fan to‘g‘risida gap borganda, avvalo, jahon fani yuksalishi, ilmiy-texnika inqilobining yuzaga kelib, chuqurlashib borishiga jiddiy ulush qo‘shgan Pyer Kyuri, Jolio Kyuri (Fransiya), Mariya Kyuri Skladovskaya (Polsha), A. Eynshteyn (Germaniya – AQSH). Nils Bor (Daniya), Rezerford (Angliya), A.Nobel (Shvetsiya), I.Pavlov, N.Vavilov, I.V. Kurchatov, S.Korolev, N.V.Keldish (Rossiya) singari jahonshumul olimlar nomini tilga olib o‘tish joiz bo‘ladi.

Ularning jasoratga boy ijodiy mehnatlari, izlanishlari natijasida odamlar turmush tarzini takomillashtirishga xizmat qiladigan ko‘plab dunyoviy kashfiyotlar yuzaga keldi. Endilikda ularning samarasini kishilik hayotining turli sohalarida ko‘rish va qulay xizmatidan bahramand bo‘lish mumkin bo‘lib qoldi.

Hozirgi zamon fanining muhim yo‘nalishlarini o‘zida mujassam ifoda etgan ko‘plab ilmiy maktablar vujudga keldi. Ular orasida fransiyalik Kyurilar maktabi alohida ajralib turadi. Taniqli fizik Pyer Kyuri va Mariya Kyuri Skladovskayalar XX asr boshlarida radioaktivlik nazariyasiga asos soldilar. Ular hamkorlikda poloniy, radiy moddalarini ochdilar, radioaktivlik nurlarini tadqiq etdilar, «radioaktivlik» atamasini fanga kiritdilar. Har ikkala olim fizika faniga qo‘shgan hissalar uchun 1903-yilda eng oliy mukofot – Nobel¹ mukofoti sovrindorlari bo‘ldilar. Ularning davomchilari – Jolio Kyuri va Iren Kyurilar keyinchalik sun’iy radioaktivlik va pozitron radioaktivlikni kashf etdilar.

Mashhur nemis olimi A.Eynshteyn (1879-1955) fanda inqilobiy o‘zgarish yasab, nisbiylik nazariyasiga asos soldi. U ayni chog‘da yorug‘likning kvant nazariyasi bo‘yicha ko‘plab fundamental asarlar muallifi hamdir. Hozirgi zamon fizikasining yirik namoyandasi Ernst Rezerford (1871-1937) radioaktivlik va atom tuzilishi to‘g‘risidagi ta’limot asoschilaridandir. U XX asr boshlarida mashhur alfa va beta nurlarini kashf etdi va ularning tabiatini aniqlab berdi. 1919-yilda azotni kislorodga aylantirgan birinchi sun’iy yadro reaksiyasini amalga oshirdi. U 1921-yil-dayoq neytron zarralar mavjudligini ilmiy bashorat eta oldi. Yadro fizikasiga asos soldi. U jahonning juda ko‘plab fiziklari uchun ilmiy maktab sanalgan Kavendish laboratoriyasiga asos soldi. Bu laboratoriya jahon fiziklarini o‘ziga jalb qilgan yirik ilmiy markazdir. Undan ko‘plab mashhur fizik olimlar yetishib chiqqan.

Daniyalik mashhur fizik Nils Bor (1885-1962) hozirgi zamon nazariy fizikasi asoschilaridan. U atomning planetar modeliga asoslanib, 1913-yilda atom tuzilishining kvant nazariyasini va spektrlar nazariyasini yaratgan. Uning asosiy asarlari — metallar nazariyasi, atom yadrosi va yadro reaksiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Ingliz astronomi Artur Stenli (1882-1944) nomi ham mashhurdir. Uning fundamental asarlari yulduzlarning ichki tuzilishi va evolyutsiyasi nazariyasi, nisbiylik nazariyasi masalalariga bag‘ishlangan. Angliyalik Fizik olim Sesil Pauell (1903-1969) yadroviy

¹ Alfred Nobel shvetsiyalik sanoatchi, ixtirochi, kimyogar bo‘lib, XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan. O‘limi oldidan o‘z merosini mashhur kashfiyotchi olimlarga mukofot qilib berishni vasiyat qilgan. Nobel mukofoti 1901-yildan boshlab rasmiy tarzda berila boshlangan.

fotografik emulsiyalar metodikasini yaratdi. U Yevropada yadro tadqiqotlari markazini tuzish tashabbuschilaridan biri bo'ldi.

Shvetsiyalik fizik olim Volfgang Pauli (1900-1958) kvant mexanikasi va maydonning relyativ kvant nazariyasi yaratuvchilaridan bo'ldi. Uning asarlari ko'proq nisbiylik nazariyasi, yadroviy kuchlarning mezon nazariyasi masalalariga bag'ishlangan. Italiya fizika maktabi asoschisi Enriko Fermi (1901-1958) yadro va neytron fizikasi asoschilaridan biri hisoblanadi. U kvant statistikasi, beta parchalanish nazariyasini ishlab chiqqan. U birinchi bo'lib yadro reaktorini qurdi va unda zanjirli yadro reaksiyasini amalga oshirdi.

Rus fizika maktabi va uning buyuk xizmatlari to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tmoqlik joizdir. Nobel mukofoti sovrindori Pyotr Kapitsa (1894-1986) quyi temperaturalar va kuchli magnit maydonlari fizikasi asoschilaridan. U suyuq geliyning o'ta tez o'tkazuvchanligini kashf etdi. Olim o'zi yaratgan maxsus asbob yordamida havoning yonish usulini kashf etdi. Yana bir atoqli olim, Nobel mukofoti sovrindori Lev Landau (1908-1968) nazariy fizikaning ko'plab sohaları: magnitizm, tez oquvchan va tez o'tkazuvchan qattiq jismlı fizika, atom yadrosi, plazmalarning elementar zarrachalari, kvant elektron dinamikasi, astrofizika va boshqalar bo'yicha fundamental asarlar muallifi va ko'plab yangi g'oyalari ijodkoridir. Tengi yo'q olim K.Siolkovskiy (1857-1935) ning aero va raketa dinamikasi, samolyot va dirijabl nazariyasi sohalaridagi kashfiyotlari jahonga mashhurdir. U haqli ravishda hozirgi zamon kosmonavtikasi otasi sanaladi. Uning maktabiga mansub Sergey Korolyov (1906-1966) ning raketa qurilishi va kosmonavtika sohalaridagi kashfiyotlari butun dunyoda e'tirof topgan. Yer farzandi Yuriy Gagarinning birinchi bo'lib, kosmosga uchishi va boshqa ko'plab kosmonavtlarning koinotga parvozi, sobiq sovet kosmonavtikasining katta yutuqlari ham shu olim nomi bilan uzviy bog'liqdir. Akademik Igor Kurchatov (1903-1960) sobiq SSSR davlati atom fani va texnikasining ilk asoschilaridandir. Uning bevosita rahbarligida Yevropada birinchi yadro reaktori qurildi. 1954-yilda atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalaniladigan atom elektr stansiyasi qurilib ishga tushirildi.

Mashhur fiziolog olim Ivan Pavlov (1844-1936) oliy nerv faoliyati to'g'risidagi ta'limotga asos soldi. U qon aylanishi va ovqat hazm qilish fiziologiyasi bo'yicha klassik asar yaratdi. Hozirgi zamon genetikasi fani asoschilaridan Nikolay Vavilov (1887-1943) ning madaniy o'simliklar turini o'rganish, ularning muhim qonuniyatlarini kashf etishdagi xizmatlari beqiyosdir. U hozirgi davr seleksiyasining biologik asoslari va ma-

daniy o‘simliklar hosil bo‘lish markazlari to‘g‘risidagi ta‘limotlar asoschisidir. Olim dunyo kezib juda ko‘plab ekin urug‘lari kolleksiyasini to‘pladi. Ularni rayonlashtirib ekish qoidalarini asoslab berdi.

XX asr ilm-fani, texnikasining yana bir muhim yutug‘i shundaki, so‘nggi o‘n yillar davomida Osiyoda xususan, Xitoy, Yaponiya, Hindiston singari davlatlarning ilmiy salohiyati tez yuksalmoqda. Masalan, Yaponiyaning elektronika, radiotexnika, informatika, robot texnikasi, tibbiyot, seysmologiya, kibernetika va boshqa sohalardagi hayratlanarli yutuqlari pirovard oqibatda «Yaponiya mo‘jizasi»ning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xitoyning yerning sun‘iy yo‘ldoshlarini yaratish, kosmosda ilmiy tadqiqotlar olib borish, murakkab mikrokompyuterlarni ishlab chiqarish borasidagi yirik muvaffaqiyatlari ham tahsinga loyiqdir. Jumladan, uning «Gallaktika» nomli super kompyuterlari sekundiga yuz millionlab hajmdagi murakkab operatsiyalarni bajara oladi. Xitoy biokimyoh sohasida sintetik insulin olishga muvaffaq bo‘lgan birinchi mamlakatdir.

Hindistonning bugunda ilm-fan, texnika sohasida, xususan murakkab kompyuterlarni yaratish, kosmonavtika, raketa texnikasi sohaslarida erishgan jiddiy yutuqlari diqqatga sazovordir.

XX asr fan-texnikasi xususida so‘z borganda asr mo‘jizasi – samolyotsozlik sohasiga ham to‘xtalib o‘tmasdan bo‘lmaydi. Uzoq-olis masofalarni bir-biri bilan bog‘lovchi, millionlab odamlarning uzog‘ini yaqin qiluvchi, tovushdan tez uchar bugungi TU, IL, Antey, YaK, YAGUAR, BOING — bular, shubhasiz, insoniyat yuksak aql-zakovati samaralaridir.

Bu o‘rinda yana shu narsa muhimki, fanning ishlab chiqarishning asosiy kuchi, vositasiga aylanib borishi, bir tomondan, insoniyatning ilg‘or taraqqiyoti uchun keng ufqlar ochib berishi, odamlarning intellektual salohiyatining yanada o‘shishiga katta imkoniyatlar yaratish barobarida, ikkinchidan, bu jarayon insoniyat oldiga ko‘plab murakkab muammolarni ham ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Xususan, fan yutuqlaridan foydalanib, ommaviy qirg‘in qurollari turlari, atom va vodorod bombalarining yaratilishi, koinot sirlarini o‘rganish borasidagi turli hil yondashuvlar – bular yer yuzi kishilarini hamon tashvishlantirib turgan dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda.

Jahon fani va texnikasi hamon izlanishda. Yerning ustki va ostki qatlamlarini, daryo, ko‘llar, dengizlar va okeanlar qa‘rini, Arktika, Antarktida muzliklarini, osmon jismlari, koinot sir-u asrorlarini chuqur tadqiq qilish, ulardan amaliy xulosalar chiqarish hozirgi zamon fanining diqqat markazida turibdi.

Ilm-fan sohasidagi mislsiz kashfiyotlar va ixtirolar davomida XX asr o‘rtalariga kelib jahonda chinakam fan-texnika inqilobi yuz berdi. Bu-

ning orqasida fan-texnika yutuqlari insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga izchil kirib, mustahkam o‘rin egallab bordi.

Xususan, dunyoning ilg‘or mamlakatlarida fan yutuqlarini ishlab chiqarishga faol qo‘llanish asosida inson mehnati talab qilinadigan ko‘plab jarayonlar «aqlli» mashinalar, mexanizmlar zimmasiga o‘ta boshladi. Ishlab chiqarish tarmoqlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali murakkab vazifalarni bajarish, ularning samaradorligini keskin oshirishga erishib borildi. Ayniqsa, G‘arbiy Yevropa, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ilm-fanning mo‘jizakor yutuqlari sifatida yaratilgan robot texnikasi, xilma-xil manipulyatorlar, kompyuterlar xizmati bu sohada katta bo‘ldi. Avvallari minglab, o‘n minglab odamlarning qo‘l mehnati talab qilingan ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirish yo‘li bilan boshqarilib, yuksak sifat belgilariga ega xilma-xil mahsulotlar, pishiq materiallarning tayyorlanishi – bular XX asr tom ma’noda texnika asri ekanligidan yaqqol dalolatdir. Shu bilan birgalikda fan-texnika yutuqlaridan ayrim siyosiy kuchlarning o‘z strategik maqsadlari yo‘lida foydalanishga urinishlari keltirib chiqargan ko‘plab noxush holatlardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Chunonchi, insoniyatni qirg‘inlikka mahkum etuvchi termoyadro urushi xavfi, tobora ifloslanib, zararlanib borayotgan atrof-muhit, qurollanish poygasi shular jumlasidandir. Bu esa turli qit‘alar, mamlakatlar olimlari oldiga butun insoniyatga daxldor dolzarb masalalar, muammolar yechimiga birgalikda javob izlash vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Darhaqiqat, tobora ifloslanib borayotgan ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish, termoyadro urushi xavfidan insoniyatni saqlab qolish, atmosfera-ning azon qatlami muvozanatini ehtiyotlash va shu kabi hayotiy masalalar dolzarb vazifaga aylandi. O‘z yurtlari, xalqlarining vijdoni bo‘lgan ilm-fan sohiblari bu ulkan masalalarni umuminsoniyat foydasiga hal etishga da’vat etilganlar.

8.2. XX asr madaniyati: adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at, me’morchilik va boshqa sohalar rivoji

Adabiyot hamma zamonlarda bo‘lgani kabi yangi tarixiy sharoitlarda ham murakkab davr vazifalari, muammolari bilan bog‘liq holda insonlar hayoti, qismatini, ularning ichki ruhiy kechinmalari, orzu-armonlari, maqsad, intilishlarini yorqin badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish, tipik qiyofalar timsolini yaratishda davom etdi. Buni o‘z yorqin ijodi bilan millionlar mehrini qozongan, adabiy jarayonlarning oldingi safida borgan asrning ko‘plab taniqli adiblari misolida kuzatish mumkin. Jumladan, XX asr

ijodkorlari: Romen Rollan, Anri Barbyus, Lui Aragon, (Fransiya), Anton Chexov, Mixail Sholoxov, Aleksandr Soljenitsin (Rossiya), Bernard Shou (Angliya), Jek London, Ernest Xemenguey (AQSH), Genrix Mann, Tomas Mann (Germaniya), Nozim Hikmat (Turkiya), Pablo Neruda (Chili), Jorj Amadu (Braziliya), Robindranat Togor (Hindiston), Alberto Moraviya (Italiya), Lu Sin, Mao Dun, Go Mojo (Xitoy), Chingiz Aytmatov (Qirg'iziston), Rasul Hamzatov (Dog'iston) va boshqalar ijodi ayni mana shu ruh bilan sug'orilgan.

Anri Barbyusning «Olov», «Soflik» romanlari birinchi jahon urushini keskin qoralash va insoniyat tinchligi, manfaatlarini himoya qilish ruhida yozilgan. Romen Rollanning «Xalq teatri» dramasi buyuk fransuz inqilobini ulug'lashga bag'ishlangan. Uning «Jan Kristof» roman-epopeyasi (10 tomlik) va «Go'zal qalb» ko'p jildli romanlarida chin insonparvarlik, sevgi, sadoqat g'oyalari keng tarannum etilgan.

Mashhur Amerika yozuvchisi Ernest Xemenguey qalamiga mansub «Alvido, qurol», «Bo'rondan so'ng», «Chol va dengiz» singari asarlar insoniy qismatlar va ehtiroslarni haqqoniy aks ettirganligi bilan umrboqiylikka daxldordir. Yana bir Amerika realist yozuvchisi Teodor Drayzer (1871-1945) qalamiga mansub «Moliyachi», «Titan», «Amerika fojiasi» singari epik romanlar ham keng ko'lamli hayotiy jarayonlarni chuqur yoritib berganligi bilan ajralib turadi. Rus yozuvchisi Chexovning «Kuchuk yetaklagan xonim», «Oltinchi palata», «G'ilof bandasi» hikoyalari, «Vanya tog'a», «Olchazor» pyesalari o'zining yuksak g'oyaviy saviyasi, haqqoniy mazmuni bilan ajralib turadi.

Chilining otashnafas shoiri Pablo Nerudaning «Qallda Ispaniya», «Umumiy qo'shiq» epopeyasi asarlari ham badiiy so'zning yuksak qudrati ifodasidir.

Italiya adibi Moraviyaning «Loqaydlar», «Rimli ayol», «Chegara», «Ichki hayot» romanlari ham yirik rejada yozilgan ijtimoiy-psixologik asarlar turkumiga mansubdir.

Yirik fransuz adibi Lui Aragon adabiy merosida ham katta hayot oqimi ilgari surgan katta siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy masalalar o'rin tutishini kuzatish mumkin bo'ladi. Masalan, uning «Real dunyo» nomli mashhur sikl romanlari, «Fransuzlarning mag'lubiyati va ulug'vorligi» kitoblari voqea, hodisalarning keng qamrovligi, inson hayoti, kechinmalari muammolarini chuqur falsafiy mushohada etishi, teran ifodalashi bilan e'tiborni jalb etadi.

XX asr Xitoy adabiyoti ham o'zining ko'plab serqirra ijodkorlari bilan jahon adabiy harakatchiligida munosib o'rin tutadi. Ayniqsa, bunda

Lui Sin (1881-1936)ning «Adashganlar», «Yovvoyi o‘tlar», «Issiq shamol», Mao Dun (1896-1981)ning chuqur ijtimoiy mohiyat kasb etgan asarlari alohida e‘tiborga loyiq.

Hindistonning mashhur gumanist adibi Robindranat Togor asarlarida esa chin vatanparvarlik, hind xalqining milliy ozodlik kurashi g‘oyalari to‘la ma’noda aks etgan. Uning «Tog‘», «Uy va dunyo», «Sivilizatsiya inqirozi» romanlari xuddi shu ruhda bitilgan. Hindistonning yana bir adibi va kino rejissori Xo‘ja Ahmad Abbos yaratgan «Ertangi kun bizniki», «Janob 420», «Uch dengiz osha sayohat» kinossenariylari va ular asosida yaratilgan filmlar haqqoniyliги, hayotiyliги bilan bugungi avlod kishi-larini ham o‘ziga maftun etadi, qalbini zabt etadi. Xuddi mana shu umum-insoniy g‘oyalar, qarashlar ruhi XX asrning boshqa ko‘plab atoqli san‘at namoyandalari ijodiga ham to‘la taalluqlidir.

Endi XX asr san‘ati, uning turli-tuman janrlari, yo‘nalishlari to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, bunda shu davrga kelib badiiy tafakkur va san‘atning rivoji uchun behad keng imkoniyatlar ochilib borganliги ko‘zga tashlanadi. Avvalo, kommunikatsiya vositalarining kengayib borishi, radio va televideniyaning hayotga kirib kelishi, kinoning yaratilishi hamda kinoindustriyaning muttasil taraqqiy etishi, fotografiyaning ixtiro etilishi, ovoz sozlagich va ovoz kuchaytirgich vositalarining yaratilib, mukammallashib borishi – bular pirovard oqibatda san‘at va uning ko‘p sonli janrlari rivojiga chinakam yangi nafas bag‘ishladi, ularning ko‘rsatuv, eshittiruv va uzatuv vositalarini yanada kuchaytirib yubordi.

Teatr san‘ati rivoji bunda alohida o‘rin tutdi. Bu san‘at bobida o‘ziga xos Yevropa, Rossiya, Xitoy, Amerika maktablari vujudga keldi. Bu sohaning betakror ovoz sohiblari, noyob iste’dodlari yetishib chiqib jahon miqyosida e‘tirof topdilar. Jumladan, AQShning «Metropolitan — opera», «Brodvey», Xitoyning Pekin va Shanxay maktablari va boshqalarning dovrug‘i bunga yaqqol dalolatdir.

Rus teatrining faxri sanalgan A.Stanislavskiy, Nemirovich Danchenko, Lyubov Orlova, Nona Gondureva, Lyudmila Zikina, Galina Ulanova, Maya Plesetskaya, Sofiya Rotaru, Milanning «La-Skala» teatri yulduzlari – Mariya Kollas, Monserrit Kabale, Sofiya Loren va boshqalarning ijrochilik mahorati haqli ravishda teatr san‘atining buyuk yutuqlari bo‘lib qoldi. AQShning teatr hayotida XX asr 40-50-yillarida faqat Nyu-Yorkning Brodveyi bu sohaning asosiy markazi hisoblansa, 60-70-yillarga kelib uning geografiyasi kengayib, Minnepolsda «Gatri-teatr», Xyustonda «Elley-teatri», San-Fransiskoda «Amerika konservatoriya teatri» faoliyat ko‘rsata boshladi. Shuningdek, Amerika teatri janrining o‘ziga xos ko‘rini-

shi bo‘lgan myuzikl¹ hayotga faol kirib bordi. 1959-yildan o‘z faoliyatini boshlagan Xitoy balet maktabi ham qisqa muddat ichida jiddiy muvafaqqiyatlarga erishdi. Unda jahon klassikasining shoh asarlari— «Oqqush ko‘li», «Bog‘chasaroy fontani», «Dengiz qaroqchisi», «Jizel» baletlari yuksak mahorat bilan o‘ynalib kelinmoqda.

Musiqqa san’ati ravnaqiga jiddiy hissa qo‘shgan mashhur bastakorlar nomini tilga olar ekanmiz, bunda Sergey Raxmaninov (1873-1943), Sergey Prokofev (1890-1953), Dmitriy Shostakevich (1906-1975), Aram Xachaturyan (1903-1978), Yuriy Sviridov (1915), Uzeir Gadjibekov (1885-1948), Kara Karayev va boshqalar ijodi alohida o‘rin tutadi. S.Raxmaninovning uchinchi simfoniyasi, «Marhumlar oroli» musiqali poemasi, S.Prokofevning «Urush va tinchlik», «Romeo va Juletta» musiqali asarlari, shuningdek, Shostakevich ijodiga mansub «Katerina Izmaylova» operasi, 15-simfoniyasi, Xachaturyanning «Spartak», «Gayane» baletlari, uchinchi simfoniyasi, Sviridovning «Chaqmoqlar» musiqali dramasi, «Sergey Yesenin xotirasi» vokal simfonik poemasi, Gadjibekov yaratgan «Ko‘ro‘g‘li», «Layli va Majnun», operalari, Karayevning «Vatan» operasi, «Yetti go‘zal» baletlari – bular mohiyatan chuqur insoniy tuyg‘ularni, his-hayajonlarni realistik ruhda tasvirlab bera olganligi bilan mangulikka daxldor asarlardir.

San’at janrlari haqida gap borganda **sirk san’ati** va uning o‘ziga xos muhim xususiyatlariga alohida urg‘u berib o‘tmasdan bo‘lmaydi. Ayniqsa, bunda Rossiya va Xitoy maktablari, ularning salmoqli yutuqlari to‘g‘risida fikr yuritish lozim bo‘ladi. Xususan, Rossiya sirk tarixi va uning taraqqiyotida Durovlar va Kiolar sulolasi xizmati g‘oyat kattadir. Anatoliy Durov (1863-1934) asos solgan sulola butun asr davomida turli-tuman jonivorlarni, shu jumladan, yirtqich hayvonlarni ham qo‘lga o‘rgatib, ular ishtirokida muttasil qiziqarli mashqlarni bajartirib kelayotganligi tahsinga sazovordir. Emil Kio (1894-1955) asos solgan sulola esa illyuzion sirk ko‘rsatuvlari bobida favqulodda topqirligi va ijodkorligi bilan dunyo miqyosida shuhrat qozongan.

Xitoy sirkining muhim tarkibiy qismi sanalgan akrobatik guruhlar faoliyati ayniqsa rivoj topgan. So‘nggi 30 yillar davomida 100 dan ortiq mamlakatlarda Xitoy akrobatlari o‘z yuksak mahoratlari bilan millionlab tomoshabinlar mehrini qozondilar.

XX asrning mashhur sahna ustalari to‘g‘risida gap borganda, o‘z san’ati sehri va jozibasi bilan behisob insonlar qalbi-dilini jo etib, ularning mehrini qozongan Galina Ulanova, Maya Plesetskaya, Malika Sobirova singari balerinalar, Mariya Kollas, Sofiya Loren, Monsarit Kobale, Lyudmila

¹ San’at asarini keng ko‘lamli manzara ko‘rinishida shov-shuvli qilib, jonli va hayajonli tarzda ifodalash usuli.

Zikina singari iste'dod sohiblari nomlarini alohida tilga olib o'tmoqlik joiz bo'ladi.

XX asrning insoniyat ma'naviy hayoti uchun keltirgan benihoya katta yutuqlaridan biri bu, shubhasiz, **kino san'atining** yangidan vujudga kelib, yuksak parvozlar sari ko'tarilib borayotganligidir. Umuman o'tgan asrning 20-yillariga kelib odamzodning afsonaviy kino olamiga ro'para kelishi, undan bahra olib, o'z ma'naviy-ruhiy hayotini boyitib boriishi tom ma'noda katta tarixiy voqea bo'ldi. Kino o'zining ustuvor mavqeyini hamon saqlagan holda odamlarga olam-olam shavqu-zavq, ruhiy kayfiyat baxsh etib kelmoqda. Jahon kinosi yulduzlaridan Charli Chaplin yoki Hindiston kino yulduzlari: Raj Kapur, Fotima Rashid (Nargiz), Xemma Malini, Dxarmendra; rus kino ustalari: Lyubov Orlova, Yuriy Nikulin, Oleg Tabakov, Vyacheslav Tixonov; italiyalik Andreono Chelentano; fransiyalik Alen Delon, Jan Pol Belmondo, Pyer Rishar; amerikalik Joys Nikols, Arnold Shvartsnigger, Elizabet Teylor, Djulia Roberts, turkiyalik Turkan Shoray va shu singari o'nlab mashhur kino yulduzlarini kim ham bilmaydi deysiz. Masalan, Chaplinning gumanizm va antifashizm yo'nalishlarida yaratilgan kinokomediyalarda o'ynagan betakror rollari («Oltin vasvasasi», «Yangi zamonlar», «Katta shahar chiroqlari», «Buyuk diktator») uning nomini butun dunyoga tanitdi. Rus kinosi asoschilaridan Sergey Eyzenshteynning «Brononosets Potemkin» kinoepopeyasi, «Aleksandr Nevskiy», «Ivan Grozniy» filmlari o'zining realligi, insoniy qismatlarni haqqoniy aks ettirganligi bilan jahon kinosi oltin fondidan munosib o'rin olgan. Shuningdek, Hind kinosi ustasi Raj Kapur ijodiga mansub «Daydi», «Janob-420», «Mening ismim masxaraboz», «Bobbi» singari kinofilmlar ham allaqachon jahon kinosi klassikasiga aylanib ketgan. Kino san'ati o'zining jozibador, rangin tasviri, hayotbaxsh insonparvarlik g'oyalari tarannumi bilan bugun ham insoniyatga, uning ma'naviy olamini boyitishga benazir xizmat qilib kelmoqda.

XX asr **tasviriy san'ati** to'g'risida gap borganda mashhur fransuz rassomi Pablo Pikasso, ispan rassomi Salvador Dali ijodlari har jihatdan e'tiborga arziqlidir. Jumladan, Pikasso ijodida odamlar hayotining turli ko'rinishlari haqqoniy ifodalanganligini kuzatsa bo'ladi. Uning asarlari katta ijtimoiy ma'no, mohiyat kasb etadi. Bunga misol tariqasida «Genetika» (1937), «Dunyo kabutari» (1947) asarlarini keltirib o'tish mumkin. U grafik, haykaltarosh sifatida ham mashhurdir. Xuddi shuningdek, Salvador Dali ijodida ham XX asr hayotining ko'plab dolzarb muammolari u yoki bu darajada o'z yechimini topgan. Xususan, rassomning «Urushning qiyofasi», «Yadro qismati», «Gitlarning mo'ljali» kabi mashhur

polotnolari bu jihatdan xarakterlidir. Uning «Zirofa» surati ham realligi, g'oyatda ajabtovurligi bilan tomoshabin diqqatini jalb qiladi. Bu ham tasviriy san'atning katta joziba va ta'sir kuchidan yaqqol dalolatdir.

Me'morchilik. Ilmiy texnika inqilobi, yangidan topilgan yohud kimyoviy sintez usullari bilan hosil qilingan tabiiy va su'niy ma'danlar, moddalarning sanoat va qurilishda keng qo'llanilishi, shubhasiz, arxitektura va me'morchilikni sifat jihatdan yangi bosqichlarga ko'tarish imkonini yaratdi. Inshootlar qurilishida temir-beton konstruksiyalardan, organik va rangli yaxlit oynalardan keng foydalanish ko'plab yuksakka bo'y cho'zgan osmono'par binolarning bunyod etilishiga olib keldi. Nyu-York shahridagi BMT binosi, Moskvadagi sobiq o'zaro iqtisodiy yordam kengashi, MDU binolari va shuningdek, Bryussel, London, Pekin, Shanxay, Tokio, Singapur singari dunyoning yirik shaharlarida salobat to'kib turgan baland, ko'rkam oynaband binolar buning yorqin misolidir. Yangicha dizaynda qad rostlagan qancha-qanchalab zamonaviy sport inshootlari, madaniy-maishiy maskanlar, san'at koshonalari, yaxlit temir beton ko'priklar – bular barchasi hozirgi davr memorchiligining, shubhasiz, ajoyib yutug'idir.

Jahon shaharsozligining yuksak namunalarini o'zida aks ettirgan, yurtimiz qiyofasiga yuksak salobat bag'ishlab turgan ulug'vor me'moriy inshootlar sirasiga mustaqillik yillarida poytaxtimizda va viloyatlarda bunyod etilgan bir-biridan go'zal, betakror ko'plab muzeylar, ziyoratgoh qadamjolar, sport majmualari, bozor rastalari, monumental haykallar, ajoyib ko'priklarni nisbat bersa bo'ladi.

XX asr boshlaridan e'tiboran san'at ijodkorlari orasida turli xil yangi yo'nalishlar paydo bo'ldiki, ular o'z ijodida o'ziga xos mazmun, qarashlar va g'oyalarni ifodalay boshladi. Shu tariqa, asr boshlarida «modernizm» ya'ni «yangi san'at», «badiiy avangard» nomlari bilan atalgan badiiy yo'nalishlar yuzaga kela bordi. Amerikalik mutaxassis Orteganning fikricha, yangi san'at ijodkorlari san'atning noan'anaviyligi, noommaviyligini ko'proq ko'rsatishga intildilar. Ular erkin ijod tarafdori edilar. Darvoqe, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yangi badiiy uslub - arxitektura, dizayn, amaliy san'at bilan bog'liq holda modern (yangilik ma'nosida), avangard oqimlari vujudga keldi.

Fransiyada XX asr boshida vujudga kelgan badiiy avangardning bir yo'nalishi – **Ekspressionizmdir.** U ekspressiya so'zidan olingan bo'lib, ta'sirchanlik, hayajonlilik ma'nosini bildiradi. Bu yo'nalish san'atkorlarni qurshab olgan voqelik xususida o'z hissiyotlari, fikrlarini ifodalashdir. Ekspressionizmning muhim, ajralib turuvchi xususiyati - badiiy

usullarning muayyan tizimida faoliyat yuritish emas, balki hozirgi dunyodagi inson ahvolini mumkin qadar hayajonli, dramatik ko‘rinishlarda tasvirlashdan iboratdir. Ularning fikricha, hozirgi ijtimoiy tizimlar mazmunan va mohiyatan insonga ziddir. Ijtimoiy tizim, davlat, iqtisodiyot, sotsial institutlar o‘z qonunlari bilan yashaydi. Ularda inson individiga g‘amxo‘rlik qilishga imkoniyat yetishmaydi. Ular ijodiyoti uchun ofat keltiruvchi ijtimoiy fojialar, falokat manbai – jahon urushlari, totalitar rejimlar, ekologik ofatlarni his etish ko‘proq xosdir.

Avangard yo‘nalishining yana bir turi bu **syurrealizmdir**. U fransuzcha termin bo‘lib, o‘ta realizm ma‘nosidadir. U XX asrning 20-yillarida Fransiyada shakllandi. Bu oqim rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino sohalarida ko‘proq o‘rin oldi. Syurrealizm fransuz rassomi Salvador Dali va boshqalarning ijodida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, Pikasso ijodida odamlar hayotining turli jihatlari «o‘ta real» tarzda haqqoniy ifodalanganligini kuzatish mumkin. Rassomning «Sharq qizi» (1905) asari buning ayni isbotidir. Syurrealizm tarafdorlari ijodida asl manzara, borliqni ko‘proq o‘ziga mos talqinda aks ettirishga intilish ustuvordir. Syurrealizm tarafdorlari talqinicha, san’atkor o‘z ijodida ruh erkinligini amalga oshirish sari doimiy intilishi kerak bo‘ladi. Syurrealistlar san’atkor erkinligiga har xil andozalar va badiiy shart-talablar halaqit beradi, deb hisoblab, sahna asarlarida kadrlarning bir-biri bilan mantiqsiz bog‘lanishini, aql-zakovatdan chetga chiqishni «haqiqiy reallik» sifatida tan oladilar. Ularning ijodi samara bermadi.

San’atda XX asrning birinchi choragida vujudga kelgan yana bir yangi oqim – bu **kubizmdir** (kub so‘zidan kelib chiqqan). Bu oqim realizmga qarama-qarshi o‘laroq borliqni ko‘proq geometrik hajm (kub, shar, silindr, konus) shakllarda tasvirlashga intiladi. Bu oqimning yaratilishiga katta ta’sir ko‘rsatgan Pikasso ijodida kubizmning hissiy obrazli xususiyatlari ko‘zga tashlanadi. Realist rassomlar kubizm ta’sirini yengib o‘tdi.

XX asr 70-yillarida yana bir oqim – **Postmodernizm** vujudga keldi. U modernizmdan keyingi ma‘noni bildiradi. Bunda san’atkorlar odatda ommaviy janrlarga, masalan, didaktik, komediya, melodrammalarga murojaat qilish, ular vositasida ommani qiziqtirgan, ularning diqqat-e’tiborini tortgan syujet-mazmundan foydalanishga harakat etadilar. Ayniqsa, bu o‘rinda kino, teatr imkoniyatlaridan kengroq foydalanish alohida o‘rin tutadi. Postmodern san’atiga oid asarlarda asosiy e’tibor bevosita san’atning o‘ziga qaratiladi. Xususan, san’atda inson o‘z erkinligi, o‘z ijodiy betakrorligi, o‘z ma’naviyatini to‘la namoyon eta bilishi kerak bo‘ladi. Shu ma’noda san’at nafaqat o‘z ijodkorini, balki shuningdek, san’atning bar-

cha muxlislarini ham ulugʻlaydi. Postmodernizm da, uning tarafdorlari fikricha, sanʼat oʻziga qaytadi. Shu maʼnoda sanʼatning maftunkor qudrati va uning hayotbaxsh tasviri oʻzini toʻla namoyon etib, odamlarga quvonch va shodlik baxsh eta oladi.

8.3. Sovet davrida, Oʻzbekistonda madaniy hayot

XX asr sovet davri madaniyatiga nazar tashlar ekanmiz, bunda sovetlarning sotsializm va kommunizm qurishga moʻljallangan, uzoqqa qaratilgan keng qamrovli faoliyatida madaniy qurilish masalalari ham muhim oʻrin tutganligi shubhasiz. Negaki, yangi kommunistik jamiyat yaratishdek «ulugʻvor maqsad»ga erishishda bu sohaning barcha oʻtkir, dolzarb vazifalarini hal etish alohida ahamiyat kasb etardi. Shu bois sotsialistik taʼlim tizimini yaratish, ilm-fanni oʻstirish, adabiyot va sanʼatni rivojlantirish, koʻp sonli ziyoli kadrlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish sovet mutasaddilari oldida turgan shunday muhim vazifalar sirasiga kirardi. Ular kompartiya taʼlimoti va dasturulamal koʻrsatmalaridan kelib chiqib, bu vazifalar-u masalalarni amalga oshirishga kirishar ekanlar, bunda ijtimoiy hayotning barcha jarayonlarida kommunistik gʻoyalar taʼsiri va bosimini butun choralar bilan kuchaytirishga asosiy eʼtibor qaratdilar. Bu esa oxir-oqibatda sovetlar yuritgan madaniy siyosatning butun borishi, mazmun, mundarijasiga, ijodkor ziyolilar, milliy kadrlarning hayoti va qismatiga oʻzining jiddiy salbiy taʼsirini oʻtkazmay qolmadi. Buning yorqin ifodasi hukmron Markazga butunlay, tobe boʻlib qolgan Oʻzbekiston va uning xalqi timsolida toʻla namoyon boʻldi. Yuzadan qaraganda, sovetlar va ularning koʻp sonli mutasaddilari gʻoyatda ustamonlik bilan siyosat yuritib, avval boshda Oʻzbekistonda madaniy qurilishga alohida urgʻu berib, xalq taʼlimi, jumladan, oliy taʼlimni rivojlantirish, ilm-u urfonni ravnag toptirish, bu jabhalarga mahalliy xalq farzandlarini koʻproq jalb etish, koʻplab madaniy muassasalarni barpo qilishga ragʻbat koʻrsatdilar. Shu maqsadlarda 20-30-yillarda respublika hududida koʻplab taʼlim maskanlari, oliy oʻquv yurtlari, ilm-fan oʻchoqlari, madaniyat, sanʼat koshonalarini bunyod topdi. Ular orqali ming-minglab yurt fuqarolari, avvalo, yosh avlod namoyandalari yetuk ilmi, bilimli kadrlar boʻlib yetishib bordilar. Ziyoli kadrlarning yangi avlodi shakllandi. Bu esa respublikaning ilmiy, maʼnaviy salohiyatining oʻsishiga muhim turtki boʻlib xizmat qildi. Shu oʻrinda XX asr 30-yillaridayoq ilm-fan sohasida shuhrat qozongan Qori Niyoziy, A.Avloniy, A.Saʼdiy, P.Soliyev, Ya. Gʻulomov, H.Abdullayev yohud adabiyotimiz va sanʼatimiz iftixorlari sifatida tanilgan Hamza, S.Ayniy, A.Qodiriy, A.Fitrat, A.Choʻlpon, U.Nosir, Oybek, Gʻ.Gʻulom, M.Uy-

g'ur, E.Bobojonov, A.Hidoyatov, A.Bakirov, X.Nosirova, S.Eshonto'ra-yeva, M.Turg'unboyeva, Tamaraxonim nomlarini alohida tilga olib o'tish joiz bo'ladi. Bu davrda yaratilgan «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», «Kecha va kunduz», «Qutlug' qon», «Sarob», «Qullar» romanlari, iste'dodli shoirlarimiz she'riyati durdonalari, shuningdek, «Farxod va Shirin», «Layli va Majnun», «Gulsara», «Bo'ron» singari mashhur sahna asarlari yoki «Asal», «Qasam», «Ravot qashqirlari», «Azamat» singari ilk kino-filmlar – bular o'zbek madaniy-ma'naviy hayotida muhim voqea bo'lgan edi. Negaki, ularda, bir tomondan, yurtimizning boy tarixiy o'tmishi, u bilan bog'liq yorqin voqealar, jonli hayotiy lavhalar, qolaversa, xalqimizning betimsol qadriyatlari, udumu-an'analari, ikkinchi tomondan esa, yangi davrning o'ziga xos manzarasi, zamondoshlarning asriy orzu, armonlari, maqsad, intilishlari katta mahorat bilan tasvirlab berilgan edi. Biroq bu jarayon uzoq davom etolmadi. Tez orada sovetlar mamlakatida avj olib ketgan mash'um qatag'onlik mavsumi yurtning ko'plab iste'dod sohiblari hayoti va qismatiga o'z asoratli ta'sirini o'tkazmay qoldi. Buning natijasida ilmiy salohiyati, ijodi barq urgan ne-ne vatanparvar ziyolilarimiz hukmron tuzum bosimiga uchrab, asossiz tuhmat-u bo'htonlar bilan ayblanib, qatag'onlikka duchor etildilar. Millatimiz faxri va g'ururi sanalgan A.Qodiriy, A.Fitrat, A.Cho'lpon, U.Nosir, Elbek, M.Botu, O.Hoshim, G'.Yunus, Munavvarqori, P.Soliyev singari ko'plab favqulodda iste'dod sohiblari battol tuzum qurbonlari bo'ldilar.

Sovet hokimiyatining ijod ahliga nisbatan bosimi keyinchalik ham vaqti-vaqti bilan amalga oshirib borildi. Buning ifodasi o'laroq 40-50-yillar boshlarida uyushtirilgan mafkuraviy tazyiq natijasida ko'plab iste'dodli ijodkor ziyolilarimizdan M.Oybek, M.Shayxzoda, M.Ismoiliy, S.Ahmad, Shukrullo va boshqalar yangidan qatag'onlik azobiga uchrab, ne xil balo-yu kulfatlarni boshdan kechirmadilar.

Kezi kelganda shuni aytish joizki, ilmu ma'rifat, adabiyot va san'atga oshuftalik bizga ulug' bobolarimiz qon tomirlaridan o'tib, azaliy qadriyat sanalib kelinganligidan, urushdan keyingi o'nyilliklar davomida ham respublikamizning ma'naviy-madaniy hayoti nisbatan sezilarli maromda kechdi. Jumladan, kommunistik mafkura ta'siri va tazyiqiga qaramay, xalq ta'limi tizimi muayyan murakkabliklar bilan bog'liq holda rivojlanib bordi. 50-yillarda bu tizimda bir qator islohiy o'zgarishlar qilindi. Umumiy o'rta ta'limga o'tila boshlandi. 1965-1985-yillarda xalq ta'limida 5,7 mln. nafar yoshlar ta'lim oldi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari soni ham yil sayin o'sib bordi. 1960-yillarda ularning soni 42 taga yetdi va xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ko'plab yuqori malakali kadrlar tay-

yorlab berdi. O'rta maxsus ta'lim muassasalari soni 1985-yilda 249 tani tashkil qildi. Ular orqali 1965-1985-yillarda 1 mln. 135 ming nafar kadrlar tayyorlandi.

Respublika ilm-fani ham asta-sekin rivojlanib bordi. 1958-yilda Toshkentda birinchi atom reaktori qurilib ishga tushirildi. O'zbek olimlarining quyosh nurlaridan foydalanish bobida yaratgan noyob kashfiyotlari jahonda e'tirof topdi. Geolog olimlarimiz topgan neft, gaz, oltin, volfram, simob, qo'rg'oshin kabi qimmatli ma'dan konlari – bu geologiya-mineralogiya fanining ulkan yutuqlari bo'lgan edi.

O'zbek olimlarining qishloq xo'jaligi, kimyo, tibbiyot, mikrobiologiya, kibernetika, elektronika, seysmologiya singari fanlar rivoji borasidagi kashfiyotlari ham jahon ilmiy jamoatchiligi e'tirofiga sazovor bo'ldi. Respublikada o'z ilmiy maktabini yaratgan T.N. Qori Niyoziy, H. Abdullayev, O. Akramxo'jayev, I. Hamraboyev, G'. To'raqulov, V. Qobulov, H. Usmonov, J. Saidov, M. O'razboyev, H. Rahmatulin, S. Mirahmedov, Ya. G'ulomov, I. Mo'minov kabi mashhur olimlar yetishib chiqdi.

O'zbek adabiyoti va san'ati ham ularning turli janrlarida faoliyat ko'rsatgan adiblar, shoirlar, san'atkorlar ijodida ham ancha sezilarli yutuqlar, ijobiy o'zgarishlar yuz berganligi shubhasiz. Bunda taniqli adiblar M. Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, M. Shayxzoda, Uyg'un, P. Qodirov, E. Vohidov, A. Oripov, O. Matchon, B. Boyqobilov, H. Xudoyberdiyeva, O. Xojiyeva va boshqalarning mohiyatan xalqchil, realistik ruhda yozilgan asarlari alohida ko'zga tashlanib turadi. Bular jumlasiga Oybekning «Oltin vodiyan shabadalar», A. Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari», M. Shayxzodaning «Toshkentnoma», S. Ahmadning «Ufq», R. Fayziyning «Hazrati inson», A. Muxtorning «Davr mening taqdirimda», O. Yoqubovning «Diyonat» singari asarlarini nisbat berish mumkin.

O'zbek tasviriy san'ati namoyandalari - U. Tansiqboyev, Ch. Ahmarov, M. Nabiyev, R. Usmonov, A. Abdullayev, L. Abdullayev, V. Kaydalov, R. Choriyev va boshqalarning mo'yqalamiga mansub asarlar o'zining haqqoniyligi, realistik tasviri bilan ajralib turadi.

O'zbek sirki dovrug'ini olamga taratishda Toshkenboyevlar, Zaripovlar, Xo'jayevlar sulolalari vakillarining katta xizmati va mahorati benazirdir.

Sovetlarning har qanday mafkuraviy tazyiqiga qaramay, o'zbek musiqa madaniyati o'ziga yo'l topib, rivojlanishda davom etdi. Yurt san'atkorlari milliy mumtoz musiqa san'atini rivojlantirishga, qo'shiqchilik, raqs va boshqa janrlar faoliyatini yaxshilashga butun choralar bilan harakat etdilar. **O'zbek teatri san'atida** A. Hidoyatov, Sh. Burhonov, O. Xo'jayev, R. Hamroyev, S. Xo'jayev, Z. Muhammadjonov, Yo. Ahmedov, S. Qo-

bulova, G.Izmaylova, L.Sarimsoqova, B.Qoriyeva, **bastakorlik san'atida** Yu.Rajabiy, T.Jalilov, M.Ashrafiy, I.Ikromov, S.Kalonov, T.Sodiqov, M.Burhonov, K.Otaniyozov, G'.Toshmatov, **milliy qo'shiqchilik san'atida** J.Sultonov, M.Uzoqov, V.Fayozov, M.Ahmedov, T.Qodirov, K.Rahimov, F.Umarov, O.Xotamov, Yu.Usmonova, H.Oxunova, N.Ahmedova, N.Yusupova, M.Yo'lchiyeva, M.Dadaboyeva, M.Razzoqova singarilarning betakror ijodi ayricha ahamiyat kasb etadi. Ularning chinakam xalq ruhi, uning orzu, armonlari, dil ehtiyojlari bilan uyg'unlashib ketgan ijodi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, xalq dahosining qudratiga yana bir bor tan beramiz. Shu o'rinda mashhur bastakor, akademik Yunus Rajabiyning necha asrlar davomida yaratilgan, xalq dahosining o'lmas namunalari sanalgan boy, betakror mumtoz musiqa merosimiz bisotlarini jamlab, ularni ko'p jildli asarlar holiga keltirib, hozirgi va kelgusi avlodlarga armug'on etishdagi buyuk xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tmoqlik joiz bo'ladi. Bu davrda yaratilgan «Sen yetim emassan», «Mahallada duv-duv gap», «Maftuningman», «O'tgan kunlar» singari kinofilmlarda katta ijtimoiy-hayotiy voqealar keng rejada, chuqur realistik asosda, yorqin badiiy tasvirlarda yoritib berilganligi alohida e'tiborga molikdir.

Biroq shuni taassuf bilan ta'kidlash joizki, xalqimizning sovetlar davri madaniyati, uning turli-tuman sohalari, janrlari ko'p hollarda hukmron tuzum bosimiga uchrab keldi. Tabiiyki, bu narsa madaniy-ma'naviy hayotimizga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Xususan, xalq ta'limining mazmun-mundarijasini ko'zdan kechirarkanmiz, unda kommunistik mafkura ta'siri yaqqol sezilib turadi. Chunonchi, butun Sobiq ittifoq mamlakati o'quvchilari uchun zarur bo'lgan hamma o'quv dasturlari, darslik, qo'llanmalar va boshqa o'quv jihozlarining faqat Markazda tayyorlanib, u yerdan yuborilishi faktining o'zi ham bunga ishonchli dalildir. Bunda, xususan milliy hududlarning o'ziga xoslik xususiyatlari, milliylik jihatlari, mentaliteti mutlaqo inobatga olinmasdi. Bu hol oliy ta'lim sohasiga ham birdek taalluqlidir. Shu bilan birlikda kadrlar tayyorlashda son jihatdan quvulib, uning sifatiga yetarli e'tibor berilmasdi. Buning ustiga o'quv rejalari va dasturlarini bot-bot o'zgartirish amaliyoti ham bu tizimning barqarorlashuvidan ko'ra ko'proq beqarorlashib borishiga sabab bo'lgandi.

Sovetlar davrida kechgan respublika ilm-fani, uning ko'p sonli xodimlari faoliyatida ham mavjud hukmron tuzum bosimi katta bo'lgan. Buning orqasida olimlarning ko'p yillik izlanishlari samarasi hisoblangan qanchalab muhim kashfiyotlar, ixtirolar Moskva nazariga tushmay, uning ma'qullashini kutib bir chetda qolib keta bergan. So'ngra yurti-

mizda o‘z ilmiy maktabini yaratgan ko‘plab taniqli ilm sohiblari ham sobiq ilm markazi – SSSR FAsi tomonidan e’tirof topmay kelinganligi ham sovetlar yuritgan siyosatning real ifodasidir.

Respublika ijod ahli ham doimiy ravishda hukmron tuzum siyosati va mafkurasi talablari va yo‘l-yo‘riqlarini bajarishga majbur etilib keldi. Bu esa sovet davrida yaratilgan asarlarda qanday g‘oyalar, qarashlar o‘rin olgan edi, degan savol javobini osonlashtiradi, albatta. Shuningdek, ko‘pchilik adibu shoirlar sinfiylik, partiyaviylik va mafkuraviylik nuqtayi nazaridan kelib chiqib mavjud sovet voqeligini, uning «beqiyos afzalliklari»ni, insonlarga yaratib bergan imkoniyatlarini ulug‘lash, maqtashga majbur bo‘lganlar. Biroq E.Vohidov, A.Oripov, P.Qodirov singari anchagina dovyurak ijodkorlar ham bo‘lganki, ular o‘zlari uchun har qanday noqulay, qaltis vaziyatlarda ham fuqarolik pozitsiyalarida sobit turib, o‘z vijdoni, diyonatiga xiyonat qilmay haqiqat so‘zlarini barala ayta olganlar. Tuzum zulmkorlari o‘zbek xalqining ma’naviy hayotini qanchalik alg‘ov-dalg‘ov qilishga urinmasin, uning ne-ne azaliy milliy-ma’naviy qadriyatlarini zavol toptirishga yeng shimarmasinlar, biroq ular bu borada ko‘zlangan g‘arazli maqsad-muddaolariga erisha olmadilar. O‘z ulug‘ajdodlari sarchashmalaridan hamisha uzilmay, ulardan bahra olib, iligi to‘q holda yashab kelgan xalqimiz o‘zligini, asl milliy qiyofasini saqlab qola oldi. Shu narsa, shu muqaddas tuyg‘u uning yurt istiqloli sari qat’iy harakatlanishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar

1. XX asr ilm-fanining tezkor rivojini ta’minlagan muhim omillar sirasiga nimalarni nisbat bersa bo‘ladi?
2. XX asr taniqli olimlaridan kimlarni tilga olsa bo‘ladi?
3. XX asrning mashhur adiblaridan kimlarning roli va xizmatlari alohida o‘rin tutadi?
4. XX asr san’atining muhim turlari va janrlarini tasvirlab bering.
5. Jahonning atoqli teatr artistlaridan kimlarni alohida tilga olsa arziydi?
6. Asrning taniqli bastakorlari haqida so‘zlab bering.
7. Jahonning mashhur kino yulduzlari haqida fikrlaringiz?
8. Yangi avajgard oqimlar o‘rtasidagi farqlar nimalarda ko‘rinadi?
9. Syurrealizm oqimining o‘ziga xos jihatlari nimada?
10. Sovetlar davrida O‘zbekistonda ta’lim tizimining shakllanish va rivojlanish jarayoni qay tarzda kechgan?

11. O‘zbek ilm-fani arboblardan kimlarning nomlarini alohida tilga olsa bo‘ladi?

12. O‘zbekistonda kechgan adabiy-madaniy jarayon to‘g‘risida nimalar deya olasiz?

13. Qatag‘onlikka duchor etilgan adiblar nomini sanab o‘ting.

14. O‘zbek milliy ziyolilari nima uchun sovet mafkurasi tazyiqi va bosimiga duchor etildi?

15. Komfirqa va Markaz xalqimiz ma‘naviy hayotini nima uchun doimiy suratda tahqirlab keldi?

9-mavzu. Milliy istiqlol va O‘zbekistonda madaniy taraqqiyot

Reja

1. Milliy istiqlol davrida milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi.

2. Mustaqillik yillarida adabiyot, ta‘lim, tasviriy san‘at, me‘morchi-lik, teatr, musiqa, kino va televideniye san‘atlari ravnaqi.

3. Teatr, sirk, musiqa va qo‘shiqchilik san‘ati, muzey va sport taraqqiyoti.

Mustaqil o‘rganish uchun tavsiya etiladi

O‘zbekistonda milliy istiqlol davrida madaniyat taraqqiyoti.

Tayanch so‘z va iboralar

Ma‘naviy meros. Milliy qadriyatlar. Diniy qadriyatlar. Ta‘lim. Ba-
diiy adabiyot. Me‘morchi-lik. Amaliy san‘at. Kino. Teatr. Sirk. Musiqa.
Qo‘shiqchilik san‘ati. Muzey. Sport.

Asosiy adabiyotlar

Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.
Asarlar. T.1. –T.: “O‘zbekiston”, 1996, 76-85-betlar.

Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar. T.2. –T.:
“O‘zbekiston”, 1996.

Ахмедова Э., Габидуллин Р. Культурология. –Т., 2001.

Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug‘at. –Т., 1998.

O‘zbekiston san‘ati (1991-2001 yillar). –Т.: “Sharq”, 2001.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Aliyev A. Ma‘naviyat, qadriyat va badiiyat. –T.: “Akademiya”, 2000.

A.Ibrohimov v. b. Vatan tuyg‘usi. –T.: “O‘zbekiston”, 1996.

E.Gulmetov v. b. Madaniyatshunoslik. Ma‘ruzalar matni. –T., 2000, 160-178-betlar.

9.1. Milliy istiqlol davrida ma‘naviy meros, milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi

Jamiyat ma‘naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, biron-bir mamlakat o‘z ma‘naviy imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ma‘naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da‘vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasi, e‘tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli kuchdir.

Tarixdan ma‘lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma‘naviy merosi, urf-odatlar qadrsizlanishga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma‘naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko‘plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma‘naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Jamiyat ma‘naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta‘minlovchi ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi.

«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta‘minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma‘naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda».

I.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, T.1. 202-bet.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz ma'naviy merosini tiklash ishlari boshlanib ketdi.

Xo'sh, ma'naviy merosning o'zi nima, uning tiklanishi nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuyidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtayi nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'la boshladi.

Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyati yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan tarixiy sanalari YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi:

- 1991-yil – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
- 1992-yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
- 1993-yil – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1994-yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996-yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
- 1997-yil – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi;
- 1998-yil – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
- 1999-yil – «Alpomish» dostoni yaratilganining 1000 yilligi;
- 2000-yil – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi;
- 2000-yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001-yil – «Avesto» yaratilganligining 2700 yilligi.

Buyuk allomalarimiz yubileylari munosabati bilan ularning o'nlab noyob asarlari turli tillarda nashr etildi, ularga atab haykallar o'rnatildi, ziyoratgohlar, bog'lar yaratildi.

1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta’ sis etildi. Yubiley yilida «Lison ut-tayr», «Sab’ ai sayyor», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Hayrat-ul Abror» asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991-yil 28-sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Alisher Navoiy haykali va Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1994-yil oktabr oyida Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yillik yubileyi o‘tkazildi. Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug‘bek haykali aks etgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. O‘sha yil 24-oktabrda Parijda YUNESKO zalida «Ulug‘bek va Temuriylar davri» mavzusida Xalqaro konferensiya hamda «Ulug‘bek va an’anaviy san’at» ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug‘bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga molik ekanligini yana bir bor isbot etdi.

1998-yil 23-oktabrda Farg‘onada buyuk alloma Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi. Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg‘ona shahrida al-Farg‘oniy bog‘i yaratildi va buyuk allomaga haykal o‘rnatildi.

Tarixiy xotiraning tiklanishi. Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an’analar va muqaddas dinimizning o‘rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o‘quv maskanlarida Vatan tarixini o‘qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi. 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O‘zbekistonning yangi tarixi markazi» tashkil etildi.

O‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A. Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo‘lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorida belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o‘rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta’siridan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko‘rsa-

tilgan yoki soʻz yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va oʻquv adabiyotlari yaratildi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan Samarqand va Shahrisabzda oʻnlab tarixiy obidalar taʼmirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bogʻlar barpo etildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida koʻrkam Amir Temur maydonlari barpo etildi va ulugʻvor haykallar oʻrnatildi. Shuningdek, bu shaharlarga «Amir Temur» ordeni topshirildi.

1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 1999-yilda buyuk vatanparvar siymo Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yiligi nishonlandi. 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi.

Vatanimiz ozodligi yoʻlida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq ziyolilari nomi, hurmati oʻz joyiga qoʻyildi, asarlari nashr etildi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi bunyod etildi. Mazkur majmua qoshida «Qatagʻon qurbonlari xotirasi» muzeyi qurilib, 2002-yil 27 avgust kuni foydalanishga topshirildi.

Bu yodgorlik majmualari jamiyat maʼnaviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy gʻururni koʻtarishga hamda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida milliy istiqlol gʻoyalari shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi. Oʻzbek xalqining oʻziga xos milliy qadriyatlari bor. Oʻzbek xalqining shakllanishi qanchalik uzoq tarixiy jarayonda sodir boʻlgan boʻlsa, uning milliy qadriyatlari ham shunchalik uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan.

Qadriyatlar dastlab mahalliy mazmunda, yaʼni Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Fargʻona va hokazo hududlarda yashovchi elatlarga xos urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar tarzida shakllangan. Soʻngra ularning eng yaxshilari asrlar davomida saralanib, umum-milliy qadriyatlar darajasiga koʻtarilgan. Turli mamlakatlarga xos eng yaxshi qadriyatlar saralanib umuminsoniy qadriyatlarga aylanadi. Shu boisdan ham har bir inson uchun oʻz milliy qadriyatlarini, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarni bilish ham farz, ham qarzdur.

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi maʼno-mazmun bilan boyitish yoʻlida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi.

1994-yil 23 apreldagi Prezident farmoni asosida tashkil etilgan Respublika «Maʼnaviyat va maʼrifat» jamoatchilik markazi oʻzbek xalqining maʼnaviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan gʻoyalarni yuzaga chiqarish, yuksak isteʼdod va tafakkur sohiblarining

aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yoʻnaltirishga qaratilgan muhim tadbirlar, koʻrgazmalar tashkil etishni yoʻlga qoʻydi. Markaz tomonidan aholi orasida oʻtkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, soʻrovlar va shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy-axborot vositalarining maʼnaviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1996-yil yanvarda Respublika «Maʼnaviyat va maʼrifat» jamoatchilik markazi huzurida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamgʻarmasi tuzildi. 1996-yil 27-sentabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining «Oltin meros» xayriya jamgʻarmasini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida»gi qaroriga binoan mazkur jamgʻarma davlat tomonidan moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlandi.

«Oltin meros» xayriya jamgʻarmasi «Xalq merosi durdonalari» ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qoʻlyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy sanʼat namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, koʻrik tanlovlar oʻtkazish bilan shugʻullanmoqda. 1996-2002-yillarda «Oltin meros» jamgʻarmasi saʼy-harakatlari natijasida buyuk allomalarimizning koʻplab madaniy-maʼnaviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxonaga va muzeylarga joylashtirildi. Shuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini oʻrganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning maʼno-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qoʻshmoqda.

Diniy qadriyatlarning tiklanishi. Qadim zamonlardayoq yurtimizda din erkinligi mavjud boʻlgan. Zardushtiylar, buddiylar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy eʼtiqoddagilar inoqlikda yashagan, tenglik, erkinlik gʻoyalariga amal qilingan. Xalqimiz maʼnaviy jihatdan koʻpgina afzalliklarga ega boʻlgan islom dinini qadrlaydi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy islom dini taʼlimotida Qurʼoni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanuvchi «Al-Jomiʼ As-Sahih» nomli asar yaratib islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin al-Margʻinoniy, Bahovuddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Xoʻja Ahmad Yassaviylar insonni maʼnaviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlar ijodkoridirlar.

Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulugʻ nomi oʻz oʻrniga qoʻyildi.

1993-yil sentabrda Buxoroda mashhur shayx Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi nishonlandi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi

Naqshband nomi bilan bogʻliq tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bagʻishlangan qator risolalar chop etildi.

1998-yil 23-oktabrda Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy tavqim boʻyicha 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlogʻida Imom al-Buxoriy yodgorligi majmui ochildi. Yubiley munosabati bilan Ismoil al-Buxoriyning 4 jildlik «Al-Jomiʼ As-Sahih» kitobi oʻzbek tilida nashr etildi.

2000-yil 16-17-noyabr kunlari Margʻilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burxoniddin al-Margʻinoniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda Imom Abu Mansur al-Moturudiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bagʻishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burhoniddin al-Margʻinoniyning islom huquqiga bagʻishlangan «Hidoya» kitobi nashr etildi. Shuningdek, islom olamining taniqli allomalari Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi keng koʻlamda nishonlandi.

Oʻzbekiston Prezidentining 1992-yil 27-martdagi farmoni bilan Roʻza-Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb eʼlon qilindi. Respublika musulmonlarining istak va xohishlariga koʻra Qurbon hayiti ham tiklandi, dam olish, bayram kuni boʻlib qoldi. Oʻzbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega boʻldilar. Mustaqillik yillarida 40 ming oʻzbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida boʻldi. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. Hozir «Islom nuri» gazetasi chiqmoqda. Qurʼoni Karim 8 marta 1 mln. nusxada nashr etildi. Bu tadbirlar nafaqat dindorlar uchun qilingan marhamat boʻlib qolmay, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlari, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uygʻonishidir.

Prezidentning 1992-yil 7-martdagi farmoni bilan Islom dini va uning maʼnaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari boʻyicha qoʻmita tashkil etildi. Uning tasarrufida islom instituti va 10 ta madrasa faoliyat koʻrsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar taʼlim olmoqdalar. 1999-yilda tashkil etilgan Toshkent Islom universitetida 750 talaba oʻqimoqda. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va 1998-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida»gi qonunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 31-modda

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida din, eng avvalo, islom dinining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatidagi mavqeyi tiklandi, diniy ulamolarning qadr-qimmatini o'z joyiga qo'yildi.

O'zbek tili mavqeyining mustahkamlanishi. Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi asosiy ahamiyati va o'rnini qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasi 1995-yil 21 dekabrda yangi tahrirdagi «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. O'zbekistonda Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitobi, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari, geografik o'rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada o'zbek xalqining milliy qadr-qimmatini, mustaqil davlatimizning mavqeyi qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning tillari, qadr-qimmatini o'z o'rnini topdi.

9.2. Mustaqillik yillarida ta'lim, badiiy adabiyot, me'morchilik, amaliy san'at, kino va televideniye san'atlari ravnaqi

Ta'lim ravnaqi. Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekistonda maorif va madaniyat ishlarini eng muhim va dolzarb soha sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor berildi.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda 1991-1996-yillarda e'lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim tizimida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda «bolalar bog'chasi-maktab» majmuyi tarmog'i rivojlandi. Bolalarga chet tillarni, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kom-

pyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq guruh tashkil etildi.

«Sog'lom avlod uchun», «Iqtisodiy ta'lim», «Qishloq maktabi», «Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tiklash» va boshqa tarmoq dasturlari ishlab chiqildi hamda ta'lim jarayoniga tadbiriq etila bordi.

Oliy ta'lim sohasida ham ko'plab yangi o'quv yurtlari ochildi. 1992-yil 28-fevraldagi Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha yangi oliy o'quv yurtlari - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent Moliya instituti, Navoiy konchilik instituti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Andijon iqtisodiyot va boshqaruv instituti, Jizzax politexnika instituti, Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti hamda viloyatlarda yirik universitetlarning filiallari tashkil etildi. 1997-yil boshlarida Respublika Oliy ta'lim tizimida 58 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan 16 ta universitet va 42 ta institut faoliyat ko'rsatdi. Ularda 164 ming talaba o'qidi, 18,5 ming professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi.

Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etildi.

Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Ulug'bek», «Umid», Respublika bolalar fondi, «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Iste'dod» jamg'armalari tashkil etildi.

Ta'lim tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilsa-da, hali bu sohada jiddiy kamchiliklar mavjud edi.

Xususan, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash jamiyatda bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, bozor islohotlari talablari bilan bog'lanmagan edi. O'quv jarayonining moddiy texnika va axborot bazasi qoniqarsiz ahvolda edi. Ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv adabiyotlari va didaktik materiallar yetishmasdi. Yuqori malakali pedagoglar yetishmasdi. Maktab o'quvchilarida mustaqil fikr shakllantirilmayotgan edi.

Ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida hamkorlik, integratsiya o'rnatilmagandi. Kadrlar tayyorlashda marketing mavjud emasdi. Amaldagi ta'lim tizimi zamonaviy, taraqqiy topgan davlatlar darajasidan ancha orqada edi. Shu boisdan ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni isloh qilish yo'li ishlab chiqildi. Islom Karimov 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berildi.

1997-yil 29-avgust kuni Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi yangi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Birinchi bosqich (1997-2001-yillar) da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chiqariladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005-yillar) da Milliy dastur to'liq ro'yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001-yilda Milliy dasturni ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichi yakunlandi.

Islohotlarga mos ravishda maktabgacha ta'lim faoliyati tubdan o'zgardi. Xususiylar va xonadon bog'chalar tarmog'i kengaydi. Respublika bo'yicha 84 foiz maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasalarida, xo'jalik hisobidagi qisqa muddatli guruhlarda, maktablar qoshidagi tayyorlov guruhlari, savodxonlik va boshqa turdagi markazlarda amalga oshirilmoqda. 16 foizi esa oilalarda maktabga tayyorlanmoqda. 2001-2002-yillarda Respublikamizda 6742 ta maktab-

gacha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatdi, ularda 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi, 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston hukumati ta'limni rivojlantirish uchun katta mablag' ajratmoqda. Birgina 2001-yilda ta'lim xarajatlari davlat budjeti sarf-xarajatlarining 36 foizini tashkil etdi. Ta'lim uchun 150 mln. AQSH dollardan ziyod chet el investitsiyasi sarflandi. Ular yangi ta'lim binolari barpo etish, ularni eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va o'quv mebellari bilan jihozlash uchun sarflandi. Mustaqillik yillarida 848398 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan 2244 ta yangi umumta'lim maktab binolari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Respublikamizda 9661 umumta'lim maktablarida 6 millionga yaqin o'quvchi ta'lim-tarbiya olmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining birinchi bosqichi – 1997-2001-yillarda 216 ming o'quvchi o'rniga ega bo'lgan 44 ta akademik litsey va 291 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan: bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 1999-yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. 2001-2002-o'quv yilida 62 ta oliy o'quv yurtida 180 mingdan ortiq bo'lajak bakalavrlar va 5 mingdan ortiq magistrantlar ta'lim-tarbiya oldilar. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qildilar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati yuritilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biridir. 1997-yilda tashkil etilgan «Umid» jamg'armasi yo'llanmasi bilan 1997-2001-yillarda 785 nafar yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborildi. Ulardan 519 nafari bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan Maxsus ishchi guruhi yo'llanmasi asosida vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamoqda. 2002-yil iyulda Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi va 160 ta dastlabki talabalar qabul qilindi.

Ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnikaviy hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAYKO xalqaro tashkiloti, Koreyaning KOYKA agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TASSIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya,

Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi kengayib bormoqda. Ta'lim ravnaqi uchun 150 mln. AQSh dollari hajmida chet el investitsiyalari jalb etildi. Oliy o'quv yurtlarining yuzlab professor-o'qituvchilari «Ustoz» jamg'armasi yo'llanmasi bilan xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirib keldilar.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.Shukshunov O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «Ta'limning o'zbek modeli» deb e'tirof etildi.

Badiiy adabiyot. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Badiiy adabiyot rivojiga H.Karomatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti», O.Sharofiddinovning «Cho'lponni izlab», B.Qosimovning «Maslakdoshlar» asarlari ijobiy ta'sir etdi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M. Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarda mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etiladi.

Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar» badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», A.Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» she'riy asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Me'morchilik va amaliy san'at. O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'moriyatning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya etishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalarini, «O'zbekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «O'tchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «Qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek, «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bunga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'la oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiyev ijodiga mansub «Z.M. Bobur» (1993, Andijon), «Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999-yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Rahmatullayev va boshqalar) bunyod etildi.

O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi

ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyeu, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Kino san'ati. Mustaqillik yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996-yilda «O'zbekfilm» tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002-yillarda 60 ga yaqin badiiy filmlar yaratildi. «Temir xotin», «Dallol», «Sharif va Ma'rif», «Tilla bola», «Buyuk Amir Temur», «Yulduzingni ber, osmon», «Kenja singil» va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. 1997-yil 22-29-may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san'ati ustalari qatnashdi. «Buyuk Amir Temur» filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini – «Neksiya» avtomobili berildi.

Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli filmlar yaratildi. «O'zbekiston bahorlari», «Ulkan odim», «Ular Germaniyada o'qigan edilar», «O'zbekiston qahramonlari», «Umid qaldirg'ochi», «Istiqlol fidoyilari» va boshqalar shular jumlasidandir.

9.3. Teatr, sirk, musiqa, qo'shiqchilik san'ati, muzey va sport taraqqiyoti

Teatr. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi.

1993-yilda foydalanishga topshirilgan «Turkiston» saroyi Vatanimiz va xorijlik teatr arboblarning, ijodiy guruhlarining sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi «O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1998-yil 26-martdagi «O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida»gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda «O‘zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat his-sini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda bepul ajratilgan 47 mln. yen (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 36 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilyapti.

2001-yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e’tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o‘zbek davlat teatri «Buyuk ipak yo‘li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo‘ydi.

1997-yil oktabrda Toshkentda bo‘lib o‘tgan «Teatr: Sharq-G‘arb» xalqaro festivalda Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san’atkorlarining chiqishlari bo‘ldi. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlangan festivalda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O‘zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSh, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san’ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma’naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiqlol g‘oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek sirki. 1992-yilda «O‘zbekdavlat sirk» respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san’atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkent sirk zamonaviy talablar asosida qayta ta’mirlandi, unga O‘zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. An’anaviy sirk san’atining unitilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste’dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-sirk kolleji ochildi.

O‘zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo‘lgan respublikamiz sirk ustalari o‘zbek milliy sirk san’atini namoyish etdilar.

Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi «O‘zbekiston dorbozlari» guruhi 1996-yildan boshlab Yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo‘lib, 2000 dan ziyod tomosha ko‘rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo‘lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib «Plastik etyud» (besuyak o‘yini) janrida festivalning eng oliy mukofoti – oltin medalni qo‘lga kiritdi. 1998-yilda Toshkent sirkida iste’dodli yoshlarga ko‘maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

O‘zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida, 1999-yilda Saratov shahrida bo‘lib o‘tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvarda Belgiyaning Lej shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa sirklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o‘rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa’y-harakatlari natijasida O‘zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o‘rin egalladi.

Milliy musiqa va qo‘shiqchilik. Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma’rifiy ishlar respublika markazi», uning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san’atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko‘rik tanlovlar, festivallar tashkil etmoqdalar. 1992-yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlar», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo‘qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. 1994-yil may oyida Parijda bo‘lib o‘tgan «Sharq musiqasi» festivalida Munojot Yo‘lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atini jahonga namoyish etdilar.

1996-yil aprel oyida Turkiston saroyi, «Bahor» majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan «O‘zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi orqali xalq orasidan iste’dodli qo‘shiqchilarni iz-

lab topish va ko‘rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo‘shiqchilik san‘ati bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagi «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiqlar bayrami to‘g‘risida»gi farmoni qo‘shiqchilik san‘atini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. 1996-yilda o‘tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. Bunday ko‘rik tanlov har yili avgust oyida o‘tkaziladigan bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e‘zozlovchi yuzlab yangi qo‘shiqlar yaratildi. «O‘zbekiston – Vatanim manim», «Men seni sevaman, O‘zbekiston», «Vatan yagonadir», «Mustaqillik gullari», «Ona yurtim», «O‘zbekiston askarlari» qo‘shiqlari shular jumlasidandir.

1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori musiqa san‘atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo‘lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust – 2-sentabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan «Sharq taronalari» birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san‘atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o‘zbek ohanglari, kuy-qo‘shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o‘tkazish an‘ana tusini oldi.

O‘zbekistonda musiqa va qo‘shiqchilik san‘atini rivojiga har yili 31-avgust va 21-mart kunlari o‘tkazilayotgan Mustaqillik va Navro‘z kunlariga bag‘ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elat urf-odatlarini va an‘analari birdek rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda O‘zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy madaniy markazlar o‘z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug‘ullanib kelmoqdalar. Milliy madaniy markazlar qoshida milliy musiqa, raqs, hunar va boshqa yo‘nalishlardagi to‘garaklar tashkil etilgan.

1992-yilda turli milliy madaniy markazlarga ko‘maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarni jipslashtirish asosiy o‘rin tutmoqda. Har bir millatga mansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san‘at arboblari bag‘ishlangan yig‘ilishlar, ko‘rgaz-

malar tashkil etilmoqda. Milliy madaniy markazlar o'z faoliyati bilan respublikada madaniyat ravnaqiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Muzey. Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olim Hadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi singari uy muzeylari tashkil etildi. Shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lib qoldi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyim-boshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002-yilda Termizda Arxeologiya muzeyi bunyod etildi.

O'zbekiston Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998-yil 5-dekabrda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollari belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, «Oltin meros» jamg'armasi, Badiiy Akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olinadi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat byudjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvo-

fiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda «O'zbekmuzey» Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Faqat 1999-yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

O'zbekistonda umumiy maydoni 137150 kv.m.ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston muzeylari aholi orasida o'lkamiz tarixi, xalq amaliy san'ati asarlaridan iborat etnografik ko'rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma'naviy kamolati yo'lida xizmat qilmoqda. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey-qo'riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida ta'zim etmoqdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda O'zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi.

Sport. Mustaqillik yillarida sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi.

1992-yil 5-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari – sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o'yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va 1993-yil sentabrda xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasmiy e'tirof etildi.

Sportning boks turi jadal o'sdi. 17 marta jahon chempioni Artur Gri-goryan, Sidney Olimpiadasi chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi bokschilarimiz nomi jahonga mashhur. 1999-yil avgust oyida Ame-rikaning Xyuston shahrida o'tkazilgan X jahon chempionatida O'zbe-kiston boks komandasi 83 mamlakat o'rtasida AQSH va Kuba komanda-laridan keyin faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmuyi barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002 yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Lon-donda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik sport-chi Iroda To'laganova Uimbldon uchrashuvida g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi.

1998-yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland «Everest» cho'qqisiga ko'tarilib, O'zbekiston dovrug'ini dunyo-ga taratdilar.

Mustaqillik sharofati bilan milliy o'zbek kurashi tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xal-qaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoida-lari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999-yil may oyida Toshkentda dunyo-ning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik ku-rashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi-lar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun ja-honga taraldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezi-denti etib Islom Karimov saylandi. 2000-2002-yillarda London shahrida 3 marta Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. 2002-yil oktyabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federat-siyasi a'zoliciga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida dunyoda e'tirof topdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o'yin-lari, Jahon va Osiyo chempionatlari va boshqa musobaqalarda qatnashib, 3000 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyidi, jahon sportiga qo'shildi va xalqaro maydonda salmoqli o'rinni egalladi.

Savol va topshiriqlar

1. Siz Jamiyat ma'naviyati deganda nimalarni tushunasiz?
2. Ma'naviy meros nima?
3. Nima sababdan mamlakatimizda ma'naviy merosni tiklash, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilandi?
4. Xalqimiz ma'naviyati yulduzlaridan kimlarning tavallud sanalari nishonlandi?
5. Tarixiy xotirani tiklash deganda siz nimalarni tushunasiz?
6. Qadimiy shaharlarimiz yubileylari haqida nimalarni bilasiz?
7. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuining barpo etilishi haqida soʻzlab bering.
8. «Qatagʻon qurbonlari xotirasi» muzeyida nimalar oʻz aksini topgan?
9. Milliy qadriyatlar nima? Ularning tiklanishi haqida soʻzlab bering.
10. «Oltin meros» Xalqaro xayriya jamgʻarmasi qachon tashkil etildi? Uning faoliyati haqida soʻzlab bering.
11. Diniy qadriyatlarni tiklash yoʻlida qanday ishlar amalga oshirildi?
12. Oʻzbek tili mavqeyining mustahkamlanishi toʻgʻrisida nimalar deya olasiz?
13. Taʼlim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
14. Oʻzbekistonda taʼlim qanday turlarda amalga oshirilmoqda?
15. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi nima?
16. Birinchi bosqichda taʼlim tizimida qanday oʻzgarishlar yuz berdi?
17. «Umid» jamgʻarmasi qachon va qanday maqsadda tuzilgan?
18. Taʼlim muassasalarining xalqaro hamkorligi toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
19. Teatr sanʼati rivoji haqida nimalarni bilasiz?
20. Oʻzbek sirki haqida soʻzlab bering.
21. Milliy musiqa va qoʻshiqchiligimizning oʻsishi haqida qanday fikrdasiz?
22. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda qanday yangi muzeylar tashkil etildi?
23. Oʻzbekiston sportini rivojlantirish yoʻlida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
24. Oʻzbekiston sport yulduzlaridan kimlarning nomlarini tilga olasiz?

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-mavzu. Madaniyatshunoslik fani predmeti, metodologik asoslari va barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati.	4
1.1. Madaniyatshunoslik fani predmeti, uni o‘rganishning metodologik asoslari.....	5
1.2. Madaniyat tushunchasi, tarkibiy qismlari va vazifalari.....	8
1.3. Madaniyat va sivilizatsiya.....	13
2-mavzu. Madaniyat taraqqiyotida vorisiylik, madaniy meros, qadriyatlar kategoriyalari	16
2.1. Vorisiylik, madaniy meros kategoriyalarining madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni.....	17
2.2. Madaniyatshunoslikda qadriyat kategoriyasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar.....	18
2.3. O‘zbekistonning milliy tiklanish jarayonida madaniyatshunoslikning dolzarbligi.....	21
3-mavzu: Qadimgi Sharq madaniyati	24
3.1. Qadimgi Misr madaniyati.....	25
3.2. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.....	29
3.3. Qadimgi Hindiston madaniyati.....	32
3.4. Qadimgi Xitoy madaniyati.....	35
3.5. Qadimgi O‘rta Osiyo madaniyati.....	38
4-mavzu. Antik va o‘rta asrlar Yevropa madaniyati	42
4.1. Qadimgi Yunon madaniyati. Ellinizm.....	43
4.2. Qadimgi Rim madaniyati.....	53
4.3. O‘rta asrlardagi dunyo qiyofasi. Yevropa O‘rta asrlar madaniyati. Xristianlik dini.....	60
4.4. O‘rta asrlarda ta’lim tizimi, me’morchilik va san’at.....	66
5-mavzu. Sharq Uyg‘onish davri madaniyati	78
5.1. IX-XII asrlardagi Sharq Uyg‘onish davri va uning asosiy omillari.....	80
5.2. Islom dinining sharq madaniyatini rivojlanishidagi o‘rni.....	84
5.3. Sharq Uyg‘onish davri allomalari ijodining jahon fani ravaqidagi o‘rni.....	88
5.4. Me’morchilik va tasviriy san’at yuksalishi.....	91
5.5. Amir Temur va temuriylar madaniyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni.....	93
6-mavzu. Yevropa Uyg‘onish davri madaniyati	98
6.1. Yevropada Uyg‘onish davri madaniyati va uning asosiy	

xususiyatlari.....	99
6.2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning oqibatlari.....	100
6.3. Yevropa Uygʻonish davrining daholari: Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar.....	106
6.4. Tabiiy bilimlar va texnik taraqqiyot. N.Kopernik, D.Bruno, G.Galiley.....	108
7-mavzu. XVIII-XIX asrlarda jahon madaniyati.....	111
7.1. XVIII asrdagi maʼrifatparvarlik, demokratik jamiyat qurish gʻoyalari.....	112
7.2. Ilmiy-texnika yutuqlari va sanoat toʻntarilishi.....	114
7.3. Meʼmorchilik va sanʼat: klassitsizm, barokko, sentimentalizm uslublari.....	118
7.4. Adabiyot va tasviriy sanʼatda romantizm, realizm, impresionizm va postimpressionizm.....	120
7.5. Ommaviy madaniyat.....	126
8-mavzu. XIX-XX asr jahon madaniyati.....	129
8.1. XX asrda fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar, fan-texnika inqilobi.....	130
8.2. XX asr madaniyati: adabiyot, teatr, kino, tasviriy sanʼat, meʼmorchilik va boshqa sohalar rivoji.....	134
8.3. Sovet davrida, Oʻzbekistonda madaniy hayot.....	141
9-mavzu. Milliy istiqlol va Oʻzbekistonda madaniy taraqqiyot.	146
9.1. Milliy istiqlol davrida maʼnaviy meros, milliy va diniy qadriyatlarining tiklanishi va rivojlanishi.....	147
9.2. Mustaqillik yillarida taʼlim, badiiy adabiyot, meʼmorchilik, amaliy sanʼat, kino va televideniye sanʼatlari ravnaqi.....	153
9.3. Teatr, sirk, musiqa, qoʻshiqchilik sanʼati, muzey va sport taraqqiyoti.....	159

**Q.USMONOV, M.SODIQOV, B.KARIMOV,
Z.BOZOROV, F.ADILOV, S.TO‘LAGANOVA,
S.BURXONOVA**

MADANIYATSHUNOSLIK

o‘quv qo‘llanma

Muharrirlar: U.Karimova,
H.Teshaboyev
Kompyuterda sahifalovchi G.Nuriddinova

Bosishga ruxsat etildi 27.03.2008. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$.

Hisob-nashr tabog‘i 10,63. Adadi 300. Buyurtma №

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy

Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida rizografiya usulida chop etildi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy

